

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

AZIZ FAYZULLAYEV

**AFG‘ONISTON VA TURKIYA
RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI
DAVLATLARARO
MUNOSABATLARNING
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI
(2001–2023-yy.)**

Monografiya

Toshkent – “Donishmand ziyosi” – 2024

UO'K 327.7(581+560)
KBK 66.4(5Afg+5Tur)
F 20

Monografiya O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida siyosiy fanlar doktori, professor Sayfiddin Jo'rayev rahbarligida bajarilgan IL-5221091507 – “Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida tayyorlangan.

Loyiha ilmiy rahbari

Durbek SAYFULLAYEV – tarix fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir

A.A. Xaydarov – siyosiy fanlar doktori, professor.

Taqrizchilar:

D.I. Madaminova – siyosiy fanlar doktori, dotsent;

X.Y. Azimov – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Fayzullayev, Aziz.

Afg'oniston va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi (2001–2023-yy.) [Matn]: monografiya / A.Fayzullayev. – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2024. – 160 bet.

Mazkur monografiya Afg'oniston va Turkiya munosabatlarining tarixiy dinamikasi, unga ta'sir qiluvchi tarixiy, diniy va madaniy omillar, Turkiyaning afg'on muammosini bartaraf qilish uchun amalga oshirgan tashabbuslariga bag'ishlangan. Shuningdek, hozirgi bosqichda Afg'oniston va turkiy dunyo munosabatlarining holati, turkiy tilli davlatlarning Afg'oniston bilan iqtisodiy loyihalari, gumanitar yordamlar masalasi o'rganilgan.

*Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Ilmiy Kengashining 2024-yil 8-iyundagi 10-sonli majlis
bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

KIRISH

Xalqaro munosabatlar nazariyalariga ko'ra tarixiy, madaniy va etnik xususiyatlari bir-biriga o'xshash davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mintaqalarning rivojlanishi, umumiy xavfsizlik konsepsiyasining yaratilishi, iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyaning jadallashishi borasidagi muammolarni hal qilish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Madaniy qarashlari bir-biriga o'xshash mamlakatlar o'rtasidagi mustahkam aloqalar, shuningdek, zamonaviy chaqiriq va tahdidlarni birgalikda yengib o'tish hamda istiqboldagi muammolar bilan samarali kurashishning yagona tamoyil va mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu jihatdan kelib chiqib, ushbu monografiyaning yozilishiga asosiy sabablardan biri, birinchi navbatda, afg'on mojarosining hali hanuz bartaraf etilmasdan qolayotganligi, terroristik guruhlar faoliyatining mintqa va jahon uchun katta tahdid sifatida mavjudligi, afg'on qochqinlari oqimining ko'payishi, bir tomondan giyohvand moddalar ishlab chiqarish va tarqatishning kengayib borishi, boshqa tomondan Turkiyaning mintaqaviy yetakchi sifatidagi rolining o'sib borayotganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Bundan tashqari, mintaqadagi xavfsizlik muammolarini hal qilish kontekstida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishning xarakterli xususiyatlarini aniqlash, Afg'oniston va Turkiya ishtirokidagi asosiy mintaqaviy integratsiya jarayonlarining natijalarini ko'rib chiqish asosida istiqboldagi platformalarni yaratish bo'yicha tavsiyalar berish, Turkiya Respublikasi va Afg'oniston o'rtasidagi xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, ta'lim, fan, sog'liqni saqlash hamda madaniy-gumanitar yo'nalishdagi munosabatlarni tadqiq etish, ikkitomonlama munosabatlarda "yumshoq kuch" omilini baholash orqali, O'zbekiston tashqi siyosatida gumanitar diplomatiyaning qo'llanilishiga doir tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi geosiyosiy vaziyat uchun ayniqsa dolzarbdir.

Milliy manfaatlar mutanosibligiga erishish va mintqa davlatlari bilan strategik sheriklikni mustahkamlash, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, ikkitomonlama siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni chuqurlashtirish Turkiya va Afg'oniston tashqi siyosatining hozirgi bosqichidagi vazifalaridandir. Ushbu vazifalarni samarali tadqiq etish, xulosa va takliflar ishlab

chiqish bilan shug'ullanuvchi xorijdagi bir qator tahliliy markazlar qatorida Turkiya siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jamg'armasi – SETA, Anqara Inqiroz va siyosat tadqiqotlari markazi – ANKASAM, Turon tadqiqotlar markazi – TURANSAM kabi “aql markazlari”ning ilmiy tadqiqot faoliyatiga monografiyaning mavzusi to'la mos keladi va qaysidir ma'noda ularni to'ldiradi.

O'zbekiston Respublikasi faol tashqi siyosat yuritish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, shuningdek, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo integratsiyasi uchun afg'on muammosini bartaraf etish borasida bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. 2022-yil 26–27-iyul kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan “Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” mavzusidagi xalqaro konferensiyada prezident Sh.M.Mirziyoyev: “Mazkur konferensiya Afg'onistonning yangi hukumati bilan afg'on xalqi va butun xalqaro hamjamiyat manfaatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslangan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan amaliy fikr almashish uchun imkon yaratadi¹”, – deya Afg'oniston masalasi mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlagan edi. Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligi va iqtisodiy barqarorligini hisobga olgan holda bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga afg'on omilining mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish borasida preventiv diplomatik choralar ko'rishda Turkiyaning tarixiy tajribasidan foydalanish hamda u bilan hamkorlik qilish zaruratini tug'dirmoqda. Turkiya, Afg'oniston va Markaziy Osiyo davlatlari Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT), Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT), Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO) kabi yirik mintaqaviy platformalarda afg'on muammosini hal etish bo'yicha umumiy qarashlarga ega ekanligi yuqoridagi fikrlarning amaliy tasdiqini ko'rsatadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” mavzusidagi xalqaro konferensiya ochilishidagi nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/5377>

I BOB. AFG‘ONISTON VA TURKIYA O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING TARIXIY-NAZARIY JIHATLARI

1.1. Afg‘oniston va Turkiya o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlarni o‘rganishning nazariy-konseptual jihatlar

Turkiya va Afg‘oniston munosabatlari xalqaro munosabatlarga oid tadqiqotlarda ko‘p o‘rganilmagan mavzudir. Usmonlilar davridan beri chuqur aloqada bo‘lgan va yuz yildan buyon tadrijiy davom etib kelayotgan Turkiya va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar tarixining dinamikasini tushunish uchun xalqaro munosabatlarning ba’zi nazariyalariga murojaat qilishimiz lozim. Nazariyalar xalqaro munosabatlarning tarixini o‘rganishda tartibga soluvchi va konseptual ta’sirga ega. Ular tadqiqotchini fundamental asos bilan ta’minlash, tegishli darajadagi tahlil va yo‘nalishni tanlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, nazariyalar bizga ko‘plab hodisalarni tasniflash va tanqidiy, mantiqiy hamda izchil o‘rganish imkonini beradi.

Afg‘oniston va Turkiyaning davlatlararo aloqalarini xalqaro munosabatlarga oid nazariyalar doirasida tahlil qilish oson emas. Sababi Turkiya-Afg‘oniston munosabatlari o‘ziga xos bo‘lib, ularni o‘rgangan tadqiqotchilar mavzuni yaxshiroq tushunish uchun intellektual elementlarga va ijtimoiy xarakterlarga ham ahamiyat berishlari zarur. Afg‘oniston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarda madaniy qadriyatlar, diniy o‘xshashlik elementlari o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ushbu munosabatlarning qadriyatlar, madaniyatlar va o‘ziga xos bo‘lgan ba’zi tushunchalariga to‘xtalganda Aleksandr Vendtning “jamoaviy o‘ziga xoslik”, ya’ni ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi nazariyasini mazkur o‘rinda ko‘rib chiqishimiz mumkin bo‘ladi. Shuningdek ikki xalqlarning munosabatlari haqida gapirganda qarindoshlik madaniyati, Afg‘oniston shimoliy hududlaridagi turkiy millatga mansub odamlar bilan Turkiya o‘rtasidagi daxldorlik hislariga mos keluvchi o‘ziga xos elementlar tadqiqotchilarning e’tiborini tortadi. Bu jihatdan esa ingliz maktabining “xalqaro tartib va xalqaro jamiyatlarning aloqalarida tarixiy madaniyatga asoslangan yondashuvi” va Barri Buzanning mintaqaviy xavfsizlik yondashuvi Afg‘oniston va Turkiya munosabatlarini nazariy jihatdan yaxshiroq anglashimizga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, Turkiya-Afgʻoniston munosabatlari Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan ikkitomonlama munosabatlaridan biroz farq qilgan holda oʻziga xos tuzilishga ega. Bu ikki davlatning tarixi, dini va madaniyati mushtarakligi jihatidan ushbu xalqlar munosabatlariga alohida toʻxtalish va oʻrganishni taqozo etadi. Bu oʻziga xos munosabatlar tarixiy jarayondagi xalqaro konyunkturaga qarab ayrim davrlarda mustahkamlanib, boshqa davrlarda zaiflashgan. Ushbu maxsus munosabatni anglashga xizmat qiladigan yondashuvlardan biri Aleksandr Vendtning ijtimoiy konstruktivizm kontekstidagi “jamoaviy oʻziga xoslik” yondashuvidir.

Xalqaro munosabatlarda ijtimoiy konstruktivizm siyosiy nazariya boʻlib, ushbu taʼlimot 1990-yillarning ikkinchi yarmida keng qoʻllanila boshlaganligiga qaramasdan, aslida, 1989-yilda Florida universiteti (AQSH) siyosatshunos olimi Nikolas Onuf tomonidan fanga kiritilgan². Konstruktivistlar dunyo tartibining tuzilmalari va jahon siyosatining ishtirokchilari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni toʻliq ochib berish uchun pragmatik strategiya va tabiiy manfaatlardan kelib chiqishning oʻzi yetarli emasligini isbotlay oldilar. Har bir oʻrganilayotgan jamiyatdagi qadriyatlar tizimini tartibga soluvchi qoidalar va meʼyorlar uzluksizligi boʻlgan “manfaatlar” va “oʻziga xosliklarni” qiyosiy oʻrganish birinchi oʻringa qoʻyildi³. Ijtimoiy dunyoni ontologik tushunish konstruktivistlardan sotsiologik, lingvistik, qiyosiy siyosatshunoslik va qiyosiy tarixiy usullarni birlashtirishni talab qildi. Konstruktivistik metodologiyaning rivojlanishiga Aleksandr Vendtning tadqiqotlari sezilarli taʼsir koʻrsatdi. A. Vendt xalqaro munosabatlarda realistlik nazariyaning ahamiyatini inkor etmadi, balki xalqaro tuzilmalar nafaqat moddiy, balki jamiyatning gʻoyaviy omillari tufayli ham shakllanishini va ushbu omillar koʻpincha uzoqroq va chuqurroq taʼsirga ega ekanligini taʼkidlaydi⁴. Ijtimoiy konstruktivizmga doir adabiyotlarda keltirilishicha, mamlakatlarning diniy, madaniy va etnik omillar jihatidan bogʻliqligi yoki oʻxshashligi davlatning tashqi munosabatlariga biz oʻylaganimizdan-da chuqurroq taʼsir

² Павленко О.В. Конструктивистский подход к исследованию международных отношений: возможности и пределы. <https://cyberleninka.ru/article/n/konstruktivistskiy-podhod-k-issledovaniyu-mezhdunarodnyh-otnosheniy-vozmozhnosti-i-predely-1>

³ Onuf N. Constructivismus: A User's Manual // International Relations in a Constructed World / Ed. by V. Kubalkova, N. Onuf, P. Kowert. Armonk; N. Y., 1998. – P.64.

⁴ Z.Mengshu, A Brief Overview of Alexander Wendt's Constructivism: E-International Relations // <https://www.e-ir.info/2020/05/19/a-brief-overview-of-alexander-wendts-constructivism/>

qiladi. Konstruktivistlar xalqaro munosabatlarda me'yorlar, g'oyalar, bilim va madaniyat kabi nomoddiy omillarni tekshirishga e'tibor qaratdilar⁵. Asli avstriyalik siyosatshunos Jon Ruggi konstruktivizmni "inson ongi va uning xalqaro hayotdagi mavqeyi" deb ta'riflaydi. Eng umumiy darajada konstruktivizm xalqaro munosabatlarga ijtimoiy tahliliy jihatdan yondashishdir. Unga ko'ra siyosiy liderlarning o'zaro bir-biriga ta'siri moddiy omillar ta'sirida emas, birinchi navbatda g'oyaviy omillar natijasida shakllanadi. Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi talqiniga ko'ra eng muhim g'oyaviy omillarning shakllanishida "subyektlararo e'tiqodlar" birlamchi xususiyatga ega. Bu e'tiqodlar aktyorlarning o'ziga xosligi va manfaatlarini shakllantiradi⁶. Shunga ko'ra, xalqaro munosabatlarni o'rganishda konstruktivizmning ahamiyati va qo'shimcha qiymati ancha yuqoriligini ko'rsatadi.

Ushbu nazariyani ko'rib chiqishga sabab sifatida xalqaro munosabatlarga doir boshqa nazariyalar ko'pincha murakkab motivlarni, afsonalarni, mantiqiy yoki g'oyaviy xususiyatlarni uchinchi dunyo davlatlarining evolyutsiyasiga ta'siri masalalari e'tiborsiz qoldirilganligi bilan belgilashimiz mumkin. Masalan, amerikalik tadqiqotchi D. Puchalanning so'zlariga ko'ra, "Xalqaro munosabatlar kuch siyosatiga shunchalik berilib ketganki, u uchinchi dunyo xatti-harakatlarining madaniy va g'oyaviy tushunchalarining kuchliligini e'tiborsiz qoldiradi"⁷. Haqiqatan ham ushbu nazariy qarashlar bizning mavzuni o'rganishda o'zgacha ahamiyatga ega. Chunki Afg'oniston va Turkiya munosabatlarining qonuniy asosi yaratilish tarixiga nazar tashlasak, Afg'oniston hukmdori Omonullaxon Turkiyaga o'zgacha kuchli xayrixohlikni ko'rsatgan. 1924-yilda Turkiya respublika maqomiga erishgach xorijiy davlat rahbari sifatida aynan Omonullaxon Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrif uyushtirgan birinchi xorijiy davlat rahbari edi. Ayni damda M.K.Otaturk vafotiga qadar afg'on amiridan boshqa davlat rahbarlari Turkiyaga tashrif buyurmagan. O'z navbatida, uning Turkiyaga nisbatan bu "muhabbati"ning shakllanishida Turkiyada uzoq yillar yasha-

⁵ M.Finnemore, K. Sikkink, Taking stock: The constructivist research program in international relations and comparative politics // *Annual Review of Political Science*, 2001. N 4. – P.394.

⁶ J.G.Ruggie, What makes the world hang together? Neo-utilitarianism and the social constructivist challenge // *International Organization*. – 1998. Volume 52, N.4. – P.855-885.

⁷ Donald J. Puchala, "Third World Thinking and Contemporary International Relations", in Stephanie G. Neumann (ed), *International Relations Theory and the Third World*, London: Macmillan, 1998

gan Muhammad Tarziyning ma'naviy ta'siri kuchli edi⁸. Bu jarayonlar shakllanishi haqiqiy konstruktivizmning ko'rinishiga misol bo'lish bilan birga unga ko'ra asosiy e'tibor o'yinchilarning har birining ijtimoiy tabiatiga qaratilishi va bu ijtimoiy xarakter siyosiy xulq-atvor uslubini belgilab berishini anglatadi. A.Vendtning fikricha, tarixiy tajribani idrok etishda o'yinchilarning xatti-harakatlaridagi ichki motivlarini, tashqi manfaatlar va ularning o'ziga xosligi o'rtasidagi munosabatlarini tushunish muhim hisoblanadi⁹. Ya'ni xalqaro munosabatlarning muhim jihatlarini faqatgina moddiy omillardan iborat bo'lmasdan, balki tarixiy va ijtimoiy jihatdan qurilgan g'oyaviy omillar tomonidan shakllantirilishini ta'kidlaydi.

Ko'pgina xalqaro munosabatlar nazariyalari ayniqsa neorealizm va liberalizm nazariyalarida ancha materialistik kayfiyat nihoyatda ustuvorlikka ega. Ya'ni liberalizm va realizm namoyandalari xalqaro munosabatlarda kuch siyosati asosiy ro'l o'ynashini va moddiylik katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi. Unga ko'ra armiya quvvati, zamonaviy qurol-yarog'lar, valyuta va oltin zaxirasi, kuchli iqtisod, energetika resurslari va korporatsiyalar xalqaro munosabatlarni shakllantiruvchi birlamchi vositalar sifatida izohlanadi.

R.Jekson va G.Sorensen kabi amerikalik nazariyotchilar konstruktivistik nazariya xalqaro tizim me'yorlar asosida qurilganligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotiga ko'ra: "Ijtimoiy me'yorlar muayyan jamoalardagi ishtirokchilarning harakatlari va e'tiqodlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy tuzilmaning tarkibiy elementlari sifatida qaraladi. Bu me'yorlar xalqaro munosabatlardagi ishtirokchilarning o'ziga xosligi va manfaatlarini shakllantiradi"¹⁰. Tashqi siyosat qoidalarini va davlatlarning rollariga ta'sir qiluvchi bu normalar konstruktivizmning asosiy siyosatini ifodalaydi. Davlatlarning tashqi siyosat qoidalarini shakllantiradigan ushbu normalar xalqaro tizimning hozirgi holatiga qarab vaqt o'tishi bilan farq qilishi mumkinligini hisobga olgan holda, Turkiya tashqi siyosati ko'pqirrali, faol va ritmik bo'lish jarayonlarida xalqaro normani ham o'zgartirdi¹¹. 2001-yil hodisalaridan

⁸ Бобокулов И.И. Афғонистон. Луғат-маълумотнома. – Т.: COMPLEX PRINT, 2021. – Б.179.

⁹ Wendt A. Anarchy is What States Make of it // International Organization. – 1992. № 46. Vol 2. – P.394.

¹⁰ Jackson R., Sorensen G. Introduction to International Relations Theories and Approaches. – UK: Oxford University Press. – 2006. – P.168

¹¹ K.İnat, B. Duran AKP Dış Politikası: Teori ve Uygulama, Demokrasi Platformu, – 2008 1(4), (S. 5-6)

keyingi xavfsizlik-demokratiklashtirish dilemmasi paytida Turkiya demokratiya va ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan o'zining demokratik tajribasini bir qator davlat va nodavlat tuzilmalari orqali Afg'onistonga olib keldi. Shu jihatdan aytish mumkinki, Afg'oniston-Turkiya munosabatlari institutlar, fuqarolik jamiyati hamda xalqlar darajasida rivojlangan va bu omillar yuqoridagi nazariyani amaliy tekshirishga yo'l ochadi. Konstruktivizmga ko'ra, siyosatchilar o'z hamkasblari bilan o'zaro yaqin munosabatda bo'lganligi sababli, manfaatlar aktorlarning o'zlari tomonidan quriladi va o'zgartiriladi¹².

Konstruktivistlarning fikriga ko'ra, manfaatlar ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali shakllanadi, xalqaro va mahalliy me'yorlar hamda qadriyatlar kontekstida belgilanadi. Konstruktivizmga ko'ra, siyosiy manfaatlar milliy va ijtimoiy-madaniy qurilish jarayonlaridan so'ng shakllanadi. Ushbu kontekstga misol tariqasida afg'onlar Turkiyaning antiimperialistik kurashga qo'shilish chaqirig'iga teng samimiylilik va qo'llab-quvvatlash bilan javob berganliklarini misol sifatida aytish mumkin. O'sha paytda Turkiyada tahsil olgan afg'on yoshlari va Afg'onistondan to'g'ridan to'g'ri kelgan piyoda vzwodlar Turkiya qo'shinlari safida Anadolu urushiga qo'shilgan. Bundan tashqari, ko'plab afg'onlar mamlakatning qashshoqligiga qaramay, Turkiyaning urush harakatlariga kichik xayriya hissalarini qo'shgan. Yoki 2023-yilda Turkiya g'arbida bo'lgan 7,8 balli zilzila natijasida vayron bo'lgan ma'muriy birliklarga Tolibon hukumatidan ham gumanitar yordamlar keldi¹³. Turkiya hali ham mustaqillik uchun keng ko'lamli urush olib borayotgan bir paytda, 1921-yil 1-martda Anqara hukumati tomonidan qabul qilingan Ittifoq shartnomasi asosida Afg'oniston Turkiya bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatdi. Afg'oniston Turkiya bilan diplomatik aloqa o'rnatgan birinchi (ba'zi manbalarda ikkinchi, Armanistondan keyin) davlat bo'ldi¹⁴. O'z navbatida, Kobulda ham yangi turk davlatining birinchi elchixonasi ochildi va bu mustaqil Afg'onistonda ochilgan birinchi diplomatik korpus edi.

¹² Hurd I. Constructivism, Oxford Handbook of International Relations, Duncan Snidal and Christian Reus-Smit(eds). – 2008. London, Oxford University Press. – P.302.

¹³ Газета Известия. 07.02.2023 г. №22 https://cdn.iz.ru/sites/default/files/pdf/2023/07_02_2023.pdf

¹⁴ M. Eksi, Turkey's increasing role in Afghanistan // Journal of Global Analysis. 2010. – P.144.

Ajoyib ittifoqchi sifatida Afgʻoniston har doim Turkiyaning omon qolishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha izchil majburiyatlarni taklif qilgan. Jumladan, 1921-yil 31-iyulda Turkiya hukumati sharafiga berilgan kechki ovqatda afgʻon elchisi turk diplomatlari oldida agar Angliya Turkiyaga qarshi urush boshlashga jurʼat etsa, Afgʻoniston Londonga urush eʼlon qilish bilan ochiq tahdid qilgan. Uning qoʻshimcha qilishicha, agar inglizlar yunonlarga yashirincha yordam berishni davom ettiradigan boʻlsa, Afgʻoniston Hindistonning shimoli-gʻarbiy chegarasida tartibsizliklar keltirib chiqarish uchun chegara qabilalardan foydalanadi¹⁵. Ushbu dalillar konstruktivizm nazariyasi afgʻon-turk munosabatlariga nechogʻlik mos kelishi koʻrsatadi. Qolaversa, M.K.Otaturk va Afgʻoniston hukmdori Omonullaxonning siyosiy aloqalarida shaxslar dunyoqarashining oʻxshashligi va ularning bir-biriga boʻlgan doʻstlik bogʻlamlarini ikki davlat oʻrtasidagi siyosiy, iqtisodiy va chuqur madaniy aloqalarda koʻrishimiz mumkin. Va bu aloqalarning vorislikka asoslanganligi bugungi kunga qadar Turkiya elitesining nutqlarida tez-tez uchrab turadi¹⁶. Bu tomondan ushbu munosabatlar ijtimoiy konstruktivizm elementlarini oʻzida mujassam etadi.

A.Vendt yondashuvlarini oʻrganib chiqib xulosa qilish mumkinki, Turkiyaning Afgʻoniston va Markaziy Osiyodagi iqtisodiy faoliyati xalq va davlat oʻrtasidagi munosabatlarning ijobiy aksi boʻlib, bu mamlakatdagi turk kompaniyalari tomonidan mintaqa aholisini ish bilan taʼminlaganligi moddiy imkoniyatlarning ijtimoiy koʻrinishi sifatida tushunilishi mumkin¹⁷.

Turkiya tashqi siyosatida ustuvor yoʻnalishlaridan biri milliy oʻzlik tushunchasini keng targʻib qilishdir. Turkiya Respublikasi tashkil topganligining uchinchi oʻnyilligida sovetlar tahdidi natijasida Gʻarb ittifoqiga qoʻshilish va NATO ni xavfsizlik soyaboni sifatida koʻrilishi Turkiyaning Gʻarb bilan aloqalarida ustuvor ahamiyat kasb etgan. Sovuq urush davrida NATO aʼzosi boʻlgan Turkiya institutsional jihatdan gʻarb modelini tanladi. Shu nuqtayi nazardan Turkiyaning Afgʻoniston bilan munosabatlarida vaq-

¹⁵ Appreciating Turkey's Afghanistan Policy:

<https://www.cirsd.org/en/horizons/horizons-winter-issue-20/appreciating-turkeys--afghanistan-policy>

¹⁶ Вступительная речь министра иностранных дел Турецкой Республики Мевлюта Чавушоглу на 13-ой конференции послов, 8 августа 2022 г., Анкара (Murojaat qilingan sana 27.02.2023) https://www.mfa.gov.tr/data/BAKAN/bkon_2022_ru.pdf

¹⁷ Wendt A. E. Anarşi Devletler Ne Anliyorsa Odur: Güç Politikalarının Sosyal İnşası // Uluslararası İlişkiler. Cilt 10. Seyi 39. (3-43).

tinchalik turg'unlik kuzatildi. Sobiq Ittifoq parchalangandan keyin Turkiya Markaziy Osiyo va unga tutash Afg'oniston bilan munosabatlarda yevrosiyochilik, neo-usmoniylik va panislomchilik tamoyillari oldingi o'ringa chiqdi. Ahmet Dovuto'g'li tomonidan AK Partiya davrida ilgari surilgan, bir davlatning qiymati o'zining geosiyosiy mavqeyi va tarixiy chuqurligiga e'tibor qaratgan "Strategik chuqurlik" doktrinasi doirasida Turkiyaning tarixiy va geografik chuqurligidan tashqi siyosatda foydalanishga e'tibor qaratdi va madaniyati, tarixi, geosiyosiy joylashuviga asoslangan "yumshoq kuch" salohiyatini vositachilik va TIKAning tashqi yordami orqali amaliyotga tatbiq etildi. Shu o'rinda Turkiya tashqi siyosatida qadriyatlar va me'yorlar ustuvorligini ko'rsatgan holda Afg'oniston bilan tarixiy va madaniy o'ziga xoslikni ta'kidlab, munosabatlarda "yumshoq kuch" omillaridan foydalanishni ma'qul ko'rdi¹⁸.

Umuman olib qaraganda, ushbu ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarining nazariy konseptual jihatlarini o'rganar ekanmiz, A.Vendt xalqaro tuzilmalarning shakllanishida neorealistlarning moddiy kuch qobiliyatlariga haddan ortiq ko'p urg'u berganini tanqid qilganiga guvoh bo'lamiz. Yoki A.Vendtning "Neo-liberallarning xalqaro aloqalar rivojlanib borishida ular o'ylaganchalik faqat kuch va siyosiy institutlar muhim ro'l o'ynamasdan, ko'plab hissiy va abstrakt omillar ham mavjudligini unutmaslik lozim"¹⁹, – degan fikri haqiqat ekanligi munosabatlarning madaniy jihatlariga e'tibor qilishga undaydi. Bu jihatdan Turkiya-Afg'oniston munosabatlari A.Vendt terminologiyasiga mos kelib, bu aloqalar o'ziga xos jamoaviy o'xshashliklarga egaligi namoyon bo'ladi. Moddiy elementlarga berilgan ta'rif A.Vendtning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasida muhim o'rin tutadi va "jamoaviy o'zlik" va "umumiy kelajak" tushunchalari Afg'oniston-Turkiya munosabatlariga ma'no beradi. A.Vendt tomonidan qo'llangan jamoaviy o'ziga xoslik xususiyatlarini vujudga keltiruvchi yaratuvchi "umumiy taqdir", "o'zaro bog'liqlik", "bixillik",

¹⁸ Akıllı, E. (2014). Ak Parti Dönemi Dış Politikada devlet Kimliği Ve "Yumuşak Güç", Türk Dış Politikası Yıllığı 2013, Burhanettin Duran, Kemal İnät, Ali Balcı (Ed.) İstanbul: SETA. (S.89-115)

¹⁹ Wendt, A. (2016). Uluslararası Siyasetin Sosyal Teorisi. (çev. H.S.Ertem, Ömer İhlamur, G.S) İstanbul: Küre Yayınları. S.20 Türk Dış Politikası Yıllığı 2013, Burhanettin Duran, Kemal İnät, Ali Balcı (Ed.) İstanbul: SETA. (S.89-115) S.Guzinni, A. Leander Constructivism and International Relations: Alexander Wendt and his Critics // The New International Relations. – 2006. – P.79

“o‘zini o‘zi cheklash” kabi tushunchalar bu ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish uchun yaxshi vositadir²⁰.

Bu yondashuvni Angliya va Shimoliy Koreya misolida ko‘rsatgan A. Vendtning aytishicha, beshta yadro kallaklariga ega Shimoliy Koreya besh yuzta yadro quroliga ega bo‘lgan Buyuk Britaniya nisbatan Amerika va uning xalqi uchun tajovuzkorroq deb hisoblanadi. Bu e‘tiqod rivojlanish tarixidagi o‘xshashliklar, ijtimoiy tafakkurning yaqinligi hamda bir xil qadriyatlar talqiniga asoslanadi va Shimoliy Koreya bilan urush ehtimolini yaratadi. Buning sababi shundaki, umumiy ma‘lumotlar va g‘oyalar kontekstida Shimoliy Koreya dushman, Angliya esa do‘st davlat sifatida qabul qilinadi²¹. Kollektiv o‘ziga xoslikka ega deb hisoblagan bu ikki davlat ba‘zi masalalarda birgalikda harakat qilishi yoki bir-biriga qarshi olib borayotgan siyosatlarida moddiy omillarni e‘tiborsiz qoldirib, o‘zlarini cheklashlari mumkin. “Umumiy ma‘no” kontekstida aktorlar xalqaro muhitda “do‘st”, “dushman”, “raqib”, “ittifoqchi” va boshqa sifatlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu qarashlar natijasiga ko‘ra Afg‘oniston Turkiyaning tashqi siyosatida do‘st mamlakat sifatida tarixan o‘ziga xos o‘rin egallagan. O‘z navbatida, Turkiya ham Afg‘oniston va uning xalqi nazarida suyanish va ishonish mumkin bo‘lgan ittifoqchi davlatlar qatoriga kiradi. Vendt xalqaro tuzilma avvalambor aktorlar tomonidan quriladi, deb ta‘kidlaydi²². Demak, xalqaro munosabatlarni ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi asosida tadqiq qiladigan bo‘lsak, avvalo siyosiy aktorning shaxsi uning qiziqishini, qiziqishi esa uning harakatini yuzaga keltirishini tushunishimiz kerak bo‘ladi. Shunday ekan, xalqaro munosabatlarni tahlil qilish kerak bo‘lsa, aktorlarning xatti-harakatlariga sabab bo‘lgan shaxsiyatini ham tahlil qilish foydali bo‘ladi.

Ijtimoiy konstruktivizmning tarkibiy qismi bo‘lgan “umumiy taqdir” masalasiga ko‘ra ikkita davlatning mavjudligiga uchinchi bir mamlakat tahdid sifatida ko‘rilsa, bu birgalikda harakat qilish tushunchasini keltirib chiqaradi. Afg‘oniston va Turkiyaning mustamlakachilikka qarshi umumiy

²⁰ Jill Steans, Lloyd Pettiford, Thomas Diez and Imad El-Anis *An Introduction to International Relations Theory Perspectives and Themes* // British Library Cataloguing-in-Publication Data. – 2010. – P.206.

²¹ Jackson. R and Sorensen G. *“Introduction to International Relations Theories and Approaches”*. Oxford Press. – 2013. – P.212.

²² Wendt A. *The Agent-structure Problem in International Relations Theory*, – 1987. *International Organizations*, vol.1 41(3), – P.350

uyg'un qarashlari va ikki mamlakatning Angliya tahdidiga qarshi suverenitet uchun kurashi Vendtning "umumiy taqdir" tushunchasiga misoldir²³. Masalan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buyuk Britaniya, Rossiya va Eronning ikki davlat uchun ham tahdid sifatidagi pozitsiyasi va umumiy dushmanlik omilini idrok etish Afg'oniston va Turkiyaning yaqin munosabatlari nuqtayi nazaridan yuqoridagi nazariya ta'rifiga mos keladi. Chor Rossiyasining (keyinroq SSSR) O'rta Osiyoga bosqini arafasida Turkiya va Afg'oniston o'rtasidagi yozishmalarda Turkiy va musulmon bo'lgan mintaqada davlatlarini qo'llab-quvvatlash masalasining kun tartibiga chiqishi yoki Angliya va Gretsiyaning Turkiyaga bostirib kirishi jarayonida Afg'oniston elchisining "biz Turkiya bilan doim birgamiz, kerak bo'lsa birgalikda jang qilamiz"²⁴, degan gaplari madaniyatlararo mushtaraklikning davlatlar tashqi siyosatida nechog'lik muhimligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, institutsional "birxillik" yoki o'xshashlik omillariga ko'ra Usmoniylar davlati va Afg'onistonda hanafiy mazhabining umumiyligi, asosiy qonun ekanligini tan olgan holda afg'on huquqiy normalari va qomuslari usmonli turk mutaxassislari ta'sirida o'xshash ong va mantiqqa ega bo'lgan²⁵. Tarixda Afg'oniston va Turkiyadagi qonunlar hamda tizimlar o'xshash tafakkur bilan yaratilganligi konstruktivizmning ijtimoiy hayotdagi g'oyalar o'xshashligi konsepsiyasi o'z in'ikosini ko'rsatishini isbotlaydi. Buni 1921-yildagi 10 moddadan iborat bo'lgan afg'on-turk do'stlik shartnomasi mazmunidan ham ko'rish mumkin. Qolaversa, ushbu diplomatik hujjatning 2-moddasida yangi tuzilgan Buxoro va Xiva davlatlariga yordam berish masalasi yuzasidan alohida band kiritilgan²⁶. Bu birxillik va yagona taqdir kontekstiga mos keladi.

Vendtning jamoaviy o'ziga xoslik elementlari bo'lgan umumiy taqdir, o'zaro bog'liqlik va o'z-o'zini cheklash tushunchalari Turkiya-Afg'oniston munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Bu yerda jamoaviy o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan ifodalamoqchi bo'lganimiz, bu elementlar birgalikda yoki

²³ Wendt, A. Uluslararası Siyasetin Sosyal Teorisi. İstanbul: Küre Yayınları. – 2016. – S.425

²⁴ Akbaş İ. Afgan krali Emanullah han'in Türkiye gezisi // ÇTTAD,VII/16-17, 2008. – S.317.

²⁵ Kaya G. Türkiye-Afganistan ilişkileri. Yüksek lisans tezi. Ocak, 2019. – S.46

²⁶ Özlü H. "Türk-afgan dostluk ve işbirliği anlaşması" kapsamında Atatürk dönemi Türkiye-Afganistan ilişkilerine bakiş // Uluslararası Avrasya Sosyal Bilimler Dergisi. № 3, 2012. – S.6.

yakka tartibda harakat qiladigan va qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlaydigan ayrim hollarda birlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Afg'oniston va Turkiya munosabatlarini xalqaro munosabatlarning nazariyalari kontekstida ko'rib chiqar ekanmiz, aloqalarda ingliz maktabi nazariyasining elementlarini ham uchratamiz. Ingliz maktabi kelib chiqishi 1930-yillarning oxiriga to'g'ri keladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Britaniya xalqaro siyosiy nazariya qo'mitasi atrofida birlashgan olimlarning faoliyati natijasida shakllangan. Bu o'rinda ingliz maktabi a'zolari Martin Uayt va Xedli Bull tadqiqotlariga nazar tashlashimiz kerak bo'ladi. Ingliz maktabining ushbu vakillari e'tiborni *xalqaro tizim* va *xalqaro hamjamiyat* tushunchalariga qaratadi. Unga ko'ra xalqaro tizim ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida yetarlicha aloqa bo'lgan va bir-birlarining qarorlariga ta'sir ko'rsatishi bilanoq vujudga keladi. Martin Uaytga ko'ra xalqaro hamjamiyatning mavjudligiga ishora qiluvchi eng katta omil xalqaro huquq ekanligini va xalqaro hamjamiyatning shakllanishi uchun davlatlar o'rtasida umumiy manfaat va ma'lum bir madaniy birlik bo'lishi kerakligini ta'kidlanadi²⁷. Uayt fikricha, xalqaro munosabatlarda umumiy manfaatlar, institutlar va qoidalarni yetarli deb bilgan holda, xalqaro jamiyatni ushbu elementlardan tashqari a'zolar o'rtasida madaniy birxilliklarsiz shakllantirib bo'lmaydi. Ya'ni umumiy madaniyatga asoslangan shaxslar o'rtasidagi an'anaviy va hissiy aloqalar xalqaro hamjamiyatni tashkil qiladi.

Afg'oniston va Turkiya munosabatlari Britaniya maktabi nazariyasidan foydalanib tahlil qilish uchun ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik nazariy birligi bo'lgan xalqaro hamjamiyat bilan mos bo'lishi kerak. Buni ikki davlat o'rtasida mushtarak madaniyat mavjudligi ham isbotlash mumkin. Bu xalqaro jamiyatning shakllanishiga yordam beradi, chunki u umumiy madaniyat, oson muloqot va bir-birining ijtimoiy holatidan yaqinroq xabardorlik tomonlar o'rtasida o'zaro tushunish hissini paydo qiladi. Umumiy madaniyat umumiy qoidalarni aniqlashni va umumiy institutlar evolyutsiyasini osonlashtiradi. Nega Turkiya Afg'oniston tashqi siyosatida muhim ak-torga aylandi? Turkiya Afg'onistonga qanday ta'sir qildi? Bunday savollar davlatlararo munosabatlarga tegishli ekan, tarixiy ildizlarga tayanish zarurati tug'iladi. Uaytning 1977-yilda nashr etilgan tadqiqotida Qadimgi Xitoy, Yunon-Rim va zamonaviy davlatlar hamjamiyatini o'rganib chiqib, ularning har biri diniy va madaniy birlikka ega bo'lgan mintaqada mavjud bo'lganligini aytdi. O'zini o'zgalardan ustun deb bilish hissi ular o'rtasidagi muloqot-

²⁷ Wight M. Power Politics. – London: Penguin, 1977. – P. 106,107.

ni kuchaytirdi. Uayt bu yerda madaniy birlik tuygʻusini himoya qildi va bu ularni xalqaro hamjamiyatda birlashtirgan huquqlarni aniqlashni osonlashtirganini taʼkidladi²⁸. Ilmiy adabiyotlarga sotsiologiya sohasi olimlari tomonidan olib kirilgan qarindoshlik tushunchasi, ingliz maktabining xalqaro jamiyatning madaniyatga asoslangan yondashuvi misolida qarindosh davlatlar oʻrtasidagi alohida munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Bu yerda tushuntirilishi kerak boʻlgan narsa Turkiya-Afgʻoniston munosabatlarida “qarindoshlik” va “maxsus munosabatlar” tushunchalarining qanday paydo boʻlganligidir. Bu nazariya vakillarning fikriga koʻra, qarindoshlar – bu tarixiy kelib chiqish, umumiy madaniyat va umumiy manfaatlarga asoslangan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni davom ettiradigan kelib chiqishi bir xil odamlardir²⁹. Madaniyatlar, davrlar va ijtimoiy kelib chiqishlarda qarindoshlarning “bir-birining borligʻida ichki ishtiroki” tuygʻusi shundaki, ular borliqning oʻzaro munosabatlarini baham koʻrishadi. Inson hayotining asosiy tashkil etuvchi tamoyillaridan boʻlgan qarindoshlik tushunchasi bilan sotsiologiya sohasida tadqiqotlar mavjud boʻlsa-da, uning xalqaro siyosat va munosabatlardagi oʻrni va taʼsiriga oid tadqiqotlar kam. Davlat oʻrtasidagi munosabatlarni belgilashda qarindoshlik munosabatlarini qoʻshsak, siyosiy dinamikaga ham taʼsir qilgan boʻlamiz. Qarindoshlik bizga xalqaro maydondagi ishtirokchilar oʻrtasidagi munosabatlarni tashkil qilish va tushunishga yordam beradi, shuningdek, iyerarxiyadagi obyektlar bir-biri bilan qanday bogʻliqligini va bu mantiq tabiiy va ijtimoiy jihatdan qanday sodir boʻlishini tushunishga koʻmaklashadi.

AK Partiya davrida musulmon va turk mamlakatlari Turkiya tashqi siyosatida “doʻst”, “birodarlar”, “qarindoshlar”, “bir sivilizatsiya aʼzolari” sifatida tilga olinib, bu doirada hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ushbu mamlakatlar bilan amalga oshirilishi lozim boʻlgan alohida tashqi siyosat yuritilishi taʼkidlangan³⁰. Afgʻoniston va Turkiya oʻrtasidagi bu alohida munosabatlar bir-birini qarindosh sifatida qabul qilish natijasidir. Xulosa qi-

²⁸ A. Linklater The English School conception of International Society: reflections on Western and Non-Western perspectives // *Ritsumeikan Annual Review of International Studies*. – 2010. Vol 9. – P.5.

²⁹ Gabriel Sheffer, <https://pesd.princeton.edu/?q=node/253>. (Murojaat qilingan sana 28.02.2023)

³⁰ Sunar, B. Adalet Ve Kalkınma Partisi’nin Dış Politika Söyleminde Temalar: Türkiye Bülteni Üzerine Bir İnceleme, Süleyman Demirel Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi. – 2013 18(3). – S.436.

lib aytganda, qardosh-urug‘ davlatlar o‘z munosabatlarini yo‘lga qo‘yishga harakat qiladigan, umumiy etnik kelib chiqishi, umumiy tili, madaniyati, dinning mushtarakligi, ajdodlar umumiyligiga asoslangan tarixiy munosabatlariga ega bo‘lgan davlatlardir. Turkiya Afg‘onistonga nisbatan munosabatlarda qarindoshlik tushunchasini siyosiy lashtirdi. Bu konsepsiya rahbarlarning g‘oyalari, diplomatik nutqi va amaliyotida o‘z o‘rnini topdi. Ahmet Davuto‘g‘li, sivilizatsiya milliy o‘zlikdan xabardor bo‘lish tarixiy shakllanish sifatida paydo bo‘lgan o‘zlikni tan olish orqali bo‘lishi mumkinligini ta’kidlab: “O‘ziga xoslik chegaralar bilan cheklanmagan, balki tegishlilik hissiyoti va yurak rishtalari bilan chizilishi mumkin bo‘lgan hissiy elementlardir. Afg‘oniston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarni xuddi shunday tushuntirish mumkin³¹”, – deya izohladi. Turkiyaning qo‘shni va mintaqa davlatlari bilan aloqalari tashqi siyosatda irq, til, mushtarak o‘tmish va diniy rishtalarni hisobga olgan holda olib borayotgan tashqi siyosatda qarindoshlik omillariga urg‘u berilgan holda munosabatlar olib borilmoqda, deyish mumkin. Bu doirada Turkiyaning Pokiston, Afg‘oniston, Malayziya kabi davlatlar bilan aloqalari va o‘zaro ijobiy his-tuyg‘ularning mavjudligi diniy birodarlik asosida tushuntirilishi mumkin. Turkiya Prezidenti Erdog‘anning ham nutqlaridan bularni anglash mumkin: “Eski do‘stimiz, azaliy qardoshimiz Afg‘oniston bilan hamkorlikka katta ahamiyat beramiz. Afg‘oniston juda og‘ir jarohatlar oldi va biz bu yaralarni davolash uchun choralar ko‘rishda davom etamiz. Qurolli kuchlarimiz Kobul va boshqa shaharlarda eng boshidan xavfsizlikka hissa qo‘shish uchun o‘z o‘rnini egalladi. Ma’lumki, ayni damda u yerda delegatsiyamiz bor va afg‘on birodarlarimiz qanday xronologik tuzilma belgilagan bo‘lsa, oxirigacha u yerda qolishda davom etamiz. Qachonki “xo‘p” deyilsa, biz askarlarimizni olib ketamiz”, – dedi Turkiyaning amaldagi rahbari³².

Evolutsion jarayonlar va tarixiy sotsiologiyaga e’tibor qaratgan ingliz maktabi Turkiya-Afg‘oniston munosabatlarini shakllantiradigan tarixiy aloqalarni o‘rganishga katta e’tibor beradi. Ingliz maktabi tarix davomida zamonaviy xalqaro jamiyatning evolyutsiyasi bilan shug‘ullanganligi sababli, bu yerda asosiy e’tibor ikki mamlakat o‘rtasidagi tarixiy qarindoshlik munosabatlarini ochib beruvchi umumiy madaniyat va umumiy qadriyatlarga qaratiladi. Tarixiy yondashuvni o‘rganish suveren davlatlarning

³¹ G. Kaya. Türkiye-Afganistan ilişkileri. Yüksek lisans tezi. – Ocak 2019. – S.13

³² G. Kaya. Türkiye-Afganistan ilişkileri. Yüksek lisans tezi. – Ocak 2019. – S.13

rivojlanish xarakterini, qarindoshlik unsurini o'rganish esa davlat, millat va hukmronlikning qanday birlashganligini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Afg'oniston bilan qarindoshlik aloqalarini belgilab beruvchi davomiylikni Usmonlilar davridan kuzatish mumkin. Birinchi jahon urushidan keyin har ikki davlatning antiimperialistik munosabati, umumiy madaniyat va qarindoshlik munosabatlari birinchi o'ringa chiqqan boshladi. Omonullaxonning islohot paketlari va Turkiyani namunalik davlat sifatida qabul qilishi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni jadallashtirgan. Qarindoshlik mas'uliyat va majburiyatlar bilan birga keladi. Turkiya Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosatida mamlakatda barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni tartibga solish, mintaqaning tinchligini ta'minlash nuqtayi nazaridan bu burchini bajarishga harakat qilayotganligini keyingi boblarda batafsil ko'rib chiqamiz.

Turkiya Afg'oniston bilan xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham alohida va o'ziga xos yondashuvlarga ega. Turkiyaning Afg'oniston xavfsizligi uchun harakatlarini tushunish va tushuntirish uchun Kopengagen maktabi a'zolari bo'lmish Barri Buzan va Ole Waever yaratgan "mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasi"dan foydalanishimiz mumkin. Ushbu mualliflar "Mintaqalar va kuchlar: Xalqaro xavfsizlikning tuzilishi"³³ nomli kitoblari mintaqaviy xavfsizlik nazariyasi tahdidlarni birga hal qilish uchun mahalliy xavfsizlik modelini taklif etadi, bu esa har qanday mintaqadagi voqealarni bir nuqtaga qadar tahlil qilish, bashorat qilish va tushuntirish imkonini beradi. Xalqaro siyosatning global va mintaqaviy darajalari o'rtasidagi bog'liqlik hamisha xalqaro munosabatlar nazariyasida to'siqlardan biri bo'lib kelgan. Aksariyat olimlar diqqatini global jahon siyosiy jarayonlariga qaratadilar, bu bilan mintaqaviy xususiyatlarni e'tiborsiz qoldiradilar yoki muayyan mintaqaga singib ketadilar, bu esa ko'pincha global tizimli kontekstni yetarlicha baholamaslikka olib keladi. Aksincha, global va mintaqaviy jihatlar bir vaqtning o'zida yaxlit xavfsizlikni yaratishi mumkin. Mintaqaviy xavfsizlik tadqiqotlari uchun tahliliy asosni taqdim etgan Buzan mintaqaviy xavfsizlik munosabatlarini davlat va tizim darajasida tekshiradi hamda xavfsizlikda o'zaro bog'liqlik borligini da'vo qiladi. Unga ko'ra mintaqadagi har bir aktorning xavfsizligi boshqa ishtirokchilarning xavfsizligi bilan o'zaro bog'liq³⁴.

³³ Buzan B., Waever O. Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 588 p.

³⁴ К. Агапеева. Теория секьюритизации Барри Бузана. Геополитика.ру [06.08.2012]. <https://www.geopolitika.ru/article/teoriya-sekyuritizacii-barri-buzana>

Uning ta'kidlashicha, xavfsizlik tadqiqotlarida mintaqaviy darajani tushunmasdan, mintaqadagi davlatlarning bir-biri bilan aloqalarini va hatto buyuk kuchlar hamda mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni ham to'liq tushunib bo'lmaydi³⁵. Buzanning fikricha, xavfsizlik kuchdan ko'ra muhimroq tushunchadir va mintaqaviy xavfsizlikni belgilashda davlatlar o'rtasidagi do'stlik va dushmanlikni hisobga olish kerak³⁶. Buzan xavfsizlik kompleksini ta'riflar ekan, madaniy va irqiy aloqalar muhim unsurlar bo'lishi mumkinligini va bu elementlarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmashligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, bu xususiyat davlatlar bir-biriga e'tibor qaratishlari va ayniqsa, xavfsizlik masalalarida bir-birlarining ishlariga aralashishlari uchun yo'l ochib, o'zaro bog'liqlikni qonuniylashtiradi va osonlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy o'ziga xosliklarning vaqt o'tishi bilan zaiflashishi mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun zamin tayyorlaydi. Turkiyaning xavfsizlik tushunchasiga nazar tashlasak, Afg'oniston har doim Turkiya tashqi siyosatining bir qismi bo'lganini aytishimiz mumkin. 1923-yilda respublikaning e'lon qilinishi bilan Turkiyaning xavfsizlik, milliy xavfsizlik va mustaqillik tushunchasi barpo etildi. Ushbu tamoyil doirasida Turkiya mustaqilligiga xavf tug'dirmaydigan qo'shni davlatlar bilan umumiy maqsadli siyosatlarni amalga oshirishga qaratilgan tashqi siyosat xalqaro xavfsizlik masalalari bo'yicha institutsional faoliyatda katta rol o'ynadi. Bu davrda o'z chegaralaridagi tahdidni xavfsizlik muammosi sifatida qabul qilgan Turkiya, 1934-yili Bolqon paktiga, 1937-yili Saadobod paktiga asoschilar qatorida qo'shildi va xavfsizlik kamarini yaratishga harakat qildi. Bu davrda aynan Turkiyaning tashabbusi bilan Afg'oniston ham Saadobod paktiga qo'shildi. Bu a'zolik mustaqil Afg'oniston uchun dastlabki xalqaro tashkilotga a'zolik edi. Bundan tashqari, jamoaviy xavfsizlik doirasida Afg'oniston Millatlar Ligasiga ham a'zo bo'ldi. Uning bu harakati Turkiya tomonidan ijobiy baholangan³⁷.

Tarixiy nuqtayi nazardan, Usmonlilar davridan beri davom etgan g'arbiylashtirish siyosati Sovuq urush davrida ham davom ettirildi. 1945-yildan keyingi tizimdan AQSH va SSSRning hukmron davlatlar sifatida namoyon bo'lishi bilan Turkiya Sovet davlatini o'z chegaralari uchun tahdid

³⁵ Buzan B. People, States and fear: The national security problem in international relations. – 1983. UK: Department of International Studies University of Warwick. – P.174.

³⁶ B. Buzan and O. Waever, Region And Power The Structure Of International Security, UK: Cambridge University Press. – 2004. P.17-18

³⁷ ع. سجادی سیاست خارجی افغانستان، کابل. – انتشارات واژه. (Zdashiti) 2018.

sifatida qabul qilishi xavfsizli masalasini G'arb bilan uyg'unlashtirishiga sabab bo'ldi. NATOga a'zo bo'lish orqali u xavfsizlik kafolatini ta'minladi. 1955-yilda Turkiya shimoliy belbog'li mamlakatlarni o'z ichiga olgan mudofaa loyihasi bo'lmish Bag'dod paktiga a'zo bo'ldi. Va Turkiya bu tashkilot safiga Afg'oniston ham qo'shilishi lozimligini ta'kidladi. Ammo Afg'oniston Pokiston bilan chegara muammosi (Pushtuniston) tufayli Bag'dod paktiga kiritilmagan³⁸.

Sovuq urushdan keyingi davrda Sovet Ittifoqining parchalanishi xalqaro tizimda yangi davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu milliy davlatlarning paydo bo'lishi o'zi bilan yangi muammolarni keltirib chiqardi. Bu davlatlar ichidagi etnik va diniy ziddiyatlardan kelib chiqqan Turkiyaga qochqinlar oqimi 1990-yildan keyin xavfsizlik tushunchasini shakllantirdi³⁹. Xalqaro konyunkturadagi o'zgarishlar (Ko'rfaz urushi, Shimoliy Iroq, Afg'on mojarosi) paydo bo'layotgan tahdidlarga qarshi Turkiya ko'p qirrali tashqi siyosat yuritish uchun nafaqat G'arb bloki mamlakatlari, balki Sharq mamlakatlari bilan ham hamkorlik qilishga harakat qildi. Ushbu hamkorliklar bilan global va mintaqaviy tinchlik o'rnatishni maqsad qilgan. Sobiq prezident T.O'zalning Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida neoottomanizm doirasida vujudga kelgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik aloqalarni o'rnatishga, bu mintaqalar bilan mushtarak tarix va jamoaviy mansublik mantig'i bilan qayta tiklashga harakat qilishi bunga aniq misoldir.

Yangi davrda samarali tashqi siyosat nuqtayi nazarini tushunish bilan boshlagan vositachilik faoliyati fonida mintaqaviy hamda global tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda Turkiya faol rol o'ynadi. 11-sentyabr voqealari natijasida Afg'onistonga kiritilgan xalqaro kuchlar orasida faqatgina Turkiya musulmon mamlakat edi. Turkiyaning Afg'onistondagi harbiy harakatlarda ishtiroki A.Vendt va B.Buzanning nazariyalariga birdek mos kelishini ko'rishimiz mumkin. Sababi NATO tarkibida Turkiyaning Afg'onistondagi harakatlarda ishtiroki mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan samarali bo'lishi bilan birga Afg'oniston xalqi orasida Turkiya imijini yanada jozibador qilishda ham ulkan ahamiyat kasb etdi. Natijada Anqara ISAFga a'zo mamlakatlar harbiy kontingentlari orasida eng kam yo'qotishlarga ega davlat bo'ldi. Umumiy davr mobaynida 20 ga yaqin turk harbiylari Afg'on

³⁸ R.K. Ramazani, *The Northern Tier: Afghanistan, Iran and Turkey*. New York: D. Van Nostrand Company. – 1966. – P.113

³⁹ Çolakoğlu, S. Soğuk Savaş Sonrası Türk Dış Politikası (1920- 2006). Ankara. – 2011. – S.315.

diyorida halok bo‘lgan va ushbu yo‘qotishlarning hech biri jangovar xususiyatga ega bo‘lmagan. “Tolibon” kuchlari ham turk harbiylariga o‘t ochmagan. Bu diniy yaqinlik omili bilan bog‘liq bo‘lib, Turkiya Iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti professori Haldun Yalçinkaya o‘z intervyularida Afg‘onistonda faoliyat ko‘rsatayotgan turk askarlarining etnik yaqinligidan ko‘ra, diniy mansubligi tufayli afg‘onlar orasida ijobiy imij yaratganligiga quyidagicha izoh beradi: “Afg‘onlar turk askarlarining turk ekanligiga unchalik ahamiyat bermayapti, deb o‘ylayman, lekin yarimoy tasvirli bayroqlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi”⁴⁰.

Yuqoridagi omillar B.Buzan ta’kidlagan madaniy elementlarning xavfsizlik masalalarida ham o‘z ta’siriga ega bo‘lgan holda alohida o‘rganishni talab qiladi. Liberalizm yoki realizm ta’kidlaganidek xavfsizlik faqat harbiy omillargagina emas, noharbiy omillarga ham bog‘liq. Masalan, ekologik falokatlar ham xavfsizlikka tahdidni keltirib chiqarishi mumkin. Yoki iqtisodiy omillar, masalan, kasallik va ocharchilik noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin, ushbu noroziliklar esa urush xavfini yuzaga keltirganiga tarixda ko‘plab misollar mavjud. Shu sababdan Buzan mintaqaviy xavfsizlikka tahdid faqat nizoli vaziyatlar tomonidan emas, harbiy, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vaziyatlar natijasida ham tug‘ilishi mumkinligini ta’kidlagan⁴¹. Ijtimoiy sektorda xavf omili jamiyatning xavfsizligi uning an’anaviy til, madaniyat, uyushmalar, diniy va milliy o‘ziga xoslik shakllarini takrorlash qobiliyati bilan bog‘liq. Ijtimoiy xavfsizlik sohasida mumkin bo‘lgan tahdidlar sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan globallashuv tendensiyalari qatoriga migratsiya va kasalliklarning tarqalishi, uyushgan yoki uyushmagan jinoyatchilik harakati, shuningdek, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, ayniqsa yevropalashuv dialektikasi – madaniy birxillikka moyillik va unga qarshi reaksiyalar kiradi. Bu kontekst orqali qaraydigan bo‘lsak, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda Turkiya, Afg‘oniston va Pokiston rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan uchtomonlama Anqara sammiti aynan xavfsizlik kamarini yaratish bilan bog‘liq mintaqaviy muhim tashabbus edi. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish uchun boshlangan iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlik, ta’lim, muloqot va o‘zaro ishonch kabi masa-

⁴⁰ Interview with Haldun Yalçinkaya, TOBB University Campus, Ankara, 19 January 2022. <https://www.eliamap.gr/wp-content/uploads/2022/07/Policy-paper-104-Gu%CC%-88zeldere-Final.pdf>

⁴¹ К. Агапеева. Теория секьюритизации Барри Бузана. Геополитика.ру [06.08.2012]. <https://www.geopolitika.ru/article/teoriya-sekyuritizacii-barri-buzana>

larni ko'rib chiqadigan bu jarayon 2007-yildan boshlab Turkiya rahbarligida amalga oshirildi. Bundan tashqari, Turkiya tashqi siyosatida muhim o'rin tutgan Afg'oniston hamda butun mintaqadagi tinchlik va barqarorlikka hissa qo'shish hamda Afg'onistonning xalqaro hamjamiyatdagi ishtirokini oshirish maqsadida Turkiya muallifligida boshlangan "Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari" nomli yirik tuzilma bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Tuzilmaning o'n yillik (2011–2021-yy.) faoliyati mobaynida o'n to'rtta mintaqa davlati, jarayonni qo'llab-quvvatlovchi boshqa malakatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar ishtirok etdi. Monografiyaning ikkinchi bobida Istanbul jarayoni haqida batafsil to'xtalamiz.

Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi o'tmishdagi aloqalarning ta'siri bilan 11-sentyabrdan keyin ikki davlat o'rtasida xavfsizlikka bog'liqlik yanada kuchliroq paydo bo'lganini aytish mumkin. 11-sentyabrdan keyin Turkiya xavfsizligi uchun Afg'onistondan tahdid kuchaydi. Turkiyaning Afg'onistonga tarixiy va madaniy aloqalari bilan bir qatorda mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham ahamiyat berishining bir qancha sabablari vujudga keldi. Avvalo, Afg'oniston o'z muhitiga beqarorlik va inqirozni eksport qiluvchi tuzilmaga ega. Mamlakat hududidagi siyosiy hokimiyat bo'shlig'i tufayli terroristik tashkilotlarga mezbonlik qilishi, ularning bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyati va ta'sir o'tkazish mexanizmiga ega bo'lishda davom etmoqda. Bu terror tashkilotlari bilan bir xil mafkura va yondashuvga ega shaxs va tashkilotlar ham Turkiya uchun potentsial tahdiddir. Afg'onistondagi beqarorlik va terror voqealarining yaqin iqtisodiy hamkor davlat bo'lmish Pokistonda aks etishi Turkiya uchun tashvishli vaziyat hisoblanadi. Yana bir masala shundaki, Afg'onistondagi beqarorlik Markaziy Osiyodagi turkiy respublikalarni dunyo bilan bog'lash yo'llaridan birini ancha yillar davomida to'sib qo'ydi. Turkiyaning geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan, uning energiya tranzitor davlat sifatidagi roli uni mintaqadagi beqarorlik va ziddiyatlar natijasida muhim strategik loyihalar xavf ostida qolmasligi uchun xavfsizlik masalasiga yanada jiddiyoq qarashga undashi tabiiy. Turkiyaning Afg'oniston barqarorligini birinchi o'ringa qo'ygan xavfsizlik siyosatini yuritishi mintaqaviy va global xavfsizlikka ham ahamiyat berganligini ko'rsatadi va Buzanning mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasining amaldagi isbotini ko'rsatadi.

Mazkur mavzuga xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin.

Birinchidan, ilmiy tadqiqotlarda nazariyalarning qo'llanilishi muammoning to'g'ri shakllantirilishi va uning qo'yilishi, tadqiqot obyekti hamda

tadqiqotlar olib borish chegaralarini belgilab olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ikki mamlakatning xalqaro munosabatlari tarixini nazariy jihatdan o'rganar ekanmiz, o'zaro iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini cheklab qo'ygan Afg'onistondagi hozirgi vaziyat Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini mustahkamlamoqchi bo'lgan Turkiya uchun jiddiy qabul qilinayotganidan tashqari, tashqi siyosatda tarixiy va madaniy jihatlarni hisobga olgan holda tashqi siyosat olib borishga undayotganligi aniqlandi.

Ikkinchidan, mazkur o'rganilayotgan ikki xalqlar o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarni to'liq idrok etish va bu masalani ochib berishda realizm va liberalizm nazariyalari bilan bir qatorda, A.Vendtning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi ham mamlakatlarning madaniy, diniy va etnik yaqinligining ba'zi nozik jihatlarni yaxshiroq ko'rsatib berishda ancha maqbul yondashuv ekanligi isbotlandi.

Uchinchidan, B.Buzanning mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasiga ko'ra, Yaqin Sharq, Yevropa va sobiq Sovet chegarasida yakkalovchi davlat bo'lgan Turkiya, bu mintaqalarga nisbatan o'z faoliyatini tashqaridan turib amalga oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Mintaqaviy xavfsizlik nazariyasi Turkiya tashqi siyosatiga cheklovlar qo'yadi. Afg'onistonga nisbatan Turkiyaning xavfsizlik siyosati, 2001-yil dekabr oyida Bonn konferensiyasiga muvofiq tashkil etilgan Xavfsizlikka Ko'maklashuvchi Xalqaro Kuchlari (ISAF) doirasida Turkiyaning Kobul mintaqaviy qo'mondonligi sifatidagi burchi, Turkiya-Afg'oniston-Pokiston uchtomonlama sammitini qo'llab-quvvatlovchi faoliyati, Istanbul jarayonining yo'lga qo'yilishi orqali oydinlashadi. Turkiya Qurolli kuchlarining Afg'onistonda harbiy vazifadan ko'ra viloyatlarni qayta qurish guruhlarini faoliyati va uni amaliyotga tatbiq etish, milliy afg'on politsiya tizimini takomillashtirish yo'lidagi ijtimoiy amaliyotlari B.Buzanning "mintaqaviy xavfsizlik nazariyasi"ga ko'ra madaniy elementlarning xavfsizlikdagi o'rniga misol ekanligi o'rganildi.

1.2. Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi ikkitomonlama munosabatlar rivojlanishining tarixiy jihatlari

XX asr dunyoning turli mintaqalarida milliy ozodlik g'oyalari keng yoyilgan, mustaqillikka intilish jarayonlari kuchaygan davr bo'ldi. Natijada mustamlakachilik tuzumi zaiflashib, milliy davlatlar tashkil topa boshladi. Musulmon o'lkalarida ham ushbu asrning dastlabki choragida bir qancha

davlatlar davlatchilik jarayonlarida yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda eng qudratli imperiya hisoblanadigan Buyuk Britaniya Birinchi jahon urushi tufayli o'z mustamlakalari va mustamlakachilik ta'siridan ajrala boshladi. Uning Afg'onistondagi ta'sir doirasi masalasi ham uzil-kesil hal qilingan edi. Shu vaziyatda Turkiyada ijtimoiy fikr rivojlanib, ilg'or qarashlar keng yoyildi. Sharq dunyosi, xususan, Turkiston va qo'shni Afg'onistondagi xalqlar ushbu mamlakatda vujudga kelgan "Yosh turklar" tashkiloti va hukumati yordamiga ko'z tikkan holda ularning modernizm g'oyalarini qabul qildilar⁴². Aynan shu harakat Markaziy va Janubiy Osiyo hamda Shimoliy Afrika hududlaridagi milliy ozodlik harakatlarining g'oyaviy quvvatiga aylandi. Shu tariqa murakkab, ziddiyatli va tez o'zgarayotgan xalqaro munosabatlar sharoitida o'xshash vaziyatlarda bo'lgan Afg'oniston va Turkiya hamkorlik aloqalari yangicha ko'rinishda rivojlana boshladi.

1921-yil Moskva shahrida Turkiya-Afg'oniston do'stlik va hamkorlik shartnomasi imzolandi⁴³. Afg'on xalqi hali yakuniga yetmagan turk mustaqillik urushiga ko'rsatgan qo'llab-quvvatlovi tufayli turk millatining qalbida birodar davlat sifatida alohida o'rin egalladi. Xuddi shunday Afg'oniston ham Omonullaxon davrida turk modernizatsiya modelidan andoza oldi va bu o'rinda Mustafo Kamol Otaturk yangi afg'on davlatining haqiqiy ilhomlantiruvchisi bo'ldi⁴⁴. Bu davrda rivojlanishning turk modeli sharqdagi ko'plab musulmon o'lkalari uchun eng jozibador dastur bo'lgan. Qolaversa, bolsheviklar boshchiligidagi rus hukumati Turkiston ma'rifatparvarlarining yoshlarni chet davlatlaridan faqatgina Turkiyada o'qishiga qarshilik qilmagan. Bu Turkiya bilan munosabatlarning rivojlanishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi.

Afg'oniston va Turkiya munosabatlari XX asr boshlariga kelib jadallashgani yaqqol seziladi. O'sha davr qiroli Habibullaxonning (1901–1919) taklifiga binoan sog'liqni saqlash va ta'lim sohasi mutaxassislaridan iborat turk delegatsiyalari Afg'onistonga tashrif buyurib, ushbu sohalaridagi ishlarning tashkil qilinishiga katta hissa qo'shdi. Bir qator ta'lim va tibbiyot muassa-

⁴² Ражабов Қ. Ёш турклар. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 3. – Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 2002. – Б. 498.

⁴³ Özlü H. "Türk-afgan dostluk ve işbirliği anlaşması" kapsamında Atatürk dönemi Türkiye-Afganistan ilişkilerine bakış // Uluslararası avrasya sosyal bilimler dergisi Yıl:3, Sayı:8, 2012. – S.34.

⁴⁴ Kubilayhan Erman, Türk Milli Mücadelesinin Gizli Cephesi Afganistan, Gece Kitaplığı, Ankara. – 2014. S–153.

salari aynan turkiyalik mutaxassislar tomonidan qurildi, ta'mirlandi, ishga tushirildi. Masalan, Afg'oniston tarixidagi birinchi zamonaviy davlat shifoxonasi 1912-yilda aynan turk mutaxassislari yordamida bunyod etilgan⁴⁵.

Ikki davlat o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar 1921-yil 1-martda Afg'oniston-Turkiya do'stlik va hamkorlik shartnomasi asosida o'rnatildi. Mushtarak madaniyat, tarixiy yaqinlik va ayniqsa, Afg'onistonda ko'p sonli turkiy qabilalarning mavjudligi tufayli bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar doimo do'stona ruhda bo'lgan. Bu yaqin munosabatlar Otaturkning o'z tashqi siyosatida Afg'onistonga alohida e'tibor berish davrida boshlangan⁴⁶.

Birinchi jahon urushi davrida Madinaning mashhur himoyachisi Fakri Poshoning Afg'onistonga birinchi elchi sifatida yuborilishi⁴⁷ Turkiyaning ikkitomonlama munosabatlarga yuqori darajada e'tibor berganligiga yorqin misoldir. Afg'onistonda tashkil e'tilgan birinchi diplomatik vakolatxona ham aynan Turkiyaga tegishli edi⁴⁸. 1921-yilning 10-iyunida esa Anqaradagi Afg'oniston elchixonasining ochilish marosimida Mustafo Kamol shaxsan ishtirok etib, elchixona kirish joyidagi bayroqni ko'tardi. Marosimda Vazirlik kengashi a'zolari, deputatlar va Sovet Rossiyasi elchixonasi xodimlari ham qatnashdilar⁴⁹. Mustafo Kamol Posho bu marosimda ishtirok etishi bilan Turkiya-Afg'on munosabatlariga yuqori darajada ahamiyat berishini yana bir bor amalda ko'rsatdi. 1922-yil 1-martda ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida Fahrettin Posho (general-leytenant Fahrettin Turkkan) kabi muhim shaxs Kobulga elchi va favqulodda vakil etib tayinlandi⁵⁰.

1922-yil 30-avgustda Turk armiyasining yunonlar bilan hal qiluvchi jangda g'alaba qozonishi Afg'onistonda iliq kutib olindi. Bu muvaffaqiyat

⁴⁵ Z. Dashti, Zahir shah dönemi Afganistan-Türkiye ilişkileri (1933-1973) Anasay. Sayı 17. – 2021. – S.126.

⁴⁶ “Türk-afgan dostluk ve işbirliği anlaşması” kapsamında atatürk dönemi Türkiye-Afganistan ilişkilerine bakiş

⁴⁷ A history of fraternal Turkish-Afghan relations: <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/a-history-of-fraternal-turkish-afghan-relations/2342587>

⁴⁸ Turkiya Respublikasi tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti: https://www.mfa.gov.tr/turkey_afghanistan-bilateral-political-relations.en.mfa#:~:text=The%20close%20friends-hip%20relations%20and,stability%20efforts%20in%20this%20country.

⁴⁹ C. Salim: “Atatürk Döneminde, Türk-Afgan Münasebetleri”, Afganistan Üzerine Araştırmalar, Der. Ali Ahmetbeyoğlu, Tarih ve Tabiat Vakfı (TATAV) Yay., İstanbul. – 2002. – S.103. (113 betlik)

⁵⁰ Ş. Bilal: Atatürk ve Yabancı Devlet Başkanları, Cilt I, Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara. – 1993. – S.16.

mamlakatda milliy bayramdek qarshi olindi va qirol Omonullaxon 1922-yil 10-oktyabr oqshomida o'z saroyida ziyofat bilan turk g'alabasini nishonladi. Turkiyada Respublikaning e'lon qilinishi Afg'onistonda ham katta mamnu-niyatga sabab bo'ldi. Bu mustaqillikni ta'riflar ekan, Omonullaxon: "Islom olamida ilk bor dunyoga kelgan respublika yulduzi yer yuzidagi barcha is-lom xalqlarini munavvar qiladi", deya ta'kidlagan edi.

Yuqorida tilga olinganidek, XX asrning boshlarida Sharq olamida mil-liy ozodlik harakatlari boshlangan edi. Bu davrdagi Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarda Sovet davlati zulmi ostidagi Turkiston xalqi ma-salasi ham kun tartibiga chiqdi. 1920–1930-yillarda Afg'onistonga o'tgan markaziy osiyolik muhojirlarga Sovet davlatining bosimi o'laroq nisbatan qattiq sitamlar qilinishiga qarshi Mustafo Kamol Turkiya Respublikasida-gi Afg'oniston elchisi Fayz Muhammadxonni o'z huzuriga chorlab: "Agar mamlakatingizda Turkiston musulmon muhojirlari uchun joy bo'lmasa, ularni bizga topshiring!" degani bejiz emas. Bu bilan Turkiya Respubli-ka boshqaruvining ilk yillaridayoq turkiy millatlar integratsiyasi bo'yicha qat'iy pozitsiyalarga ega ekanligini ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlar muhojir o'zbek marhum vatandoshimiz Said Mubashshirxon Kosoniyning "Xotira-lar" kitobida ham o'z aksini topgan⁵¹. Yoki Mustafo Kamolning tashabbusi bilan 1930-yillarda "Turkiya hukumati ko'pgina mamlakatlarda yashovchi va turk tilida so'zlashuvchi xalqlari o'z mamlakatiga chorlab, ularga arzon narxda mol-mulk, chorva mollari bergan⁵²"ligi ham Turkiyaning mintaqa hayotiga qiziqishida panturkizm elementlarining darajasini ko'rsatadi.

1923–1928-yillar oralig'ida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar dina-mikasida keskin o'zgarishlar kuzatilmasa-da, turklarning modernizatsiya yo'lidagi qadamlari Afg'onistonga yaqindan ta'sir ko'rsatdi va Omonul-laxon rafiqasi qirolicha Surayyo bilan birga 1928-yil may oyida Turkiya-ga tashrif buyurib, Prezident Mustafo Kamolning mehmoni bo'lishdi. Bu tashrif Turkiya Respublikasiga birinchi davlat tashrifi bo'lib, turk tarixchisi Seljuk Jolako'g'lining qayd etishicha, Mustafo Kamol prezidentlik davri-da hech qachon xorijiy davlatlarga tashrif buyurmagan⁵³. O'z navbatida, Anqaraga ham hech bir davlat prezidenti kelmadi. Afg'oniston qiroli Omo-

⁵¹ Саид Мубашширхон Косоний. Хотиралар // Дунё. 1993. – Б. 29.

⁵² Ирисов А. Ватан меҳри // Гулистон, 1995, № 4. – Б. 45. Содиков Х. Тарихнинг чигал сўқмоқлари. И "Ватан" газетаси. 1994. № 28

⁵³ Selçuk Çolakoğlu – Mehmet Yegin, "The Future of Afghanistan and Turkey's Contri-bution," International Strategic Research Organization (USAK), s. 30.

nullaxon Otaturk zamonida Turkiyaga rasman tashrif buyurgan birinchi va yagona davlat rahbari sifatida alohida kutib olingan⁵⁴. O'sha davrda yagona mustaqil musulmon mamlakatlari sifatida afg'on-turk munosabatlari o'z davrining xalqaro munosabatlar tizimida muhim rol o'ynagan.

Omonullaxon Turkiyaga tashrifi chog'ida 1928-yil 25-mayda Anqarada "Turkiya-Afg'oniston do'stlik va hamkorlik shartnomasi" imzolandi. Ushbu kelishuv ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada yuqori darajaga olib chiqishni maqsad qilgan. Bitimning birinchi aniq natijasi ikki davlatdagi vakolatxonalarning elchixonalar darajasiga ko'tarilishi bo'ldi⁵⁵. "Vakit" gazetasining 1928-yil 20-may sonida Omonullaxonning Istanbulga kelishi haqida shunday xabar berilgan: "Kecha Afg'onistonning birodar hukmdori shahrimizga keldi. Va ularni istanbulliklar hayrat bilan kutib oldilar. Janobi Hazrati Emanullohxon: "Ey turklar, sizlar bizning ko'z qorachig'imizsizlar. Bu yerda, qardosh xalqimiz yurtida ekanligimdan juda mamnunman. Sizni hurmat va mehr bilan tabriklayman. Afg'onlar sizning birodarlaringizdir. "Sizga butun xalqimdan salom yo'llayman⁵⁶", degan edi. Zamonaviy Turkiyada amalga oshirilayotgan islohotchilik ishlari afg'on hukmdorida katta taassurot qoldirdi va uni o'z mamlakatida amalga oshirishni xohladi. Omonullaxonning Afg'onistonni rivojlantirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlariga hissa qo'shish va qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirgan ushbu safarda unga katta qiziqish va do'stlik munosabati bildirildi, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar eng yuqori darajaga ko'tarildi. Lekin Omonullaxonda malakali kadrlar va islohotlar uchun yetarli mablag' mavjud emas edi. U o'z mamlakati uchun ko'plab uchoqlar sotib olish va zavodlar qurishga harakat qildi va allaqachon qiyin ahvolda bo'lgan Afg'onistonni moliyaviy jihatdan yanada tubsizlikka olib kelib qo'ydi. Shuningdek, Afg'oniston va Turkiyadagi vaziyat bir-biridan farq qilishi va Afg'onistondagi sharoit yetarlicha ijobiy holda emasligi hisobga olinmaganligi ham yuqoridagi salbiy voqealarga sabab bo'ldi. Islohotlarga kirishar ekan, Omonullaxon Otaturkning ehtiyot bo'lish uchun bergan

⁵⁴ S. Aria. İstanbul süreci'nin Afganistan'in istikrarına etkisi: bölgesel güvenlik kompleks teorisi çerçevesinde bir değerlendirme. (Yüksek lisans tezi). – Bursa.2015 (161 bet) S.76

⁵⁵ Akşin A. Atatürk'ün Dış Politika İlkeleri ve Diplomasisi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayını, 1991. – S.191-192.

⁵⁶ Vakit Gazetesi, 20 Mayıs 1928; Anadolu Gazetesi, 20 Mayıs 1928; Hizmet Gazetesi, 20 Mayıs 1928, Milliyet Gazetesi, 20 Mayıs 1928.

do'stona nasihatlarini e'tiborsiz qoldirib, o'zida mavjud imkoniyatlar bilan amalga oshirmoqchi bo'lgan islohotlari orasidagi katta tafovutni unutdi va keskin vaziyatda katta muammolarga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlarni amalga oshirdi. Hatto bundan ham vaziyatni qiyinlashtirishi mumkin bo'lgan, ayollarning paranjilarini olib tashlash kabi hatto Turkiyada ham qo'llanilmagan amaliyotlarga urinib ko'rdi.

Nihoyat, mullalar va chet el malaylari tashabbusi bilan 1928-yil noyabr oyi o'rtalarida Afg'onistonda qabilalar qo'zg'olon ko'tarildi. Maqsad "bid'atchi" deb e'lon qilingan qirolni ag'darish edi. Turkiya, Omonullaxonni himoya qilish uchun Afg'onistonga Kazim Posho (O'rbay) boshchiligidan muhim bir delegatsiya yubordi. Delegatsiya yetib kelganidan bir kun o'tib, Omonullaxon Qandahorga qochib o'tdi. Hokimiyatni Bacha-e Saqo (Habibulla Qalaqoniy) egalladi⁵⁷. Turkiya bu hukumatni tan olmadi, ammo bu davrda Turkiya Kobuldagi vakolatxona va elchixonasini saqlab qolgan kam sonli davlatlardan biri edi. Biroq bu davrda afg'on talabalari Turkiyadan qaytarib yuborildi va o'z navbatida turk harbiy maslahatchilari Afg'onistonni tark etishga majbur bo'ldi. Habibulloh o'rniga kelgan Nodirshoh Omonulloh davrida erishilgan afg'on-turk munosabatlari darajasini tiklashga harakat qildi. Turkiya Afg'onistonga turli sohalarda mutaxassislar jo'natishda davom etdi.

O'n sakkiz yoshli Zohirshohning (1933–1973) hokimiyatga kelishi bilan munosabatlarda oldinga siljish kuzatildi. Otaturk yangi qirolni tabrikladi, u Afg'oniston bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish istagini bildirdi. Turkiya Afg'onistonning mintaqaviy va xalqaro maydondagi harakatlarini faol qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Masalan, Turkiya Eron va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda vositachi rolini bajardi. Eron va Afg'oniston chegaralari bo'lmish Xashtadon va Seyistonda uzoq vaqtdan beri chegara muammolari hal etilmay qolayotgan edi⁵⁸. 1934-yil may oyida Afg'oniston va Eron o'rtasidagi uzoq davom etgan chegara bahsini hakamlik sudiga topshirishga qaror qilindi va har ikki davlat uchun Turkiya hakam etib saylandi. Otaturkning topshirig'iga ko'ra, Fahrettin Altay Poshoning arbitraj faoliyati va tekshiruvi natijasida, 1000 yildan ortiq vaqt davomida belgilanmagan Eron-Afg'oniston o'rtasidagi 300 km chegara demarkatsiya qilindi. Ushbu voqea XX asrning 30-yillaridagi xalqaro

⁵⁷ دوكتور نور احمد خالدى - افغانستان: مردم، تاريخ و سياست. كابل. كرد بوكس. ۲۰۲۰. - ص. ۳۹.

⁵⁸ Агаев С. Л. Иран: внешняя политика и проблемы независимости: 1925-1941 гг. / С.Л.Агаев. – М.: Наука, 1971. – С. 78.

munosabatlar kontekstida Turkiyaning ushbu mintaqa uchun qay darajada qiziqish bildirib boshlaganligini yaqqol ko'rsatib beradi. Ushbu sharoitda aynan Turkiya tashabbusi va taklifi bilan 1934-yil 27-sentyabrda Afg'oniston Millatlar Ligasiga a'zo bo'lib qo'shildi va endilikda Afg'oniston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektiga aylangan edi. Shuningdek, 1937-yilda Turkiya, Iroq, Eron va Afg'oniston o'rtasida xalqaro tashkilot tuzish bo'yicha pakt imzolandi va shu munosabat bilan Otaturk va Zohirshoh bir-birlarini qizg'in tabrikladilar. Saadobod pakti Afg'onistonning mintaqaviy tashkilotdagi ishtirokinining birinchi tajribasi edi⁵⁹. Bu pakt o'z oldiga Millatlar Ligasi kelishuvida nazarda tutilgan kafolatlarga qo'shimcha ravishda Yaqin Sharqda xavfsizlikni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan. Bir so'z bilan aytganda o'sha davrda Afg'onistonning xalqaro va mintaqaviy jarayonlarda teng huquqli a'zo sifatidagi faoliyatida Turkiya ulkan hissa qo'shgan.

Turkiya 1930-yillarda Afg'onistonga yordamini oshirishda davom etdi, ayniqsa, o'qitish va ta'lim tizimini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berdi. Ko'plab afg'on yoshlariga stipendiyalar berildi va ular Turkiya litsey-lari va fakultetlarida ta'lim oldilar. Bundan tashqari, Afg'onistonda ta'lim muassasalari tashkil etilib, o'qituvchi va professorlar yuborilib, afg'onlar o'z davlatlarida ham o'qitish ishlari boshlangan. Ayni paytda o'rta maktabni bitirgan afg'on talabalari Turkiyadagi harbiy, tibbiyot, huquq va qurilish bo'limlarida o'qishlarini davom ettirishni afzal ko'rdi.

1938-yilda Otaturkining vafoti Afg'onistonda chuqur qayg'uga sabab bo'ldi. Bu haqida Turkiya tarixchisi Bilol Shimshir o'zining "Otaturk va Afg'oniston" asarida quyidagilarni keltiradi: "Yigirma yilga yaqin davom etgan Turk-Afg'on aloqalari davomida Afg'onistonda podshohlar, sulolalar va hukumatlar o'zgardi, lekin Turkiyaning Afg'onistonga nisbatan do'stlik va qardoshlik siyosati o'zgarmadi. Afg'oniston podshohlari va hukmdorlari

⁵⁹ Известия. 12 июля 1937.

* Saadobod paktini tuzib, Turkiya janubda Sovet Ittifoqining mumkin bo'lgan kengayishiga qarshi Markaziy Osiyodan Bolqongacha cho'zilgan xavfsizlik chizig'ini yaratdi. Bolqon mamlakatlari, Turkiya, Eron va Afg'onistonda kommunizmni yoyishni istagan sovetlarga bu holat umuman yoqmadi. Turkiya Saadobod paktini tayyorlashda kashshof bo'ldi. Otaturk bu paktning otasi edi va tashqi ishlar vaziri Tevfik Rüştü Aras buni kun tartibiga olib chiqdi. Ushbu paktga binoan, to'rtta davlat bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, umumiy chegaralarni hurmat qilish va hujumdan himoya qilish, umumiy manfaatlariga taalluqli barcha turdagi nizolarda bir-birlari bilan maslahatlashish, har bir davlatga nisbatan tajovuzkor harakatlar qilmaslik va boshqa shu kabi xavfsizlikka oid majburiyatlarni oladi.

o‘zaro to‘qnashuvlarni, taxt uchun kurashlarni qanday kuzatmasinlar, O‘zbekistonning Turkiyasiga ishonib, unga qattiq umid bog‘langan edilar. Turkiya Afg‘onistonning mustaqil va ozod bo‘lib qolishi, rivojlanishi va yuksalishi, madaniyatli davlatlar qatoridan joy olishi uchun kurash olib bordi”⁶⁰.

Ushbu davr xalqaro munosabatlarida eng yirik hodisa – Ikkinchi jahon urushi bo‘lib, Afg‘oniston Birinchi jahon urushidagi kabi bu nizoli vaziyatda ham o‘z betarafliqligini e‘lon qildi va urushayotgan tomonlarning birortasiga yaqinlashmadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin o‘zgargan siyosiy sharoitlar Turkiyani yangi xalqaro shartnomalar tuzishga majbur qildi va Afg‘oniston bu davrda betaraflik siyosatini qo‘llaganligi sababli ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar sezilarli darajada zaiflashdi⁶¹. Urushning yakunida eng katta qahramonlikni SSSR amalga oshirsa-da, keyingi voqealar fonida Amerika Qo‘shma Shtatlari yangi dunyo yetakchisi sifatida namoyon bo‘la boshladi. Bu davlatning rivojlanayotgan davlatlarga yordam ko‘rsatishi Afg‘oniston ma‘murlari va ziyolilarining ham e‘tiborini tortdi. Afg‘on hukmdorlari bu yangi buyuk davlat bilan munosabatlarini yaxshilashni va undan manfaat ko‘rishni istadilar va qisqa vaqt ichida bunga erishdilar, ushbu jarayonlarda ham NATOning yagona a‘zosi bo‘lmish Turkiya Afg‘onistonga xalqaro masalalarda katta yordam ko‘rsata boshladi. Natijada Afg‘oniston Amerikadan juda yaxshi qarz oldi. Ushbu kredit bilan Amerika firmalari va texnik xodimlari orqali mamlakatda yangi iqtisodiy rivojlanish boshlandi.

Biroq Afg‘onistonda boshlangan bu taraqqiyot harakati inglizlar o‘z hukmronligi ostidagi turli xalqlarning mustaqilligi va erkinligini endi tortib ololmasligini anglab, bu xalqlarning mustaqilligini tan olishga qaror qilganlari ortidan to‘xtab qoldi. 1947-yil 20-fevralda uch asrlik ekspluatatsiyadan so‘ng inglizlar Hindistondan chiqib ketishga qaror qildilar va musulmon aholiga davlat tuzishga ruxsat berishlarini deklaratsiya bilan e‘lon qildilar. Shundan so‘ng Afg‘oniston hukumati inglizlarga murojaat qilib, Dyurand chizig‘ining Hindiston tomonida qolgan afg‘on qabilalarining Afg‘onistondagi birodarlari bilan birlashishiga ruxsat berishni talab qildi. Biroq bu talab avvaliga rad etildi, keyin esa plebissit asosida mintaqqa xalqi musulmon davlati sifatida endigina paydo bo‘lgan Pokistonni tanlaganliklarini e‘lon qildi.

⁶⁰ Bilal N. Şimşir: Atatürk ve Afganistan, Avrasya Bir Vakfı Asam Yayınları, Ankara, 2002. – S.359-361

⁶¹ Genkur Atase Başkanlığı, “Afganistan ve Taliban Hareketi ile ABD, Rusya Federasyonu, Pakistan, İran, Hindistan, Çin Halk Cumhuriyeti ve Orta Asya Cumhuriyetleri’nin Afganistan’a yönelik Politikalarının Değerlendirilmesi”. – 2001, Ankara – S.82

Bu holat va undan keyingi voqealar Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasida katta notinchlikni keltirib chiqardi. Amerika bu ikki antisovet hukumati oʻrtasida vositachilik qilishni taklif qildi. Biroq bu taklif Pokiston tomonidan rad etildi. Amerika esa ikki tomonning doʻsti boʻlgan, oʻtmishda Afgʻoniston-Eron va Eron-Iroq mojarolarini hal qilgan Turkiyaga vositachilik qilishni taklif qildi.

Boshqa tomondan, 1955–1958-yillar oraligʻida Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasidagi chegara mojarosi tufayli Afgʻoniston va Turkiya oʻrtasidagi yuqori darajadagi aloqalar qizgʻin edi. Dovut Xon (Muhammad Dovud, 1973–1978-yy.) Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarini keyingi bosqichga koʻtarar ekan, Turkiya bilan munosabatlarini yaxshilashga va ayniqsa, Pash-tuniston mojarosini hal qilishda Turkiyadan yordam olishga harakat qildi. Shu maqsadda 1955-yil iyul oyida Afgʻoniston tashqi ishlar vaziri Naim Xon Turkiyaga rasmiy tashrif bilan keldi. Tashrif chogʻida Afgʻoniston Tashqi ishlar vaziri Turkiya Bosh vaziri Adnan Menderesga Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasida Pushtuniston muammosi tufayli davom etayotgan siyosiy inqirozni hal qilish uchun vositachilik taklif qildi. Shundan soʻng Bosh vazir Menderes ikki davlat oʻrtasidagi ziddiyatlarni hal qilish uchun vositachilik taklifini qabul qilganini maʼlum qildi⁶².

Ikki qoʻshni davlat oʻrtasida chegara inqirozi davom etar ekan, 1956-yil 27-iyulda Turkiya Bosh vaziri Adnan Menderes Kobulga tashrif buyurib, Pashtuniston muammosi va Afgʻonistonning Bagʻdod paktiga qoʻshilishi masalasini muhokama qildi. Kobulda katta ishtiyoq bilan kutib olingan Turkiya Bosh vaziri Menderes Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasidagi chegara mojarosi va Afgʻonistonning Bagʻdod paktidagi ishtirokini muhokama qilishga qaror qildi. Bunda dastlab chegara muammosini hal qilishga ustuvor ahamiyat berdi, chunki bu ikki mamlakat yaqinlashuviga toʻsiq yaratayotgan edi. Biroq muammoni hal qilish uchun Turkiya tomonidan ikki davlatga taqdim etilgan takliflar Afgʻoniston tomonidan qabul qilingan, Pokiston tomoni esa takliflarni rad etgani uchun ikki davlat oʻrtasidagi kelishmovchilikni bartaraf etib boʻlmadi. Qolaversa, barcha saʼy-harakatlarga qaramay, Afgʻoniston Bagʻdod paktidan tashqarida qoldi. Jalol Bayarning soʻzlariga koʻra, Turkiyaning taklif va talablariga qaramay, Eyzenxauerning eʼtirozi natijasida Afgʻoniston Bagʻdod paktiga qoʻshilmadi. 1955-yil 18–24-aprel

⁶² M. Köçer, Adnan Menderesʼin Afganistan Ziyareti Ve Bu Ziyare tinin Türk Basımında Yansımaları. Türkçe Çalışmaları. – 2015. 10(1). – S.419-436.

kunlari Indoneziyada Afg'onistonning ushbu xalqaro loyihada ishtiroki masalasini hal qilish maqsadida konferensiya bo'lib o'tdi, ammo bu safar ham natija chiqmadi⁶³.

Mintaqaviy jarayonlarga G'arbning befarqligi fonida Afg'onistonning betaraflik siyosatida Sovet Ittifoqining ta'siri sezila boshlandi. G'arb davlatlarining ko'rsatgan bu loqaydligi natijasida Sovet Ittifoqi asta-sekin Afg'onistonga ta'sir qila boshladi va shundan so'ng Turkiya-Sovet Ittifoqi munosabatlarining holati Turkiya-Afg'oniston munosabatlarining shaklini belgilovchi eng muhim omilga aylandi. Sovet Ittifoqi Bosh vaziri Aleksey Kosiginning 1967-yildagi Turkiyaga tashrifi chog'ida Turkiya-Afg'oniston munosabatlaridagi ijobiy siljish masalalari muhokama etildi⁶⁴.

Dovut Xon hukumati bu jarayonda AQSHdan xohlagan yordamini ololmagach, Sovet Ittifoqiga murojaat qildi. Bu davrda Sovet Ittifoqidan ko'p miqdorda zamonaviy qurol-yarog' va boshqa urush texnologiyalarini yetkazib berish, ayniqsa, harbiy va xavfsizlik kuchlarini tayyorlash orqali mamlakatning sovetlarga qaramligi yanada kengaydi va chuqurlashdi. Sovet Ittifoqining Afg'onistondagi ta'sirining kuchayishi Anqara ma'muriyatini xavotirga soldi. Bosh vazir Davut Xon va Tashqi ishlar vaziri Muhammad Naim Xon 1957-yil 18-aprelda Bosh vazir Menderesning taklifiga binoan Turkiyaga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida Davut Xon Menderes bilan Pokistonga tashrifi munosabati bilan uchrashdi va Pashtuniston masalasini muhokama qilish uchun Pokistonga qilgan safari natijalarini ma'lum qildi. Bosh vazir Menderes: "Turkiya ikki davlat o'rtasidagi muammolarni hal qilish uchun barcha sa'y-harakatlarini sodiqlik bilan amalga oshiradi", deb va'da berdi. Uchrashuvda Dovut Xon Turkiya tomonining xavotiriga javoban "Muhtaram Turkiya Bosh vaziriga yana bir marta aytmoqchiman-ki, Afg'oniston hech qachon birtomonlama siyosat yuritmaydi hamda o'z diniga, milliy an'analari va rejimiga zid mafkurani qabul qilmaydi" degan fikrlarni alohida urg'u berib ta'kidladi⁶⁵.

Afg'onishton qiroli Muhammad Zohirshoh Prezident Jalol Bayarning (1950–1960-yy.) taklifiga binoan 1957-yil 26-avgustda Turkiyaga tashrif buyurdi. Afg'oniston qirolini Prezident Jalol Bayar, Bosh vazir Adnan Men-

⁶³ M. Şahin, Atatürk Dönemi ve Sonrası Türk-Afgan İlişkileri. İstanbul: Tasam Yayınları. – 2015. – S.97.

⁶⁴ O'sha manba.

⁶⁵ Şahin, M. (2015). Atatürk Dönemi ve Sonrası Türk-Afgan İlişkileri. İstanbul: Tasam Yayınları. 98-99 betlar

deres va boshqa rasmiy shaxslar samimiy kutib oldi. Podshoh samolyotdan tushishi bilan o‘z his-tuyg‘ularini quyidagicha ifodaladi: “Ikkinchi vatanim deb bilgan turk tuprog‘iga qadam qo‘yganimdan xursandman va bundan chin dildan faxrlanaman”⁶⁶. (Kaya, 2019-yil, 75-bet). Zohirshoh Turkiyadagi mashhur harbiy akademiyaga tashrif buyurgan chog‘ida “Harbiy akademiya Afg‘oniston va Turkiya o‘rtasidagi yaqinlik va qardoshlik hamkorligining qimmatli ramzidir. Ko‘plab zobitlarimiz shu yerda ta‘lim olishgan. Men bu tashrifni abadiy xotiramda saqlab qolaman”, – deya o‘zining hayajonlarini bildirgan. Qirol Turkiyaga 10 kunlik tashrifi davomida turk rasmiylari bilan bir qator uchrashuvlar o‘tkazdi. Afg‘oniston qiroli Muhammad Zohirshohning Turkiyaga tashrifiga javoban Turkiya Prezidenti Jalol Bayar 15 kishilik delegatsiya bilan 1958-yil 12-sentyabrda Kobulga 10 kunlik tashrif bilan keldi. Turkiya Prezidenti Jalal Bayar Zohirshoh va vazirlar tomonidan iliq kutib olindi⁶⁷.

Zohirshoh davrida Turkiyaning Afg‘onistonga yordamlari har tomonlama o‘sdı. Turkiya Afg‘oniston ijtimoiy tuzilmasidagi to‘liq radikal diniy shakllanishni kamaytirish va davlatni isloh qilish maqsadida afg‘on ta‘lim tizimiga katta investitsiya kiritdi. Zohirshoh davrida maorif va kadrlar tayyorlash sohasida yutuqlarga erishildi va Afg‘onistonning g‘arbiylashuv jarayonida ta‘lim-tarbiya zaminining barpo etilishiga hissa qo‘shdi. Ushbu davrda Afg‘oniston bo‘ylab 627 ta yangi maktab ochildi⁶⁸. Zohirshoh davrida mamlakatda yangi harbiy maktablar va qizlar litseylari, Kobul universiteti tarkibida tibbiyot, adabiyot, huquq, siyosiy fanlar va ilohiyot fakultetlari tashkil etildi. Bu davrda, ayniqsa, xotin-qizlar uchun katta madaniy va talabalarni chet elga yuborish uchun moliyaviy imkoniyatlar yaratildi. Bundan tashqari, ushbu davrda butun mamlakat bo‘ylab xat-savodi yo‘q kattalar uchun savodxonlik kurslari ishlay boshladi.

O‘z navbatida, Afg‘oniston ham, har qanday masalalarda yonida bo‘lgan Turkiyaga javob o‘laroq, muammolarni hal qilish uchun bor kuchini ko‘rsatdi. Kobul ma‘muriyati 1955-yillarda Kipr muammosiga doir Turkiyaning talab va takliflarini xalqaro maydonda qo‘llab-quvvatladi va turklar-

⁶⁶ G. Kaya, (2019). Türkiye-Afganistan İlişkileri. Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Yalova Üniversitesi, Yalova. 75-bet

⁶⁷ ع. طارق، ر. سمیر، س. ب. مقدم، بررسی سیاست هوشمند ترکیه در افغانستان: با تاکید بر عوامل داخلی و بین‌المللی از ۱۰۰۲ تا ۲۰۰۲ // فصلنامه مطالعات بین‌المللی. سال ۰۲، شماره ۴، ۳۲۰۲ - ص. ۶۹۲.

⁶⁸ Anis gazetesi. 40 Yıllık İktidarı Döneminde Zahir Şah’ın Yapmış Olduğu Faaliyetler. – 2019. Anis Gazetesi, 09.2. 202: <http://dailies.gov.af/anis/>

ga teng huquqlar berilishini va o'z taqdirini o'zi belgilashiga rioya qilinishini talab qildi. Afg'oniston Kipr masalasida Turkiya hukumati foydasiga aniq pozitsiyani egalladi va Turkiya bilan birga ekanligini ma'lum qildi. Bundan tashqari, Kobul ma'muriyati Sovet Ittifoqining Suriyaga qurol sotishi haqidagi Turkiyaning xavotirlarini Sovet hukumatiga yetkazdi⁶⁹.

Turkiya Afg'onistonning qo'shnilari bilan muammolarini hal etishda doimo faol rol o'ynagan. Turkiya Afg'onistonni Sovet ta'siridan qutqarish uchun bor kuchini sarfladi. Biroq AQSHning Afg'onistonni Bag'dod paktida ishtirok etishiga qarshiligi, shuningdek, Afg'oniston hukumatining uning yordam so'rovlariga befarqligi bu mamlakatni Sovet Ittifoqi ta'siriga tushishiga olib keldi.

Turkiya tashqi siyosati bu davrda NATOga a'zo bo'lish va G'arb davlatlari bilan aloqalarni kuchaytirishga intilayotganligiga qaramasdan Afg'oniston bilan aloqalarini uzmati va bu davlatga yordamini davom ettirdi. Turkiya va Afg'onistonning harbiy hamkorligi haqida Amerikadagi University of Maryland Global Campus ilmiy xodimining yerlik aholi bilan intervyu-lari natijasida yozilgan maqolasida 1960-yillarda afg'on zobitlari Turkiyada o'qitilganligini, turk harbiy shifokorlari Afg'oniston armiyasining sog'liqni saqlash muassasalariga yordam berishgani, boshqa turk zobitlari esa Kobuldagi Afg'oniston Harbiy akademiyasida afg'onlarga ta'lim berishda ishtirok etganini qayd etadi. Ayni paytda yuzlab afg'on zobitlari Anqaradagi Turkiya Harbiy Akademiyasi, Istanbuldagi Qo'mondonlik va Bosh shtab kolleji, Chanqiridagi Piyodalar bo'limi, Po'latlidagi Artilleriya maktabi va boshqa bir qator turk harbiy muassasalarida ta'lim olganliklarini yozadi⁷⁰. 1970-yil oxirigacha Afg'onistonning eng yuqori darajadagi harbiy rahbarlari Turkiyada turli vaqtlarda ta'lim olishgan. Bundan tashqari, turk armiyasiga oid ko'plab o'quv adabiyotlari, jumladan armiya dala qo'llanmalari va risolalar dariy tiliga tarjima qilingan va afg'on harbiy muassasalarida standart o'quv ma'lumotnomalari sifatida foydalanilgan. Afg'on armiyasida turkiy harbiy atamalar asl yoki so'zma-so'z tarjima qilingan ko'rinishda qo'llanilganligi ajablanarli emas. Afg'on armiyasi lug'atiga *ordu* (armiya), *yoklama* (roll

⁶⁹ Akter, A. Demokrat Parti Dönemi Türkiye Afganistan İlişkileri. https://www.academia.edu/1470516/Demokrat_Parti_Dönemi_Türkiye_Afganistan_İlişkileri

⁷⁰ Bahar Jalali The Historical Relationship between Afghanistan and Turkey vis-à-vis Modernization https://www.academia.edu/41239727/The_Historical_Relationship_between_Afghanistan_and_Turkey_vis_a_vis_Modernization

call), *qaghosh* (barack), *qarawana* (ration), *qarawol* (patrol), *bayrak* (flag) boshqa ko‘plab so‘zlar kirib kelgan.

Biroq Turkiyada harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan ko‘plab afg‘on zobitlari Moskvadagi Harbiy Akademiyaga borganidan so‘ng, AQSH NATO sir-lari Sovet Ittifoqi qo‘liga o‘tishi mumkinligidan xavotirlanib, Turkiyadan afg‘on zobitlarini tayyorlashni to‘xtatishni va ularni Afg‘onistonga jo‘natib yuborishni talab qildi. Natijada, Sovet Ittifoqining Afg‘oniston armiyasidagi ta’siri asta-sekin o‘sib bordi⁷¹.

Pashtuniston borasida G‘arbdan yordam topa olmagan Afg‘oniston 1960–1970-yillarda butunlay Sovet Ittifoqiga qaram bo‘lib qoldi. Afg‘oniston hukumatining bu davrda Sovet Ittifoqi bilan yaqin aloqada bo‘lganligi Afg‘oniston-Turkiya munosabatlarining sustlashuviga olib keldi. Sovet Ittifoqi tarafdori Dovut Xon 1973-yil 17-iyulda davlat to‘ntarishi uyushtirib, Zohirshoh saltanatiga barham berganidan so‘ng Afg‘oniston-Turkiya munosabatlarida orqaga ketish yuz berdi. Dovut Xon Sovet Ittifoqi bilan faol munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga urindi. Natijada, Afg‘oniston 1979-yilda sovet istilosiga uchradi⁷².

Sovetlarning Afg‘onistonga ekspansiyasi boshlanganidan keyin Turkiya oldida ulkan dilemma turar edi. 1980-yillar boshida Turkiya Respublikasi Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga kirishini qoralab, buni boshqa bir davlat ishlariga nisbatan harbiy aralashuv sifatida baholadi⁷³. Shu bilan birga, Turkiya Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan har qanday choralardan o‘zini tiyib turganligini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Anqara 1980-yil yanvarida Islomobodda qabul qilingan Islom Konferensiyasi Tashkilotining “Afg‘on qo‘zg‘olonchilariga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qaroriga rozilik bildirmadi va faqat afg‘on qochqinlariga amaliy yordam berish bilangina cheklendi. Turkiya mintaqaviy mojarolarga muvozanatli yondashish siyosatini davom ettirishga va barcha urushayotgan tomonlar bilan normal munosabatlarni saqlashga harakat qildi. Shu bois Anqara Pokiston tomonidan ilgari surilgan Afg‘oniston, Pokiston va Turkiyadan iborat Islom ittifoqi tuzish taklifini ham rad etdi. Turkiya Afg‘oniston

⁷¹ Ü. Özdağ, Afganistan’da Çok İşimiz Var. – 2012. <https://www.altayli.net/afganistan-da-cok-isimiz-var.html>

⁷² S.B. Misbahzada, Tarihi Muhtasari Saiyasi Afghanistan. Maşhad: Marandiz Yayınları. – 2019. S.147.

⁷³ Geçmişten Günümüze Türk Afgan İlişkileri / Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları. – S.86.

Prezidenti M.Najibulloning Turkiya Prezidenti K.Evren ga 1989-yil fevral oyida vositachilik yordami ko'rsatish hamda AQSH va Pokistonni Afg'oniston Respublikasining ichki ishlariga aralashmaslikka ishontirish haqidagi murojaatiga javob qaytarmadi⁷⁴.

Sovet Ittifoqi parchalanib, mustaqil Markaziy Osiyo davlatlari tashkil topgach, Turkiya tashqi siyosatida Afg'oniston yo'nalishi strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Kobuldagi elchixonadan tashqari Mozori Sharifda bosh konsullik ochildi, bu esa Afg'oniston markaziy hukumatida ma'lum noroziliklarga sabab bo'ldi, chunki Turkiya general Abdul Rashid Do'stumni qo'llab-quvvatladi, mamlakat shimolidagi siyosiy partiyalar, guruhlar va harakatlar bilan kerakli yaqin aloqalarni o'rnatdi⁷⁵. Albatta, ushbu tavakkalchilik ostida ham siyosiy maqsadlar bor edi. Jumladan, Afg'onistonning shimolida Turkiyaga etnik jihatdan juda yaqin bo'lgan millionlab turklar yashar edi. Ularning aksariyatini o'zbek va turkman millatiga mansub qatlam tashkil qilgan.

Turkiya tomonidan 1995-yilda Kobulga elchi etib tayinlangan B. Kankorel o'z xotiralarida shu davrda qanday qiyin vaziyatda ishlashga to'g'ri kelgani haqida hikoya qiladi: "Afg'oniston poytaxtiga doimiy ravishda raketa hujumlari bo'lib turardi. Elchixona binosining derazalari qum qoplari bilan qoplangan, binolar isitilmagan, elektr ta'minotida uzilishlar va oziq-ovqat tanqisligi kuzatilgan"⁷⁶. Ammo shunday og'ir sharoitlarda ham Turkiya elchixonasi Kobuldagi faoliyatini to'xtatmadi. Turkiya Respublikasining Afg'onistondagi diplomatik jihatdan mavjudligi va harakatlari uning nafaqat xalqaro hamjamiyat orasidagi nufuzini oshirishga, balki mintaqada ham o'z ta'sirining kengayishiga yordam berdi. Afg'oniston tashqi ishlar vaziri N.Lafray bilan uchrashuvdan so'ng Turkiya elchisi general A.R.Do'stum nomzodini koalitsiya hukumatiga kiritish g'oyasini ilgari sura boshladi. 1995-yil dekabr oyida Turkiya elchisi B. Kankorel Afg'oniston Prezidenti Burhoniddin Rabboniy va Mudofaa vaziri Ahmad Shoh Ma'sud bilan uchrashdi. Elchi Turkiyaning neytral munosabati Afg'onistonga nisbatan do'stona munosabatlarning eng realistik siyosati ekanligini ta'kidlab, "Tolibon" harakatiga qarshi ittifoq tuzish uchun mamlakat shimolidagi qurolli tuzilmalar bilan aloqa o'rnatishda vositachilik xizmatlarini taklif

⁷⁴ К.Р.Ишбулдина. Афгано-Турецкие отношения на современном этапе (2001–2018 гг.). дисс. кан. ис. наук. – Москва, 2019. – С.64.

⁷⁵ Cankorel B. Bir Donem Biterken Bir Diplomatın Seyir Defteri. – S. 121.

⁷⁶ Cankorel B. Bir Donem Biterken Bir Diplomatın Seyir Defteri. S. 132–135

qildi⁷⁷. 1996-yil yanvar oyi boshida Kobulni artilleriyadan o'qqa tutishning kuchayishi markaziy hukumatning Afg'oniston poytaxtini "Tolibon" tomonidan bosib olinishiga yo'l qo'ymaslik harakatlarining kuchayishiga yordam berdi. Afg'oniston Prezidenti maslahatchisi M.Xalili Turkiya Respublikasi elchisiga general Abdul Rashid Do'stim bilan muzokaralar tashkil etish iltimosi bilan murojaat qildi, chunki bu orada Do'stum Turkiya hududida edi. Biroq Turkiya tomoni bu tashabbusni amalga oshirishga shoshilmadi, chunki Kobul hukumati niyatlarining qat'iyligiga va u taklif qilgan tinchlik rejasining haqiqatdan amalga oshishiga ishonchi komil emas edi. BMTning Kobuldagi maxsus vakili M.Mestiri bilan suhbat jarayonida Turkiya elchisi afg'on mojarosi avj olishining asosiy tahdidi "Tolibon"dan kelayotganini ta'kidladi va yaqin kelajakda xalqaro hamjamiyatning tinchlik o'rnatish borasidagi sa'y-harakatlarini faollashtirishni taklif qildi. Turkiyaning ushbu talabnomasi mazmunida Afg'onistondagi qurolli harakatlarni qo'llab-quvvatlashni to'xtatishni so'rab, buning ijrosi o'laroq birinchi navbatda "Tolibon" harakatini yaqindan qo'llayotgan Pokistonga bosim o'tkazish kerak ekanligini talab qiladi. Ammo BMTning Afg'onistondagi voqealarga munosabati vaziyat talab qilgan darajada tez bo'lmadi. Kobuldagi turk diplomatik korpusining Afg'oniston Milliy Islomiy Harakati⁷⁸ rahbari A. Do'stumni asosiy raqiblari B. Rabboniy va A.Sh.Ma'sud bilan muzokara o'tkazishga ko'ndirishga urinishlari ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Natijada 1996-yil sentyabrda "Tolibon" Kobulni, bir necha oydan so'ng Afg'onistonning janubi va shimoli-g'arbiy qismini egallab oldi. Shu yilgacha Turkiyaning Afg'onistonga moliyaviy yordamlari to'xtamadi. Manbalarda ko'rsatilishi-cha, 1992–1996-yillarda Turkiyaning Afg'onistonga bergan moddiy yordami \$9,2 mln dollarni tashkil qilgan⁷⁹.

Turkiya 1996–2001-yillarda Afg'onistonda hokimiyatda bo'lgan "Tolibon"ni rasman tan olmadi. "Tolibon"ning hokimiyatni egallash fonida jafokash afg'on xalqiga nisbatan olib borgan zo'ravonliklari Turkiya tomonidan qoralangan. Turkiyaning mashhur gazetalaridan biri bu voqealarni quyidagicha izohlaydi: "Afg'onistondagi qirg'in nafaqat G'arbda, balki musul-

⁷⁷ Cankorel B. Bir Donem Biterken Bir Diplomatin Seyir Defteri. B. 146.

⁷⁸ A.R.Do'stum 1992-yilda Afg'oniston Milliy Islomiy Harakatiga (AMIH) rahbarlik qilgan. Uning bevosita ishtirokida Afg'onistonning to'rt viloyatida (Balx, Juzjon, Faryob, Qunduz) markazi Mozori Sharifda bo'lgan mustaqil hokimiyatlar tizimi yaratilgan.

⁷⁹ Turkiyenin Ikili Dis Yardimlari (1992-1996) // T.C.Basbakanlik Devlet Planlama Teskilati. Mart 1998, p. 14

mon davlatlarida ham dahshat uygʻotdi”⁸⁰. Oʻshanda ikki davlat oʻrtasidagi aloqalar faqat texnik va gumanitar sohada qolgan edi. “Tolibon” hukmronligi zamonasida koʻplab afgʻonlar oʻz yurtlarini tark etishdi. Ularning aksariyati Turkiyadan qoʻnim topishdi.

General A.Doʻstum Turkiyada toʻrt oy qolgach, 1997-yil sentyabr oyi oxirlarida oʻz yurtiga qaytib keldi va toʻxtagan joyidan kurashni davom ettirdi. General Doʻstum Afgʻonistonga qaytib, shimolda hukmronlikni tiklaganidan soʻng Turkiyaga minnatdorchilik bildirish uchun kelganida, u bilan birga boʻlgan doʻsti general-leytenant Rauf beg Turkiyadan boshpana topgan afgʻon qochqinlar ahvoli haqida quyidagi bayonot berdi: “Men boshqa mamlakatlarni koʻrmaganman, biroq, eshitganlarimga koʻra, boshqa davlatlarga ketgan afgʻonlar uysiz, ishsiz, kuchsiz, yarim och, qochqinlar lagerlarida yoki qamoqxonalarda ayanchli sharoitda kun kechirmoqda. Ruxsatnomasi boʻlmagani uchun, ayniqsa, Pokiston va Eronda ogʻir qurilish ishlarida, bir luqma non uchun quldek ishga solib qoʻyishadi... Lekin Turkiyadagi ahvolni koʻrib, juda hayron boʻldim. Turkiyaga kelgan afgʻonlarga hurmat bilan munosabatda boʻlgan va turklar bilan bir xil huquqlar: ishlash, pul topish, yeb-ichish mumkin edi. Taxminlarga koʻra, Turkiyaning mustaqillik urushi paytida Afgʻonistondan kelgan ayollar va erkaklar oʻz oilasining taqinchoqlarini Turkiyaga joʻnatgani ham bunda rol oʻynagan boʻlsa kerak”⁸¹. Bu sanadan keyin bir necha marta qoʻl almashgan Mozori Sharif shahri 2001-yil 9-noyabrda Doʻstum tomonidan qaytarib olingan edi⁸².

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Afgʻoniston va Turkiya hamkorlik aloqalarining shakllanishi va rivojlanishi oʻziga xos tarixiy jarayonlar yuz berayotgan davrga toʻgʻri keldi. Birinchi mustaqil Afgʻoniston davlatining modernizmi uchun Turkiya Respublikasi gʻoyaviy va madaniy yoʻlboshchi boʻldi. Bu davr oraligʻida Turkiyadan yuborilgan mutaxassislar Afgʻonistonni texnologik, harbiy, sogʻliqni saqlash, taʼlim va boshqa sohalarida il-damlashuviga yoʻl ochdi.

Afgʻoniston bir qator mintaqaviy va xalqaro hujjatlarni imzolashi hamda xalqaro munosabatlarning toʻla huquqli subyektiga aylanishida Turkiyaning ulkan hissasi bor. 1934-yil Afgʻoniston Millatlar Ligasiga aʼzo boʻlib qoʻshilishi yoki 1937-yilda Yaqin Sharq masalalarini hal qilish boʻyicha

⁸⁰ Milliyet. 29.09.1996, S. 1.

⁸¹ Yavuz Selim; Afganistan ve Dostum, Ankara Ticaret Odası Yayınları, Ankara 2004, s. 210–211.

⁸² Mehmet Seyfettin Erol, Fazıl Ahmet Burget; “Afganistan Özbekleri”, Avrasya Dosyası, Asam Yayınları, Sonbahar 2001, C. 7, Sayı: 3, s. 125–134.

Saadobod paktiga Afg'onistonning taklif qilinishi to'g'ridan to'g'ri Turkiyaning chorlovlari natijasi edi. Bir so'z bilan aytganda, Afg'onistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishida Turkiya darvoza vazifasini bajargan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Turkiya tashqi siyosatidagi o'zgarishlar tufayli Afg'oniston SSSR bilan yaqinlasha bordi va bu yaqinlashuv 1979-yilda Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga intervensiyasi bilan yakun topdi. Turkiya bu voqealarga o'z noroziligini bildirdi. Sovet qo'shinlari Afg'onistonda bo'lib turgan yillarda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar o'sishdan to'xtadi. Lekin Afg'onistondagi etnik turkiy millatlarni Turkiya doimiy qo'llashda davom etdi. General Abdurashid Do'stum xuddi shunday shaxslardan biri sifatida namoyon bo'ldi.

Urush yillarida ko'plab afg'on migrantlarining asosiy yo'nalishlaridan biri Turkiya bo'ldi. Muhojirlarni qabul qilish jarayoni "Tolibon" hukmronligining birinchi davrida (1996–2001) ham davom etdi. Ko'plab afg'on qochoqlari (ularning ko'pchiligi o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz va tojik millatiga mansub) Turkiyaga olib kelindi. Taxminan 3 ming afg'on muhojirlari To'kat, Yesilyurt, Hatay, Ovakent, Jeylanpinar, Istanbul, Kayseri, Gaziantep, Van va Kirshehir shaharlariga joylashtirildi. Ularning aksariyatiga hatto Turkiya fuqaroligi ham berildi. Afg'oniston davlat idoralarining shakllanishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlay boshlagan Turkiya bu yordamni bugungi kungacha davom ettirmoqda. Ikki davlat munosabatlari NATO kuchlarining Afg'onistondagi faoliyati davrida yanada qattiqroq sinovlarga duch keldi.

I bob bo'yicha xulosalar

Yevrosiyaning qoq markazida joylashgan Afg'onistondagi tarixiy-siyosiy voqealar faqat Afg'oniston bilan cheklanib qolmasdan, ko'plab mintaqaviy davlatlariga bevosita ta'sir qiladi. Bu geosiyosiy mushtaraklikdan turk dunyosi davlatlari, jumladan, Turkiya ham chetda qolmagan. Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi masofalar uzoq bo'lishiga qaramay munosabatlar doim yaqin bo'lgan. Ushbu ikki davlat bir-biri bilan etnik yaqinlik, diniy mansublik va o'xshash tarixiy jarayonlar tufayli bog'liq bo'lgan. Afg'oniston va Turkiya munosabatlarining rasmiy poydevori qo'yilganiga yuz yildan ortiq vaqt o'tdi. Ushbu davrda bu munosabatlarning tadrijiy rivojlanib borishi mavzuni nazariy jihatdan o'rganishni talab qiladi. Shu sababdan ushbu ikki davlatning siyosiy aloqalarini yaxshiroq tushunish uchun xalqaro munosabatlar tarixiga doir bir qancha nazariyalarga murojaat qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarda madaniy qadriyatlar, diniy o'xshashlik elementlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu munosabatlarning qadriyatlar, madaniyatlar va o'ziga xos bo'lgan ba'zi tushunchalariga to'xtalganda Aleksandr Vendtning "jamoaviy o'ziga xoslik", ya'ni ijtimoiy konstruktivizm nazariyasini mazkur o'rinda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ldi. Shuningdek ikki xalqlarning munosabatlari haqida gapirganda qarindoshlik madaniyati, Afg'oniston shimoliy hududlaridagi turkiy millatga mansub odamlar bilan Turkiya o'rtasidagi lisoniy va madaniy daxldorlik hisslariga mos keluvchi o'ziga xos elementlar bizning e'tiborimizni tortdi. Bu jihatdan esa ingliz maktabining "xalqaro tartib va xalqaro jamiyatlarning aloqalarida tarixiy madaniyatga asoslangan yondashuvi" va Barri Buzanning mintaqaviy xavfsizlik yondashuvi Afg'oniston va Turkiya munosabatlarini nazariy jihatdan yaxshiroq ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur bobda Turkiya-Afg'oniston munosabatlari Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan ikkitomonlama munosabatlaridan biroz farq qilgan holda o'ziga xos tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. Bu ikki davlatning tarixi, dini va madaniyati mushtarakligi jihatidan ikki xil geografik makonda joylashganligiga qaramasdan ushbu xalqlar munosabatlariga alohida to'xtalish va o'rganishni taqozo etdi. Bu o'ziga xos munosabatlar tarixiy jarayondagi xalqaro konyunkturaga qarab ayrim davrlarda mustahkamlanib, boshqa davrlarda zaiflashganligi ochib berildi.

Zamonaviy xalqaro tizmlar milliy-mintaqaviy xavfsizlikni tadqiq etish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqishni taqozo etayotgani oydinlashib borayotgan sharoitda, liberalizm yoki realizm kabi klassik nazariyalar bugungi xavfsizlik masalasini to'liq ochib bera olmaydi. Shu sababdan ushbu nazariyalar qatorida xalqaro munosabatlarda milliy, madaniy, diniy va qarindoshlik omillarini o'zida mujassamlashtirgan A. Vendtning ijtimoiy konstruktivizm, B.Buzanning mintaqaviy xavfsizlik, shuningdek ingliz maktabi qarashlarini tadqiqotlarga jalb etish lozimligi isbotlab berildi.

Afg'oniston Turkiya respublikasini tan olgan ikkinchi davlat sifatida rasmiy Anqara tomonidan alohida ehtirom bilan tilga olinishi, 1921-yil mart oyidagi Afg'oniston-Turkiya do'stlik shartnomasi esa ushbu munosabatlarning qonuniy asosi bo'lib xizmat qilganligi izohlab berildi. Shuningdek, 1928-yil Omonullaxon Turkiyaga rasmiy tashrif bilan keldi. Bu rasmiy safar Mustafo Kamol Otaturk prezidentligi davrida (1924–1938-yy.) Turkiyaga tashrif buyurgan yagona davlat rahbari ekanligini hisobga olgan holda, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga to'liq mos kelishi oydinlashdi.

Afg‘onistonni qayta qurish va rivojlantirish jarayonlarida Turkiya tarixda ham, hozir ham qay darajada ulkan hissa qo‘shganligi, muhandislar, tibbiyot xodimlari va harbiy mutaxassislarning Afg‘onistonni rivojlantirishdagi faoliyati Afg‘oniston tomonidan ijobiy eslanishi tarixiy va rasmiy hujjatlar orqali o‘rganildi.

Afg‘oniston aynan Turkiya Respublikasi tashabbus bilan xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektiga aylangan. Turkiyaning sa‘y-harakatlari natijasida Afg‘oniston 1934-yilda Millatlar Ligasi a‘zosi, 1937-yilda Bag‘dod pakti ishtirokchisiga aylandi. Sovet ishg‘oli davrida (1979–1989-yy.) ham munosabatlar to‘xtab qolmadi. Ko‘plab afg‘on muhojirlari Turkiya yerlaridan qo‘nim topdi. Taxminan 3 ming afg‘on muhojirlari Turkiya shaharlari bo‘ylab joylashtirildi. Ularning aksariyatiga hatto Turkiya fuqaroligi ham berildi. Afg‘oniston davlat idoralarining shakllanishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlay boshlagan Turkiya bu yordamni bugungi kungacha davom ettirmoqda.

II BOB. KOBULDA RESPUBLIKA BOSHQARUVI DAVRIDA AFG‘ON-TURK MUNOSABATLARI (2001–2021)

2.1. Afg‘oniston va Turkiya munosabatlarining asosiy yo‘nalishlari va huquqiy asoslari

XXI asr dunyo uchun siyosiy voqealarning o‘zgacha tendensiyalari bilan kirib keldi. Jumladan 2001-yil 11-sentyabr voqealari jahon jamoatchiligi tomonidan o‘ziga xos qo‘rquv va tahlika bilan qarshi olindi. Ushbu voqea sovuq urush tugaganidan keyingi butun dunyo e‘tiborini qaratgan global hodisaga aylandi. Bu voqealar fonida ko‘plab davlatlar o‘zlarining tashqi siyosat konsepsiyalarini o‘zgartira boshladilar. Jumladan Turkiya Respublikasining tashqi siyosat strategiyasida ham o‘zgarishlar kuzatildi. Ushbu davlat tashqi siyosati 2001-yilda Ahmed Dovuto‘g‘li tomonidan yozilgan “Strategik chuqurlik: Turkiyaning xalqaro mavqeyi” nomli tashqi siyosat doktrinasida batafsil ko‘rsatilgan. Uning mohiyati Turkiya o‘zining geosiyosiy mavqeyidan foydalanib, yirik mintaqaviy yetakchiga aylanishi, xalqaro maydonda faolroq rol o‘ynashi va global siyosatdagi ta‘sirini oshirish imkoniyatidan iborat edi⁸³. Tashqi siyosatdagi yangi yo‘nalishdan kelib chiqib, Anqara mintaqa mamlakatlariga nisbatan vositachi rolini o‘z zimmasiga olishga harakat qildi. 2001-yildan hukumat tepasiga Adolat va taraqqiyot partiyasining (AKP) kelishi ham Turkiya tashqi siyosatida burilishlar yasagan holda, Afg‘onistonning kelajagi uning mintaqa davlatlari bilan chambarchas bog‘liqligi masalasi Anqara va Kobul o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar doirasida ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, xalqaro terrorizmga qarshi kurashning boshlanishi va koalitsiya kuchlarining Afg‘onistonga kirishi nafaqat Afg‘onistonni, balki Markaziy Osiyo, Kaspiy va Kavkaz mintaqalarini yana bir bor xalqaro qiziqishlar markaziga tortdi. Markaziy Osiyoda o‘z faolligini oshirishga harakat qilayotgan Turkiya bu jarayonlardan chetda tura olmas edi. Anqara bu vaziyatda bir qator geosiyosiy, iqtisodiy va harbiy strategiyalarni ham ko‘zlagan deyish mumkin.

⁸³ Davutoğlu A. Turkey’s Foreign Policy Vision: An Assessment of 2007. Identity and Foreign Policy: Lessons From Turkey, Germany and Japan Europeanization, Nationalism and Perception of the West Turkey’s New Foreign Policy Vision. – Istanbul, 2008. – P. 79.

Belgilangan strategik maqsadlardan biri, turk harbiy kontingentini Afg'onistonda joylashtirish orqali rasmiy Anqara AQSH – Turkiya ittifoqini mustahkamlashi zarur edi. Turkiyaning NATOdagi ahvolini yanada yaxshilash masalasi ham shular jumlasidan. Qolaversa, Turkiyaning 90-yillardagi mintaqadagi muvaffaqiyatsizliklaridan so'ng Markaziy Osiyoga qaytishini yumshatish, Turkiyaning Markaziy Osiyo energiya o'yinida faol ishtirokchi sifatida tashrif buyurish, Turkiya va turk respublikalari o'rtasidagi munosabatlarni strategik darajada rivojlantirish imkoniyatini oshirish kabi bir qator istiqbolli maqsadlarini shu qatorda sanab o'tish mumkin.

Turkiya Tashqi ishlar vazirligining xabarnomasiga ko'ra mamlakat Afg'onistonga nisbatan o'zining tashqi siyosatini qayta ko'rib chiqar ekan, to'rtta asosiy maqsadni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi:

Birinchidan, Afg'onistonning siyosiy barqarorligi va birligini saqlash;

Ikkinchidan, mavjud siyosiy tuzilmalar va institutlarni mustahkamlash;

Uchinchidan, Afg'onistonning xavfsizlik muhitini hamda barqarorligini qo'llab-quvvatlash;

To'rtinchidan, terrorizm va ekstremizmga barham berish orqali tinchlik va farovonlikni tiklash⁸⁴.

Albatta, yuqoridagi vazifalarning amalga oshishi hamda davlatlar o'rtasidagi strategik hamkorlikning rivojlanib borishi uchun ikkala davlat rahbarlari va hukumatlarning rasmiy tashriflari mobaynida imzolangan shartnomalar va bitimlar aloqalarni mustahkamlovchi huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari asosida davlatlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning qaror topib borishi do'stona aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotning davriy chegarasidan kelib chiqib Afg'oniston va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi diplomatik aloqalarni uch bosqichga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin: *birinchi bosqich* 2002–2014-yillarni o'z ichiga olib, bu davr Turkiyaning ISAF doirasida Afg'onistonda amalga oshirgan faoliyatlari bilan belgilanadi. *Ikkinchi bosqich* 2014–2021-yillarda Anqaraning rasmiy Kobulga ijtimoiy ko'maklarini oshirishi va madaniy jozibadorlikni mustahkamlash uchun sa'y-harakatlari bilan kechgan va nihoyat *uchinchi bosqich* 2021-yildan keyingi "Tolibon" harakatining hokimiyatni qayta egallashidan hozirgi davrgacha bo'lgan aloqalarni o'z ichiga oladi.

⁸⁴ See Republic of Turkey, Ministry of Foreign Affairs Website https://www.mfa.gov.tr/turkiye_afghanistan-bilateral-political-relations.en.mfa

Afgʻoniston va Turkiya hamkorlik aloqalarining asosiy yoʻnalishlari haqida gap ketganda harbiy soha alohida oʻrin egallaydi. Nyu Yorkda yuz bergan 11-sentyabr voqealari fonida Turkiya Parlamenti “Razvedka operatsiyalarini oʻtkazish, tinch aholi xavfsizligini taʼminlash va ularga gumanitar yordam berish” maqsadida bu mamlakatga maxsus kuchlar guruhini yuborishga qaror qildi. Shu bilan birga, “Turkiya qoʻmondonlarini Afgʻonistonga yuborish toʻgʻrisida”gi qaror BMT Xavfsizlik Kengashining 1368- va 1373-sonli rezolyutsiyalariga hamda NATO doirasidagi ittifoqchilik majburiyatlarining 5-moddasiga muvofiq qabul qilingan⁸⁵. Natijada Turkiya havo hududi va ikkita harbiy aeroporti Amerikaning harbiy va noharbiy uchoqlari foydalanishi uchun ochildi⁸⁶. Oʻsha davr Bosh vaziri Bulent Ejevit, 2001-yil 8-noyabr kuni turk askarlarini Afgʻonistonga joʻnatish haqidagi nutqida Turkiya va Afgʻoniston oʻrtasidagi munosabatlarning nozikligini quyidagi soʻzlar bilan ifodalagan edi: “Afgʻonistonga boʻlgan qiziqishimiz respublika tashkil topgan yillardan avval boshlangan. Respublika eʼlon qilingandan soʻng, Otaturkning buyrugʻi va ruxsati bilan eng yaxshi tayyorgarlik koʻrgan muhandislar, askarlar va olimlar guruhi Afgʻonistonga yuborildi. Turkiyaning afgʻon xalqining ozodligi va taraqqiyotiga kelajakda ham hissa qoʻshishi Otaturkning bizga bergan vasiyatidir”⁸⁷.

Shunday qilib, “Tolibon” rejimi agʻdarilganidan keyin Turkiya Afgʻonistondagi vaziyatning harbiy-siyosiy rivojlanishida muhim rol oʻynay boshladi. Ushbu muhimlik omiliga taʼrif berar ekan, Jon Xopkins universiteti professori S. Kornel, ushbu vaziyatda Turkiyaning muhimligini bir necha omillar bilan sanab oʻtadi. Birinchidan, Turkiya musulmon davlati va Afgʻonistonda turk harbiy xizmatchilarning borligi Britaniya yoki Amerika boʻlinmalarining bu yerga joylashtirilishidan koʻra mahalliy aholi tomonidan ancha xotirjamroq qabul qilinadi. Ikkinchidan, Turkiya Afgʻonistonning qoʻshnisi emas va bu Anqara uchun kamchilik emas, afzallikdir. Chunki Turkiya afgʻonlarning baʼzi qoʻshnilari harakat qilganidek bu davlat usti-

⁸⁵ BMT Xavfsizlik kengashining 2001-yil 20-dekabrda 1386-sonli Rezolyutsiyasi [Elektron manba] // <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N01/708/57/PDF/N0170857.pdf?OpenElement> (Murojaat qilingan sana 08.08.2023).

⁸⁶ Sevinç A.Ö. Politik acılar: Turk dış politikasında Afganistan // “Politik acılar”, 2019. <http://politik-acilar.blogspot.com/2019/12/turk-dis-politikasinda-afganistan.html?zx=af7ffd-5c0ac28871>

⁸⁷ Genelkurmay Başkanlığı. “Geçmişten Günümüze Türk Afgan İlişkileri”. Ankara, 2009. – S. 92.

dan boshqaruvni o'rnatishdan manfaatdor emasligi aholi orasida yumshoq kuchlardan foydalanishga zamin yaratadi. Uchinchidan, turk armiyasidek tog'larda jang qilish va partizan urushlarda o'zini qanday tutish kerakligi borasida ulkan tajribaga ega bo'lgan harbiylar yo'q. To'rtinchidan, Turkiya NAToning AQSHdan keyingi eng yirik mandatga ega bo'lgan a'zosi hisoblanadi⁸⁸.

Kobul xavfsizligini ta'minlash uchun muvaqqat ma'muriyat bilan birgalikda tashkil etilgan ISAF qo'mondonligi dastlab Angliyaga berilganiga qaramasdan bu yerda barcha tomonlar yuqoridagilarni hisobga olgan holda Turkiyaga ISAF qo'mondonligini topshirishdi. Bu yo'l bilan G'arb kuchlari afg'onlarning boshqa sivilizatsiyaga (siyosiy, diniy va madaniy jihatdan) nisbatan toqatsiz munosabatini pasaytirishni maqsad qilishgan. Bu Sovet davlati tajribasidan kelib chiqqan deyishimiz mumkin. Darhaqiqat, Turkiya ikki marta Afg'onistondagi ISAF kuchlariga rahbarlik qildi. Birinchi davrda Turkiya 2002-yil iyun oyida Angliyadan qo'mondonlikni qabul qilib, 2003-yil fevraliga qadar muvaffaqiyatli imidj ko'rsatdi va butun Afg'oniston bo'ylab o'zining ijobiy qiyofasini mustahkamlab, avvalgidek afg'on xalqining ishonchini qozondi. ISAF kuchlariga asosiy qo'mondonlikning ikkinchi davri 2005-yil fevral-avgust oylarini o'z ichiga olgan.

Bu o'rinda Afg'onistonda tashrif buyurgan turk askarlari ham faoliyati davomida harbiy missiya emas, gumanitar vazifalarni ko'proq bajargani diqqatga sazovor. Boshqa davlat harbiylari Afg'onistonda turli guruhlarining daydi o'qlariga nishon bo'lmaslik uchun yarimoy va yulduz ko'rinishli turk bayroqlarini yelkalarida osib yurishgan. ISAFdagi yagon musulmon davlati sifatida Turkiyaning Afg'onistonga yordami va uni rivojlantirish masalasidagi urinishlari mahalliy aholi tomonidan iliq qarshilangan. Turkiyaning mintaqadagi o'sib borayotgan ta'siri va ishtiroki G'arbn Afg'onistondagi qayta qurish sa'y-harakatlari bilan bir qatorda, mamlakatda yordam ko'rsatishning kelajagi bo'yicha yangi, ehtimol ijobiyoq platforma yaratishga undagan deyishimiz mumkin. Turkiyaga bu keyinchalik Afg'oniston masalasiga bag'ishlangan bir qator mintaqaviy platformalarni – "Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari", Afg'oniston, Pokiston va Turkiya o'rtasidagi uchtomonlama sammit kabilarni ishga tushirishda turtki bo'ldi.

Tarixan olib qarasak, Moskva va Vashingtonda yetarli mablag' va harbiy kuchlar mavjudligiga qaramasdan ulardan foydalanishning moslashuv-

⁸⁸ Cornell S. Geopolitics and strategic alignments in the Caucasus and Central Asia // PERCEPTIONS: Journal of International Affairs. – 1999. Volume: 4 Issue: 2. – P.21.

chanligi va samaradorligi bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjudligi natijasida Afg'onistonda jiddiy inqirozga dush kelgan. Anqarada esa super kuchlarning Afg'onistondagi bu qayg'uli tajribasi yaqindan o'rganildi, saboqlar olindi. Turkiyaning maxsus kuchlar otryadi, Anqara mutaxassislari tomonidan maxsus ishlab chiqilgan Afg'onistonga kirib borishning o'ziga xos modelini sinovdan o'tkaza boshladi. Biroq shuni ta'kidlash joizki, Turkiyaning ushbu tajribasi noldan yaratilgan deyish noto'g'ri bo'ladi. Anqaraning afg'on masalalariga faol aralashuvi, aslida, Najibullo rejimi qulaganidan va mamlakatda fuqarolar urushining yangi bosqichi davrida boshlangan. 1992-yildan 1996-yilgacha Shimoliy Alyans hokimiyatga kelganidan so'ng, Turkiyaning Kobulga to'g'ridan to'g'ri moliyaviy yordamining hajmi 9,6 million dollarni tashkil etgan⁸⁹.

Anqaraning Afg'onistonda puxta o'ylangan diplomatiyani amalga oshirishida o'zi tomonidan yaratilgan davlat va nodavlat mexanizmlardan tashqari o'sha payt uchun asosiy masala sifatida Afg'onistonda, kelajak uchun hamkorlik qilish mumkin bo'lgan nomzodni tanlash edi. Afg'onistonning afsonaviy arbobi va mahalliy o'lchovlar bo'yicha juda keng ko'lamli shaxs bo'lgan afg'onistonlik o'zbek Abdul Rashid Do'stunga Turkiya katta e'tibor qaratdi. Afg'onistondagi qonli tartibsizliklar davrida Do'stum bu mamlakatda tinchlik va farovonlik hududini – barcha millat vakillari tinch hayot izlab yig'ilgan “Do'stumiston” hududini yaratishga muvaffaq bo'lganligi bilan katta obro'ga ega edi⁹⁰. Do'stunning turk razvedkachisi Kashif Qosin o'g'li bilan yaqin do'stligi esa, Anqaraga Kobulda sodir bo'layotgan hamma narsadan yaqinroq xabardor bo'lishga imkon berdi. Bu davrda Anqarada to'plangan razvedka ma'lumotlariga AQSH ham katta qiziqish bildirgan bo'lishi mumkin. Bu Do'stumni qo'llashda Amerika bir necha bor Turkiya bilan yaqindan hamkorliklarida namoyon bo'ladi. Shundan so'ng Turkiyaning Afg'oniston borasidagi iqtisodiy, siyosiy va harbiy rejalari yanada oydinlashdi.

Missiyaning boshidanoq Anqara o'z harbiy kuchlarini faqat Kobul viloyatida qo'llash imkoniyatini rasman e'lon qildi va Afg'onistonga 267 kishidan iborat Turk kontingenti yuborildi⁹¹. Turkiya Buyuk Millat Majli-

⁸⁹ N. Birtek, Türkiye'nin ikili Dij Yardimlari (1992–1996) / T.C. Bajbakanlik Devlet Planlama Tejkilati. – 1998. S.19

⁹⁰ Ишбулдина К.Р, Афгано-Турецкие отношения на современном этапе (2001–2018 гг.). дисс.кан.ис. – Москва, 2019. – С.64.

⁹¹ Özcan S.A. Turkish Foreign Policy towards Afghanistan: 2009–2010 // PERCEPTIONS, Vol 15. N 3-4. – 2010. – P. 135.

sining 2003-yildagi 5832-sonli qarori bilan 2003-yil 16-yanvarda Kobulda imzolangan Turkiya Respublikasi hukumati bilan Afgʻoniston oʻtish davri maʼmuriyati oʻrtasida “Harbiy sohada taʼlim, texnik va ilmiy hamkorlik toʻgʻrisida”gi shartnoma qabul qilindi. Ushbu kelishuv bilan ISAF doirasida qoʻmondonlik munosabatlarini va unga bogʻliq masalalarni tartibga soluvchi anglashuv memorandumining ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarda majburiyligi bayon etilgan⁹². Bu singari sohalardagi hamkorlik 1996–2001-yillardagi “Tolibon” boshqaruvidan soʻng Afgʻonistonda vayron boʻlgan harbiy va texnik rivojlanishning qaytadan yoʻlga qoʻyilishi va ijtimoiy hayotning tiklanishida muhim amaliy mexanizm boʻlib xizmat qildi. Shu oʻrinda eslatib oʻtish kerakki, Afgʻonistonda harbiy taʼlimni yoʻlga qoʻyishda Turkiya tarixiy tajribaga ega. Yirik sharqshunos-afgʻonshunos olim V.G.Korgunning maʼlumot berishicha, Afgʻonistonda tarixidagi yagona harbiy litsey aynan Turkiya tomonidan 1935-yilda qurilgan boʻlib, 1940–1950-yillar oraligʻida turkiyalik ofitserlar harbiy-maslahatchi sifatida Afgʻonistonga bir necha marta tashrif buyurishgan⁹³. Bu dastlabki zamonaviy Afgʻoniston armiyasining shakllanishida turk modeli asos qilib olinganligini isbotlaydi.

Turkiya qurolli kuchlari Afgʻonistonda deyarli jangovar vazifalarni bajarmaganligini oʻziga xos va puxta oʻylangan ssenariy deya baholashimiz mumkin va bu Turkiyaning Afgʻonistondagi yumshoq kuchining darajasini ham koʻrsatadi. ISAF doirasidagi butun davr turk askarlari qurolli guruhlariga qarshi kurashda qatnashmagan. Buning oʻrniga u harbiy tayyorgarlik, harbiy maslahatlar berish, favqulodda vaziyatlarda aholiga yordam berish va sogʻliqni saqlash kabi sohalarda faol rol oʻynagan. Turkiya Qurolli kuchlarining Afgʻonistondagi xalqaro operatsiyadagi ishtiroki Vardak va Juzjon viloyatlaridagi ikkita Mintaqaviy tiklash guruhlarini (PRT), Kobul mintaqaviy qoʻmondonligiga tayinlangan ikkita batalyon ishchi kuchlari, beshta Operativ qoʻmondonlik va Aloqa guruhi uchun tayinlangan xodimlardan iborat taxminan 1650 kishilik guruhdan iborat. Bu raqam bilan Turkiya Afgʻonistondagi xalqaro operatsiyaga hissa qoʻshgan 50 ta davlat orasida 8-oʻrinni egalladi⁹⁴. Turkiyaning 2001–2014-yillarda-

⁹² “Milletlerarasi andlaşma” Resmî gazete <https://www.resmigazete.gov.tr/eskiler/2010/04/2010-305%20ekler.pdf> (Murojaat qilingan 30.01.2024)

⁹³ Коргун В.Г. История Афганистана. XX век /В.Г.Коргун. – М.: Крафт ИВ РАН, 2004. – С.328

⁹⁴ Oğan, Gökçen “NATO Afganistan’da Zemin Kaybediyor”, Stratejik Analiz, Ocak 2007, Cilt:6,Sayı:81, s. 17.

gi harbiy harakatlardagi ishtiroki mobaynida 30 000 askari Afg'onistonga tashrif buyurdi⁹⁵. Turkiya harbiylarining o'ziga xos xususiyati "Tolibon" va boshqa qurolli guruhlarga qarshi o'tkaziladigan qurolli operatsiyalarda qatnashmaslik haqidagi qat'iy qarori edi. Turkiyaning aynan shu pozitsiyasi kelajakda Turkiyaning Afg'oniston rasmiy hukumati va "Tolibon" o'rtasidagi kelishuvlarida va Pokiston-Afg'oniston munosabatlarida vositachi rolini bajarishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. 2009-yil aprelda NATO yig'ilishida qatnashish uchun Obamaning Turkiyaga tashrifi chog'ida u Turkiyadan Afg'onistonga qo'shimcha qo'shin kiritishni so'ragan⁹⁶. Bu AQSHning yangi strategiyasi doirasida Turkiyani harbiy mojarolarga jalb qilish istagi borligini ko'rsatadi. Ammo shunday vaziyatda ham Turkiya harbiy mojarolarda ishtirok etmasligini ta'kidlab AQSHning so'rovini qat'iy rad etgan⁹⁷.

Turkiya tomoni o'z ishtirokini afg'on harbiylari va politsiya xodimlarini qayta tayyorlash, shuningdek, ayrim strategik obyektlarni himoya qilish bilan chekladi. Natijada Anqara ISAFga a'zo mamlakatlar harbiy kontingentlari orasida eng kam yo'qotishlarga ega (operatsiya davomida 15 nafar turk harbiylari halok bo'lgan) davlat bo'ladi. Barcha yo'qotishlar jangovar xususiyatga ega bo'lmagan. 2012-yilda vertolyot halokatida 12 askar halok bo'lgan, 3 kishi yo'l-transport hodisasi qurboni bo'lgan⁹⁸. Muxolifat guruhlar yoki terrorchi tashkilotlar ham turk askarlarini nishonga olishmagan.

Turkiya o'z ixtiyoridagi harbiy kontingentni va moliyaviy yordamni asosan xavfsizlik xodimlarini tayyorlash, Afg'oniston Milliy armiyasi xodimlarini qayta o'qitish, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va davolash ishlariga sarfladi. 2009–2013-yillar mobaynida Turkiya tomoni 17 mingdan ortiq afg'on askarlarini tayyorlagan, shundan 3,5 ming nafari Turkiyada maxsus harbiy tayyorgarlik amaliyotini o'tab Afg'onistonga qaytgan. Turkiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri Ahmet Dovuto'g'li 2010-yilda Kobul

⁹⁵ Gurcan M. Turkish military support to Afghanistan rises // Al-monitor, 20.11.2014 - <https://www.al-monitor.com/originals/2014/11/turkey-afghanistan-military-presence.html> (murojaat qilingan sana 06.11.2023)

⁹⁶ "Türkiye Afganistan'a bin asker gönderecek", <https://avim.org.tr/tr/Bulten/TURKIYE-AFGANISTAN-A-BIN-ASKER-GONDERECEK>, (07.04.2024)

⁹⁷ Türkiye, Afganistan'a Bin Asker Gönderecek // Avrasya İncelemeleri Merkezi <https://avim.org.tr/tr/Bulten/TURKIYE-AFGANISTAN-A-BIN-ASKER-GONDERECEK>

⁹⁸ Colakoglu S., Yegin M. The Future of Afghanistan and Turkey's Contribution // International Strategic Research Organization (Turkey), September 2014, p. 10, 32. (Umarov)

konferensiyasidagi nutqida “Turkiya Kobul mintaqaviy qo‘mondonligi ni boshqarar ekan, Afg‘oniston milliy xavfsizlik kuchlarini tayyorlashga ham katta sarmoya kiritmoqda. Birgina 2009-yilning noyabr oyidan buyon Afg‘oniston Milliy xavfsizlik kuchlarining 4000 nafar xodimi Turkiya tomonidan o‘qitildi. Joriy yil oxirigacha bu raqamni 7 mingga yetkazamiz”,⁹⁹ – deya Afg‘on milliy armiyasini tashkil qilishda Turkiyaning o‘r-nini izohlagan edi.

Afg‘oniston Milliy armiyasi yaratish doirasida afg‘on harbiy xizmatchilarining Turkiyada qayta ta‘lim olishi va tajribasini boyitishi judayam muhim edi. Aynan shu sohadagi hamkorlik aloqalari 2011-yil 5-martda Kobulda imzolangan “Turkiya Respublikasi hukumati va Afg‘oniston Islom Respublikasi hukumati o‘rtasida Afg‘oniston Milliy politsiyasini tayyorlash va salohiyatini oshirish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida anglashuv memorandumi”ga binoan tashkil qilingan edi. Bu kelishuv Afg‘onistonda zamonaviy armiya yaratilishida ulkan hissa bo‘ldi deyish mumkin.

2014-yil dekabrda ISAF missiyasi tugaganidan so‘ng, 2015-yil yanvar oyida BMT Xavfsizlik Kengashi jangovar bo‘lmagan va Afg‘oniston milliy armiyasi va politsiyasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Qat’iy qo‘llab-quvvatlash missiyasi” (Resolute Support Mission)ni ishga tushirdi. O‘shandan beri Turkiya tomonidan ushbu operatsiya doirasida amalga oshirilgan vazifalarga Kobulda harbiy ta‘lim maktablariga yordam berish, aholiga yordam va maslahat qo‘mondonligi, Hamid Karzay nomli Kobul xalqaro aeroportining ishlashi va xizmatchilarni himoya qilish kabi bir qator faoliyatlar kirgan. Turk Qurolli kuchlari tomonidan ochiqqlangan axborotlarga binoan, AQSH qo‘shinlarini olib chiqish qaroridan oldin Turkiyaning 2020–2021-yil davomida Afg‘onistonda jami 648 nafar xodimi bo‘lishi rejalashtirilgan edi. Qolaversa, 2020-yilning 9-dekabr, chorshanba kuni Anqara shahrida Afg‘oniston Islom Respublikasi va Turkiya Respublikasi vakillarining uchrashuvi bo‘lib o‘tib, unda vakolatli shaxslar ikki davlat o‘rtasida “Harbiy-moliyaviy hamkorlik to‘g‘risidagi bitim” va “Moliyaviy yordamni amalga oshirish protokoli” imzolangan bo‘lib, kelishuvlarga binoan, Turkiya kelgusi besh yil ichida Afg‘oniston Milliy Mudofaa va Xavfsizlik Kuchlariga (ANDSF) 100 million turk lirasi (taxminan 13 million dollar) miqdorida harbiy-texnika yordami ko‘rsatishni rejalashtirayotganligi xabar

⁹⁹ Dışışleri Bakanı Ahmet Davutoğlu tarafından Kabil Konferansı’nda yapılan konuşma (20 Temmuz 2010) <https://www.mfa.gov.tr/kabil-konferansi-26072010.tr.mfa> (10.03.2024)

qilingan edi¹⁰⁰. Biroq ushbu loyihalar “Tolibon” hokimiyatga kelishi fonida amalga oshmadi. Ammo Turkiyaning harbiy salohiyati, harbiy texnikalar borasida so‘nggi yutuqlarini hisobga olib aytadigan bo‘lsak, “Tolibon” hukumati Turkiya bilan harbiy masalalarda yaqin kelajakda hamkorlik qilishi ehtimoldan yiroq emas.

Fuqarolar urushi va avvalgi “Tolibon” hukmronligi davrida Afg‘onistonning vayron bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarini tiklashda ham Turkiya har tomonlama ko‘mak berdi. Turkiyaning bu yo‘nalishdagi siyosatining o‘ziga xos xususiyati afg‘on aholisining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan kichik va arzon loyihalarga e‘tibor qaratish edi. Shuningdek, ushbu faoliyatlar Anqaraning Afg‘onistondagi “yumshoq kuchi”ni mustahkamlashga xizmat qildi. Afg‘onistonda o‘tish davri hukumati tuzilganidan so‘ng 2002-yilda Anqaraga Hamid Karzay boshchiligidagi Muvaqqat ma‘muriyat delegatsiyasi rasman tashrif buyurgan. 2004-yil 2-dekabrda Turkiya Buyuk Millat Majlisining 5269-sonli qarori bilan imzolangan “Turkiya Respublikasi hukumati bilan Afg‘oniston Islom o‘tish davri hukumati o‘rtasida savdo va iqtisodiy hamkorlik shartnomasi” qabul qilindi. Kelishuvga ko‘ra, ikki davlat savdo delegatsiyalari va biznes vakillarining o‘zaro tashriflari ko‘paytirilishga kelishildi. Tegishli korxona va tashkilotlarni ko‘rgazma, yarmarka va boshqa targ‘ibot tadbirlarida imkon qadar faol ishtirok etishga rag‘batlantirish belgilandi.

2005-yil 27-aprelda imzolangan “Turkiya-Afg‘oniston qo‘shma iqtisodiy komissiyasining birinchi muddatli yig‘ilishining o‘zaro anglashuv memorandumini” tasdiqlandi¹⁰¹. Unga ko‘ra 2005-yil oxirigacha ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini 100 million AQSH dollariga, keyingi besh yilda esa 250 million AQSH dollariga yetkazish ko‘zda tutilgan. Ikki davlat o‘rtasida har olti oyda bir marta uchrashadigan Maslahat mexanizmini yaratishga qaror qilindi. Shuningdek, davlat iqtisodi uchun juda muhim soha bo‘lgan banklar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalari ham ko‘rib chiqildi¹⁰².

¹⁰⁰ Türkiye ve Afganistan arasında Askerî-Mali İş Birliği Anlaşması imzalandı. [15.12.2020]

<https://www.defenceturk.net/turkiye-ve-afganistan-arasinda-askeri-mali-is-birligi-an-lasmasi-imzalandi> (Murojaat qilingan 30.04.2024)

¹⁰¹ M. Yildiz. Afganistan’in yeniden inşasında Türkiye’nin rolü (2001-2011). Doktora tezi. – Ocak., 2014. – S.92

¹⁰² M. Yildiz. Afganistan’in yeniden inşasında Türkiye’nin rolü (2001-2011)... Doktora tezi. – Ocak., 2014. – S.92

2005-yil noyabr oyida Turkiya o'sha paytdagi Bosh vaziri R.T.Erdog'an H.Karzayning 2002-yilda Turkiyaga qilgan tashrifiga javoban Afg'onistonga keldi. Suhbat chog'ida Afg'onistondagi beqaror vaziyatni yaxshilash masalalari ko'rib chiqildi, fan, ta'lim, madaniyat kabi yo'nalishlarga doir kelishuvlar imzolandi.

2006-yilning boshida Afg'oniston Islom Respublikasi davlat rahbari Hamid Karzay rasmiy tashrif bilan yana Turkiyaga keldi, endi bu safar so'nggi 48 yil ichida Afg'oniston davlat rahbarining Turkiyaga rasmiy birinchi safari edi (so'nggi marta 1957-yil Zohirshoh Turkiyaga tashrif buyurgan). Tashrif jarayonida "Turkiya hech qachon Afg'onistonni yordamsiz tark etmagan, bu jarayonlarda ham Turkiyadan yordam berishni to'xtatmasligini so'raymiz. Yaqinda tashkil etilgan hukumatimiz muvaffaqiyatga erishishi uchun bunga muhtojdir"¹⁰³, – dedi Afg'oniston prezidenti. O'sha yilning noyabr oyida Turkiya Kobuldan 40 km g'arbda joylashgan Vardak viloyatida o'z qayta tiklash guruhini tuzdi. Statistik ma'lumotlar ko'ra, Turkiyaning Afg'onistonga yordami 2001–2005-yillarda taxminan 600 million dollar ni tashkil etgan, har yili Afg'onistonga to'g'ridan to'g'ri yordam 160–170 million dollarga to'g'ri keladi. 2014-yilga kelib Afg'onistondagi turk gumanitar sarmoyasi taxminan 2 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va bu mablag'larning barchasi Turkiya davlat byudjeti hisobidan qoplangan. Turkiya Tashqi ishlar vazirligining 2016-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, 2002–2014-yillar oralig'ida Turkiyaning Afg'onistonga ko'rsatgan to'g'ridan to'g'ri moliyaviy yordamining hajmi 950 million dollarga yaqinlashgan¹⁰⁴. Shu bilan birga, Afg'oniston 2007-yilda Turkiyaning rivojlanish bo'yicha yordamini oluvchi davlatlar orasida birinchi o'ringa chiqdi va keyingi 3 yil ichida bu ko'rsatkich saqlanib qoldi.

2007-yilda Turkiya Buyuk Millat Majlisining 5694-sonli qarori bilan ikki davlat o'rtasida "Qishloq xo'jaligi sohasida texnik, ilmiy va iqtisodiy hamkorlik protokoli" imzolandi¹⁰⁵. Bayonnomaga ko'ra, ikki davlat qishloq xo'jaligi, o'simliklarni himoya qilish, chorvachilik, baliqchilik, qishloq

¹⁰³ Duyuru 10, 13 Kasım 2009, Dışişleri Bakanı Sayın Ahmet Davutoğlu'nun Afganistan Ziyareti Hk // https://www.mfa.gov.tr/duyuru-10_-13-kasim-2009_-disisleri-bakani-sayin-ahmet-davutoglu_nun-afganistan-ziyareti-hk_tr.mfa

¹⁰⁴ Алиева А.И. Афганская стратегия Турции: содействие безопасности и развитию // Вестник МГИМО-Университета. – Москва. № 2. Vol 47. – 2016. – С. 82, 84.

¹⁰⁵ Turkiya Respublikasi prezidenti rasmiy gazetasi: 2007 yil 8 dekabr <https://www.resmigazete.gov.tr/eskiler/2007/12/20071208-2.htm>

xo'jaligini mexanizatsiyalash, irrigatsiya va qishloq xo'jaligini rivojlantirish sohalarida hamkorlik qiladigan bo'ldi. Hamkorlikni amalga oshirish maqsadida besh kishidan iborat Qishloq xo'jaligi ijroiya qo'mitasi tashkil etildi. Protokolning amal qilish muddati tugashiga kamida olti oy qolganida tomonlardan biri uning amal qilishini tugatish to'g'risida yozma ravishda xabardor qilmasa, Protokol besh yil davomida amalda bo'lishi va uning amal qilish muddati avtomatik ravishda besh yilga uzaytirilishi to'g'risida qaror qabul qilindi¹⁰⁶.

2009-yil 19-dekabr, Turkiya tashqi ishlar vaziri A. Dovuto'g'li Prezident Hamid Karzayning ikkinchi muddatga prezidentlikka saylanishi munosabati bilan inauguratsiya marosimida ishtirok etish uchun Kobulga keldi¹⁰⁷. Ushbu tashrif Anqaraning Afg'onistonni tinch yo'l bilan tiklash jarayoni yordam va taraqqiyot dasturiga qo'shimcha hissa qo'shishda ishtirok etishga qaror qilganligini ta'kidladi.

Afg'oniston-Turkiya davlatlararo munosabatlarining muhim voqealaridan yana biri Afg'oniston Tashqi ishlar vaziri Zalmay Rasulning 2011-yil 3-yanvarda Turkiyaga tashrifi bo'ldi. U Anqarada bo'lib o'tgan Turkiya elchilarining 3-konferensiyasida ishtirok etdi. Zalmay Rasul Turkiya Prezidenti Abdulla Gul va hamkasbi Ahmet Dovuto'g'li bilan uchrashuvda Turkiyaning Afg'onistonga ko'rsatayotgan yordami muhimligini ta'kidlab, "zamonaviy afg'on armiyasi turk zobitlari tomonidan yaratilgan", – dedi¹⁰⁸. Turkiya va Afg'oniston o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganining 90 yilligi munosabati bilan 2011-yilning 1-martida Turkiya-Afg'oniston do'stlik kuni rasmiy tadbirlar va maxsus madaniy dastur bilan nishonlandi va bu an'ana 2021-yil "Tolibon" vakillarining Afg'onistonni egallagunigacha davom etib kelgan.

Turkiya Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi uchun 2014-yil juda muhim siyosiy voqealarga boy yil bo'ldi. Ikki mamlakatda ham prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi. Turkiyaning sobiq bosh vaziri Rajab Toyib Erdog'an mamlakatning oliy rahbarligiga saylangan bo'lsa, Afg'onistonda Ashraf G'ani Ahmadzoy prezidentlikka keldi. O'shandan beri yuqori daraja-

¹⁰⁶ Turkiya Respublikasi prezidenti rasmiy gazetasi: 2007-yil 8-dekabr <https://www.resmigazete.gov.tr/eskiler/2007/12/20071208-2.htm>

¹⁰⁷ Turkiya Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb sayti: https://www.mfa.gov.tr/duyuru-10_-13-kasim-2009_-disisleri-bakani-sayin-ahmet-davutoglu_nun-afganistan-ziyareti-hk_.tr.mfa

¹⁰⁸ Свистунова И.А. О политике Турции в отношении Афганистана. Internet manba <https://centrasia.org/news.php?st=1295733060> (murojaat vaqti 07.04.2024)

dagi afgʻon-turk aloqalari jadallashdi. Shu yilning oʻzidayoq Turkiya Prezidenti R.T.Erdogʻan rasmiy tashrif bilan Afgʻonistonga keldi. Bu uchrashuv Turkiya davlati rahbarining oxirgi 45 yil ichida Afgʻonistonga ilk tashrifi boʻlgani uchun ikki davlat aloqalarida muhim ahamiyatga ega edi. Turkiya delegatsiyasi Prezident A.Gʻani, yangi Ijroiya hukumati rahbari Abdulla Abdulla hamda Afgʻoniston oʻzbeklari yetakchisi, Afgʻoniston Islom Respublikasi birinchi vitse-prezidenti Abdul Rashid Doʻstum bilan uchrashdi¹⁰⁹. Tashrif yakunlari boʻyicha “Strategik sheriklik va doʻstlik toʻgʻrisida”gi bitim imzolandi. Hujjat 17 moddadan iborat boʻlib, toʻrtta tilda tayyorlangan. Unga koʻra muammolarni birgalikda hal qilish, terrorizm va ekstremizmga, uyushgan jinoyatchilik va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni kuchaytirishga kelishib olindi. Mintaqaviy integratsiyani faollashtirish maqsadida Kobul va Anqara qoʻshma iqtisodiy komissiyalar, mintaqaviy koʻptomonlama uchrashuvlar tashkil qilish, iqtisodiy oʻzaro hamkorlikning yangi yoʻnalishlarini oʻrganish, ish oʻrinlari yaratish va aholi bandligini oshirishga yordam beradigan xususiy sektorga sarmoya kiritishni ragʻbatlantirish chora-tadbirlari koʻrib chiqildi. Ushbu uchrashuv ikki davlat oʻrtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi. Imzolangan hujjatlarning mazmuniga eʼtibor qilsak iqtisodiy, siyosiy, harbiy, taʼlim, sogʻliqni saqlash va shu kabi deyarli barcha sohalarga oid muhim kelishuvlar imzolanganiga guvoh boʻlamiz.

2015–2016-yillarda Turkiya tashqi siyosatida oʻzgarishlar sodir boʻldi. Bu Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning keskinlashuvi va Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar bilan bogʻliq edi. Xalqaro munosabatlar tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlish uchun kurashayotgan Turkiyaning oʻzida kurdlar muammosining toʻliq hal etilmaganligi, Suriyadagi mojarolarga aralashib qolishi uning tashqi siyosatida oʻzgarishlarga olib keldi. 2016-yilgi davlat toʻntarishiga urinishlar esa Turkiyadagi siyosiy jarayonlarni chigallashtirib, Gʻarb bilan munosabatlarida yanada sovuqchilik tushirdi. Oʻz tadqiqotida yuqoridagi omillarni tavsiflar ekan, rossiyalik tadqiqotchi Kseniya Ishbuldina bu oʻzgarishlar Turkiyaning tashqi siyosatidagi Afgʻoniston vektorida hech qanday oʻzgarishlarga olib kelmadi, deb taʼkidlaydi¹¹⁰. Ammo

¹⁰⁹ Turkish President Erdogan pays historic visit to Afghanistan // <http://www.hurriyetdailynews.com/turkish-president-erdogan-pays-historic-visit-to-afghanistan.aspx?pageID=238&nID=73155&NewsCatID=510>

¹¹⁰ Ишбулдина К.Р. Афгано-Турецкие отношения на современном этапе (2001–2018 гг.). Дисс.кан.ис. – Москва, 2019. – С.64

bu fikrlarga qo'shilish nazarimizda unchalik to'g'ri emas. Sababi 2016-yilgi davlat to'ntarishi fonida Erdog'an hukumatining qat'iy talabi asosida Fathullo Gulen ta'sisligida ochilgan va ancha mashhurlikka erishgan turk maktablari faoliyati butun dunyoda to'xtatila boshlaganda Afg'oniston ham bundan chetda qolmadi. O'shanda Fathullo Gulen davlat to'ntarishiga urinishda ayblanib, unga qarashli bo'lgan maktablarini Turkiyaning "Maarif" davlat jamg'armasi boshqaruviga o'tkazishga qaror qilingan. 2017-yilning fevralida Afg'oniston va Turkiya hukumati o'rtasida "Gulenchilar" tomonidan boshqariladigan turk maktablari faoliyati cheklanib, Turkiya hukumati ga loyol bo'lgan tuzilmalar nazoratiga o'tkazishga kelishilgan edi. 2017-yil may oyida Afg'oniston hukumat komissiyasi Anqaraning qistovi bilan ushbu maktablarni butunlay tarqatib yuborishni ma'lum qildi. Unga ko'ra 150 ga yaqin Gulen tarafdori bo'lgan o'qituvchilarni ishdan bo'shatish rejalashtirilgan edi. Bu afg'on-turk maktablari o'qituvchilari va o'quvchilari orasida keng rezonansga sabab bo'ldi. Afg'oniston jamiyatida turk maktablari boshqaruvi mavzusi faol muhokama qilindi. Ayrim ommaviy axborot vositalari bu qadamni ahmoqlik yoki xiyonat deb atadi¹¹¹. Talabalarining ota-onalari ushbu maktablarni "Maarif" jamg'armasiga o'tishiga noroziliklarini imzo to'plash orqali bildirishdi. Natijada 1 million imzo to'plandi. Ushbu masala ikki davlat munosabatlarida o'zgarish yasashi mumkinligiga dalolat sifatida Turkiya ta'lim vaziri Esmet Yolmaz: "Bu maktablar yopilmaydi, balki darslar sifati yuqori bo'lgan boshqa turk ta'lim muassasalariga o'tkaziladi", – deya vaziyatga munosabat bildirishga majbur bo'lganini aytib o'tishimiz mumkin¹¹². Turkiya ta'lim vaziri, shuningdek, Afg'oniston va Turkiya terrorizmga qarshi kurashayotganligini, ushbu maktabga taluqli shaxslar ham bunga aloqador bo'lishi mumkinligi ehtimoli jihatidan maktablarni yopish bo'yicha Turkiya qarorining qat'iyligiga urg'u bergan.

Tinchlik jarayoni Afg'oniston siyosatidagi yana bir muhim kun tartibidir. Afg'onistonda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha milliy

¹¹¹ <https://www.bbc.com/persian/afghanistan-40491218>

بستگان شاگردان افغان-ترک: اداره مکاتب را به دولت ترکیه نسپارید

¹¹² علی اصغری حکومت افغانستان مسئولیت مدیریت مکتب های افغان-ترک را به دولت ترکیه سپرد

<https://www.ariananews.af/fa/%D8%AD%DA%A9%D9%88%D9%85%-D8%AA-%D8%A7%D9%81%D8%BA%D8%A7%D9%86%D8%B3%D8%AA%-D8%A7%D9%86-%D9%85%D8%B3%D8%A6%D9%88%D9%84%DB%8C%-D8%AA-%D9%85%D8%AF%DB%8C%D8%B1%DB%8C%D8%AA-%D9%85%-DA%A9%D8%AA%D8%A8-%D9%87/>

va xalqaro sa'y-harakatlar so'nggi paytlarda jadallashib bormoqda. 2018-yil oktyabr oyidan buyon AQSH va Tolibon o'rtasidagi muzokaralarda muro-saga erishilgan va tomonlar 2020-yil 29-fevralda Dohada "Afg'onistonda tinchlik o'rnatish to'g'risidagi bitim" nomli matnni imzolagan edi. Maro-simda Qatar tomonining taklifiga binoan Turkiya tashqi ishlar vaziri Mav-lud Chavusho'g'li ham ishtirok etdi. Ikki o'rtada muhokama qilingan keli-shuvga binoan shartnomada quyidagilarga kelishilgan:

1) Afg'oniston hududidan AQSH va uning ittifoqchilari xavfsizligiga qarshi foydalanishga yo'l qo'ymaslik;

2) Afg'onistondagi barcha xorijiy qo'shinlarni olib chiqib ketish uchun bosqichma-bosqich ishlarni amalga oshirish;

3) 2020-yil 10-martdan boshlab afg'onlararo muzokaralarni boshlash;

4) Kelishuvlar natijasiga binoan doimiy va keng qamrovli o't ochishni to'xtatishga erishish¹¹³. Ushbu kelishuvlarning deyarli barchasida Turkiya ishtirok etib kelgan. Amerika o'z kuchlarini Afg'onistondan olib chiqib ke-tishiga qaramasdan Turk kontingenti Afg'onistonda eng oxirigacha qolishga qaror qildi. Milliy Mudofaa vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Afg'onistondagi turk askarlarining so'nggi vazifalaridan biri Kobul aeroporti vazifasini ba-jaruvchi Hamid Karzay xalqaro aeroportida "operatsiya va kuch himoyasi xizmatlarini" taqdim etish edi. Ekspertlar tomonidan Turkiyaning Afg'onis-tonda qolishiga undovchi bir qator sabablar keltirilgan. Birinchidan, AQSH bilan munosabatlarni yaxshilash, ikkinchidan muhojirlar oqimining oldini olish uchun va Afg'onistonni barqarorlashtirish, uchinchidan, mintaqa geo-siyosatida o'z o'rnini mustahkamlash¹¹⁴.

Umuman olganda xulosa qilish mumkinki, Turkiyaning Afg'oniston bilan 2001–2021-yillardagi munosabatlari doimiy o'sishda bo'lgan. Tur-kiya Afg'oniston bilan mavjud barcha sohalarida samarali hamkorlik qilish orqali tinch hayot va barqaror iqtisodiy asoslarni qurishda, milliy politsiya va milliy armiyani yaratishda muhim hissa qo'shgan. 2001-yildan boshlab Afg'onistonni qayta qurishda Anqaraning ishtiroki ikki o'rtada imzolan-gan shartnomalar orqali munosabatlarning mustahkam huquqiy asoslarini ta'minlagan.

¹¹³ O. Veretilnyk, США–Талибан: трудности и перспективы реализации мирного соглашения // *Studia Orientalne* R. 11, №. 1 Vol 21. – 2022. – С.32

¹¹⁴ E. E. Güzeldere, Turkey in Afghanistan: More than one reason to stay // *Hellenic foundation for European & foreign policy (Eliamep)*. – Athens, 2022. – P.16

Turkiya 2001-yilda tuzilgan H.Karzay boshchiligidagi Muvaqqat hukumat bilan birinchilardan bo'lib samarali muloqotni yo'lga qo'yganligi, Afg'onistonda yuzlab iqtisodiy loyihalar va ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirganligi, harbiy sohadagi hamkorlik munosabatlari va harbiylarni tayyorlashda turk mutaxassislarining yordami ochib berilgan.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va gumanitar kabi sohalarda ham xuddi shunday yuqori darajadagi hamkorlik aloqalarining mavjulgigi Kobul Anqaraning rivojlanishga rasmiy yordam dasturiga ko'ra moliyaviy yordam oluvchi uchinchi yirik davlat hisoblanishi bilan dalillanishi mumkin.

Turkiya ikkitomonlama siyosiy muloqotni yo'lga qo'yishda etnik o'zbeklar, turkmanlar, hazoralarning siyosiy rahbarlari bilan yaqin hamkorlik qilganligi marshal Abdul Rashid Do'stum bilan munosabatlari orqali izohlashga harakat qilingan.

2.2. Afg'oniston-Turkiya munosabatlarining rivojlanishida Istanbul jarayonining o'rni

Afg'onistondagi cho'zilgan mojaro butun mintaqa hayotiga ta'sir ko'rsatdi. Ekstremizm va terrorizm tahdidi, narkotik moddalar va noqonuniy qurol savdosi ko'lami oshishi mintaqa davlatlarining umumiy integratsion jarayonlariga salbiy ta'sir qildi. Afg'onistonda faqatgina harbiy harakatlar bilan barqarorlikka erishib bo'lmashligini Xalqaro koalitsiya qo'shinlari dastlabki o'n yillik faoliyatidan ham xulosa qilish mumkin edi. Shu sababli harbiy harakatlar bilan bir paytda Afg'onistonda tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ko'plab xalqaro uchrashuvlar ham tashkil qilindi. Bu amaliy harakatlarning dastlabkisi Germaniyaning Bonn shahrida o'tkazilgan yuqori darajadagi uchrashuv bilan boshlandi. Ushbu uchrashuvlarda nafaqat Afg'onistondagi vaziyat, balki uning Markaziy va Janubiy Osiyo hamda Yaqin Sharqdagi geosiyosiy tarangliklarga ham ta'siri borligi muhokama qilindi.

Iroqqa G'arb kuchlarining bostirib kirishi, Eronning yadro dasturi, Arab bahori kabi voqealarning yuz berishi, qolaversa, Afg'onistondagi cho'zilib ketgan harbiy operatsiyalar yuqoridagi mintaqalardagi vaziyatni hal qilish uchun yangicha yondashuv zarurligini amalda ko'rsatdi. Vaqt o'tishi bilan ko'plab o'yinchilar AQSHning Afg'onistondagi mavjudligini o'z manfaatlariga tahdid sifatida qabul qila boshladilar¹¹⁵. Afg'oniston ma-

¹¹⁵ Rubin B.R. Beyond stalemate in Afghanistan // Пути к миру и безопасности. – 2017, № 1(52). – P. 246.

salasida tashkil qilingan 2006-yilgi London konferensiyasi va 2008-yilda Afgʻoniston boʻyicha Milliy rivojlanish strategiyasida tinchlikka erishish yoʻli sifatida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash gʻoyalari ilgari surildi. Bunday sharoitda mojaroni hal qilishda manfaatdor tomonlarni jalb qiluvchi mintaqaviy yondashuv zarur edi. Natijada Afgʻoniston masalasiga Amerika yangicha yondashuv zarurligini tushundi. 2009-yil Barak Obama hokimiyat tepasiga kelishi bilan Afgʻonistondagi mojaroni hal qilishning yangi rejasi – “AfPak” paydo boʻldi. Ushbu strategiyaga koʻra Amerika uchun Afgʻoniston va Pokiston yagona harbiy-siyosiy makon sifatida qabul qilindi¹¹⁶.

2009-yilda Obama maʼmuriyati Afgʻoniston boʻyicha yangi mintaqaviy strategiya doirasida Richard Xolbrukni Afgʻoniston boʻyicha maxsus vakil etib tayinlagan boʻlsa, Britaniya Sherard Kouper-Koulzni oʻzining vakili etib belgiladi. R. Xolbrukning taʼkidlashicha, Afgʻonistondagi vaziyatni oʻz qoʻshnilari, birinchi navbatda Pokiston, shuningdek, Hindiston, Xitoy va Rossiya singari mintaqaviy yirik kuchlarni jiddiy va jamoaviy jalb qilmasdan turib barqarorlashtirish mumkin emas edi. Bu jihatdan R.Xolbruk qaysidir tomondan Istanbul jarayonlarining asoschisi edi. Oʻz hisobotlarini davom ettirar ekan, Xolbruk: “Afgʻoniston boʻyicha Amerika diplomatiyasiga xos boʻlgan ketma-ket ikkitomonlama munosabatlar samarasizdir, buning oʻrniga, biz Afgʻonistonni barqarorlashtirishda ular bilan birgalikda ishlashni xohlayotganimizga ishonish uchun mintaqaviy manfaatdor tomonlar kerak¹¹⁷”, – deya yuqoridagi fikrlarini yana bir bor tasdiqladi. Haqiqatan Eron, Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyo respublikalari ham Afgʻoniston va uning atrofidagi vaziyatni barqarorlashtirishdan manfaatdor edi.

Oʻz navbatida, mintaqaning boshqa davlatlari bilan muvofiqlashgan strategiya ishlab chiqishda va 2001-yildan keyingi davrda “AfPak” munosabatlarida Turkiya muhim rol oʻynadi. Turkiya ushbu davlatlar bilan tarixiy aloqalarga ega tajribalaridan kelib chiqqan holda “Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni” deb nomlangan yangi platformani ishlab chiqdi. Bu platformaning istiqboli yaxshi kechadigan boʻlsa ham NATOdagi oʻz ittifoqchilari, jumladan Amerikaning ham koʻz oʻngida oʻz nufuzini oshirgan boʻlar, ham

¹¹⁶ A.H. Fayzullayev. “Istanbul jarayoni” afgʻon muammosini hal qilish boʻyicha eng yirik platforma sifatida // OʻzMU xabarleri. – Toshkent, 2023. Vol 1, № 10. – B.27.

¹¹⁷ M. Quie The Istanbul Process: prospects for regional connectivity // Asia Europe Journal, – 2014 This article is published with open access at Springerlink.com <https://link.springer.com/article/10.1007/s10308-014-0385-7>

Sharqdagi ittifoqchilar, jumladan islom olamida yetakchi kuch ekanligini isbotlar edi.

Istanbul jarayonlarining boshlanish nuqtasi Turkiya, Afgʻoniston va Pokiston davlat rahbarlarining ilk marta Anqarada 2007-yilgi uchrashuvi bilan boshlanib, dastlab “Anqara jarayoni” deb nomlangan. Ushbu tashabbusning dastlabki maqsadi Afgʻoniston va Pokistonning sovuqlashgan munosabatlari yaxshilashga qaratilgan. Afgʻoniston rasmiy hukumatida Pokiston “Tolibon”ni qoʻllab-quvvatlayotgani va Pokistonning shimoli-gʻarbiy qabilaviy hududlari afgʻon hukumatini agʻdarishga urinayotgan “Tolibon” jangarilari uchun baza sifatida foydalanilayotganligi boʻyicha ishonchli maʼlumotlarga ega edi. Ushbu holatda rasmiy Kobul va Islomobodning yaqinlashuvi mintaqada tinchlik oʻrnatish uchun juda ham zarur boʻlib, uchtomonlama uchrashuv aynan shu kelishmovchilikni hal qilish uchun Turkiya vositachiligida tashkil qilingan edi¹¹⁸.

Ushbu tashabbus boshlangandan buyon prezidentlar darajasidagi yettita sammit boʻlib oʻtgan (2007, 2008, 2009, 2010, 2011 va 2012-yillarda ikki marta). Turkiya, Afgʻoniston va Pokiston yetakchilari 2007-yil 29-aprel kuni Turkiya poytaxtida ilk marta bir joyga yigʻildi¹¹⁹. Turkiya Prezidenti Ahmet Nejet Sezer mezbonlik qilgan uchrashuv yakunida Afgʻoniston Prezidenti Hamid Karzay va Pokiston Prezidenti Parvez Musharraf ishtirokida Anqara deklaratsiyasi eʼlon qilindi. Anqara deklaratsiyasida Afgʻoniston va Pokistonning ikkitomonlama aloqalari yaxshi qoʻshnichilik munosabatlari, hududiy yaxlitlikni oʻzaro hurmat qilish va ichki ishlarga aralashmaslik asosida mustahkamlanishi kabi ayni damda dolzarb boʻlgan masalalar muhokama qilindi¹²⁰. Anqarada boʻlib oʻtgan sammitlarda Pokistondagi afgʻon qochqinlarining oʻz yurtlariga tartibli tarzda qaytishini taʼminlash uchun birgalikda ishlash qarori bilan bir qatorda mintaqada tinchlik, xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy oʻsishni yaxshilash masalalari muhokama qilindi¹²¹.

¹¹⁸ “Pakistan, Afghan, Turkish Presidents Pledge Cooperation in Terrorism Fight,” Voanews.com, 5 December 2008, <https://www.voanews.com/a/a-13-2008-12-05-voa72-66619192/556489.html>

¹¹⁹ راضیه غوث، جایگاه ترکیه در سیاست خارجی افغانستان // فصلنامه مطالعات منطقه‌ای. ۶۱۰۲.

- ص. ۱۱۱

¹²⁰ “Declaration from Karzai and Musharraf”, BBC Turkish, 30 April 2007, http://www.bbc.co.uk/turkish/europe/story/2007/04/070430_turkey_pakistan_afghan.shtml. (30.06.2014)

¹²¹ “Üçlü Doruk Toplantısı Sonrasında Yayınlanan Ankara Bildirisi” <https://tccb.gov.tr/basin-aciklamalari-ahmet-necdet-sezer/1720/7295/uclu-doruk-toplantisi-sonrasinda-yayimlanan-ankara-bildirisi>

Ushbu yoʻnalishdagi keyingi uchrashuv 2008-yil 5-dekabrda Istanbulda Turkiya Prezidenti Abdulla Gul, Afgʻoniston Prezidenti Hamid Karzay va Pokiston Prezidenti Osif Ali Zardoriy ishtirokida boʻlib oʻtdi. Navbatdagi ushbu uchtomonlama sammitda tomonlar oʻrtasida hamkorlikni kengaytirish uchun xizmat qiladigan mexanizmlarni yaratish masalasiga eʼtibor qaratildi. Hamkorlikning rivojlanishiga taʼsir qilishi mumkin boʻlgan baʼzi toʻsiqlarni bartaraf qilishga kelishildi. Keyingi sammitlarda Pokiston va Turkiya oʻrtasidagi temiryoʻl tarmogʻining Afgʻonistongacha kengaytirilishi va bu davlatlar oʻrtasidagi aloqa, havo yoʻllari, savdo va energiya aloqalarining mustahkamlanishiga qaror qilindi¹²². Mintaqa davlatlari, jumladan, Afgʻoniston oʻzidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishning asosiy yechimi iqtisodni jonlantirish ekanligiga urgʻu berildi. Mana shu uchrashuvda Afgʻon mojarosiga mintaqaning boshqa davlatlarini ham jalb qilish kerakligi taʼkidlandi. Endi mintaqaviy yondashuv gʻoyasi qaytadan kuchaydi.

B. Obama 2011-yil 22-iyunda AQSH qoʻshinlarining bir qismini Afgʻonistondan chiqarish boʻyicha buyruq berdi. “AfPak” loyihasi keyingi ustuvor masala sifatida mintaqada tinch va barqaror hamkorlik yaratish, Afgʻoniston va unga qoʻshni boʻlgan davlatlar hamda mintaqaviy tashkilotlar oʻrtasida koʻp tomonlama muloqot va hamjihatlikni jadallashtirish maqsadida Istanbul jarayonini boshlash gʻoyasiga asos boʻlib xizmat qildi. Yuzaga kelgan joriy tashabbus Afgʻoniston va Turkiyaning faol ishtirokida amalga oshirildi. Turkiyada boshlangan va Kobulda davom ettirilgan “Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni” nizolarni bartaraf qilishda manfaatdor tomonlarni jalb qiluvchi mintaqaviy yondashuvning muhim elementiga aylandi. Shu oʻrinda shuni eslab oʻtish kerakki, “Osiyo yuragi” atamasini birinchi boʻlib pokistonlik shoir Muhammad Iqbol (1877–1938) oʻz ijodida Afgʻonistonga nisbatan ishlatgan. Iqbol oʻz asarida Janubiy va Markaziy Osiyo, Xitoy va Yaqin Sharq oʻrtasida oʻziga xos koʻprik boʻlgan Afgʻonistonning Osiyoda oʻziga xos geografik ahamiyatga ega ekanligini qayd etib oʻtgan¹²³.

2011-yil noyabrda boʻlib oʻtgan oltinchi sammitdan soʻng Pokiston Prezidenti Osif Ali Zardoriy Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasidagi muammo-

¹²² “Turkey-Afghanistan-Pakistan Trilateral Summit in Istanbul”, Presidency of Republic of Turkey, December 24, 2010. <http://www.tccb.gov.tr/haberler/170/78467/istanbul-da-turkiyeafghanistanpakistan-uclu-zirve-toplantisi.html> (15.09.2012)

¹²³ К.Р.Ишбулдин. Стамбульский процесс по Афганистану через призму теорий урегулирования конфликтов // Международные процессы. – 2019. Том 17, № 4. сс. 135–152.

larni hal qilishda qanday uzoqda joylashgan boshqa davlatdan ko‘ra Turkiya kabi mintaqani, uning umumiy madaniyatini yaxshi biladigan davlat muhim ekanligini quyidagicha izohlagan edi: “Turkiya bizning do‘stimiz va birodar musulmon davlatimizdir. Shuning uchun Turkiya bizga kerak bo‘lganda bizni qo‘llab-quvvatlashi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi to‘g‘riroq, deb o‘ylayman¹²⁴”. Turkiyaning mintaqaviy ro‘li va uchtomonlama tashabbuslarini ayni Afg‘oniston tomoni ham xuddi shunday ijobiy baholagan. Masalan, Afg‘onistonning o‘sha paytdagi tashqi ishlar vaziri Rasul Zalmay: “Afg‘onlar Turkiyadek do‘stga ega bo‘lishdan sharaf va baxtiyor”, – deb aytgan edi.

2011-yil Istanbulda tashkil etilgan “Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni” loyihasining geografik ko‘lami va iqtisodiy-siyosiy ta’siri oshar ekan, Turkiyaning taklifiga binoan Istanbulda Afg‘oniston, Pokiston va Turkiya prezidentlari, Eron prezidentining birinchi o‘rinbosari, Xitoy prezidentining maxsus vakili va tashqi ishlar vaziri, Tojikiston tashqi ishlar vaziri uchrashdi. Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Qirg‘iziston, Saudiya Arabistoni, BAA, Rossiya, Islom konferensiyasi, Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, BMT, Yevropa Ittifoqi va NATO vakillari kuzatuvchi sifatida qatnashdilar.

Istanbul jarayoni 15 ta to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki mintaqaviy qo‘shnilar tomonidan tuzilgan bo‘lib, unga Afg‘oniston, Ozarbayjon, Xitoy, Hindiston, Eron, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Pokiston, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, BAA va O‘zbekiston kiradi¹²⁵. “Qo‘llab-quvvatlovchi davlatlar” qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Misr va Iroq kabi davlatlar kiradi. Ushbu platforma asosan mintaqaviy mexanizmlar orqali xavfsizlikning inklyuziv tushunchasini o‘z ichiga oladi. U mavjud mexanizmlar bilan sinergiyaga chaqiradi va individual tashabbuslarga yanada izchil, tizimli yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Jarayon siyosiy va xavfsizlik sohalarini; iqtisodiy, ta’lim va madaniyat sohalarini; ilm-fan va texnologiya; huquqni muhofaza qilish organlari, shuningdek, Afg‘oniston va mintaqaviy hamkorlikka hissa qo‘shish imkoniyatiga ega davlatlar o‘rtasidagi ikkitomonlama, uchtomonlama va to‘rtomonlama tashabbuslarni ham e’tiborga oladi, ularni faollashtirishga chaqiradi. U Afg‘oniston va uning qo‘shnilari o‘rtasida hamkorlik va muloqotni faollashtirish-

¹²⁴ K. Kaya Turkey’s Role in Afghanistan and Afghan Stabilization // Military Review the professional journal of the U.S. army. – 2013. Vol 10. № 4. – P.25

¹²⁵ The Heart of Asia-Istanbul Process (HoA-IP) formal web site: <https://www.hoa.gov.af/video-gallery.html> <https://youtu.be/Y03fvKNW-C0>

ga qaratilgan turli sa'y-harakatlarni olqishlaydi, mintaqadagi barcha davlatlar duch kelayotgan turli muammolarning o'zaro bog'liqligini tan oladi¹²⁶.

2011-yil noyabr oyida Turkiya poytaxtida boshlangan jarayonning to'liq nomi "Xavfsiz va barqaror Afg'oniston uchun mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Istanbul jarayoni"dir. Istanbul jarayonining markazida 2002-yilda qabul qilingan "Yaxshi qo'shnichilik munosabatlari to'g'risida" gi Kobul deklaratsiyasi yotadi, unda mintaqa ravnaqini ta'minlash bo'yicha ish yo'nalishlari belgilab berilgan. Ular orasida: terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, shuningdek, tomonlarning bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik huquqini o'zaro tan olish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Bu jarayon "Osiyo yuragi" mintaqasida mintaqaviy hamkorlikning yangi kun tartibi markaziga Afg'onistonni qo'yish va "Osiyo yuragi" mamlakatlarini tinch va barqaror eltish orqali mintaqani xavfsiz va farovon hududga aylantirishga intildi¹²⁷.

Jarayon uchta muhim jihatga ega. Birinchidan, maqsad ikkitomonlama – Afg'onistonda tinchlik o'rnatishni siyosiy yo'l bilan rag'batlantirish va qisman shu maqsadda vosita sifatida, keng ko'lamli iqtisodiy, texnik va siyosiy masalalar bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni rag'batlantirish. Bunda asosiy e'tiborning nodavlat notijorat tashkilotlari va tijorat tuzilmalari diplomatiyasiga qaratilishi avvalgi konferensiyalardan "Istanbul jarayonlari"ning farqini ko'rsatadi. Ikkinchidan, 2012-yil iyun oyida Kobulda vazirlarning birinchi navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tgan jarayonni institutsionallashtirish bo'yicha sa'y-harakatlar olib borildi va turli sohalarda – tabiiy ofatlarni boshqarishdan tortib terrorchilar va noqonuniy narkotik savdosiga qarshi kurashgacha – amaliy hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqildi. Uchinchidan, ishtirokchilar buni Osiyo jarayoni sifatida ko'rib, G'arb davlatlarining ikkinchi darajali ishtirokidan manfaatdor edilar. Chunki bu jarayonlarda asosiy e'tibor mintaqaviy ishtirokchilarga, jumladan Afg'onistonning o'ziga katta rol berilgan edi. Kobuldagi vazirlar uchrashuvidagi "Osiyo yuragi vazirlar konferensiyasi" sarlavhasi bilan nomlanishi ham mintaqaviy muammoni hal qilishda Osiyo davlatlariga katta ahamiyat berilganligini ko'r-

¹²⁶ Turkish Ministry of Foreign Affairs, "The Istanbul Process on Regional Security and Cooperation for a Secure and Stable Afghanistan, 2 November 2011", <http://www.mfa.gov.tr/istanbul-process-onregional-security-and-cooperation-for-a-secure-and-stable-afghanistan.en.mfa> (30.6.2014)

¹²⁷ "Conference Declaration", "Heart of Asia" Ministerial Conference, Kabul, June 14th 2012, https://www.mfa.gov.tr/site_media/html/heart-of-asia-ministerial-conf-declaration.pdf

satdi¹²⁸. Asosiy koalitsiya xalqaro hamjamiyatning boshqa aʼzolarini qoʻllab-quvvatlashga taklif qilgani va Afgʻonistonda boʻlgan bir qancha Gʻarb davlatlari ham Istanbul va Kobul yigʻilishida qatnashishiga qaramasdan, rahbariyat shubhasiz osiyolik ekani fikrimizni isbotlaydi.

Jarayonlar davomida Turkiya ishbilarmon doiralari va savdo palatalari 2011-yil fevral oyida imzolangan ikki davlat oʻrtasida “Energiya va mineral resurslar boʻyicha hamkorlik” toʻgʻrisida kelishib oldilar. Oʻzaro anglashuv memorandumini energiya va mineral resurslar sohasida hamkorlikka keng yoʻl ochish masalalari hal qilindi. Bu memorandumning oʻziga xos xususiyati shunda ediki, Afgʻoniston konchilik sohasida boshqa davlat bilan bunday turdagi shartnomani ilk marotaba imzolashi edi¹²⁹.

Aynan ushbu tarixiy dalillar orqali Turkiya Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi jarayonlarda qatnashishi katta ahamiyatga ega boʻlishini, shuningdek, mintaqa davlatlari oʻrtasidagi konsensusda vositachi roʻlini oʻtashda bir qator ustunliklarga ega ekanligini bilish qiyin emas. Bu borada Afgʻonistondagi jarayonlarda eng yirik oʻyinchi sifatida tanilgan Pokiston Turkiyaning bu diplomatik tashabbuslarini olqishlagani va Turkiyaning NATOga aʼzoliqi tufayli ularni ayniqsa qimmatli deb baholashi Turkiyaning xalqaro va mintaqaviy nufuzini koʻrsatadi. Bunday harakatlar pokistonliklarning Turkiyaning yordami va samimiyligiga ishonishiga yordam beradi. 2012-yil 22-may kuni Islomobodda nashr etiladigan ingliz tilidagi mashhur kundalik gazeta “Pakistan Observer”da chop etilgan maqolada Pokiston nuqtayi nazari umumlashtirilgan “Turkiya Chikagodagi sammitda Pokistonni qoʻllab-quvvatladi” nomli maqolada: “Turkiya prezidenti Abdulla Gul Chikagodagi NATO sammitida muhim masalalar boʻyicha Pokiston pozitsiyasini qoʻllab-quvvatladi^{130*}. Turkiyaning Pokiston pozitsiyasini

¹²⁸ Astri Suhrke. Towards 2014 and beyond: NATO, Afghanistan and the “Heart of Asia” <https://open.cmi.no/cmi-xmlui/bitstream/handle/11250/2474786/Towards%202014%20and%20beyond%3a%20NATO%2c%20Afghanistan%20and%20%20the%20%22Heart%20of%20Asia%22?sequence=1&isAllowed=y>

¹²⁹ Turkiye, Afganistan’ la enerjide isbirligi-yapti <https://www.milliyet.com.tr/ekonomi/turkiye-afganistan-la-enerjide-isbirligi-yapti-1353737> (09.04.2024)

¹³⁰ * Pokiston 2012-yil may oyida Chikagoda boʻlib oʻtgan NATO sammitiga AQSH bilan munosabatlari keskinlashgani uchun taklif etilmagan edi. Asosiy masala Pokiston Afgʻonistonga olib boruvchi yoʻllarni NATOga muhtoj boʻlgan taʼminot karvonlariga berkitib qoʻygan edi. Sababi Amerika samolyotlari 2011-yilning noyabrida Afgʻoniston chegarasi yaqinidagi Pokiston postini tasodifan bombardimon qilib, 24 askarni oʻldirganidan soʻng yoʻllar yopilgan, buning oqibatida baʼzi Pokiston rasmiylari buni ataylab qilingan deb taxmin

ma'qullashi uning NATO a'zosi bo'lishi va tashkilotda ovozi yangrayotgani bilan ahamiyatlidir. Ishonchimiz komilki, bu namunaviy munosabatlar ikki mamlakat xalqlari uchun katta foyda keltirishi mumkin¹³¹”, degan so'zlarni o'qish mumkin.

Shubhasiz, Afg'oniston “Osiyo yuragi” mintaqasidagi eng muhim davlat hisoblanib, Janubiy va Markaziy Osiyo, Xitoy va Yaqin Sharqni bog'lovchi ko'priksifatida e'tirof etiladi. Bu “Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari” konferensiyalarida ham bir necha bor ta'kidlandi. Yig'ilishlarda nodavlat subyektlar: jinoiy guruhlar, transchegaraviy narkotik va qurol-yarog sotuvchilari, ekstremistik guruhlar va terrorchilar tahdidlariga qarshi kurashish uchun kollektiv xavfsizlikni ta'minlash zarurligi ta'kidlandi¹³². Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, konferensiyaning barcha ishtirokchilarining milliy yarashuv va mintaqaviy integratsiya jarayoni haqida iliq fikrlariga qaramay ba'zi davlatlar, jumladan, Rossiya, Eron va Pokiston delegatlari Afg'oniston muammolarini muhokama qilish uchun ko'plab platformalar mavjudligi va ularning faoliyatiga o'xshash yana bir forum yaratish qay darajada zarur ekanligini shubha ostiga oldilar.

Masalan, Xitoy va Rossiya loyihada faqatgina AQSHning mintaqaviy masalalarda o'z ta'sirini oshirish va SHHTning mintaqaviy ta'sirini susaytirish istagini ko'rdi. Eron esa Turkiya tashabbusini AQSHning Afg'onistondagi mavjudligini qonuniylashtirishga qaratilgan urinish sifatida baholadi. Pokiston esa yuqoridagi iliq fikrlariga qaramay Istanbul jarayonlarida o'zining azaliy raqibi Hindiston ham qatnashayotganidan noroziligini bildirib o'tdi. Shu sababli davlatlar bilan muloqot juda keskin kechdi, bu konferensiyaning yakuniy deklaratsiyasi mazmuni va matni jihatidan o'ta noaniq

qilishgan. Pokiston yo'nalishni qayta ochish masalasini ko'rib chiqishdan oldin AQSHdan chegaradagi o'limlar uchun uzr so'rashni talab qildi va Afg'oniston chegarasidan o'tayotgan NATO yuklarining har bir yuk mashinasi uchun soliq va qo'shimcha tranzit to'lovlarini talab qilishini aytdi. Pokiston oxir-oqibat Chikagodagi sammitga taklif qilish yo'lini ochib, ta'minot yo'llarining qayta ochilishini ma'qulladi. Turk manbalarining da'vo qilishicha, Turkiya Pokistonning sammitga taklif qilinishini qattiq talab qilgan.

¹³¹ K. Kaya. Turkey's Role in Afghanistan and Afghan Stabilization // Military Review the professional journal of the U.S. army. – 2013, Vol 10. № 4. – P.25

¹³² Istanbul Process on Regional Security and Cooperation for a Secure and Stable Afghanistan // Republic of Turkey Ministry of Foreign Affairs. URL: <http://www.mfa.gov.tr/istanbul-process-on-regionalsecurity-and-cooperation-for-a-secure-and-stable-afghanistan.en.mfa>

bo'ldi¹³³. Birinchi uchrashuvdan so'ng Kobul va Anqara kelgusi hamkorlik usullarini aniqlash uchun boshqa mamlakatlarni jalb qilgan holda maslahatlashuvlarni Qozog'iston, Xitoy, Pokiston, Hindiston va Ozarbayjon davlatlarida davom ettirdilar.

Istanbul jarayonining tuzilishi haqida gapiradigan bo'lsak, Kotibiyatni tashkil etish masalasi vazirlar konferensiyasida taklif qilingan, ammo Rossiya, Eron va Pokiston tomonidan rad etilganini yuqorida aytib o'tdik. Ularning ta'kidlashicha, Janubiy va Markaziy Osiyoda allaqachon bir nechta tashkilotlar mavjud. Uning kotibiyati yoki doimiy muassasasi bo'lmasa-da, har yili vazirlar konferensiyasiga muvofiq ravishda turli darajadagi konferensiyalar va uchrashuvlar muntazam ravishda o'tkazib kelindi. Istanbul jarayonining yakuniy qaror qabul qiluvchisi Yillik Vazirlar Konferensiyasidir. "Osiyo yuragi" mamlakatlari tashqi ishlar vazirlari siyosiy maslahatlashuvlar har yilda bir marta uchrashadilar. Konferensiya ixtiyoriy ravishda qaysidir ishtirokchi davlatda o'tkaziladi.

"Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni" to'rtta asosiy qaror qabul qiluvchi organdan iborat:

- 1) Yuqori darajadagi vazirlar konferensiyalari;
- 2) Oliy mansabdor shaxslarning uchrashuvlari;
- 3) Elchilar uchrashuvlari;
- 4) Mintaqaviy texnik guruhlar yig'ilishi.

Vazirlar konferensiyasi nafaqat Afg'onistondagi vaziyatni muhokama qiladi, balki terrorizm, ekstremizm, giyohvandlik va uyushgan jinoyatchilik kabi tahdidlar va butun mintaqaning gullab-yashnashi uchun imkoniyatlar kabi umumiy manfaatdor masalalar ko'rib chiqadi¹³⁴. Bundan tashqari, yuqori lavozimli xodimlar ishonchni mustahkamlash choralarini (ing. Confidence Building Measures – CBM) amalga oshirish rejalarining bajari-lishini nazorat qiladilar va o'z vaqtida hisobotlar bilan ta'minlanadilar¹³⁵.

¹³³ A. Ayoob Heart of Asia - Istanbul Process: Progress Assessment 2011-2015.

جمهوری اسلامی افغانستان وزارت امور خارجه.

– Kobul, 2016, – P.11. Shuningdek qarang; S.Aria Istanbul süreci'nin Afganistan'in istikrarina etkisi: bölgesel güvenlik kompleksi teorisi çerçevesinde bir değerlendirme. Yüksek lisans tezi. – Bursa, 2015. – S.113. (167)

¹³⁴ "Heart of Asia Ministerial Conference-Kabul", Ministry of Foreign Affairs of Afghanistan, 14 June 2012,

<http://mfa.gov.af/en/news/10569>, para. 12,13.

¹³⁵ Confidence Building Measures (CBMs) // Web site of Heart of Asia – Istanbul Pros-
ses <https://www.hoa.gov.af/cbms/cbms.html>

Ishonchni mustahkamlash choralari texnik guruhi dastlabki konferensiyalarda quyidagi muhim sohalarida alohida markazlar tashkil qilishdi: Tabiiy ofatlarni boshqarish (Qozog‘iston va Pokiston); Terrorizmga qarshi kurash (Afg‘oniston, Turkiya va BAA); Narkotik moddalarning tarqalishiga qarshi kurash (Rossiya va Ozarbayjon); Savdo va Tijoriy masalalar qilish (Hindiston); Mintaqaviy infratuzilmani mustahkamlash (Ozarbayjon va Turkmaniston); Ta’lim (Eron). Ushbu markazlarning faoliyatini boshqarish uchun a’zo mamlakatlar qaysidir yo‘nalish bo‘yicha markazlarni o‘z hududlarida tashkil qilish vakolatini olishgan. Har bir guruh muayyan mavzularga murojaat qiladi va ishtirokchi mamlakatlar har bir CBMni amalga oshirishga qaratilgan va mintaqaviy texnik guruhda ishtirok etadigan texnik markazni joriy qiladi. Texnik muhokamalar o‘z natijalari va tavsiyalari haqida Vazirlar konferensiyasi doirasida ma’lumot beradi. Nihoyat, Kobulda joylashgan elchilar, ishtirokchi mamlakatlar va tashkilotlar vakillari muntazam uchrashib, tegishli masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini muvofiqlashtiradilar. Afg‘oniston Istanbul jarayonining umumiy diqqat markazida bo‘lib, yuqori martabali rasmiy yig‘ilishlar, mintaqaviy texnik guruhlar va boshqa tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi konferensiyadan so‘ng Kobul va Anqara kelgusi hamkorlik usullarini aniqlash uchun boshqa mamlakatlar ishtirokidagi maslahatlashuvlarni davom ettirdilar. 2011-yilgi uchrashuvdan buyon yana 8 ta vazirlar konferensiyasi (jami 9 ta) bo‘lib o‘tdi (1-jadval).

1-jadval

T/r	O‘tkazilgan vaqti	Joyi	Davlati
1	2012-yil 14-iyun	Kobul	Afg‘oniston
2	2013-yil 26-aprel	Olmaota	Qozog‘iston
3	2014-yil 31-oktyabr	Pekin	Xitoy
4	2015-yil 9-dekabr	Islomobod	Pokiston
5	2016-yil 4-noyabr	Amritsar	Hindiston
6	2017-yil 1-dekabr	Boku	Ozarbayjon
7	2019-yil 9-dekabr	Istanbul	Turkiya
8	2021-yil 30-mart	Dushanbe	Tojikiston

Manba: <https://www.hoa.gov.af/library/declarations.html>

Istanbul jarayoni konferensiyasining uchinchi vazirlar sammiti 2013-yil 26-aprel kuni Qozog‘istonning Olmaota shahrida bo‘lib o‘tdi. Ushbu yig‘ilish jarayonida ham doimiy ko‘rib kelingan masalalar: narkotik moddalar, xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash muhokama qilindi. Xavfsizlik umumiy sa’y-harakatlarning eng asosiy ustuvor yo‘nalishi deb ta’kidlandi. Terrorizm xavfsizlikning asosiy tahdidi sifatida qabul qilingan. Terrorizmga qarshi birgalikda va ko‘ptomonlama kurashda sa’y-harakatlarni tezlashtirish ularning beg‘araz hujumlari va zo‘ravonliklari uchun zarur ekanligi ta’kidlandi. Terrorizmga qarshi kurashda qurol kontrabandasining oldini olish, terrorchilarning boshpanalarini yo‘q qilish, moliyalashtiruvchi guruhlar va manbalarni bartaraf qilish va ta’lim sohalariga e’tibor berish ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi. Deklaratsiya, shuningdek, ko‘knori yetishtirish, undan dori ishlab chiqarish, kontrabanda va giyohvand moddalarni iste’mol qilish terrorchilik faoliyatiga sabab bo‘layotgan asosiy muammolar ekanini ta’kidladi. Konferensiyada barcha tomonlar Afg‘onistonning o‘tish va o‘zgarishi davrida ikki va ko‘ptomonlama hamkorlikka va‘da berishdi. Ular Istanbul jarayonining boshqa mintaqaviy tashkilotlarga nisbatan hamkorlik qiluvchi va bir-birini to‘ldiruvchi rolga ega ekanligini yana bir bor ta’kidladilar¹³⁶.

ISAF doirasida AQSHning Afg‘onistondagi 2014-yilgacha davom etgan o‘n yildan ortiq mavjudligi mobaynida ko‘zlangan maqsadga erishilmadi. Ushbu serxarajat bo‘lgan 13 yillik harbiy harakatlarning umumiy miqdori “The Diplomat” nashri hisobotlariga ko‘ra 109 milliard dollarni tashkil qiladi. Paradoks shundaki, Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH 1948–1952-yillar oralig‘ida Marshall rejasi doirasida 16 Yevropa davlatiga 103 milliard dollar ajratganligini hisobga olsak Afg‘on urushi Amerika uchun Ikkinchi jahon urushidan-da qimmatga tushgan¹³⁷. Bundan tashqari, Afg‘onistonda 2000 dan ortiq amerikalik askar halok bo‘ldi. Natijada ushbu harbiy-siyosiy missiyalar AQSH fuqarolarining g‘azabi va noroziligiga sabab bo‘ldi. Qolaversa, AQSHning ittifoqchilari va dunyo siyosiy maydonida ham obro‘si tusha boshlagan edi. Natijada 2014-yilda ISAF kuchlari-

¹³⁶ Study on security cooperation in the Heart of Asia region. – Asia foundation. 2015. – P.97 https://www.hoa.gov.af/images/PDF/Heart_of_Asia_Regional_Security_Cooperatcompressed.pdf?type=file

¹³⁷ Akhilesh Pillalamarri, “Why the US Spent More on Afghanistan Than on the Marshall Plan,” THE DIPLOMAT, 2 Aug 2014, <http://thediplomat.com/2014/08/why-the-us-spent-more-on-afghanistan-than-on-themarshall-plan/>.

ning aksariyat qismini Afgʻonistondan olib chiqish ishlari boshlandi. Ustiga ustak, xuddi shu yili ancha bahsli oʻtgan prezidentlik saylovlarida Ashraf Gʻani hokimiyatga keldi. Aynan shu vaziyatlar fonida 2014-yilning 31-oktyabr kuni Xitoyning Pekin shahrida “Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni” IV vazirlar konferensiyasi boʻlib oʻtdi. Konferensiyaga Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Vang Yi va Afgʻoniston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Zarar Ahmad Usmoniy hamraislik qildi.

Vazirlar konferensiyasi yakunida Pekin deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda Afgʻonistonda inklyuziv murosaga erishish va tashqi aralashuvlarga chek qoʻyish Afgʻonistonda mustahkam tinchlik va barqarorlikka erishishning eng ishonchli yoʻli ekanligi eslatib oʻtildi. “Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni” konferensiyasi ishtirokchilari murosaga erishishning zaruriy sharti sifatida Afgʻonistonning milliy taraqqiyoti, tinchligi va xavfsizligini amalga oshirish uchun Afgʻoniston boshchiligidagi, afgʻonlarga tegishli inklyuziv tinchlik va yarashuv jarayonini qoʻllab-quvvatlashlarini bildirib oʻtishdi. “Biz “Tolibon”ni zoʻravonlikdan voz kechishga, ushbu guruhlarini qoʻllab-quvvatlovchi barcha terrorchi guruhlar va institutlar bilan aloqalarni uzishga va Afgʻoniston Konstitutsiyasini hurmat qilishga chaqiramiz¹³⁸”, – deyiladi deklaratsiya matnida. Ushbu konferensiyada Afgʻonistonga har tomonlama yordam berishni davom ettirish zarurligiga urgʻu berildi. Qabul qilingan deklaratsiyaning 12-bandida Pokiston va Eronni soʻnggi bir necha oʻn yilliklar davomida yaxshi qoʻshnichilik munosabatlari ruhida millionlab afgʻon qochqinlarini qabul qilish borasidagi saʼy-harakatlari Konferensiya aʼzolari tomonidan ijobiy baholandi. Shu munosabat bilan xalqaro hamjamiyatni afgʻon qochqinlarining ixtiyoriy ravishda vataniga qaytishi va Afgʻonistonga xavfsiz va munosib tarzda joylashishi uchun ularga qoʻshimcha yordam koʻrsatishga daʼvat etildi.

2015-yilning 9-dekabr kuni Pokiston poytaxti Islomobod shahrida “Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni” 5-Vazirlar konferensiyasi boʻlib oʻtdi. Konferensiyaga Pokiston Islom Respublikasi bosh vazirining tashqi ishlar boʻyicha maslahatchisi janob Sartaj Aziz va Afgʻoniston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Salohiddin Rabboniy hamraislik qildi. Konferensiya ISAF kuchlarining bir qismi Afgʻonistonni tark etishini muhokama qildi. BMT Afgʻoniston milliy armiyasini takomillashtirish boʻyicha 2210-sonli

¹³⁸ The 4th Heart of Asia - Istanbul Process Ministerial Conference was held in Beijing <https://www.hoa.gov.af/images/declarations/4th-Ministerial-Declaration-31-October-2014-Beijing.pdf?type=file>

rezolyutsiyasi (2015) qabul qilinganligi aytib o'tildi. Shu yilgi konferensiyani diqqat bilan kuzatsak, unda SHHT dasturiga mos qarorlar qabul qilinganligini payqash mumkin. Unga ko'ra uch illatga – terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi turish g'oyasi bu konferensiyaning asosini tashkil qildi. Konferensiyaga a'zo davlatlar terrorizmga qarshi birgalikda kurashish, ma'lumotlar va razvedka ma'lumotlarini almashishga, Al-Qoida, Daish (ISHID) va ularning filiallariga yordam berishga har qanday urinishni fosh qilishga kelishib olindi. Haqqoniy tarmog'i, Al-Qoida, O'zbekiston Islomiy Harakati, Sharqiy Turkiston Islomiy Harakati, Lashkari Tayiba, Jaish-i Muhammad, TTP, Jamat ul-Ahror, Jundulloh va boshqa xorijiy terrorchi jangchilarni qo'llab-quvvatlovchi barcha manfaatdor tomonlardan bu faoliyatlarini to'xtatishlari talab qilindi.

Bu boradagi keyingi konferensiyalarda ishtirokchilar ko'p yillik iqtisodiy hamkorlik natijalarini sarhisob qilish natijasida energetika va transport-kommunikatsiya sohasidagi loyihalar muhimligi ta'kidlandi. Turkmaniston-Afg'oniston-Pokiston-Hindiston (TAPI) tranzit yo'lagi loyihasini amalga oshirish, nihoyasiga yetkazish, Imomnazar (Turkmaniston) va Akina (Afg'oniston) stansiyalari orasidagi Osiyo xalqaro temiryo'l koridorining birinchi bosqichini tugatib, Turkmaniston, Afg'oniston va Tojikistonni bog'lovchi (TAT) ikkinchi bosqichga start berishga kelishildi. Energetika sohasidagi muhim loyiha bo'lmish CASA-1000 elektr uzatish liniyasi tizimi, Turkmaniston-O'zbekiston-Tojikiston-Afg'oniston-Pokiston (TUTAP) energiya loyihasi, Afg'oniston, Hindiston va Eron o'rtasidagi Chabahor portidan foydalanish tartiblari bo'yicha kelishuv, Afg'oniston, Eronni Qirg'iziston, Xitoy va Tojikiston bilan bog'laydigan besh yo'nalishli temiryo'l koridori masalalariga ham to'xtalib, bu rejalar Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlashda markaziy o'rin tutishi ta'kidlandi¹³⁹.

Qaysidir ma'noda Turkiyada tashkil topgan "Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari"ning VIII vazirlar konferensiyasi yana qaytib Turkiyada "Tinchlik, hamkorlik, farovonlik" shiori bilan 2019-yilning 9-dekabr kuni Istanbul shahrida o'tkazildi. Ushbu jarayonda barcha deklaratsiyalar orasida eng ko'p bandlarga ega bo'lgan 49-paragrafli deklaratsiya qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyada ham an'anaviy usulda avvalgi bo'lib o'tgan konferensiyalar

¹³⁹ The Heart of Asia – Istanbul Process 6th Ministerial Conference 4 December, 2016 Amritsar Declaration // Heart of Asia-Istanbul Process (HoA). URL: <http://hoa.gov.af/files/HoA%206th%20Ministerial%20Declaration%202016.pdf>

sarhisob qilindi, erishilgan yutuqlar qayd etildi. Jumladan, 2019-yil 28-sentyabrda bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovlarida o‘z demokratik huquqlaridan foydalangani uchun afg‘on xalqiga minnatdorchilik bildirildi. Qolaversa, Afg‘oniston Milliy Mudofaa va Xavfsizlik Kuchlarining (ANDSF) mukammal ishlashi uchun 2024-yilgacha yordam berishga konferensiya qatnashchilari roziligi aytib o‘tiladi. Konferensiyadagi davlatlar va Afg‘oniston o‘rtasida amalga oshirilgan iqtisodiy loyihalar sarhisob qilinar ekan, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi Surxon – Puli xumri elektr tarmog‘ida amalga oshirilgan ishlar, Xitoyning “Bir makon – bir yo‘l” loyihasiga Afg‘onistonning faol jalb qilinarayotganligi, Pokiston va Afg‘oniston o‘rtasida yangi ochilgan “Torham” o‘tish punkti 24/7 rejimda ishlayotganligi mamnuniyat bilan ijobiy baholandi. Shuningdek, Afg‘oniston tranzit savdosini osonlashtirish maqsadida Afg‘oniston, Eron va Hindiston o‘rtasida Chabahor orqali dengizga chiqishga asoslangan transport va tranzit kelishuvlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan muhim qadamlar qayd etildi. “Biz Afg‘onistonning mintaqa va undan tashqaridagi bozorlarga ko‘p dengiz va quruqlik kirishini ta‘minlash muhimligini tan olamiz. Shu nuqtayi nazardan, biz Lapis Lazuli yo‘nalishi bo‘yicha kelishuvni amalga oshirishdagi yutuqlardan ruhlanamiz va amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaymiz”, – deya Afg‘onistonni mintaqa bilan reintegratsiya jarayonlari ijobiy yo‘nalishda ekanligi ta’kidlandi¹⁴⁰.

2021-yil 30-mart kuni Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida “Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni” 9-Vazirlar konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyaga Tojikiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhriddin va Afg‘oniston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Muhammad Hanif Atmar hamraislik qildi. “Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari” konferensiyalarining so‘nggisi bo‘lgan 9-vazirlar uchrashuvi asosiy e‘tiborni mintaqaviy integratsiyaga yana bir bor qaratdi. Afg‘oniston hukumati strategik siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi va uning islohotiga rahbarlik qiluvchi 2020-yilda Jenevada bo‘lib o‘tgan Afg‘oniston konferensiyasida qabul qilingan yangi yordam arxitekturasining bir qismi sifatida Afg‘oniston bo‘yicha sheriklik tuzilmasi bilan uyg‘unlashtirilgan “Afg‘oniston bo‘yicha tinchlik va taraqqiyot milliy asosi II” platformasi ijobiy yo‘nalishda ekanligi ta’kidlandi.

¹⁴⁰ The Heart of Asia – Istanbul Process 8th Ministerial Conference 9 December, 2019 Istanbul Declaration// Heart of Asia-Istanbul Process (HoA). <https://www.hoa.gov.af/library/declarations.html>

Xulosa tariqasida ta'kidlashimiz mumkinki, Afg'onistonning yaqin va uzoq qo'shnilarining bir-biriga zid bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy maqsadlarini muvozanatlash masalasi Istanbul jarayoni qizg'in bahs-munozaralar fonida ko'rib chiqildi. Submintaqalardagi xavfsizlik muammolarini turlicha talqin qilish va ularni hal qilishda turlicha yondashuvlarning kelib chiqishi borasidagi muammolar masalani biroz og'irlashtirgani aniqlandi. Yoki Afg'onistondagi beqarorlik, terrorizm, ekstremizm va narkotik moddalarning tarqalishi, albatta, muhim muammolar, biroq mintaqadagi barcha davlatlar ham bu tahdidlarning o'z mamlakatlari uchun xavfli ekanligini birdek anglay olmaydi. Yoki qochoqlar mavzusida ham qarashlarning turlicha ekanligi Istanbul jarayonlarining to'liq muvaffaqiyatli bo'lishini shubha ostiga olganligi dalillar asosida ochib berilgan.

Istanbul jarayoni mintaqa mamlakatlari uchun umumiy tahdidlarning mohiyati bo'yicha konsensusga erishdi deyish mumkin bo'lsa-da, bu tahdidlarning ahamiyatini talqin qilish milliy manfaatlar prizmasidan turlicha shaklda namoyon bo'ladi. Shu bois, ular asosida chaqiruv va tahdidlarga javob turlicha bo'lishi mumkin. Afg'onistonda tinchlik o'rnatishning asosiy omili sifatida bu qarama-qarshiliklar, o'z navbatida, jarayonning faoliyatini yanada murakkablashtirdi, chunki tinchlikni qanday ta'minlash kerakligi borasida pozitsiyalar turlicha. "Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari"da Hindiston va Pokiston, Pokiston va Afg'oniston, Eron va Saudiya Arabistoni, AQSH va Eron o'rtasidagi mintaqaviy nizolarda o'z manfaatlarini muvozanatlashtirishga harakat qilinganligi ilmiy tadqiqot davomida yuzaga chiqdi.

Qolaversa, Suriyada davom etayotgan fuqarolar urushi, Eronning bahsli yadroviy dasturi va bir qator davlatlarning G'arb bilan ziddiyatlari ushbu jarayon ishlarini qiyinlashtirganligi, mintaqaning yoki dunyoning qarama-qarshi kuchlarning masalada turlicha qarashlarga ega bo'lishi Istanbul jarayonidan ko'zlangan natijaga erishishda muammolar tug'dirganligi aniqlandi. Konsensusga erishish va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator urinishlarga qaramay, Afg'oniston-Pokiston munosabatlarida haligacha ijobiy o'zgarishlarga erishilmadi, bu esa format doirasidagi o'zaro hamkorlik samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi ta'kidlandi.

Yana bir muhim xulosa sifatida "Osiyo yuragi" mintaqasi din va madaniyat, ijtimoiy va iqtisodiy koridorlarning umumiyliigi, yagona tarix kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'langanligi fonida ushbu formatda ishtirok etuvchi davlatlarning milliy chegaralaridan ancha uzoqqa cho'zilgan o'ziga xos yagona makon sifatida Istanbul jarayonlarning nufuzini oshir-

ganligi aniqlandi. Bundan kelib chiqqan holda, Istanbul jarayoni ishtirokchilarga Afg'oniston va unga chegaradosh mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli kelajagi bevosita kollektiv xavfsizlik tizimiga bog'liqligini ko'rsatdi. Ya'ni transmilliy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, migratsiya inqirozini bartaraf etish, giyohvand moddalarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatishning oldini olishning muhimligini jamoaviy tushunish boshlanishiga ushbu formatning ta'siri ko'rib chiqildi. Afg'oniston barqarorligi Kobulning qo'shnilari bilan munosabatlari o'rtasidagi muvozanat va G'arb hamkorlarining doimiy yordamiga bog'liqligiga asoslanadi. Shu bilan birga, Istanbul jarayonining kichik muvaffaqiyati ham mintaqadagi inqirozlar yanada kuchayishining oldini olish, shuningdek, uning barqaror rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni topishga yordam beradi. Demak, aytish mumkinki, ushbu tashabbusning o'n yillik faoliyati mintaqada integratsiyani kuchaytirishda, turli qarashlardagi davlatlarning umumiy konsensusga kelishida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatdi. Afg'oniston va "Osiyo yuragi" mintaqasi davlatlari o'rtasidagi ikkitomonlama, uchomonlama va to'rtomonlama tashabbuslarni hisobga olgan holda, Istanbul jarayoni Afg'oniston Respublikasi va uning qo'shnilari o'rtasidagi muloqotga qaysidir ma'noda zamin yarata oldi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda ushbu format Afg'oniston Islom Respublikasi, mintaqa davlatlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlashda, qolaversa, Kobulni markazga qo'ygan holda iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim katalizator bo'lib xizmat qildi.

2.3. Turkiyaning Afg'onistondagi "yumshoq kuch" siyosatining tahlili

Zamonaviy xalqaro munosabatlardagi mavzular ichida "yumshoq kuch" masalasi eng ko'p o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Xalqaro munosabatlar tizimida sodir bo'layotgan jarayonlar odamlarning dunyoqarashiga ta'sir qilish, jamiyatlarning ichki madaniy ildizlariga chuqur kirib borish, medianing keng ko'lamli kuchidan unumli foydalanish kabilar tashqi siyosat yuritishning muhim shartlaridan ekanligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy dunyoda "yumshoq kuch"ning ortib borayotgan ahamiyati xalqaro munosabatlar qatnashchilarini yangi o'yin qoidalariga moslashishga majbur qilmoqda, xususan, ushbu harakatlar nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligi va ta'sirining kuchayishi bilan bog'liq masala

ham hisoblanadi. Axborot olish imkoniyati tobora ko‘payib borayotgan bugungi dunyoda eng samarali strategiya xalq ichidagi umumiy g‘oyalarni axborotga aylantirgan holda, xalqaro auditoriyani o‘ziga jalb etuvchi madaniy yutuqlar va turmush tarzini namoyish etuvchi kuchga aylantirishdan iborat. Qolaversa, hozirgi globallashuv sharoitida “qattiq kuch” mexanizmlaridan foydalanish moliyaviy va siyosiy jihatdan qimmatroq bo‘lib, bu borada yumshoq kuch katta resurslarni talab qilmaydi. “Yumshoq kuch” konsepsiyasi muallifi Jozef Nayning o‘zi ham “Ikkinchi jahon urushidan keyin qattiq kuchning roli fan va texnika taraqqiyoti, postindustrial demokratik davlatlar aholisining qudratga emas, balki farovonlikka intilishi, zamonaviy kommunikatsiya yutuqlari harbiy kuch ishlatishda jiddiy ma’naviy asoslashni talab qila boshlaydi¹⁴¹”, deya qattiq kuchdan foydalanishning mushkulligi haqida bayon qilgan edi.

Bundan tashqari, Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon hamjamiyati orasida gegemonlikka intilish uchun global kurashlar o‘z xarakterini o‘zgartirib, harbiy sohadan iqtisodiy sohaga ko‘chdi. Konstruktiv o‘zaro bog‘liqlikning mavjud bo‘lishi, o‘xshash madaniy muhitning yaratilishi va muammolarni hal qilish uchun umumiy manfaatlarni izlash xalqaro munosabatlarda samaraliroq ekanligi anglashildi. Turli mamlakatlardagi xalqaro munosabatlar ishtirokchilari tashqi madaniy siyosatga, ya’ni milliy manfaatlarni jahon miqyosida olg‘a surish va dunyodagi turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlarga alohida ahamiyat bera boshladilar¹⁴². Ushbu siyosat doirasida madaniy diplomatiya, gumanitar diplomatiya, xalq diplomatiyasi yoki ommaviy diplomatiya kabi turli madaniy dasturlar “yumshoq kuch”ning tarkibiy qismi sifatida davlatlarning tashqi siyosatida faol qo‘llana boshlandi.

Hozirgi kunda qudratli mamlakatlar o‘zlarining yumshoq kuchini dunyoning eng qaynoq nuqtalarida sinab ko‘rishga urinib kelishmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda Afg‘onistonda Turkiya davlatining yumshoq kuch vositalarini ko‘rib chiqish va tadqiq qilish ancha samarali bo‘ladi.

“Yumshoq kuch” tushunchasi 1990-yilda Garvard universiteti professori J.Nay tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan¹⁴³. Amerikalik siyosatshunos-

¹⁴¹ Nye J. Soft Power. The means to success in World Politics. – New York: Public Affairs, 2004. – P. 18–19.

¹⁴² Филимонов Г. «Мягкая сила» культурой дипломатии США. – М.: Рос. ун-т Дружбы народов, 2010. – С. 18.

¹⁴³ Nye J. Soft Power: The Means to Success in World Politics // Public Affairs, New York., 2004. – P.10.

ning fikricha, u boshqa subyektlarning xatti-harakatlariga majburlash orqali emas, balki hamkorlik va ishontirish orqali maqsadga erishish qobiliyatini nazarda tutadi¹⁴⁴.

Turkiyaning yumshoq kuch salohiyati asosan uning tarixi, madaniyati va geografiyasi bilan belgilanadi. Aynan tarixiy meros va qo'shni davlatlar bilan madaniy yaqin aloqalar ular bilan o'zaro munosabatlarning yuqori darajali dinamikligini ta'minladi. Turkiya Respublikasi tashkil etilishiga qadar bo'lgan davrda ham uch qit'ani qamrab olgan Usmonli imperiyasi 600 yil davomida mavjud bo'lgan va musulmon dunyosi nigohida diniy hokimiyat markazi – xalifalik sifatida namoyon bo'lgan. Turkklar, yunonlar, bosniyaliklar, qirg'izlar, turkmanlar, qozoqlar, kurdlar, armanlar, albanlar kabi turli xil etnik guruhlarning aksariyati Usmonli imperiyasi tarkibida umumiy tarixiy ong va yagona makon ostida umrguzaronlik qilshgan. Bu omillarning qorishuvi fonida Turkiyaning zamonaviy "yumshoq kuch" konsepsiyasining qamrovi istiqbolda Bolqondan Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo, jumladan Afg'oniston hududlargacha bo'lgan ulkan geografik hududni qamrab olishini ko'rsatadi¹⁴⁵.

Turkiyaning Afg'oniston bilan aloqalarining tarixiy va madaniy parametrlariga ko'ra to'g'ridan to'g'ri hududiy chegaralari yo'q bo'lishiga qaramasdan, Turkiya Afg'onistonni yaqin aloqalar o'rnatishi kerak bo'lgan davlat deb biladi. Bir tomondan Turkiyaning Afg'oniston masalasiga qiziqishi madaniy va tarixiy dalillarga asoslanadi. Boshqa tarafdin esa, Turkiya Markaziy Osiyoni strategik ahamiyatga ega hudud deb bilganligi sababli, unga tutash bo'lgan Afg'onistonni o'z tashqi faoliyatida mintaqaviy siyosatining bir qismi sifatida ko'radi. Shu sababdan Afg'onistondagi o'zgarishlarni yaqindan kuzatib borishi bilan birgalikda ularda bevosita ishtirok etishga urinadi. Afg'oniston Turkiya uchun Janubiy Osiyo darvozalariga yo'l ochadigan kalitdir.

Turkiyaning Afg'oniston va Markaziy Osiyo borasidagi so'nggi yillardagi tashqi siyosatiga nazar tashlansa qattiq kuchga nisbatan yumshoq kuch mexanizmlaridan samaraliroq foydalanayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. 2002-yil oxiridan beri hokimiyatda bo'lgan hukmron Adolat va

¹⁴⁴ J. Nye. Public Diplomacy and Soft Power // The Annals of the American Academy of Political and Social Science, – 2008, – P.94-109

¹⁴⁵ Сафонкина Елизавета Андреевна. Турция как новый актер политики «Мягкой силы» // Вестник международных организаций: образование, наука, новая экономика. 2014. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/turtsiya-kak-novyy-aktor-politiki-myagkoy-sily> (дата обращения: 18.04.2024).

taraqqiyot partiyasi (Adalet va Kalkynma Partisi – AKP) insonparvarlikdagi roli ortib borishi bilan bir qatorda, gumanitar diplomatiyani tashqi siyosatining asosiy omillaridan biri sifatida namoyish qilmoqda. Sobiq tashqi ishlar vaziri Ahmet Davuto'g'li (2009–2014-yy.) Turkiyaning tashqi siyosatini tasvirlash uchun gumanitar diplomatiya atamasini birinchi bo'lib 2013-yilning yanvarida o'tkazilgan “Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari” doirasidagi tashkil etilgan beshinchi Elchilar konferensiyasining markaziy mavzusi sifatida ishlatgan edi¹⁴⁶. AKP o'z hukmronligi davomida islom sivilizatsiyasidagi o'rni va Usmonli imperiyasi davridagi buyuk o'tmishini ta'kidlash orqali Turkiyaning “haqiqiy o'zligini” namoyish qilishga urinadi. AKP davridagi Afg'oniston bilan munosabatlarda iqtisodiy tuzilmalardan tashqari islomiy nodavlat notijorat tashkilotlarining gumanitar diplomatiyadagi faolligi oshganini kuzatishimiz mumkin¹⁴⁷. Turkiya tashqi siyosatida “yumshoq kuch” texnologiyalaridan foydalanilar ekan bu nodavlat tashkilotlar katta ro'l o'ynaydi. Turkiyaning Afg'onistondagi “yumshoq kuch” mexanizmlari TIKa, Yunus Emre instituti, Xalq diplomatiyasi instituti va AFAD kabi shu maqsadda tashkil etilgan muassasa va tashkilotlarga qo'shimcha ravishda, teleseriallar, iqtisodiy tuzilmalar va jamg'armalar kabi davlatdan mustaqil ravishda paydo bo'lgan yumshoq kuch vositalarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir¹⁴⁸. Ushbu tuzilmalar qog'ozda davlatdan mustaqil bo'lsalar ham amalda AKP hukumati bilan umumiy muvofiqlikda hamkorlik qiladilar. Anqara Afg'onistonning murakkab xavfsizlik muhitida o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega bo'lgan “yumshoq kuch” va kamroq “qattiq kuch” strategiyalarining kombinatsiyasini qo'llashga qaror qildi. Turkiya Afg'onistondagi xavfsizlik, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy infratuzilmalarga 1,1 milliard AQSH dollari sarmoya kiritgan¹⁴⁹.

¹⁴⁶ M.B.Altunisik. Humanitarian diplomacy as Turkey's national role conception and performance: evidence from Somalia and Afghanistan // *Southeast European and Black Sea Studies*, 2022. – P.3.

¹⁴⁷ S. B. Çevik, E. Sevin, B. Baybars-Hawks, State-civil society partnerships in international aid and diplomacy: The case of Turkey and Somalia // *In Communicating National image through development and diplomacy*, Switzerland: Palgrave Macmillan Cham. – 2018. P 169–192.

¹⁴⁸ Mehmet Şahin ve B. Senem Çevik, *Türk Dış Politikası ve Kamu Diplomasisi*, Ankara: Nobel Yayınları (2015). <https://books.google.co.uz/books?id=pmg7nQAACAAJ&lp-g=PR1&hl=ru&pg=PA12#v=twopage&q&f=false> (04.01.2024)

¹⁴⁹ Sharan. T, Watkins. A. Mediator in the making? Turkey's role and potential in Afghanistan's peace process. Friedrich Ebert-Stiftung (FES) Afghanistan. – 2021. P.2

Turkiyaning Afg'onistondagi "yumshoq kuch" elementlari 11-sentyabr voqealaridan keyin Amerika boshchiligidagi NATO kontekstida faolroq qo'llanilgani seziladi. Chunki Turkiya o'zining dunyoviy imijini namoyish qilish bilan bir paytda davlatning islomiy ijtimoiy tuzilishini ta'kidlash orqali musulmon davlatlari orasida eng jozibali davlat maqomiga erishishga harakat qilmoqda. Ushbu namunali mamlakat titulini paydo qilish jara-yonida hukumat tashqi siyosatda "yumshoq kuch" strategiyasi bilan ha-rakat qilganini va bu borada muvaffaqiyat qozonganini ko'rish mumkin. Xalqaro munosabatlar sohasida Turkiyaning yirik ekspertlaridan biri Bur-get Fazl Afg'oniston nigohidagi Anqaraning ijobiy imiji haqida gapirar ekan: "Turkiya Afg'onistonda Islom olamining eng kuchli va rivojlangan davlati sifatida ko'rilsa, boshqa tomondan G'arb dunyosiga yaqinligi tu-fayli xalqaro platformalarda o'zini namoyon qila oladigan va Afg'onis-ton uchun ham bu imkoniyatni taqdim eta oladigan yagona davlat sifatida ko'rib kelingan¹⁵⁰", – degan so'zlari masalaning siyosiy jihatini ham ochiq-lab beradi.

Turkiya Afg'onistonda AQSH boshchiligida terrorizmga qarshi global urushda qatnashgan va mamlakat bo'ylab erkin faoliyat yurita olgan NATO ning yagona musulmon a'zosi edi. Turkiya NATO tarkibida turib Afg'onis-ton masalasida "yumshoq kuch" konsepsiyasiga tayangan holda o'ziga xos yondashuv ishlab chiqqanligini ta'kidlagan chet ellik tadqiqotchilardan Za-hid Shahab Ahmed va Abdul Basit "NATO a'zosi sifatida jangovar bo'lma-gan rolini bajarar ekan, Turkiya Afg'onistonni mojarolardan tinch jamiyat va osoyishta davlatga aylantirish uchun kinetik va nokinetik yondashuvlarning kombinatsiyasiga urg'u berdi. Natijada, 2003–2006-yillar oralig'ida Anqara Kobul va Bryussel, shuningdek, NATO kuchlari va afg'on xalqi o'rtasidagi turli muloqotlarni tashkil etishda yaqindan yordam berdi", – deya izohlagan edi¹⁵¹. Darhaqiqat, Turkiya NATO boshchiligidagi Xalqaro xavfsizlik kuch-lari tarkibida Afg'onistondagi missiyasini bajarar ekan, Afg'oniston bilan tarixiy, madaniy aloqalarini hisobga olgan holda quyi darajadagi madaniy to'siqlar va tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun o'zaro muloqot-ga yordam beruvchi ko'prik vazifasini bajardi. Turkiya chet el qo'shinlari Afg'onistonni bosib olish uchun emas, balki diniy ekstremizmga qarshi ku-

¹⁵⁰ Burget F.A. "Hayalden Gerçeğe Trans-Afgan Boru Hattı Projesi: Boru Hattı Gölge-sinde Devam Eden Bir Savaşın Anatomisi" // Avrasya Dosyası, Enerji Özel. – 2003. Cilt 9, Sayı 1, – S. 206.

¹⁵¹ O. Anas, Turkey's Asia Relations. – Ankara: Yıldırım Beyazıt University, 2022. – P.117

rashda yordam berish uchun shu yerda ekanligini ma'lum qilish orqali oddiy afg'on xalqining xavotirlarini bartaraf etishda katta rol o'ynadi. Ushbu tushuntirish esa albatta o'z samarasini berdi deya olamiz. Sovetlarning Afg'onistonga 1979-yilgi "tashrifi" paytida aynan shunday dasturilamal yo'qligi ularning mag'lubiyatiga katta ta'sir qilganligi ko'p bora ta'kidlangan.

Turkiya turli sabablarga ko'ra tashqi siyosat yondashuvlarida islomiy rahbarlikni qabul qilmagan bo'lsa-da, musulmonlik negizi, tarixiy va madaniy merosi, ichki va tashqi muammolarga demokratik munosabatlari tufayli qardosh va qarindosh jamoalar orasida muhabbat hissini uyg'otmoqda. Aynan Afg'oniston bilan munosabatlarida ham bu yaqqol seziladi. Boshqa tomondan, dunyoviy turk rejimi va Kobul o'rtasida 1921-yil 1-martda imzolangan "Turk-Afg'on do'stlik shartnomasi"ning uchinchi moddasiga ko'ra, Afg'oniston Turkiyani Islom olamining yetakchisi sifatida tan olganini ko'rish mumkin¹⁵².

Umuman olib qaraganda Turkiya yumshoq kuch elementlaridan foydalanishda islom elementidan faol foydalangan. Masalan, Erdog'an Turkiyaning Afg'onistonda tinchlik o'rnatish yo'lidagi faol sa'y-harakatlarini, "Musulmon boshqa musulmonga birodardir, kim birodarining hojatini ado etsa, Alloh uning hojatini ado etur" degan hadisi sharifni o'z nutqlarida bir necha bor ta'kidlash¹⁵³ orqali diniy mansublikka ishora qilganligini payqash mumkin. Turkiyaning AKP hukumati o'zining gumanitar diplomatiya strategiyasiga muvofiq, tarixiy va madaniy aloqalari bo'lgan mamlakatlarga aralashishni afzal ko'radi. Boshqa tomondan, madaniy yaqinlik Turkiyaning ba'zi mojarolardan ta'sirlangan davlatlarga kirishiga imkon beradi. Misol uchun, Afg'oniston misolida, uzoq tarixdagi aloqalar va madaniy o'xshashliklarning ahamiyati afg'on siyosiy liderlari tomonidan ham tez-tez ta'kidlangan¹⁵⁴. Aytish mumkinki, Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hissasi harbiy hissalaridan muhimroqdir. Mushtarak islomiy e'tiqod Turkiyaning Afg'onistonda qalblarni zabt etishdagi muvaffaqiyatida muhim

¹⁵² H.Özlü. Türk-Afgan Dostluk Ve İşbirliği Anlaşması" Kapsamında Atatürk Dönemi TürkiyeAfganistan İlişkilerine Bakış // Uluslararası Avrasya Sosyal Bilimler Dergisi. – 2012. Cilt 3, Sayı 8. – S.36.

¹⁵³ R.T. Erdogan, "THE WORLD IS BIGGER THAN 5" The Vision of New Turkey. – Ankara: Cumhurbaşkanlığı Yayınları. 2019. – P.51.

¹⁵⁴ Kaya, K. 2013. Turkey's role in Afghanistan and Afghan stabilisation. Military Review https://www.armyupress.army.mil/Portals/7/military-review/Archives/English/MilitaryReview_20130831_art007.pdf

omil hisoblanadi. Demak, Turkiyaning Afgʻonistondagi siyosati xalq tomonidan qoʻllab-quvvatlanayotgani ajablanarli emas. Ushbu oqilona siyosatning olqishlanishi Afgʻoniston rasmiylarining ham nutqlarida uchraydi. Masalan, Vardak viloyatining sobiq gubernatori oʻz bayonotida “Turkiya dasturlari afgʻon madaniyati bilan musharakligi hamda afgʻonlarning diniy qadriyatlariga hushyorlik bilan yondashuvi afgʻonlar uchun juda muhim va maqbuldir¹⁵⁵”, – deya yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan edi. Qolaversa, Turkiya Afgʻonistonda bir qator masjid, madrasa va diniy maktablar qurish orqali oʻzining madaniy diplomatiyasidan mohirona foydalanmoqda. Oʻtgan yillar davomida oʻnlab masjidlarni, jumladan, Kobuldagi Pul-e-Xishti masjidini tikladi. 2018-yil Kobuldagi Armiya zobitlar akademiyasida 1500 nafar odam uchun masjid ochilib, unga shahid boʻlgan turkiyalik polkovnik Faruk Sungur nomi berilishi Turkiyaning “masjidlar diplomatiyasi”dan unumli foydalanayotganligini koʻrsatadi¹⁵⁶. Juzjon viloyatidagi eng yirik masjid hisoblanadigan Amir Ali Shernvay masjidi ham 2017-yilda Turkiya mablagʻlari evaziga qurilgan.

Xorijda masjid va madrasalar qurish, mavjudlarini taʼmirlash boʻyicha Turkiyaning IDDEF xayriya jamgʻarmasi yetakchilardan hisoblanadi. Jamgʻarma tomonidan dunyoning turli burchaklarida, jumladan, Afrika, Yevropa, Markaziy Amerika, Yaqin Sharq va Osiyoda oʻnlab ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlar qurilgani maʼlum. Ushbu jamgʻarma “Tolibon” harakati vakillari 2021-yilda hokimiyatni egallaganidan keyin ham Afgʻonistonda faoliyatini davom ettirmoqda. Jamgʻarma toliblarning muvaqqat hukumati bilan shartnoma imzolashga ham ulgurib, unga koʻra Afgʻonistonning turli viloyatlarida beshta madrasa qurish, har bir majmua qoshida masjidlar boʻlishi rejalashtirilgan¹⁵⁷.

OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning 2016-yilda chop etilgan hisobotga koʻra, Turkiya 2015-yilgi baholashda umumiy reytingda 6-oʻrinni, YIMga koʻra esa 1-oʻrinni egalladi. AFADning Global gumanitar yordam hisobotiga asosanib bergan bayonotiga koʻra, 2016-yilda 6 milliard dollarlik insonparvarlik yordami koʻrsatgan Turkiya, 6,3 milliard

¹⁵⁵ Erman A. How Turkey’s Soft Power can Aid NATO in Afghanistan // New Perspectives Quarterly. – 2010. Vol. 27. No.2. – P.40. 39-41.

¹⁵⁶ Турецкое благотворительное агентство строит Мечеть в Афганистан <http://jamdc.ru/news/culture/2512-tureckoe-blagotvoritelnoe-agentstvo-stroit-mechet-v-afganistane.html>

¹⁵⁷ Турция построит медресе в Афганистане <http://www.islam-portal.ru/novosti/105/10030/>

dollarlik yordam ko'rsatgan AQSHdan keyin eng ko'p xalqaro gumanitar yordam bergan ikkinchi davlatdir¹⁵⁸. Turkiya gumanitar diplomatiyasini tahlil qilar ekanmiz, Afg'oniston bu yo'nalishda 2005-yildan boshlab Turkiyadan eng ko'p yordam olgan mamlakat ekanligini ko'rish mumkin. Chunki Turkiya gumanitar diplomatiyasi, o'zining umumiy xususiyatidan tashqari, o'zbeklar va turkmanlar kabi turkiy guruhlariga ham ko'proq e'tibor qaratdi. Turkiya yordami asosan markazlashgan poytaxt Kobuldan tashqari, 2014–2020-yillarda vitse-prezident bo'lib ishlagan hamda Turkiya bilan yaqin aloqada bo'lgan etnik o'zbek, harbiy qo'mondon general Do'stum tomonidan bir necha yillar davomida nazorat qilingan shimoli-g'arbiy mintaqalarga ko'proq e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin¹⁵⁹.

Anqaraning tashqi siyosatdagi ushbu yondashuvlari mintaqa xavfsizligi bilan ham bog'liq. So'nggi davrda terrorizm muammosi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning zaiflashuviga sabab bo'lishi mumkinligi ayon bo'ldi. Terrorizm, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, uyushgan jinoyatchilik, narkotik va qurol-yarog' kontrabandasi, ksenofobiya, irqchilik va radikal millatchilik kabi illatlar davlatlar o'rtasidagi iliq munosabatlarni xavf ostiga qo'yimoqda. Bu muammolarni bartaraf qilishda Turkiya ikkitomonlama va ko'ptomonlama munosabatlarni rivojlantirish masalasiga alohida urg'u berib, Afg'onistonda tinchilik va barqarorlikni ta'minlash bo'lgan ustuvor masalaga o'zaro hamkorlik orqaligina erishish mumkinligini ta'kidladi. Chunki Afg'onistondagi ishonchsizlik va beqarorlik mintaqaning qolgan mamlakatlariga ham tarqalish imkoniyatiga ega. Shu sababli, Turkiya vositachilik rolini "yumshoq kuch" kontekstida keng ko'lamli xalqaro muloqotlarda amalga oshirishga harakat qildi¹⁶⁰. Afg'oniston masalasini asosiy o'ringa olib chiqqan bir qator mintaqaviy platformalar Turkiya tashabbusi orqali paydo bo'ldi. "Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari" konferensiyalari, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha konferensiya (CICA), Afg'oniston va Pokiston o'rtasida uchomonlama sammitlar o'tkazilishi va boshqa bir qator qo'shma dasturlar shular jumlasidan hisoblanadi¹⁶¹.

¹⁵⁸ V.Kurt, Bir diş politika araci olarak Türkiye'nin diş yardimlari // Diş politikada sert ve yumuşak güç, 2017. – S.504.

¹⁵⁹ Афгано-турецкие отношения на современном этапе <https://afghanistan.ru/doc/104690.html>

¹⁶⁰ G. Kaya, Türkiye-Afganistan ilişkileri // yüksek lisans tezi. T.C. Yalova üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü. – Ocak, 2019. – S. 82

¹⁶¹ Ş. Kardaş, "Turkey's Regional Approach in Afghanistan: A Civilian Power in Action" // Stratejik Araştırmalar Merkezi. – Istanbul. 2013, № 6. – P.9.

Afg'onistonda tinch hayotni yo'lga qo'yish faqatgina xalqaro uchrasuvlarning deklaratsiyalariga bog'liq emas. Afg'on jamiyatining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish, turmush darajasini ko'tarish, ta'lim tizimini isloh qilish kabi sohalar ham o'ta dolzarbdir. Turkiya bu sohalarni ham qayta tiklash va rivojlantirishda o'zining hissasini qo'shgan. Bu boradagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida bir qator tashkilotlarning faoliyatiga "yumshoq kuch" rakursidan qarash mumkin.

TIKA (Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi) tashkiloti Turkiya tashqi siyosatida "yumshoq kuch" mexanizmi sifatida alohida o'rin egallaydi. Ushbu tashkilot 1992-sonli qonun bilan tuzilib, so'nggi yillarda Turkiyaning "yumshoq kuch" siyosatini muvofiqlashtira oladigan yuqori darajadagi muassasaga aylandi. Tashkilot ta'limdan tortib sog'liqni saqlashgacha, madaniyatdan san'atgacha, tarixdan arxeologiyaga qadar ko'plab sohalarda muhim ishlar amalga oshirilmoqda¹⁶². TIKa 2004-yil Kobulda dastlabki ofisini ochgan bo'lishiga qaramasdan uning faoliyati rasman 2005-yil yanvar oyida boshlangan. Afg'oniston Prezidenti Hamid Karzay 2006-yil yanvar oyida Turkiyaga rasmiy tashrifi chog'ida tegishli protokolni imzolagan edi. Bugungi kunda TIKAning Kobul, Mozori Sharif (Balx viloyatining ma'muriy markazi) va Hirot shaharlarida bo'limlari mavjud¹⁶³.

Sog'liqni saqlash sohasi TIKa tomonidan Afg'onistonda amalga oshirilgan yetakchi loyihalardan biridir. Bugungi kunga qadar turli hududlarda amalga oshirilgan sog'liqni saqlash bo'yicha loyihalar afg'on jamoatchiligi ongida juda yaxshi tasavvur hosil qilgan. TIKa 2005-yildan 2014-yilgacha Afg'onistonda jami beshta kasalxona qurilishida va 22 yangi ko'p tarmoqli klinikalar barpo qilinishida ishtirok etgan bo'lsa, yana bir nechta mavjudlarini ta'mirlash ishlarini o'z bo'yniga olgan. 2005-yildan 2017-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida TIKa Afg'oniston shimolida qariyb 13 million nafar afg'onistonliklarga tibbiy xizmat ko'rsatgani¹⁶⁴ Turkiyaning bu boradagi ahamiyatini anglatadi. Tibbiy xizmat yaxshi rivojlanmagan, bo'sh infratuzilmali mamlakat uchun bu raqamlar tasavvur qilib bo'lmay darajada ijo-

¹⁶² B. Aydemir, Bir Dış Politika Aracı Olarak TİKA: Türkiye'nin Orta Asya Ülkelerine Yaptığı kalkınma Yardımlarının İncelenmesi // International Journal of Academic Value Studies. – 2017. Vol 3. Issue 12. – S.236.

¹⁶³ Türkiye'nin Kalkınma İşbirliği: Genel Özellikleri Ve En Az Gelişmiş Ülkelere Yönelik Yaklaşımı: <http://www.mfa.gov.tr/turkiyenin-kalkinma-isbirligi.tr.mfa>

¹⁶⁴ TIKa, Afganistan'in kuzeyinde 17 yılda 12 milyondan fazla kişiye sağlık hizmeti verdi https://tika.gov.tr/detail-tika_afganistan_in_kuzeyinde_17_yilda_12_milyondan_fazla_kisiye_saglik_hizmeti_verdi/

biy ahamiyat kasb etib, Anqaraning “yumshoq kuch”i o‘laroq ulkan ta’sirga ega. Afg‘onistonda tibbiyot masalasida keskin kamchiliklar mavjud. U yerda shifoxona va klinikalar yetishmaydi. TIKAning 2007-yilgi faoliyatiga bag‘ishlangan hisobotida aytilishicha, 700 kishiga atigi 1 shifokor to‘g‘ri keladi. Qashshoqlik, ishsizlik, turmush darajasining pastligi bemorlarni o‘z vaqtida tibbiy muassasalarga kech murojaat qilishga olib keladi. Bu masala tibbiyot xodimlari, hamshiralar va doyalarning malaka oshirishiga yuqori zarurat borligini ko‘rsatadi¹⁶⁵. Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda Turkiya Afg‘onistonning sog‘liqni saqlash sohasini yaxshilash borasidagi ba’zi muammolarga o‘z yechimini taklif qildi. Turkiya sog‘liqni saqlash vaziri professor Rejep Akdag‘ Afg‘onistondagi tibbiy sohadagi muammolarni qisqa muddatli tayyorlov kurslarida hamshira va shifokorlarni tez tayyorlash orqali hal qilishi mumkinligini aytdi¹⁶⁶.

Afg‘oniston sog‘liqni saqlash sohasida Turkiya alohida ahamiyat kasb etadigan mamlakat ekanligini uning ishtirokida qurilgan tibbiyot muassasalarining salmog‘idan ham bilish mumkin. Bunday turdagi tibbiyot bo‘limlari qatoriga Toliqon shahrida Afg‘on-Turk ona va bola salomatlik markazi, Shibirg‘onda Afg‘on-Turk bolalar kasalxonasi, Maymanada Afg‘on-Turk do‘stlik kasalxonasi, Xoja Bahouddinda Afg‘on-Turk do‘stlik ona va bola salomatligi markazi, Kobulda Otaturk bolalar kasalxonalarini kiritish mumkin. Bu tashkilotlar TIKA tomonidan amalga oshirilgani diqqatga sazovor. Qolaversa, faqat qurilish va tiklash ishlari bilan chegaralanmasdan, ularga maxsus tibbiyot jihozlari va sifatli dori-darmon mahsulotlarining ham yetkazib berilishi fikrimizni isbotlaydi¹⁶⁷.

Turkiya tomonidan bunyod etilgan shifoxona va tibbiy markazlarning ba’zilari olis tog‘li hududlarda bo‘lib, mahalliy aholi uchun yagona muassasa ekanligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, Juzjon viloyatidagi Afg‘oniston-Turkiya do‘stligi bolalar kasalxonasi ana shunday shifoxonalardan biri bo‘lib, 110 o‘ringa mo‘ljallangan. Aytilayotgan shifoxona Afg‘oniston shimolidagi yagona bolalar shifoxonasi bo‘lib, bolalar jarrohligi bo‘limiga ega.

¹⁶⁵ Y. Demirkaya, F. Selik. Strategic Cooperation of Public and Civil Society Organizations in International Relations: TIKa Activities Analysis // *Oguzhan Journal of Social Sciences*. – 2021. Vol 3, Issue 4. – P.133.

¹⁶⁶ S. Nawabi, Turkiya’nin Afg‘oniston’a dsh yordimlari // *Kırşehir Ahi Evran Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi (AEUİİBFD)*. – 2019 Cilt 3, Sayı 1. – S.86.

¹⁶⁷ S.Nawabi. Turkiya’nin Afg‘oniston’a dsh yordimlari // *Kırşehir Ahi Evran Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi*. – 2019. Cilt 3, Sayı 1. – S.83.

TIKA tomonidan Afg'onistonda amalga oshirilayotgan ishlar turli soha va yo'nalishlarda bo'lsa-da, ularning aksariyatida ayollarning ehtiyojlarini qondirish, ularning ijtimoiy mavqeyini mustahkamlash va iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan jabhalarning ko'pligini kuzatish mumkin. Zamona-viy davrda Afg'onistonda eng og'ir masala ayollar bilan bog'liq ijtimoiy tengsizlik va ta'lim olishdagi nomutanosiblik bo'ldi deyishimiz mumkin. Afg'oniston aholisining yarmidan ko'pi ayollar ekanligini hisobga olsak, TIKA ushbu yo'nalishda o'zining loyihalarini izchil takomillashtirib borishi kerakligini yaxshi anglab yetgan. Shu maqsadda TIKA oxirgi 10 yil ichida Afg'onistondagi ayollarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi 280 ga yaqin loyihani amalga oshirdi. 90 ta kasb-hunar ta'limi dasturlari bajarildi, binolar qurildi, ta'mirlandi va jihozlandi. Ushbu davrda 15 ta qizlar maktabi qurilgan bo'lsa, 12 ta qizlar maktabi ta'mirlandi, 40 ta maktabga moddiy-texnik jihatdan yordamlar ko'rsatildi. Madaniy tadbirlar doirasida 8-mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan Afg'oniston nodavlat notijorat tashkiloti Afg'oniston ayollarga xizmatlar va ta'lim assotsiatsiyasi (ing. AWSE¹⁶⁸) bilan hamkorlikda “Afg'oniston saylovlarida ayollarning faolligi” nomli simpozium tashkil etildi¹⁶⁹. Bu kabi loyihalar ayollar huquqini ta'minlash, ta'lim olish va ishlash, qolaversa, jamiyatga ko'proq integratsiya bo'lishga xizmat qiladi.

Vayron bo'lgan iqtisod va ishsizlikning baland sur'ati jamiyat hayotining mo'tadillashuviga xalaqit qilmoqda. Bunday noqulay sharoitdan eng ko'p ayollar sitam chekishi ham sir emas. Turkiya bunday ijtimoiy muammolarini qisqa muddatli kasb maktablari orqali tezroq hal etishga urinib, mamlakatning asosiy turkiy etnik birliklari yashovchi shimoliy rayonlarida ba'zi loyihalarni doimiy amalga oshirib kelmoqda. Shunday ko'p sonli loyihalardan biri 2018-yilda Afg'onistonning Mozori Sharif shahrida xotin-qizlar uchun kasb-hunar o'rgatuvchi qisqa muddatli kurslarning tashkil etilishi bo'ldi. Unda 200 nafar tinglovchi ayollar o'qish-yozish, kashta tikish, Qur'on kurslari, sataroshlik va dizaynerlik hamda turk tili kurslaridan ta'lim oldilar. Yana bir shunga o'xshash kasbiy ta'lim kursi Samangan viloyati

¹⁶⁸ Afghan Women Services and Education Organization (AWSE)

¹⁶⁹ Z. Dashti, Kamil. İ. Kamu diplomasisi açısından TİKA ve Yunus Emre enstitüsü'nün Afganistan'daki faaliyetleri. Adıyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. – 2022, № 15, Vol 40. – S.679.

yatining Aybek tumanida tashkil etilgan bo‘lib, unda 6 oy ichida 150 nafar tinglovchi ishtirok etgan¹⁷⁰.

TIKA “yumshoq kuch” sohasida muhim vazifani bajarar ekan, “yagona tarixiy makon – umumiy ajdodlar” shiorida ham muhim ishlarni amalga oshiradi. Uning bu yo‘nalishda Afg‘onistondagi yana bir loyihasi Mavlono Jaloliddin Rumiy tug‘ilgan uyning qayta tiklashga oid sa‘y-harakatlari bo‘ldi. Afg‘oniston shimolidagi Balx shahrida joylashgan ushbu tarixiy uy yillar mobaynida eskirib, ta‘mirtalab ahvolga kelib qolgan edi. Ikki davlatning mushtarak qadriyati ramzi hisoblangan Mavlono tavallud topgan uyning restavratsiya ishlari Turkiya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Afg‘onistonni qayta tiklash uchun ajratilgan fondan moliyalashtirildi va TIKA raisligi tomonidan amalga oshiriladi. 2019-yilda Afg‘oniston tashqi ishlar vaziri Salohiddin Rabboniy TIKAning Afg‘oniston bo‘yicha agenti R.Kilinch bilan bo‘lgan uchrashuvida TIKAning Afg‘onistondagi muhim faoliyatini yuqori baholadi va mazkur uyning restavratsiya ishlarini boshlash ikki mamlakat tarixiy mushtarakligining kelajakda ham davom etishini anglatishini ma‘lum qildi¹⁷¹.

TIKA Afg‘onistonda muhim loyihalarni amalga oshirgan yana bir soha ta‘limdir. Afg‘oniston xalqining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda olib borilgan dala tadqiqotlarida aholining taxminan 20 foizini maktab yoshidagi bolalar tashkil etishi, bu dunyoda eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, boshlang‘ich maktabni bitirish darajasi esa 45 foizni tashkil etishi aniqlandi. Shunday ekan, bu yerda ta‘lim infratuzilmasini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy masalalardan biridir.

Turkiyaning Afg‘oniston ta‘lim tizimidagi ahamiyati haqida gapirilar ekan, bu tendensiya ikki davlatning ilk mustaqillik yillaridanoq boshlangan bo‘lib, hozirgi bosqichda ham davom etayotganligini alohida ta‘kidlash maqsadga muvofiqdir. Ta‘lim sohasidagi yordamlar va kadrlar jo‘natish Usmoniylar imperiyasi davridan boshlangan edi. Zamonaviy afg‘on modernizmining otasi hisoblangan “Yosh afg‘onlar” harakati yetakchisi Mahmud Tarziyning qarashlari aynan turk muallimlarining falsafiy qarashlari asosida

¹⁷⁰ TIKA: 2021 yili performans programi // T.C. Kültür ve Turizm bakanlığı Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı başkanlığı https://tika.gov.tr/wp-content/uploads/2023/01/TIKA_PP2021Web.pdf

¹⁷¹ Z. Dashti, Kamil. İ. Kamu diplomasisi açısından TIKA ve Yunus Emre enstitüsü-nün Afganistan’daki faaliyetleri. Adıyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. – 2022, № 15, Vol 40. – S.680.

shakllangan bo‘lib, u Afg‘onistonda zamonaviy ta‘lim tizimi yaratilishida turk modelini andoza qilib olgan edi¹⁷². Qolaversa, “yumshoq kuch”ning eng muhim vositalaridan biri, albatta, ta‘limdir. Hozirgi davrda jahon siyosatida inson kapitali masalasi asosiy omilga aylanmoqda. Aynan mana shu fonda ko‘plab ambitsiyali rivojlanayotgan davlatlar o‘zlarining milliy ta‘lim tizimlarini tubdan isloh qilish va xalqaro maydonda yoyishga alohida e‘tibor berishmoqda. Bunday davlatlarda chet ellik talabalar uchun turli xil grantlar ajratilishi “aqlar uchun global raqobat”ning bir qismi deyishimiz mumkin. Chet ellik talabalar uchun ta‘lim imkoniyatlarini ta‘minlash davlat yumshoq kuchining eng muhim vositalaridan biridir. Chunki xorijlik talabalar shu davlatning tilini o‘rganish barobarida uning fan va madaniyati yutuqlari bilan ham asta-sekin tanishib boradilar. Ushbu talabalar chet elda o‘qiganlaridan so‘ng qimmatli ijtimoiy kapitalga ega bo‘lishlari mumkin. Binobarin, o‘rttirilgan bilim va shaxsiy munosabatlar bilan qaytgandan so‘ng, ular o‘qigan mamlakatning tili va madaniyatining samarali uzatuvchisiga aylanishi kutiladi. Natijada, yumshoq kuch vositasi sifatida milliy ta‘lim yordamida tashqi dunyoga ta‘sir qilish samaradorligi harbiy kuch yoki boshqalarga qaraganda ancha yuqori.

Turkiya global kuch markaziga da‘vogar mamlakat sifatida xorijlik talabalarni qabul qilishda dunyoning peshqadamlaridan bo‘lib, xorijlik talabalarning qabul qilish qamrovi har yili yuz ming nafardan oshmoqda. Turkiyaning stipendiya loyihalari Turkiy tilli davlatlar loyihasi, Bolqon stipendiya loyihasi, Qora dengiz stipendiya loyihasi, “Turkiya – Afrika” stipendiya loyihasi, Xarran stipendiya loyihasi kabi turlarga bo‘linadi¹⁷³. Afg‘onistonlik talabalar asosan Xarran loyihasi asosida Afg‘onistonda ta‘lim olishlari mumkin¹⁷⁴. Afg‘onistondagi turk maktablarini a‘lo baholarga tamomlagan

¹⁷² Д.А.Борисов, А.А.Сафаров. Попытки вестернизации Афганистана: Аманулла-Хан и Хамид Карзай. Уроки прошлого для горизонтов будущего // Проблемы региональной безопасности. – 2023, Т.6. № 5. – С.522.

¹⁷³ Стипендии Турции: стипендиальные программы для иностранных студентов http://universitetcihleri.com/uni/docs/eit_224_ru_5.pdf

¹⁷⁴ Harran Turkiya hududidagi qadimiy shahar bo‘lib, tarixdagi birinchi universitetlardan biri va turli davrlarda mintaqaning muhim ilmiy markazi bo‘lganligi ilmiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni yaxshilashga qaratilgan ushbu stipendiya dasturi nomini tanlashda hal qiluvchi omil bo‘ldi. Ushbu dastur qadim zamonlardan buyon ushbu mintaqaning ilmiy va madaniy markaz sifatida jahonda tan olinishini tiklashga qaratilgan bo‘lib, Bangladesh, Falastin, Iroq, Eron, Livan, Pokiston, Suriya, Tojikiston, Iordaniya, Yaman, Afg‘oniston, Isroil kabi davlat yoshlari uchun mo‘ljallangan stipendiya loyihasi hisoblanadi.

yoshlarga Turkiyada o'qishni davom ettirish imkoniyati beriladi. Ko'p sonli afg'on yoshlari Turkiyada "Ihlas Vaqfi" va "Diyanet Vaqfi" jamg'armalari orqali ta'lim oladi¹⁷⁵. Turkiyada maxsus stipendiya asosida ta'lim olayotgan afg'onistonlik talabalarning umumiy soni birgina 2018-yilning o'zida 4000 nafardan oshgan.

Turkiya 2001-yildan keyin ham Afg'onistondagi ta'lim sohasida ulkan ishlarni amalga oshirdi deyish mumkin. Turkiya muvofiqlashtirish va hamkorlik agentligi 2005–2014-yillar oralig'ida Afg'onistonning turli mintaqalarida 280 ta ta'lim loyihasini ishga tushirdi¹⁷⁶. 2017-yilgacha esa bu sohadagi loyihalar sonini 342 taga yetkazdi. Umumiy TIKa loyihalarining 33 foizi ta'limga oid amaliy dasturlar ekanligi bu boradagi ishlarning ko'lami nechog'lik chuqurligini ko'rsatadi. Jumladan, Mozori Sharifdagi 5500 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan eng katta litsey – Fotima Balh-i nomli qizlar litseyi qaytadan ta'mirlangan bo'lib, unda minglab yoshlar o'z savodlarini chiqarmoqda. Muhim ilmiy yo'nalishlar va tadqiqotlarni amalga oshirish uchun Balx universiteti tibbiyot fakultetining mikrobiologiya va patologiya sohasiga oid laboratoriyalari rekonstruksiya qilindi va qo'shimcha jihozlar ham yetkazib berildi. Bunday texnologiyalar Afg'onistondagi keyingi loyihalarining istiqboli uchun judayam muhim edi. Bu yo'nalishdagi ishlarni davom ettirish uchun TIKa va Trakya universiteti bilan hamkorlikda Afg'onistondan kelgan 23 nafar o'qituvchiga 10 kun davomida fan, texnologiya, muhandislik va matematika bo'yicha muhim darslar o'tildi¹⁷⁷. Umuman olganda 2005-yildan 2018-yilgacha Afg'onistonda TIKa homiyligida 100 ga yaqin maktab qurilib, 120 mingdan ortiq o'quvchiga yaxshi va sog'lom sharoitlarda ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratildi.

Turkiya Afg'onistonda ta'lim dasturlarini amalga oshirar ekan, turk tili va adabiyotini targ'ib qilishga urinishi tabiiydir. Turkiya tashqi siyosatida madaniy salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida 2007-yil may oyida Yunus Emre fondi tuzildi. Ushbu fond "yumshoq kuch" vositasi o'laroq turk tili, tarixi, madaniyati va san'atini targ'ib qilish, xorijdagi turk tili, ma-

¹⁷⁵ Kuzey Afganistan'in Cevizcan Valisi Konya'da [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://guncyturkistan.wordpress.com/2010/10/24/kuzey-afganistanin-cevizcan-valisi-konya/> / (дата обращения 25.08.2018).

¹⁷⁶ روزنامه صبح کابل

<https://subhekabul.com/wp-content/uploads/2021/04/No-354.pdf>

¹⁷⁷ TIKa Faaliyet Raporları (2016) https://tika.gov.tr/wp-content/uploads/2023/01/I%C3%87dare-Rapor_2016_WebFormati.pdf

daniyati va san'ati sohalarida ta'lim olishni xohlovchilarga ushbu sohada imkon yaratish, chet el universitetlari va nodavlat tashkilotlar bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish, Turkiyaning boshqa davlatlar bilan madaniy almashinuvini oshirish va do'stligini rivojlantirish kabi ishlarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan¹⁷⁸. Ushbu muassasada bu borada bir nechta dasturlar mavjud. Jumladan, turk professorlarini turli mamlakatlarda turk tilidan dars berishga yuborish, ixtisoslashgan turk kutubxonalari tashkil etish, turk tili va adabiyoti kurslarini tashkil etish maqsadida raqamli manbalar bilan ta'minlash va universitetlar bilan hamkorlik protokollarini tuzish kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Yunus Emre instituti Afg'onistonda 2013-yilda ochilgan. Kobul universiteti va Yunus Emre instituti o'rtasida imzolangan hamkorlik protokoli imzolandi¹⁷⁹. 2019-yil 20-sentyabr holatiga ko'ra Yunus Emre instituti Afg'onistonning turli mintaqalarida ta'lim sohasida 400 ga yaqin loyihani amalga oshirdi. Masalan, Afg'oniston poytaxti Kobulda o'tkazilgan "Savodxonlik kampaniyasi" doirasida yuzlab afg'on ayollari o'qish va yozishni o'rgandi. Institutning 2020-yil hisobotlarida aytilishicha, 2013-yil holatiga ko'ra turkologiya bo'limlari va boshqa kurs joylarida 5 ming kishi turk tilini o'rgangan. Yunus Emre instituti faoliyatidan foyda ko'rgan davlatlar orasida Afg'oniston Ozarbayjondan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. Bundan tashqari, turk tili Afg'oniston universitetlarida ingliz tilidan keyin eng mashhur va foydali deb qaraladigan ikkinchi chet tiliga aylandi¹⁸⁰. Turk tilini ommalashtirish vazifasida ishlaydigan turkologiya fakultetlari faqatgina Kobul universitetlari bilan cheklanib qolmasdan Afg'onistonning Ba'lon, Balx, Juzjon, Sari-Pul, Faryob va Tohar viloyatlarida ham o'z faoliyatini olib borgan¹⁸¹.

¹⁷⁸ YUNUS EMRE ENSTİTÜSÜ // 2019 FAALİYET RAPORU (9-bet) https://www.yee.org.tr/sites/default/files/yayin/yee_2019_v2_31122020.pdf

¹⁷⁹ Başar, U. AFGANİSTAN'DA YABANCI DİL OLARAK TÜRKÇE ÖĞRETİMİ ÜZERİNE GÜNCEL BİR DEĞERLENDİRME. Aydın Tömer Dil Dergisi. – 2018. Cilt 3, Sayı 1. – ss. 1-20.

¹⁸⁰ Dashti, Z, Kamil. İ. Kamu diplomasisi açısından TİKA ve Yunus Emre enstitüsünün Afganistan'daki faaliyetleri. Adıyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. – 2022, № 15, Vol 40. S – 686. Shuningdek qarang: https://www.yee.org.tr/sites/default/files/yayin/yee_2019_v2_31122020.pdf

¹⁸¹ Afganistan'da Türkoloji Bölümlerinin Mezuniyet Heyecanı <https://kabil.yee.org.tr/tr/haber/afganistanda-turkoloji-bolumlerinin-mezuniyet-heyecani> (murojaat qilingan sana 27.04.2024)

Turk tili bilan bir qatorda Turkiyaning milliy bayramlari ham Afgʻonistonda keng nishonlanadi. Turkiya haqida filmlar namoyishi, seminarlar, Mavlono Yunus Emre oʻqishlari, Seb-i Arus marosimlari kabi turli madaniy dasturlar uyushtirilmoqda. Boshqa tomondan, har yili Afgʻonistonning turli viloyatlarida turk dunyosining qadrlil turk shoiri Alisher Navoiy va Boburiylar imperiyasining asoschisi Boburshohni xotirlash dasturlari oʻtkaziladi. Bundan tashqari, har yili Turkiya-Afgʻoniston siyosiy va madaniy aloqalariga bagʻishlangan “Oltoydan Dunaygacha turkiy til olami” kabi anjumanlar oʻtkaziladi¹⁸².

Turkiya tashqi siyosatining targʻibotini yoyishda turk kinofilmlari va seriallari alohida ahamiyatga ega. Filmlar sanoatidan yumshoq kuch omili sifatida foydalanish dunyoda yangilik emas va Turkiya 2000-yillarda bu tendensiyaning faol vakiliga aylandi. Turkiya teleseriallar eksporti boʻyicha dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi oʻrinda turadi. Mamlakat 150 dan ortiq teleseriallari bilan dunyoning 146 mamlakatidan 1 milliardga yaqin tomoshabinlar eʼtiborini oʻziga tortgan. Arab davlatlari, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo hamda Kavkaz mintaqalaridan 700 milliondan ortiq kuzatuvchilarga ega ekanligi Turkiyaning bu boradagi muvaffaqiyatlarining ulkanligini anglatadi. Qolaversa, Turkiyaning film mahsulotlari jahon kinoekranlariga chiqib, 1 milliard dollar mablagʻ va yana koʻplab sayyohlarni Turkiyaga jalb qilmoqda¹⁸³. Afgʻonistonda ham turk seriallari yetakchi hisoblanib, bu borada Hindistonni ortda qoldirdi. Afgʻoniston teleekranlarida 200 dan ortiq turk filmlari namoyish etilib, jamiyatning barcha qatlamlari orasiga chuqur kirib borgan. Turkiyaning “Qashqirlar makoni” (Kurtlar Vadisi), “Muhtasham yuz yil” (Muhtesem Yüzyıl), “Bebaho vaqt” (Öyle bir Geçer Zaman ki) kabi filmlari afgʻonlar orasida judayam mashhur¹⁸⁴. Tarixiy va diniy jihatdan yaqinlik turk filmlarining Afgʻonistonda ommalashuviga olib kelmoqda. Afgʻoniston tekstilchilari kiyim-kechaklarida turk filmlari qahramonlarining tasvirini tushirish orqali savdo hajmini oshirayotgan boʻlsa, baʼzi ovqatlanish shoxobchalari turk filmi nomlari ostida ochilganligi Tur-

¹⁸² Afgʻonistonʼda Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı Başkanlığı (TİKA) ve Yunus Emre Enstitüsü tarafından düzenlenen törenle şair Ali Şir Nevai ve hükümdar Babür Şah anıldı. <https://www.yenisafak.com/hayat/ali-sir-nevai-ve-babur-sah-anildi-2081580>

¹⁸³ Sh. Sharma, From screen to soft power: the rising appeal of Turkish TV series in Bangladesh // Online Media Glob. Commun. – 2023; 2(4). – P.546.

¹⁸⁴ KABUL – Anadolu Agency: Afghans clamoring for more Turkish <https://www.hurriyetdailynews.com/afghans-clamoring-for-more-turkish-tv-53754>

kiyaning bu boradagi “yumshoq kuch” siyosati o‘zini to‘la oqladi deb xulosa qilish mumkin.

2016-yil dekabr oyida Afg‘oniston prezidenti Ashraf G‘ani ikki kunlik tashrifi paytida Anqarada hamkasbi Erdog‘an bilan uchrashdi. Ikki davlat rahbarlari o‘zaro anglashuv memorandumida muhim sohalaridagi aloqalardan tashqari media sohasida ham hamkorlik qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan edi¹⁸⁵.

2021-yilga qadar 1,8 milliard dollarlik rivojlanish dasturi va 13 mingga yaqin rivojlanishga yordam loyihalari bilan Afg‘oniston Turkiyaning xorijdagi eng yirik rivojlanish dasturini qabul qiluvchi mamlakatga aylandi¹⁸⁶. Ushbu qo‘llab-quvvatlash dasturlari asosan ta‘lim, sog‘liqni saqlash va muhim infratuzilmalarni tiklashga qaratilgan.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida “yumshoq kuch” (soft power) eng keng qo‘llanilayotgan mexanizm bo‘lib, mamlakatlarning xalqaro nufuzini oshirishda ustuvorlik beradi. Turkiya Xalqaro “yumshoq kuch” indeksida yuqori o‘rinlarda tilga olinishi uning bu sohadagi tashqi siyosiy konsepsiyasini o‘rganishni taqozo qiladi. Turkiyaning gumanitar diplomatiyasi Afg‘onistonda, ayniqsa, samarali ishlaganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda turk tili Afg‘onistonda ikkinchi eng ko‘p o‘rganilayotgan til sifatida namoyon bo‘lishini, so‘nggi yillarda Turkiyada eng ko‘p migrantlar ham aynan afg‘onlar ekanligini Turkiyaning “yumshoq kuchi” ta‘siri bilan izohlash mumkin.

Turkiya Afg‘onistondagi “yumshoq kuchining” samarali ishlashi uchun TIKa, Yunus Emre instituti, Diyanet fondi va yana bir qator davlat va nodavlat tashkilotlari hamda turk tili, adabiyoti va filmlaridan muvaffaqiyatli foydalanmoqda.

Afg‘oniston o‘n yildan ortiq vaqt mobaynida Turkiyaning tashqi yordamlarini qabul qiluvchi davlatlar reytingida eng yuqori o‘rinlarda qolmoqda. Turkiya Afg‘onistonda ko‘plab loyihalarni amalga oshirish orqali

¹⁸⁵ R. Hajiminek, R. Dehghani, F. Mohammadkhani, Explaining Turkey’s Cultural Diplomacy in Afghanistan during the AKP Era // Iranian Review of Foreign Affairs, 2022. Vol. 11, No. 1. – P.160.

¹⁸⁶ Turkiyaning Afg‘onistondagi gumanitar diplomatiyasiga oid ma’lumotlar tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Yavuz Selim Kiranning SETA tomonidan 2021-yil 1-martda tashkil etilgan “Afg‘onistonning 1 asrdan keyingi aloqalari” mavzusidagi vebinardagi nutqidan <https://www.youtube.com/live/C4HGOrQILdo?si=-x2bBFS5bOUQI1nH>

minglab yoshlarning ta'lim olishi, yana shuncha odamlarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishida o'z hissasiga ega bo'lish orqali afg'onlarning qalbidan ijobiy o'rin egallagan. Turkiyaning ijtimoiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi Afg'oniston bilan hamkorligi bugungi chigal vaziyatlarga qaramay davom etmoqda.

II bob bo'yicha xulosalar

Turkiya va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar tarixiy, diniy va madaniy mushtaraklik asosida qurilgan. Afg'oniston Turkiya Respublikasi uchun doimo katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ikki davlat o'rtasida bundan 100 yildan ko'proq vaqt oldin o'rnatilgan diplomatik munosabatlar do'stlik va sheriklik munosabatlariga asoslangan edi. Shunday ekan, terrorizmning dunyo bo'ylab tarqalish xavfi va cho'zilib ketgan afg'on inqirozi Turkiyani Afg'onistondagi tartibsizliklar o'chog'iga aylanib ketishining oldini olish uchun sa'y-harakatlarni safarbar qilishga majbur qildi. Turkiya 1996–2001-yillarda Afg'onistonda hokimiyatda bo'lgan “Tolibon”ni rasman tan olmadi va ular rejimi qulagandan keyingina ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi. Oliy darajadagi tashriflar va delegatsiyalar almashinuvi tezlashdi, o'zaro hamkorlikning qator mexanizmlari ishga tushirildi.

Afg'oniston rahbarlari Turkiya bilan aloqalar muhimligini qayta-qayta ta'kidlab, uni qardosh davlat va umumiy chegaralari bo'lmagan yaqin qo'shni deb atagan. O'tgan yigirma yillikda Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar 2014-yilda imzolangan “Strategik sheriklik va do'stlik to'g'risida”gi bitim bilan mustahkamlangan, ikkitomonlama munosabatlarni yaxshilash va mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator uchrashuvlarda mudofaa va xavfsizlik, sanoat, transport, savdo, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalaridagi hamkorlik masalalari keng muhokama qilingan.

G'arb hamkorlariga kuchli qaram bo'lishiga qaramay, Kobul ma'muriyati Turkiya bilan siyosiy muloqotni hanuzgacha pasaytirmoqchi emas. 2001-yildan buyon Turkiya Afg'oniston Islom Respublikasidagi Xalqaro xavfsizlik kuchlari missiyasida qatnashadi (2014-yilda yakunlangan). Shuni ta'kidlash kerakki, Anqara boshidanoq xavfsizlikni ta'minlash va vayron bo'lgan infratuzilmani tiklashga sa'y-harakatlarni jamlab, harbiy harakatlarda qatnashishdan o'zini tiygan. Ushbu faoliyatning ijobiy tomoni sifatida mahalliy aholi oldida Turkiyaning ijobiy imiji shakllanishi, shuningdek,

mamlakatlar o'rtasidagi ishonch mustahkamlanganini qayd etish mumkin. Ayni paytda Turkiya Afg'oniston milliy armiyasi va politsiya kuchlarini tayyorlashda faol ishtirok etdi. 2015-yilda Anqara NATOning Afg'oniston Islom Respublikasidagi "Qat'iy qo'llab-quvvatlash" nomli yangi missiyasiga qo'shildi.

Jahon miqyosida Turkiya Respublikasi ham faol tashqi siyosat olib borar ekan, uning yo'nalishlaridan biri keskin yoki cho'zilgan nizolarni hal etishda vositachi davlat rolini kuchaytirishdan iborat. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy inqiroz uning yaqin va uzoq qo'shnilari xavfsizligiga tahdid solmoqda. Mintaqadagi vaziyatni barqarorlashtirishdan manfaatdor bo'lgan Turkiya Afg'onistondagi nizolashayotgan tomonlarni yarashtirish uchun vositachilik sa'y-harakatlarini amalga oshirdi, ammo baribir asosiy e'tiborini Afg'oniston-Pokiston munosabatlarini hal qilish masalalariga qaratdi. Oxirgi maqsadga erishish uchun 2007-yilda uchtomonlama forum – "Anqara jarayoni" boshlandi. Mazkur format doirasida sakkizta sammit uchrashuvi o'tkazildi. Pokiston, Afg'oniston va Turkiya rahbarlari ilk marta bir joyga to'planib afg'on muammosini muhokama qilishida bu tashabbus beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, Anqara ishtirokida 2011-yilda Afg'oniston bo'yicha Istanbul jarayoni shakllantirilib, u Afg'onistondagi barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash hamda uning mintaqa va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga yordam berishi oydinlashdi. Istanbul jarayoni ishtirokchilarga Afg'oniston va unga chegaradosh mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli kelajagi bevosita kollektiv xavfsizlik tizimiga bog'liqligini ko'rsatishi kerak edi, bu esa transmilliy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, migratsiya inqirozini hal etish, narkotik moddalarni ishlab chiqarish va tarqatish jarayonidagi noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olishni nazarda tutdi. Mazkur tuzilmaning o'n yillik faoliyati Afg'oniston Islom Respublikasi barqarorligi Kobulning qo'shnilari bilan munosabatlari o'rtasidagi muvozanat va uning G'arb shehriklarining doimiy yordamiga bog'liqligi yana bir bor tasdig'ini topdi.

Istanbul jarayoni bilan bir qatorda Turkiya Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishning boshqa formatlari, jumladan Afg'oniston rahbariyati tashabbusi bilan boshlangan, AIR va butun G'arb bloki manfaatlarini qanoatlantiradigan tamoyilga asoslangan Kobul jarayonining ishtirokchisidir.

XX asr oxiriga kelib Turkiya yagona turkiy makonni yaratish g'oyasi doirasida Afg'onistonning shimoliy hududlarida o'z ta'sirini kengaytirishga harakat qildi. 2002-yildan boshlab, Adolat va taraqqiyot partiyasining

hokimiyatga kelishi munosabati bilan tashqi siyosat konsepsiyasini o'zgartirgandan so'ng, Turkiya bir qator davlatlar, jumladan, Afg'onistonda ham yumshoq kuch siyosatini faol qo'llay boshladi. Uning asosiy yo'nalishi ma'rifiy loyihalarni amalga oshirish, turk madaniyati va tilini targ'ib qilish edi. Anqara Afg'onistonning shimoliy qismida, ko'p sonli turklar yashaydigan hududda, bu uning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosat maqsadlariga, shuningdek, energetika va infratuzilma loyihalariga erishishda yordam beradi degan umidda mintqa elitasi orasida o'z ta'sirini kengaytirishga harakat qildi. Afg'onistonning birinchi vitse-prezidenti A.R. Do'stum (o'zbek) va uning "Afg'oniston milliy islom harakati" partiyasini qo'llab-quvvatladi. Turk "yumshoq kuchi" Afg'onistonning deyarli barcha sohalariga kirib bordi. Turk filmlari eng ko'p tomosha qilinadigan darajaga chiqqan bo'lsa, turk tili ham ingliz tilidan keyin ikkinchi eng muhim til sifatida afg'on jamiyati tomonidan keng o'rganilmoqda. Turkiyaning sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qilgan ishlari esa Turkiya "yumshoq kuchi" ning asosini tashkil qilmoqda.

III BOB. 2021-YIL “TOLIBON” HOKIMIYATGA KELGANDAN KEYINGI AFG‘ONISTON VA TURKIY DUNYO MUNOSABATLARINING HOLATI

3.1. 2021-yil avgustda “Tolibon” hokimiyatga kelganidan keyin afg‘on-turk munosabatlarining rivojlanish muammolari

Kollektiv G‘arb, xususan Amerikaning 20 yil davomidagi sa‘y-harakatlari va ulkan sarf-xarajatlariga qaramasdan 2021-yilning avgust oyida Afg‘oniston hukumatining qisqa fursatda qulashi va hokimiyatning “Tolibon” tomonidan egallab olinishi dunyodagi eng muhim voqea o‘laroq, jahon hamjamiyatining nigohini yana bir bor mintaqaga qaratdi. Kobulda hokimiyatning tezlik bilan egallab olinishi nafaqat Afg‘onistonda, balki mintaqaviy kuchlarning geosiyosiy uyg‘unlashuvida ham tub o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Ayni damda, bir tomondan, Pokistonning ta’siri sezilarli darajada oshgani, ikkinchi tomondan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun yangi va jiddiyroq xavfsizlik tahdidining qaytadan kuchayishi haqida analitik markazlarning tahlillari paydo bo‘la boshladi. Mintaqaviy hukmronlikka da’vogar asosiy kuchlar qatorida Anqara va Tehron Afg‘onistondagi beqaror vaziyatdan foydalanib, Yaqin Sharq mintaqasida o‘z ta’sirini kuchaytirishga harakat qilishdi. Ushbu jarayonlar hamma kutganidek Turkiyani Afg‘onistondan uzoqlashtirishga xizmat qilmadi. Aksincha, Turkiya bu mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta’sir qiluvchi yirik kuchga aylanganini isbotlashga urinmoqda.

Toliblarning hokimiyatga kelishi Afg‘onistonda jiddiy gumanitar inqiroz xavfini yuzaga keltirdi. Ushbu vaziyatda AQSH va Yevropa Ittifoqi, shuningdek, Rossiya va Xitoy uchun BMT tomonidan rasman terrorchi tashkilot deb tan olingan toliblarning yangi hukumati bilan o‘zaro munosabatlar parametrlari haqida savollar tug‘dira boshladi. Bu jarayonlarda kutilganidek, Turkiya prezidenti o‘zining vositachilik xizmatlarini g‘arbdagi hamkorlariga faol taklif qilayotganini kuzatishimiz mumkin. “Tolibon” va G‘arb hamjamiyati o‘rtasidagi muloqotni tashkil qilish masalasi dolzarb ekanligini ta’kidlagan Turkiya agar Anqara bu vazifani o‘z zimmasiga olmasa, “Tolibon” Rossiya, Xitoy va Eron kabi “NATOGa qarshi” davlatlar tomonidan nazoratga olinishi kollektiv G‘arb uchun yangi muammolarga yo‘l

ochishi fonida rolining muhimligini ta'kidladi¹⁸⁷. Aynan shu omillar tufayli 2021-yildan keyingi Anqara-Kobul munosabatlari muhimlik kasb etadi.

“Tolibon” hokimiyatga qaytganidan so‘ng ko‘plab davlatlar Afg‘oniston bilan diplomatik aloqalarini uzib, diplomatik vakolatxonalari, jumladan elchixonalarini yopganiga qaramasdan Turkiya NATOning yagona a‘zosi sifatida urushdan vayron bo‘lgan mamlakatda diplomatik ishtiroki orqali ko‘p sohalarda faol rol o‘ynashga urinmoqda. Bu jihatdan Turkiya “Tolibon” bilan ular hokimiyatga kelishidan oldinroq muloqotni yo‘lga qo‘ya olgani unutmazlik lozim. Buning sababi shunda ediki, Turkiya siyosatchilari AQSH tashabbusi bilan boshlangan tinchlik jarayoniga optimistik ko‘z bilan qarashganiga qaramasdan o‘zlarining ba’zi shubhalari mavjud bo‘lgan. Turkiyalik ayrim rasmiylar “Tolibon”ning har qanday jiddiy murosaga borishga tayyorligini shubha ostiga olgan holda, xalqaro hamjamiyat va Afg‘oniston hukumati “Tolibon”ga bosim o‘tkazish uchun yetarli ta’sir kuchiga egami yoki yo‘qmi, degan jiddiy xavotir bildirishgan¹⁸⁸. Shu sabab Turkiyaning o‘zi “Tolibon” bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yish va bu borada Pokiston ko‘magiga tayanishni maqsad qilgan. “Tolibon” bilan diplomatik munosabatlarga kirishar ekan, Turkiya siyosiy taranglikni yumashatish maqsadida uchtomonlama Anqara, Kobul va Islomobod o‘rtasida har yili o‘tkaziladigan bir necha sammitlarga mezbonlik qilish bo‘yicha tarixiy tajribaga ega ekanligini ta’kidlash joiz. Bu to‘g‘risida monografiyaning 2.2-qismida ham batafsil muhokama qilingan edi. Uning “Tolibon” rahbariyati bilan bevosita aloqa o‘rnatish harakati, 2010-yil boshida Anqarada ofis ochish masalasini kun tartibiga olib kelgan¹⁸⁹. Ofis kutilganidek Anqarada emas, Qatar poytaxti Doha shahrida 2013-yilda ochilganiga qaramasdan Turkiya Qatar bilan bu borada o‘xshash qarashlarga ega ekanligidan kelib chiqib bu Turkiya uchun foydali bo‘ldi deyishimiz mumkin.

Rajab Toyib Erdog‘an 2012-yil may oyida bosh vazir sifatida Afg‘onistonga tashrif buyurganida quyidagicha bayonot bergan edi: “Turkiya barcha kuchlar ketganidan keyin ham Afg‘onistonda qoladi va faqat afg‘on biro-

¹⁸⁷ Шумилин А.И. «Особые отношения» Турции с Талибаном: последствия для ЕС и НАТО // Научно-аналитический вестник ИЕ РАН. – 2021. №5. – С. 7-14.

¹⁸⁸ Sharan, T, Watkins, A. Mediator in the making? Turkey’s role and potential in Afghanistan’s peace process. Friedrich Ebert-Stiftung (FES) Afghanistan. – 2021. – P.2

¹⁸⁹ Ayaz Gul, “Turkey to Host Trilateral Summit on Afghan Peace”, Voice of America, 4 January 2019 <https://www.voanews.com/a/turkey-to-host-meeting-on-afghanistan-in-the-spring/4728960.html> (Murojaat qilingan: 26.11.2023)

darlarimiz va opa-singillarimiz aytganidagina chiqib ketadi”¹⁹⁰. Ushbu gap shunchaki, ritorik emas, ayni haqiqat ekanligi oradan 9 yil o‘tib oydinlashdi. NATO kuchlari Afg‘onistonni tark etgach Kobuldagi Hamid Karzay xalqaro aeroportida xavfsizlikni ta‘minlash, mamlakatda hamon mavjud bir nechta G‘arb elchixonalarini qo‘riqlash kabi harbiy va diplomatik vazifalarni Turkiya o‘z bo‘yniga olish istagini bildirdi. R.T.Erdog‘an Amerika va NATO Afg‘onistonni tark etgach Kobul aeroportini nazorat qilish va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha bayonotini Bryusselda Jo Bayden bilan ko‘rishgach e‘lon qilgan bo‘lib, 2021-yil 24-iyun kuni Pentagon delegatsiyasi ushbu masalani muhokama qilish uchun Turkiyaga keldi. Ba‘zi bir ekspertlarning fikrlariga ko‘ra Afg‘onistonda Turkiyaning ushbu tashabbusidan maqsadi ham aynan amerikaliklar bilan sovuqlashgan munosabatlarini¹⁹¹ tiklash orqali G‘arb jamiyatlari oldida nufuzini oshirish bo‘lgan¹⁹². Albatta, Turkiya Afg‘oniston masalasida “Tolibon” bilan hamkorlik qilishga urinishi va xatarli tavakkalchilik bo‘lsa-da, Kobul aeroportini himoya qilishni zimmasiga olar ekan, Amerika bilan munosabatlarini yaxshilash bilangina cheklanib qolmasdan, o‘zining ko‘plab geosiyosiy maqsadlariga ega edi. Ammo “Tolibon” va Turkiya o‘rtasida keskin qarama-qarshilik yo‘q bo‘lishiga qaramasdan toliblarning Dohadagi matbuot kotibi Suhail Shahin Turkiya harbiylari 2020-yil 29-dekabrda Tolibon-AQSH kelishuviga muvofiq barcha kuchlar, jumladan Turkiya ham mamlakatni tark etishi lozimligini aytdi. Suhail Shahin so‘zida davom etar ekan: “Turkiya buyuk bir islom davlatidir. Afg‘onistonning bu davlat bilan tarixiy aloqalari bor. Kelajakda yangi Islom davlatining barpo etilishi bilanoq ular bilan yaqin va yaxshi aloqalar o‘rnatishni umid qilamiz¹⁹³”, deya keskinlik ohangini biroz yumshatgandek bo‘ldi.

Anqaraning mintaqadagi nufuzini hisobga olgan holda Amerikadan so‘ng G‘arb davlatlari ham Afg‘oniston masalasida Turkiya bilan konsen-

¹⁹⁰ Kaya K. Turkey’s Role in Afghanistan and Afghan Stabilization // Military Review, 2013. – P. 23.

¹⁹¹ Turkiya o‘z havo hududini Rossiyaning S-400 zenit-raketa komplekslari yordamida himoya qilishga qaror qilgani sababli Anqara va Vashington o‘rtasida keskinlik yuzaga kelgan edi. Qo‘shma Shtatlar esa bunga javoban Turkiyani Amerikaning F-35 qiruvchi-bombardimonchilarini oladigan davlatlar qatoridan chiqarib tashlagan edi.

¹⁹² Даниэль Хайнрих: Зачем Эрдоган ищет дружбы с талибами? <https://www.dw.com/ru/turcija-v-rol-i-posrednika-zachem-jerdogan-ishhet-druzhby-s-talibami/a-59055026>

¹⁹³ <https://tolonews.com/fa/afghanistan-172764>

طالبان: ترکیه نیز افغانستان را بر اساس «توافقنامه دوحه» ترک کند، م.ج. پیمانی

susga kelishi zarurligini anglab yetdi deyishimiz mumkin. Bunga sabab bo'lgan omillardan biri – og'ir gumanitar falokat fonida Afg'onistondan minglab muhojirlarning Turkiya orqali Yevropa va Amerikaga yo'nalgan ulkan migratsiya to'liqini oldini olish edi. Toliblarning hokimiyatni egallashi fonida Turkiya va G'arb davlatlari uchun dastlabki muammo kutilganidek migrantlar masalasi bo'ldi. Mamlakatni tark etish istagida bo'lgan fuqarolar soni shundoq ham progressiv dinamikada bo'lib, Yevropa Ittifoq xafsizlik instituti hisobotlariga ko'ra 2,6 million afg'onlar boshqa mamlakatlarga ko'chib ketgan¹⁹⁴. 2021-yilgi toliblar harakati esa bu istakka qo'shimcha motiv bergan holda, o'z vatanini butunlay tark etish niyatida bo'lgan afg'onlarning ulushini 2021-yilning atigi ikki oyi davomida (avgust-sentyabr) 53 foizga oshirdi. Afg'onlarning Turkiyaga migratsiyasi haqida gapiradigan bo'lsak qochqinlar oqimidan asosan yaqin qo'shnilar ta'sir ko'rsa-da, ularning muhim qismi bu hududdan tashqariga chiqishi hamda Turkiyani bir vaqtning o'zida Yevropaga tranzit va yashash uchun muqobil davlatga aylanishiga guvoh bo'lamiz. Suriya inqirozi boshlanganidan beri Anqara 3,6 million ro'yxatga olingan suriyalik qochqinlarni va 320 mingga yaqin boshqa millat vakillarini qabul qildi. Keyingi yillarda, ayniqsa 2018-yildan boshlab, Afg'onistondan yangi kelgan qochqinlar uchun Turkiya asosiy vatanga aylandi¹⁹⁵. Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya bo'yicha bosh boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Turkiya hududida birgina 2021-yil sentyabr oyida 44,565 nafar ro'yxatdan o'tmagan afg'onlar aniqlangan¹⁹⁶ bo'lsa, 22,606 nafar Afg'oniston fuqarosi Turkiya va boshqa mamlakatlardan siyosiy himoya so'rab murojaat qilgan¹⁹⁷. Turkiya Afg'oniston bilan qardoshlik munosabatlariga urg'u bersa-da, qochqinlar va muhojirlar davlatga tobora ortib borayotgan iqtisodiy yukni yuklamoqda. O'sib borayotgan keskinlik Turkiyada ichki siyosiy muammoni yuzaga

¹⁹⁴ Viola Fee Dreikhausen, Florence Gaub "Taliban in or out? Afghanistan in 2025", European Union Institute for Security studies // URL: <https://www.iss.europa.eu/content/taliban-or-out>.

¹⁹⁵ The Situation of Afghan Refugees in Turkey. Frankfurt: Stiftun Pro Asyl. Expert opinion. – 2021. – P.6.

¹⁹⁶ T.C. İçişler Bakanlığı Göç İdaresi Genel Müdürlüğü. Uluslararası koruma <https://www.goc.gov.tr/uluslararasi-koruma-istatistikler>

¹⁹⁷ E.g.: Ankara decided to reinforce its Iranian border with a three-metre wall to block Afghan refugees. Turkey reinforces Iran border to block Afghan refugees. The Guardian: <https://www.theguardian.com/world/2021/aug/23/turkey-reinforces-iran-border-to-block-afghan-refugees>

keltirishini hisobga olgan holda Turkiya rahbariyati ehtimoliy qochqinlar inqirozining og‘ir siyosiy oqibatlarining oldini olish uchun yanada kuchliroq chora ko‘rishga qaror qilishga majbur bo‘lmoqda. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, afg‘onistonliklarning borishi mumkin bo‘lgan joy sifatida nafaqat Turkiya, balki Germaniya, Kanada va AQSH kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda. Turkiya, o‘z navbatida, migrantlar uchun Yevropaga tramplin sifatida qaraladi. Turkiya allaqachon 500 mingdan ortiq afg‘onlarni qabul qilganiga qaramay ikki oy mobaynida yana 50,000 afg‘on migrantlariga boshpana bergan¹⁹⁸. Amerika qo‘shinlari Afg‘onistondan chiqib ketgach Yevropa davlatlariga qisqa fursatda eng ko‘p afg‘onlar boshpana so‘rab murojaat qilgan. Ularning soni 20,000 dan ortiq va bu raqamlar yanada oshishi mumkin. Turkiya geosiyosiy liderlikka da‘vogarlik qilar ekan, Yevropani migrantlar to‘lqini tahdidi bilan yana bir marta qo‘rqita oldi.

Shu o‘rinda qozog‘istonlik siyosatshunos Erkin Tukumovning Afg‘oniston qochqolarining Markaziy Osiyo davlatlariga kelmasligining sabablari haqidagi fikrlari juda ham muhim. Unga ko‘ra Markaziy Osiyo davlatlari 1951-yildagi Qochqinlar to‘g‘risidagi konvensiyani va 1967-yilgi Protokolni imzolaganiga qaramasdan, Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXSHT) afg‘on qochqinlarini qabul qilmaslik bo‘yicha yagona pozitsiyani ishlab chiqqan va afg‘on qochqinlarining harakatiga qarshi turish maqsadida o‘z chegaralarida harbiy mashg‘ulotlarni ekstensiv ravishda o‘tkazib keladi¹⁹⁹. Mintaqaning yirik kuch markazi bo‘lmish Rossiya ham afg‘on qochqinlarini bu hudud uchun ulkan tahdid sifatida baholab keladi. Yuqoridagi fikrlarga Markaziy Osiyo hukumatlari ham qo‘shilganlar. Buni Qozog‘iston prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning KXSHT talablarini qo‘llab-quvvatlashini ma’lum qilganligi yoki Qirg‘iziston prezidenti Sadir Japarov Afg‘onistondagi vaziyatlarni hisobga olib, tashqi tahdidlarning oldini olish uchun Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida “Xavfsizlik kamari”ni yaratish bo‘yicha tashabbuslarini ilgari surganliklari bilan dalillash mumkin²⁰⁰.

¹⁹⁸ M. Gurcan, Afghan refugee influx stokes tensions in Turkey <https://www.al-monitor.com/originals/2021/07/afghan-refugee-influx-stokes-tensions-turkey>; shuningdek, M. Guistino, Risk or Opportunity? The new Afghan Islamic Emirate, Seen From Ankara <https://www.resetdoc.org/story/risk-opportunity-afghanistan-chaos-seen-from-ankara/>

¹⁹⁹ Тукумов Е., Абдрешев А. Активизация миграционных процессов в Афганистане при новой власти талибов // Kazakhstan Journal of Foreign Studies. – 2022. № 1-2 (3-4). – С.43

²⁰⁰ Жапаров призвал создать Пояс безопасности в ЦА <https://asiaplustj.info/ru/news/centralasia/20210917/sadir-zhaporov-prizval-sozdat-poyas-bezopasnosti-v-tsentrlnoi-azii>

Kobul aeroportining boshqaruvi Turkiyaga nafaqat yangi migrantlar oqimini nazorat qilish, balki Turkiyaga avvalroq kelgan Afg'oniston fuqarolarini o'z mamlakatlariga qayta deportatsiya qilish uchun nihoyatda zarur edi. 2022-yil aprelda "Daily Sabah" gazetasi 227 nafar afg'on Kobulga deportatsiya qilingani haqida xabar berdi²⁰¹. 2022-yil may oyi o'rtalarida Edirne, Istanbul va Kojaelidan yana 377 nafar afg'on deportatsiya qilindi. 2022-yilning 27-yanvaridan Afg'onistonga parvozlar tiklanganidan beri 12899 nafar afg'onlar Afg'onistonga qaytarilgan²⁰². Samolyot orqali qochqinlarni mamlakatiga qaytarish ishonib bo'lmas voqelik bo'lsa-da, bu 2023-yilgi saylovlar oldidan elektoratga hukumat qochqinlar sonini kamaytirishga harakat qilayotganini ko'rsatish uchun zarur edi.

Turkiyaning Afg'oniston bo'yicha tashqi siyosatining ustuvorligiga yana bir muhim sabab mintaqaviy ustunlikka erishish va undan foydalanishdir. Turkiya Markaziy va Janubiy Osiyo geosiyosatidagi rolini yanada mustahkamlash uchun Afg'onistondagi mavjudligini kengaytirmoqchi. Masalaning mintaqaviy jihatiga e'tibor qaratgan ba'zi ekspertlar "Anqara Afg'onistonga ta'sir qilish orqali Markaziy Osiyoga siyosiy va iqtisodiy ekspansiyasining ko'lamini kengaytirmoqchi", deya Turkiyaning bu yerdagi ambitsiyalarini baholashmoqda²⁰³. Anqara Afg'onistondagi ta'sirini uning Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy ekspansiyasida muhim yordamchi omil deb biladi. Darhaqiqat, bu fikrga qisman qo'shilish mumkin. Agar Turkiya "Tolibon" bilan til topishsa Markaziy Osiyo mintaqasi uchun "xaloskor" mamlakatga aylanadi. Rossiya ta'siridan chiqishda bu hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Afg'oniston bilan Turkiya munosabatlarining yana bir muhim jihati savdo-iqtisodiy omillarga bog'liqligida bo'lib, bu jihatdan Afg'oniston uchun foyda keltirsa, hamkorlikning energiya va konchilik sohasidagi yo'nalishi ko'proq Turkiya uchun ahamiyatli hisoblanadi. Turkiya tashqi iqtisodiy aloqalar kengashi ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyaning Afg'oniston bilan ikkitomonlama savdo aloqalari 2000-yillarning boshida ijobiy rivojlanib

²⁰¹ Turkey sends 227 migrants back to Afghanistan <https://www.dailysabah.com/politics/diplomacy/turkey-sends-227-migrants-back-to-afghanistan>

²⁰² Friend or foe? Redefining Turkey's Afghanistan Policy Outside NATO: <https://www.boell.de/en/2021/08/20/freund-oder-feind-neubestimmung-der-tuerkischen-afghanistan-politik-ausserhalb-der-nato>

²⁰³ Gratsiosi S, Karafano J. Turkey's Risky Afghanistan Strategy

<https://www.heritage.org/middle-east/commentary/turkeys-risky-afghanistan-strategy>

bordi va 2012-yilda savdo hajmi 300 million AQSH dollarlik eng yuqori cho‘qqiga chiqdi²⁰⁴.

Afg‘oniston ulkan tabiiy zaxiralarga ega mamlakat bo‘lib, tabiiy boyliklarning umumiy qiymati 1 trillion dollardan ortiq. Turkiyada Afg‘onistonning tabiiy resurslaridan mis va litiy xomashyosiga ulkan talab bor. Ammo Afg‘oniston litiysini qazib olishning eng ko‘p ulushi Xitoyga tegishli. Turkiya shu sabab neft, ko‘mir va gaz qazib olish singari energetikaning boshqa sohalarida o‘z kelajagini ko‘rmoqda. Istiqboldagi potensial resurslar tarmog‘iga tog‘-kon sanoati, farmatsevtika va qurilish bilan bog‘liq investitsiyalarni kiritish mumkin. Misrlik siyosiy sharhlovchi H.Gorabaning aytishicha, “Erdog‘an Afg‘onistonda tabiiy gaz suyuqliklari 1,6 milliard barrel xom neft, 16 trillion kub metr tabiiy gaz va 500 million barrel neft zaxiralarga ega bo‘lgan yangi mineral va neft qidiruvlarining lokomotivi bo‘lmoqchi”²⁰⁵. “Tolibon” hokimiyatni egallashiga qaramasdan Turkiya investorli Afg‘onistonda faoliyat yuritmoqda. Turkiya-Afg‘oniston biznes kengashi raisi Sulaymon Chiliv “77 Inʼaat” nomli shirkati orqali 2009-yilda Afg‘onistonga investitsiya kiritib, Qandahor viloyatidagi Kajaki to‘g‘onini qura boshlagan bo‘lsa, 2022-yil 27-iyul kuni Hilmand viloyatida xuddi shu nomdagi GESining ikkinchi bosqichini qurib bitkazdi. Umumiy hisobda loyihaga 300 million dollarga yaqin sarmoya kiritdi²⁰⁶. To‘g‘onning ochilish marosimida “Tolibon” hukumati bosh vazir o‘rinbosarlari Mulla Abdulg‘ani Barodar va Abdulsalom Xanafiy kabi ko‘plab yuqori martabali rasmiylar ishtirok etdi. Marosimda Turkiya tomonidan Turkiyaning Kobuldagi elchisi Chihod Erginay qatnashgan va o‘z nutqida 2022-yilda Afg‘oniston-Turkiya savdo aloqalari 23 foizga o‘sganini ma‘lum qilgan²⁰⁷. Turkiya tashqi siyosatida Afg‘oniston masalasi ustuvor sifatida qolar ekan, Turkiyaning 2001–2021-yillar mobaynida 1 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri sarflagan xarajatlari va 10 milliarddan ortiq investitsiyalari sababli ham munosabatlarni uzmaslikdan manfaatdor.

²⁰⁴ DEİK Avrasya Bölge Direktörlüğü, Ocak 2021 <https://www.deik.org.tr/uploads/afghanistan-bilgi-notu-ocak-2021.pdf>

²⁰⁵ Hany Ghoraba, Erodgan’s shady role in Afghanistan // <https://centerforsecuritypolicy.org/erodgans-shady-role-in-afghanistan/>

²⁰⁶ Ezel Şahinkaya: Türkiye’nin Taleban Sonrası Afganistan’la İlişkileri Arttı <https://www.voaturkce.com/a/turkiyenin-taleban-sonrasi-afganistanla-iliskileri-artti/6699497.html>

²⁰⁷ O‘sha manba.

Turkiya “yumshoq kuch” siyosati kontekstida ham Afgʻonistonda koʻp ishlarni amalga oshirgani oldingi boblardan maʼlum. Turkiya, ayniqsa, 2000-yillarning birinchi oʻnyilligida tashqi siyosatida yumshoq kuchdan foydalanadigan davlat sifatida taʼriflangan. Turkiya Afgʻonistonda faol savdo aloqalaridan tortib, erkin viza tartibini joriy qilishgacha, turizmdan stipendiyalar va almashinuv dasturlarigacha, teleseriallar va musiqalardan pop yulduzlarigacha boʻlgan “yumshoq kuch” tarkibiy qismlarining katta repertuaridan foydalangan²⁰⁸. 2021-yildan keyingi gumanitar falokat yoqasida turgan afgʻon xalqi uchun insonparvarlik yordamlarini yuborish orqali ushbu siyosatini davom ettirib kelmoqda. Musulmonlarning 2021-yilgi muqaddas Ramazon oyini nishonlashi arafasida TIKa Kobul, Mozori Sharif va Hirotdagi 3300 afgʻon oilasiga ushbu bayram uchun anʼanaviy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berdi, 4400 kishilik iftorlik dasturxonini yozdi²⁰⁹. Turkiya bu kabi harakatlari bilan musulmon birodarlikka sodiqligini koʻrsatishga urinadi. NATO davrida ham koʻpgina oddiy afgʻonlar turk boʻlinmalari vakillariga alohida iliqlik va ishonch bilan munosabatda boʻlishgan hamda NATOning boshqa harbiy xizmatchilari va fuqarolik xodimlari bilan muloqot qilishda turklarning vositachiligiga murojaat qilishgan. “Tolibon” hokimiyatga kelgach Amerika Afgʻoniston aktivlarini muzlatib qoʻydi. Turkiya doimiy ravishda pullar afgʻon xalqiga qaytarilishi kerak degan bayonot bilan chiqish orqali “Tolibon” koʻz oʻngida ijobiy imij shakllantirmoqda. Oʻz navbatida, “Tolibon” hukumati ham Afgʻonistonning Gʻarb bilan kelishuvida vositachi boʻla oladigan eng maqbul davlat Turkiya ekanligini yaxshi anglaydi. Shuningdek, Turkiya Afgʻoniston ovozini jahonga eshittiruvchi mamlakat boʻlishi mumkin. Masalan, Afgʻonistondagi siyosiy jarayonlar 2021-yilning iyulidan sentyabrigacha butun dunyo eʼtibori markazida boʻlgan boʻlsa, 2022-yilning 24-fevralidan buyon global eʼtibor Ukrainaga qaratilgan boʻlib, Afgʻonistondagi dramatik vaziyat deyarli unutilgan. Bu esa oddiy afgʻon fuqarolarining hayotini ogʻirlashtirmoqda. Ushbu gumanitar inqiroz fonida Turkiyaning Tabiiy ofatlar va Favqulodda vaziyatlarni boshqarish jamgʻarmasi (AFAD) Afgʻonistonga jami 5570

²⁰⁸ E. E. Güzeldere, Turkey in Afghanistan: More than one reason to stay // Hellenic Foundation for European & Foreign Policy (eliamep). – Athens, 2022. – P.16

²⁰⁹ Шумилин А. И. Турция и НАТО: фактор Байдена. Часть 2: Афганистан // Научно-аналитический вестник Института Европы РАН. №4. 2021. – С.17 Aydogan M. Turkey's long involvement in NATO mission in Afghanistan. Anadolu Agency. <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/turkey-s-long-involvement-in-nato-mission-in-afghanistan/2279062>

tonna gumanitar yuklarni o‘z ichiga olgan beshta yordam poyezdi jo‘natdi. Bu tashkilot yaqin kelajakda Afg‘onistonga 2,5 milliard dollarlik gumanitar yordam berishini ma’lum qilgan. Turkiyaning yetakchi media tarmog‘i bo‘lgan Cumhuriyet saytining yozishicha, 2022-yil 25-fevral kuni Anqaradan yo‘lga chiqqan 994 tonna gumanitar yuklarni olib kelgan poyezd Turkmaniston chegarasidagi Turg‘undi chegara posti orqali Afg‘oniston hududiga kelgan. Ushbu mahsulotlarni Afg‘onistonning 17 viloyatidagi 5000 dan ortiq muhtoj oilalarga tarqatish mo‘ljallangan²¹⁰. Turg‘undi chegara punktida o‘tkazilgan marosimda Turkiyaning Hirot Bosh konsuli Sinan Ilhan, AFAD, Turk Qizil Yarimoy fondi, Afg‘oniston Qizil Yarimoy fondi, Yedibashak uyushmasi vakillari, TIKAning Kobuldagi koordinatori Zühtü Chal va “Tolibon”ning bir qator rasmiylari ishtirok etgan. Afg‘onistonda faoliyat yuritayotgan Turk Qizil Yarimoy jamiyati 2022-yil 22-iyun kuni sodir bo‘lgan 6 balldan ortiq kuchga ega bo‘lgan zilziladan jabr ko‘rgan aholiga muhim ehtiyoj buyumlaridan iborat yordam yetkazilib, 2250 oilaga oziq-ovqat paketlari tarqatildi²¹¹. Zilziladan keyin Afg‘onistonga hamdardlik bir tomondan Turkiyada yaqinda bo‘lgan zilzilalar bilan ham bog‘liq bo‘lib, “Tolibon” iqtisodiy qiyinchiliklar va qashshoqlik darajasi 97 foizga yetganiga qaramasdan Turkiyaga gumanitar yordam yuborgani ikki xalq mushtarakligini yana bir bor ko‘rsatgan edi²¹².

Turkiya rasmiylarining Afg‘onistonda yangi hukumat bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish va vositachi sifatida harakat qilish istagiga qaramay, bu hukumatlar orasidagi munosabatlarni to‘liq ijobiy rakursdan ko‘rib bo‘lmaydi. Bunda bir qator omillarni sanab o‘tish mumkin. Birinchi omil sifatida Turkiya Afg‘onistondagi yangi hukumatni tan olishga shoshilmayotganligini misol qilib keltirish mumkin. Turkiyaning bu pozitsiyasi asosiy sheriklari bo‘lmish G‘arb davlatlari va Osiyodagi mintaqaviy ishtirokchilar siyosati bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu bilan mintaqaning hisoblashish kerak bo‘lgan kuchlaridan yakkalanib qolmaslik maqsad qilingan, masalan, rasmiy Islomobod, Pekin va Moskva xuddi Anqara kabi Kobulda inklyuziv

²¹⁰ Türkiye’nin üçüncü “İyilik Treni” Afganistan’a ulaştı https://www.cumhuriyet.com.tr/dunya/turkiyenin-ucuncu-iyilik-treni-afganistan-ula-1916189#google_vignette

²¹¹ ادامه کمک‌های ترکیه برای زلزله‌زدگان افغانستان

<https://www.trt.net.tr/persian/mntqh/2023/10/12/dmh-khmkhhy-trkhyh-bry-zlzlhz-dgn-fgnstn-2049810>

²¹² طالبان در یک کیسه پلاستیکی، ۵۰ هزار دلار به زلزله‌زدگان ترکیه کمک کرد!

<https://37094423.khabarban.com/>

hukumat lozimligini ta'kidlab kelishadi. "Tolibon"ning muvaqqat hukumat to'g'risidagi dastlabki e'loniga ko'ra pushtun millatiga mansub bo'lmagan uchta a'zosi borligini tanqid qilar ekan, Erdog'an, agar ular inklyuziv hukumat tuzsa, Turkiya toliblar bilan chuqur hamkorlik qilishi mumkinligini aytdi²¹³. 2021-yil 14-oktyabr kuni Turkiya tashqi ishlar vaziri M.Chavusho'g'li "Tolibon" hukumatidagi hamkasbi Amir Xon Muttaqiy bilan uchrashdi va ularni qo'llab-quvvatlash masalalari, jumladan, insonparvarlik yordami va "Tolibon" hukumatini tan olish masalalari muhokama qilindi²¹⁴. Yig'ilishda Milliy mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Turkiya Milliy Razvedkasi kabi tashkilotlardan vakillarning yuqori martabali mulozimlari ishtirok etishi turklarning Kobul bilan aloqalariga katta ahamiyat berishini ko'rsatmoqda. "Tolibon" harakatining asosiy manfaatlari Turkiya tomonining investitsiyalar, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, injiniring va boshqalar orqali Afg'onistonning iqtisodiy rivojlantirishini rag'batlantirish qobiliyati bilan bog'liq. Shu o'rinda yirik analitika markazi bo'lmish Vashington universitetining Yaqin Sharq siyosatini o'rganuvchi bo'limi katta ilmiy xodimi Aaron Y. Zelinning yozishicha, 2022-yil mart oyi holatiga ko'ra "Tolibon" barcha davlatlar bilan umumiy hisobda 135 marta uchrashuvlar tashkil qilgan bo'lib, ularning 22 tasida Turkiya qatnashgan. Va bu barcha davlatlar orasida eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, 2022-yilning dekabr oyida Turkiya Tashqi ishlar vazirligi "Tolibon" hukumatini tan olishga shoshilmayotganligini yana bir bor ta'kidladi²¹⁵. Anqara "Tolibon" hukumatiga ham etnik, ham siyosiy masalalarda inklyuziv bo'lishni, xususan, ayollar huquqlari va qizlarning ta'limiga e'tibor qaratishni maslahat bermoqda. Bu tavsiyalar Islom Hamkorlik Tashkilotiga (IHT) a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlarining Afg'oniston bo'yicha yig'ilishi yakunlari bo'yicha qabul qilingan hujjatlarga ham kiritildi, deya qo'shimcha qildi Turkiya TIV rahbari. Shunga qaramasdan Turkiyaning Kobuldagi elchixonasi faoliyatini davom ettirmoqda. "Tolibon" Anqara

²¹³ Al Jazeera. Erdogan says Taliban lacking 'inclusive encompassing leadership'. <https://www.aljazeera.com/news/2021/9/23/erdogan-says-taliban-current-actions-not-inclusive-local-media>

²¹⁴ Ozturk, M. Turkey can play active role in renovating, restoring Afghanistan: Taliban official. Anadolu Agency. <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/turkey-can-play-active-role-in-renovating-restoring-afghanistan-taliban-official/2394719>

²¹⁵ Г.Г. Мачитидзе, Турция–“Талибан”: Алгоритмы взаимодействия // МИРОВАЯ ЭКОНОМИКА И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ. 2023. Т 67, № 3. – С.72

tomonidan rasman tan olinmagan bo‘lsa-da, Afg‘onistonning Istanbuldagi bosh konsulligida “Tolibon” tomonidan tayinlangan diplomat faoliyat yuritmoqda²¹⁶.

Ikki o‘rtaga qisman sovuqchilik tushirgan yana bir omil – Turkiyaning Afg‘onistonda NATOdan keyin ham harbiy ishtirokini davom ettirishi bilan bog‘liq mojaro ikkitomonlama munosabatlarga ma‘lum darajada zarar yetkazdi. Natijada 2021-yil iyul oyida “Tolibon” Afg‘onistondagi turk harbiy kontingenti borasida keskin bayonot berdi, “Turk hukmdorlarining AQSH talabi va qarori bilan mamlakatimizga qarshi tajovuzni davom ettirish haqida e‘lon qilishi bizda nafrat va adovat uyg‘otadi hamda ikkitomonlama munosabatlarga putur yetkazadi”, – deyiladi “Tolibon” harakatining bayonotida²¹⁷. “Tolibon” yetakchilarining ta‘kidlashicha, “Afg‘onistonda xorijiy kuchlarning bo‘lishi, qaysi davlat nomidan bo‘lishidan qat’i nazar, tajovuzkorlikdir va tajovuzkorlarga Afg‘onistonning bir yarim ming olimi bergan fatvo asosida muomala qilinadi”. Ammo, taranglikka qaramay, mamlakatlar hamon muloqot va hamkorlikka, ayniqsa, gumanitar hamkorlikka intilmoqda. Paradoks ravishda munosabatlar nozikligining uchinchi omili aynan “yumshoq kuch” omiliga bog‘liq bo‘lib, Turkiyaning “Tolibon” va Pokiston bilan aloqasida “yumshoq kuch” o‘zining qat’iy cheklovlariga ega bo‘lgani holda asosiy masalani hal qila olmaydi. Turkiyaning gumanitar diplomatiyasi garchi afg‘onlar orasida xayrixohlik omilini yaratishi va ijobiy imijini yaxshilashi mumkin bo‘lsa-da, u qattiq kuchning o‘rnini bosa olmaydi. Bu Turkiyaning Afg‘onistondagi asosiy o‘yinchi sifatida paydo bo‘lishi haqidagi tasavvurini yo‘qotadi. Turkiyada, masalan, Pokiston kabi “Tolibon” bilan tarixiy aloqalar nuqtayi nazaridan Islomoboddek ta’sir kuchiga ega emas²¹⁸. 1990-yillarda Turkiya Shimoliy alyansni qo‘llab-quvvatlagani va keyin AQSH boshchiligidagi NATOning “Tolibon”ga qarshi amaliyotlarining bir qismi bo‘lganidek, uning ishonch ma‘lumotlari uni afg‘on toliblari nazarida neytral aktorga aylantira olmaydi. “Tolibon” ishonchini qozonish uchun Turkiya biroz ter to‘kishiga to‘g‘ri keladi. Chunki afg‘on voqeligi

²¹⁶ Taliban iktidarının ikinci yılında Türkiye-Afganistan ilişkileri ne durumda? <https://www.bbc.com/turkce/articles/clk3y2w7lz1o>

²¹⁷ А. С. Кравцова. Двусторонние отношения Афганистана и Турции // Южный федеральный университет, Институт социологии и регионоведения. – 2022. С.80

²¹⁸ Z.Sh.Ahmed, A. Basit, Turkey’s Relationship with Afghanistan and the Pakistan Factor: An Examination of Historical and Geopolitical Factors // In book: Turkey’s Asia Relations. Springer International Publishing, Switzerland. 2022. – С.124.

shuni ko'rsatadiki, "Tolibon" na siyosiy jabhada, na xavfsizlik sohasida, na ijtimoiy sohada Turkiyaning tavsiya va talablarini amalga oshirishga hali in-tilmayapti, bu esa turklarning o'z ambitsiyalarini ro'yobga chiqarish uchun ancha vaqt kerakligini ko'rsatadi.

Munosabatlar doirasida yana bir muammo shundaki, "Tolibon"ning ashaddiy muxoliflari Turkiyaning turli markaziy shaharlaridan boshpana topishgan. Ularning orasidagi eng mashhuri va "Shibirg'on qirg'ini" tashki-lotchisi deb ataladigan etnik o'zbek Abdul Rashid Do'stumdir. Afg'oniston-da "Tolibon" hukmronligi davrida (1996–2001) Do'stum Turkiyada boshpa-na topgan. 2022-yil may oyida Afg'onistonning bir necha muxolif siyosat-chilari, jumladan sobiq vitse-prezident Abdul Rashid Do'stum Anqarada 40 nafar siyosiy yetakchi va sobiq jihodchilar yetakchilari bilan uchrashgan²¹⁹. "Afg'onistonni qutqarish uchun milliy qarshilik" sarlavhasi ostida tashkil etilgan shunga o'xshash uchrashuvlarning bo'lishi Turkiyaning Afg'oniston masalasidagi tinchlik muzokaralariga mezbon sifatida betaraflik maqomini yo'qqa chiqarishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olsak, Turkiyaning Afg'onistonda nufuzli o'yinchi sifatida namoyon bo'lish imkoniyati biroz cheklangan. "Tolibon" davrida ham Afg'onistonda Anqaraning ijobiy rolini davom etishda jiddiy cheklovlarga ega ekan, Turkiya bu cheklovlarning olib tashlashda Pokis-tondan foydalanishga urinmoqda. "Tolibon" harakati paydo bo'libdiki, Po-kiston ular bilan yaqin aloqada bo'lgan birinchi raqamli davlatdir. "Toli-bon" harakati yetakchilar kengashi (sho'ro) a'zolari Pokistonda, jumladan, Kvettada (Balujiston viloyati) xavfsiz hayot kechirib kelgan. Pokistonning "Tolibon" bilan aloqalarini siyosatshunos doktor Muhammad Salamiy qu-yidagicha tasvirlaydi: "Tolibon" Afg'onistonga o'zining yollanma odamlari va turli mahsulotlarni erkin olib kirishi, yaradorlarini davolashi uchun Pokiston kasalxonalaridan foydalanishdan tashqari, hatto chet elga chiqish uchun Pokiston pasportlaridan foydalanishi mumkin"²²⁰.

Shu sababdan 2007-yildan boshlab Turkiya Pokiston bilan aloqalarini savdo va investitsiya, madaniyat va xavfsizlik sohalarida hamkorlik orqali kengaytirishga urinib keladi. Hozirgi kunga kelib ikki davlat 60 ga yaqin

²¹⁹ <https://www.iess.ir/fa/translate/3160/>

ترکیه و ایوزیسیون امارت اسلامی منافع آنکارا در افغانستان

²²⁰ Salami M. Navigating Influence in Afghanistan: the Cases of Qatar and Pakistan // Fikra Forum. – 2021. – October 26 <https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/navigating-influence-afghanistan-cases-qatar-and-pakistan>

mudofaa sohasida hamkorlik shartnomasini imzolagan va Turkiya asta-sekin Pokistonning Xitoydan keyin ikkinchi yirik qurol yetkazib beruvchisiga aylandi²²¹. Turkiyaning yetakchi media xizmati “Ahval news”ning ma’lumot berishicha, 2018-yil iyul oyida Pokiston dengiz floti Turkiya bilan MIL-GEM chaqiruviga ega to’rtta kema (Hamit) xarid qilish bo’yicha 1,5 milliard dollarlik shartnoma imzoladi²²². Bu Turkiya harbiy mahsulotlari eksporti tarixida eng yirik kelishuvdir. Shunday qilib, Pokiston Afg’onistonning yangi rahbariyatiga ta’sir o’tkazish uchun katta resurslarga ega. Turkiya esa bugungi Afg’onistonda o’z milliy manfaatlariga erisha olishini ta’minlash uchun Pokiston bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Turkiya ham IHT, ham NATO a’zosi sifatida, ayniqsa Afg’onistonning qo’shnilari va xalqaro hamkorlari o’rtasida ishonchni mustahkamlovchi ko’priq vazifasini bajarishi mumkinligiga ishonadi. “Tolibon” ham Turkiyaning ushbu imkoniyatga ega ekanligini tushunadi deb ayta olishimiz mumkin. Masalan, 2022-yil mart oyida Turkiyada bo’lib o’tgan Antaliya forumida Turkiya tashqi ishlar vaziri “Afg’onistonga yuboriladigan gumanitar yordam bu mamlakatdagi muammolarni to’liq hal qilmaydi. Dunyo hamjamiyati Afg’oniston Islom Amirligini tan olish masalasini o’ylab ko’rish kerak”²²³, deya toliblar bilan hamkorlikka ommaviy chorlashi “Tolibon” umidlarini oqlashga xizmat qilgan bo’lishi mumkin. Aynan shu forum mobaynida “Tolibon” tashqi ishlar v.b. Amirxon Muttaqiy prezident Erdog’an bilan ham uchrashdi. Pokiston bosh vaziri Imron Xondan keyin “Tolibon” bilan uchrashgan ikkinchi davlat rahbari aynan Turkiya bo’ldi.

Xulosa tarzda aytishimiz mumkinki, Afg’onistonda “Tolibon” guruhi-ning hokimiyatga kelishi nafaqat bu mamlakatda sivilizatsiya parametrlarining o’zgarishiga, balki Yaqin va O’rta Sharqdagi siyosiy va diniy landshaftdagi tub o’zgarishlarga olib keldi. Afg’onistonning to’g’ridan to’g’ri qo’shnilaridan farqli o’laroq, Afg’oniston hukumati bilan Turkiyaning ikkitomonlama munosabatlari hududiy yoki boshqa nizolar soyasida qolmaydi.

Turkiya Afg’onistondagi yangi hukumat bilan munosabatlarning muhimligi anglagan holda “Tolibon” bir necha iqtisodiy, siyosiy va gumanitar

²²¹ Turkey and Pakistan boost military, strategic cooperation – Analysis: <https://ahval-news.com/foreign-policy/turkey-and-pakistan-boost-military-strategic-cooperation-analysis>

²²² O’sha manba.

²²³ Zelin A.Y. Turkey Calls for Recognition of the Taliban’s Islamic Emirate. The Washington Institute for Near East Policy, <https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/turkey-calls-recognitionalibans-islamic-emirate>

sohalardan kelib chiqqan holda Turkiya bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga intilishini prognoz qilish mumkin.

Turkiya hozirgi kunda “Tolibon”ni gumanitar jihatdan qo‘llab-quvvatlayotgan yirik davlat sifatida yangi hukumat oldida ham o‘z imijini mustahkamlamoqda. Qolaversa, “Tolibon” bilan eng ko‘p uchrashgan mamlakatlar ro‘yxatida Turkiyaning yetakchi ekanligi uning kelajakda “Tolibon” va dunyo hamjamiyati o‘rtasidagi neytral vositachi sifatidagi qiyofasini mustahkamlashga sabab bo‘lmoqda.

Anqara va Islomobod Afg‘onistonga alohida aralashgani va Afg‘oniston masalasini birgalikda muhokama qilgani bois, AQSH qo‘shinlari olib chiqib ketilganidan keyin Afg‘onistondagi bo‘shliqni qoplashda kelajakda ham birgalikda harakat qilishadi. Bu masala ikki davlatning 60 milliard dollarlik qiymatga ega harbiy-texnikaviy shartnomalar imzolagani bilan yanada oydinlashadi.

3.2. Zamonaviy davrda Afg‘onistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning Turkiya va turkiy dunyoga ta’siri

Afg‘oniston global ustunlik kurashi nuqtayi nazaridan muhim geosiyosiy nuqtada joylashgan. Chunki Afg‘oniston Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq yo‘nalishidagi asosiy davlat hisoblanib, Afg‘onistonda hukmronlik qilayotgan har qanday kuch so‘z yuritilayotgan mintaqalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi bir qator xalqaro munosabatlar nazariyalarida ta’kidlab o‘tilgan. Shu sababli 2021-yil 31-avgustda AQSH Afg‘onistondan qo‘shinlarini olib chiqishni yakunlashi va “Tolibon”ning mamlakatda mutlaq kuchga aylanishi, migratsiya, xavfsizlik va iqtisodiy omillar tufayli Turkiya va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi vaziyatni beqarorlashtirishi mumkinligi haqida turli ilmiy va siyosiy doiralarda muhokamalarga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, G‘arb kuchlarining Afg‘onistonni tark etishi fonida Afg‘onistondagi hokimiyat bo‘shlig‘i Turkiya va turk dunyosining geosiyosiy ahamiyatini oshirganligi ham yaqqol ko‘rinib turibdi. Chunki turk dunyosi davlatlari geosiyosiy subyekt sifatida mintaqaning muhim ishtirokchilar qatoriga kiradi. Bu o‘rinda birinchi navbatda Afg‘onistondagi tinchlik jarayoni uchun faol harakat qilayotgan Turkiya va O‘zbekistonni alohida qayd etish lozim. Undan keyingi o‘rinlarda Afg‘onistonni iqtisodiy loyihalar doirasida hamkorlikka tortishga e’tibor qaratayotgan Turkmaniston, so‘ngra Qozog‘iston va Qirg‘izistonning

“yumshoq kuch” jihatidan gumanitar yondashuvi, nihoyat, Ozarbayjonning munosabatlarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Turkiya tarixan Afg‘oniston bilan ko‘plab sohalarda yaqin munosabatlar olib borgan. Turkiyaning yuz yildan ortiq ulkan davr oralig‘idagi Afg‘oniston bilan aloqalarini muhokama qilar ekanmiz, faqat ikki martagina pasayish dinamikasiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu davrlarning birinchisi, sobiq Ittifoq kuchlarining Afg‘onistonga bostirib kirishi (1979–1982) va ikkinchisi, “Tolibon”ning avvalgi hukumati davrida (1996–2001) sodir bo‘lgan edi. Lekin Turkiya shu davrlarda ham so‘z yuritilayotgan mamlakatdagi vakolatxonalari yopmagan. 2002-yildan boshlab esa NATO va ISAF doirasida Turkiya bu mamlakatda ko‘plab loyihalar, jumladan, yo‘llar, ko‘priklar, maktablar, universitetlar, kutubxonalar, shifoxonalar, davlat va nodavlat majmualarini qurish jarayonlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Tashqi siyosatning ushbu yutuqlariga Anqara diplomatiyasining texnik imkoniyatlari va faolligi tufayli erishildi. Anqaraning 2021-yildan keyingi Afg‘oniston bo‘yicha tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishini ekstremistik guruhlarining mintaqaviy tarqalishi va jilovlab bo‘lmas migratsiya yukining zararlari bilan bog‘liq bo‘lgan ba‘zi xavotirlari prizmasidan qarash orqali yaxshiroq anglash mumkin. Shuningdek, Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan chuqur munosabatlari uchun savdo aloqalari va sarmoya kiritish erkinligi judayam muhim hisoblanadi. Bularni ta‘minlash uchun mintaqaviy barqarorlik, xususan afg‘on mojarosining bartaraf etilishi rasmiy Anqara uchun kun tartibidagi dolzarb vazifa o‘laroq, bu boradagi har bir harakat Turkiyaga turkiy dunyoda nufuzini yanada oshirish imkonini beradi²²⁴.

Mazkur fikrlarning davomi o‘laroq Turkiya siyosiy elita ishonchini jalb qilish jihatdan Afg‘onistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ustunligini saqlab qolishga urinmoqda. Turkiya Afg‘onistondagi siyosati va mavjudligi orqali bu davlatning siyosiy madaniyati va nufuzli shaxslari hamda guruhlarining faoliyatlaridan xabardor. Turkiya 2001-yildan beri H.Karzay va A.G‘ani ma‘muriyatlari bilan yaqin siyosiy aloqalar o‘rnatgan. Turkiya Afg‘oniston rasmiylari bilan yaqin munosabatlardan tashqari, afg‘on arboblari va siyosiy partiyalari, xususan, Afg‘onistondagi o‘zbeklar yetakchisi Abdul Rashid Do‘stum bilan ham hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Turkiya Pokiston va Qatar vositachiligida “Tolibon” bilan ham yaqin aloqa o‘rnatishga

²²⁴ Erol M., Basharan D. Effects of Afghanistan Based Events on Turkey and Turkish World Geopolitics // Demokrasi Platformu Dergisi. Vol 10, № 35. 2021. – P.16.

muvaqqaf bo'ldi. Ochiq manbalarga ko'ra, ma'lum davrlarda A.Do'stum, B.Rabboniy va boshqa siyosiy liderlar Turkiyada yashashgan, bu esa Afg'oniston siyosiy elitasi orasida ushbu davlatning ta'siridan dalolat beradi.

Xalq diplomatiyasi salohiyatidan kelib chiqib Turkiyaning Afg'onistondagi ta'siri yildan yilga ortib boradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Turkiya "yumshoq kuchi"ning yana bir muhim vositasi Afg'onistonning rasmiy tillarida turk seriallarini namoyish etishdir. E'tiborlisi, bugungi kunda Afg'onistonning markaziy kanallari "Tolibon" rahbariyatining ko'rsatmasi bilan ushbu seriallarni ko'rsatishda davom etmoqda²²⁵. Shunday qilib, Turkiya uzoq muddatda Afg'onistondagi turkiyzabon xalqlar hukumati va norasmiy yetakchilarining asosiy hamkorlaridan biri bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik masalasi afg'on-turk munosabatlarining kelajagini belgilovchi omillardan biri deyishimiz mumkin. Turkiya Afg'oniston maktabchiligi tarixida yuz yildan buyon faol rol o'ynab kelgan. "Tolibon" hokimiyatga kelishi fonida ko'plab ziyolilar, olimlar, mutaxassislar mamlakatni tark etdi. Yangi tuzilgan "Tolibon" ma'muriyati esa yaqin kelajakda minglab mutaxassislarga ehtiyoj sezishini hisobga olsak, Turkiya bilan bu borada hamkorlik qilishga majbur bo'ladi. Shu munosabat bilan Afg'onistonning bo'lajak hukumati ketgan mutaxassislar o'rnini bosadigan kadrlarni tayyorlashi kerak bo'ladi. Bu borada Turkiyaning ta'lim tizimi Afg'onistonning ehtiyojlarini ma'lum darajada qondira oladi deyishimiz mumkin. Turkiya hukumati Afg'onistonga zarur mutaxassislarni tayyorlash (birinchi bosqichda qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish) uchun har yili stipendiyalar ajratishni davom ettirishi kutilmoqda, bu esa munosabatlarni mustahkamlash uchun ma'lum imkoniyatlar yaratadi²²⁶. Bu omillar bizga "Tolibon" hokimiyati davrida ham Turkiyaning Afg'onistondagi ta'siri yildan yilga ortib boradi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Qisqa muddatda Afg'onistonda qanday davlat boshqaruvi bo'lishidan qat'i nazar Turkiya bu mamlakatda faol rol o'ynaydi va Afg'onistondagi turkiy tilli xalqlar va ularning tashkilotlarini qo'llab-quvvatlaydi.

²²⁵ Afghanistan continues to watch Turkish TV series amid restrictions

<https://www.dailysabah.com/arts/afghanistan-continues-to-watch-turkish-tv-series-amid-restrictions/news>

²²⁶ Хайруллин Т.Р., Коротаев А.В. Борьба между катарско-турецким и саудовско-эмиратским блоком за влияние в Афганистане // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. – 2022. Т.15. №2. – С. 240– 252. DOI: 10.31249/kgt/2022.02.13

Xitoy va Rossiya o'rtasida mintaqaviy geosiyosat borasidagi raqobat AQSHning ushbu mamlakatdan chiqib ketishi ortidan kuchaygani ham aniq. Bu Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Birinchidan, Markaziy Osiyoda Rossiya-Xitoy raqobatining kuchayishi bilan bir qatorda Pekin Xitoy-Pokiston-Tojikiston-Eron yo'nalishida o'ziga xos xavfsizlik kamarini iqtisodiy loyihalarga asoslanib yaratishga urinishga olib kelmoqda, bu esa avvalo mintaqaning turkiy davlatlari bilan samarali munosabatlarni yanada kuchaytirishni taqozo qiladi²²⁷. Bu muhitda Rossiya mintaqada Turkiya bilan yaqin hamkorlik qilib, Xitoyni muvozanatlashni istashi ehtimoldan yiroq emas. Ya'ni Moskva mintaqadagi ta'sirini Anqara bilan baham ko'rishga rozi bo'lishi geosiyosiy jihatdan maqbul ko'rilishi mumkin. Bu Turkiya uchun Markaziy Osiyoning turkiy davlatlar bilan integratsiyasi borasida muhim imkoniyat sifatida qabul qilinishi tabiiydir. Ikkinchi muhimlik shundaki, Turkiya va mintaqadagi turk dunyosi geosiyosatining, xususan AQSH va umuman G'arb dunyosi nazarida ancha muhim darajaga ko'tarilishiga olib keladi.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti mintaqadagi uzoq muddatli beqarorlik manbalarini kamaytirish uchun samarali mexanizmlar ishlab chiqishi lozimligi kundan kunga oydinlashib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, Afg'onistondagi xavfsizlik bilan bog'liq vaziyat Markaziy Osiyo turkiy davlatlarini chinakam tashvishga solishi turgan gap. O'nlab yillar davom etgan urush va siyosiy notinchliklar 2021-yil avgustida "Tolibon" hokimiyatni egallab olishi bilan Markaziy Osiyoda katta ta'sir ko'rsatgan edi, bu esa gumanitar vaziyatning yanada yomonlashishiga olib keldi²²⁸. "Tolibon" rejimi mintaqaviy kuchlar bilan hamkorlik qilish istagini bildirgan bo'lsa-da, mamlakatdagi siyosiy va xavfsizlik bilan bog'liq vaziyatdan kelib chiqqan holda va mintaqadagi loyihalarning kelajagi bilan bog'liq taxminlardan kelib chiqib alohida ko'rib chiqish lozim.

Bu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, turkiy dunyoning yetakchisi sifatida Turkiya afg'on masalasini Turkiy Davlatlar Tashkilotining umumiy yig'ilishlarida ham ko'tarib kelayotganligi TDT a'zolarining umumiy qarashlari shakllanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu tashkilotning Ashxobodda

²²⁷ Erol M. S., Doğacan B. "Afganistan Merkezli Gelişmelerin Türkiye ve Türk Dünyası Jeopolitiğine Etkileri" // Demokrasi Platformu Dergisi, 10 (35). – 2021. S.21

²²⁸ C. Demir, The Organization of Turkic States: Implications for the Regional Balance of Power // The Journal of Security Strategies, OTS Special Issue. – 2022. P.58 DOI: 10.17752/guvenlikstrtj.1104776

o'tkazilgan 8-sammitida "Turk dunyosi Vision – 2040" nomli siyosiy va xavfsizlik sohasidagi kelgusi hamkorlik masalalariga bag'ishlangan umumiy hujjat qabul qilindi. Turkiya sobiq tashqi ishlar vaziri Mavlut Chavusho'g'li tashabbusi bilan 2021-yil 27-sentyabr kuni Afg'onistondagi voqealarni muhokama qilish uchun TDT tashqi ishlar vazirlari kengashining navbatdan tashqari yig'ilish o'tkazildi. Ushbu yig'ilish davomida Afg'onistondagi vaziyatlarga tashkilot a'zolarining munosabatlarini qamrab olgan 11 banddan iborat bayonot ishlab chiqildi²²⁹. Unda turkiy davlatlar Afg'oniston aholisini har doim gumanitar jihatdan qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligi, Afg'oniston xalqining boy va xilma-xilligini aks ettirgan holda yakuniy, inklyuziv, birlashgan vakillik boshqaruvini barpo etishga qaratilgan sa'y-harakatlarni rag'batlantirishga tayyor ekanligi, shuningdek, diplomatik vakolatxonalar xavfsizligini ta'minlash zarurligini ta'kidladi. Qochqinlar masalasi, narkotik moddalarning tarqalishi va terrorizm xavfini kamaytirish chora-tadbirlari ham kun tartibidagi muhim masala o'laroq ko'rib chiqildi²³⁰. Bunday turdagi mintaqaviy geosiyosiy jarayonlar turkiy davlatlar integratsiyasi jihatidan manfaatlar kesishadigan eng muhim nuqta sifatida mamlakatlarning istiqboldagi yaqin hamkorligining darajasini ham belgilab beradi.

Afg'onistonda respublika hukumatining inqirozidan so'ng Markaziy Osiyodagi turkiy davlatlar o'z tashqi siyosatining afg'on yo'nalishda o'z milliy manfaatlarini talqini nuqtayi nazaridan bir qancha qat'iy qadamlar tashlashdi. "Tolibon" vakillari O'zbekistonga (yuksak darajada) va Turkmanistonga (vazir o'rinbosari maqomida) safar qildi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekistonning rasmiy vakillari turli darajada Kobulga tashrif buyurdilar²³¹.

2021-yilning dekabr oyida Turkiy Davlatlar Tashkiloti ekspertlar hamjamiyati Afg'oniston bo'yicha muhim masalalar yuzasidan Istanbulda uchrashishdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va

²²⁹ Joint Statement of the Council of Foreign Ministers of the Cooperation Council of Turkic Speaking States on the Situation in Afghanistan", Organization of Turkic States, September 27, 2021. https://turkicstates.org/en/haberler/statement-of-the-council-of-foreign-ministers-of-the-cooperation-council-of-turkic-speaking-states-on-the-situation-in-afghanistan_2344

²³⁰ O'sha manba.

²³¹ Фиёсов М., Ризоён Ш. «Толибон» ҳаракатининг Афғонистондаги бир йиллик «хукмронлиги» // Uz Analytics (USA). Date of publication: 26.08.2022. URL: <https://www.uzanalytics.com/siyosat/10328/>

mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining o‘rinbosari A.Ne‘matov o‘z chiqishida Turkiy Davlatlar Tashkiloti a‘zolari afg‘on xalqiga gumanitar yordam ko‘rsatishda birgalikdagi sa‘y-harakatlarni birlashtirishi va muvofiqlashtirishi zarurligini ta’kidladi²³². Davlatimiz vakilining so‘zlariga ko‘ra, Afg‘onistonda ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda turkiy davlatlarning kuchlarini birlashtirish va salohiyatidan foydalanish muhim, bu esa uning iqtisodiy rivojlanishiga va mintaqaviy hamda global iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etishiga hissa qo‘shadi. Ter-miz shahridagi Afg‘oniston yoshlarini o‘qitish ta’lim markazida eng ko‘p talab qilinadigan sohalarida afg‘on yoshlarini tayyorlash ishlarida hamkorlik qilish maqsada muvofiq hisoblanadi. Bu esa mamlakatda sog‘liqni saqlash, ta’lim, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va boshqa sohalarida malakali kadrlarning keskin tanqisligini boshdan kechirayotgan Afg‘oniston uchun nihoyatda dolzarbdir.

2023-yil 15-iyun sanasida Turkiyaning O‘zbekistondagi elchisi Olgan Bekar O‘zbekiston Prezidentining Afg‘oniston bo‘yicha maxsus vakili I.Er-gashev bilan uchrashuv vaqtida O‘zbekistonning Afg‘oniston masalasidagi harakatlari e’tirof etgan holda ularni qo‘llab-quvvatlashini ma’lum qilgan edi²³³. Ushbu dalillar Afg‘oniston borasida Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasida o‘xshash yondashuvlar strategiyasini ishlab chiqish mumkinligini kun tarti-biga olib chiqmoqda.

Afg‘oniston masalasida Turkiya va O‘zbekiston mamlakatlarining tash-qi siyosatidagi ritorikaga o‘xshash tendensiyaga ega mamlakat sifatida Turkmaniston namoyon bo‘ladi. Turkmaniston Afg‘onistonning shimolida-gi millatlar bilan etnik jihatdan juda yaqin davlat. Turkmaniston xalqaro maydonda betaraflik tamoyilini e’lon qilish bilan birga tarixan Afg‘oniston-dan kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni tan olishdan bosh tortgan yagona Markaziy Osiyo davlati edi. Turkmaniston o‘zining bu pragmatik qadamini 1996-yil 4-oktyabrda afg‘on muammosiga bag‘ishlangan Markaziy Osiyo va Rossiya prezidentlarining Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida

²³² Экспертное сообщество Организации тюркских государств обсудило возможные направления сотрудничества по Афганистану // Adolat.uz URL: [https://adolat.uz/ru/artic-les/ekspertnoe-soobshestvo-organizacii-tyurkskih-gosudarstv-obsudilo-vozmozhnye-nap-ravleniya-sotrudnichestva-po-afganistanu](https://adolat.uz/ru/articles/ekspertnoe-soobshestvo-organizacii-tyurkskih-gosudarstv-obsudilo-vozmozhnye-nap-ravleniya-sotrudnichestva-po-afganistanu)

²³³ Турция отметила роль Узбекистана в установлении устойчивого мира в Афганистане. CentralAsia.news. 15.06.2023 // URL: <https://centralasia.news/22273-turci-ja-otmetila-rol-uzbekistana-v-ustanovlenii-ustojchivogo-mira-v-afganistane.html>

Turkmaniston Prezidenti S.Niyozov ishtirok etishdan bosh tortish orqali namoyon qilgan. “Turkmaniston betaraf davlat bo‘lgani uchun Afg‘oniston bilan bog‘liq muhokamalarda ishtirok etmaydi. Afg‘onistonda sodir bo‘layotgan har qanday jarayon afg‘on xalqining ichki ishi bo‘lib, biz “Tolibon” tomonidan xavf yo‘q deb hisoblaymiz. Qolaversa, bir yildan ortiq vaqt mobaynida turkman-afg‘on chegarasining toliblar tomonidan nazorat qilina-yotgan qismi eng tinch hudud hisoblanadi”, – deya Turkmaniston siyosiy elitasi o‘z fikrini ma’lum qilgan edi. Bu fikrlarni izohlar ekan, rossiyalik xalqaro munosabatlar bo‘yicha ekspert E.Dmitriyeva: “Turkmaniston betaraf mamlakat o‘laroq “Tolibon”ning avvalgi hokimiyati bilan ham samarali tashqi aloqalar olib borgan. Afg‘oniston bilan 800 km umumiy chegaraga ega ekanligini hisobga olsak, Ashxobodning Kobul bilan pragmatik munosabatlarini tushunish mumkin edi²³⁴”, – deya Turkmanistonning masalaga geosiyosiy yondashuvini ochib bergan.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda Turkmaniston qo‘shnisi bilan ehtimoliy mojarolarni bartaraf etuvchi samarali tuzilmalar yaratmadi. Masalan, O‘zbekiston ehtimoliy tahdidni Moskva va Toshkent o‘rtasida harbiy kelishuvlar mavjudligi va mojaroga qo‘shilish istiqboli bilan bartaraf qilish potentsiali o‘laroq, betaraf Turkmaniston jangarilar tomonidan himoyasiz qurbon sifatida ko‘rilishi mumkin edi. Biroq, 2014-yildan boshlab “Tolibon” harakatining qayta faollashuvi, Turkmaniston chegaralarida ham ba’zi to‘qnashuvlarning yuz berishi Ashxobodni mintaqa davlatlari bilan afg‘on masalasida hamkorlik stoliga o‘tirishga majbur qildi. Bu fikrlarni Janubiy Koreyaning Xanyan universiteti eksperti va Markaziy Osiyo bo‘yicha yetakchi mutaxassis Fabio Indeo “...qo‘shni Afg‘onistondan kelayotgan xavfsizlik tahdidlari Turkmanistonni mintaqadagi boshqa ishtirokchilar bilan yanada yaqinroq hamkorlik qilishga undaydi²³⁵”, – deya Turkmaniston tashqi siyosatining turkiy davlatlar faoliyati bilan uyg‘unlashuvini izohlagan edi.

Darhaqiqat, keyingi bosqichlarda Turkmanistonning Afg‘oniston masalasidagi ijobiy tashqi siyosati yirik iqtisodiy rejalari bilan ham bog‘liq

²³⁴ Dmitrieva E.L. The influence of the Taliban coming to power in Afghanistan on the situation in the republics of Central Asia. Condensed abstract // Russia and the Moslem World, 2022, № 2 (316), P. 66-67.

²³⁵ Угроза Талибана может склонить Туркменистан выйти из изоляции. <https://cabar.asia/ru/ugroza-talibana-mozhet-sklonit-turkmenistan-vyjti-iz-izolyatsii> (Murojaat qilingan sana 09.05.2024)

bo‘lib, bu bog‘liqlik 2017-yilning 15-noyabr kuni Ashxobod shahrida Afg‘oniston bo‘yicha 7-mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasining vazirlar yig‘ilishida ham o‘z ifodasini topdi. Konferensiyada rasmiy Ashxobod Afg‘onistondagi barqarorlikka mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, keng ko‘lamli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, odamlarning moddiy farovonligi, ta‘lim va madaniy darajasini yuksaltirish bilangina erishish mumkinligini ta’kidladi²³⁶.

Bu kontekstda TAPI loyihasining muhimligi bilan bir qatorda nisbatan yosh bo‘lgan TAP energetika loyihasining amalga oshishi ancha realroq ko‘rinadi. TAP loyihasi Turkmaniston, Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasida 2018-yilda kelishuvga muvofiq uch davlat o‘rtasidagi 500 kilometr uzunlikdagi 500 kilovoltga yaqin elektr uzatish liniyalarini qurishni o‘z ichiga oladi. Loyihani moliyalashtirish ishlariga Osiyo Taraqqiyot Banki ham sarmoya kiritgan. Reja muvaffaqiyatli yakunlansa Turkmanistondan Afg‘oniston va Pokistonga 4000 megavattgacha elektr quvvatini o‘tkazish mumkin bo‘ladi²³⁷. “Tolibon” hokimiyatga kelgandan keyingi dastlabki bayonotlaridan biri 18-avgust kuni aynan TAPI loyihasi xususida bo‘lib, matbuot kotibi S.Shahin toliblar ushbu loyihalarni to‘liq qo‘llab-quvvatlashini va shartlarni bajarilishini ma’lum qildi²³⁸.

Bugungi kunda ham “Tolibon” muvaqqat hukumati va Ashxobod o‘rtasida samarali muloqot va iqtisodiy sohadagi hamkorlik davom etmoqda. Turkmaniston tashqi ishlar vazirligining xabar berishicha, Afg‘oniston sanoat va savdo vaziri vazifasini bajaruvchi Nuriddin Azizi boshchiligidagi delegatsiya 2024-yil 4–6-mart kunlari Turkmaniston-Afg‘oniston savdo aloqalarini kengaytirish bo‘yicha biznes-forum va boshqa tadbirlarda ishtirok etish uchun Ashxobodga tashrif buyurdi²³⁹. Tashrif mobaynida “Tolibon” delegatsiyasi bilan transchegaraviy daryolardan foydalanish, gidro-texnik inshootlar qurilishidagi hamkorlik masalalari, xalqaro huquq asosida

²³⁶ Шершах А. Афганистан и страны Центральной Азии в контексте обеспечения региональной безопасности // Международные отношения. – 2022. № 3. – P.52.

²³⁷ Power Interconnection Project to Strengthen Power Trade Between Afghanistan, Turkmenistan, Pakistan:

<https://www.adb.org/news/power-interconnection-project-strengthen-power-trade-between-afghanistan-turkmenistan-pakistan>

²³⁸ Will a Taliban Victory Advance TAPI?, Atlantic Council <https://www.atlanticcouncil.org/blogs/energysource/will-a-taliban-victory-advance-tapi/>

²³⁹ Turkmaniston Tashqi ishlar vazirligi: OAV uchun bayonot // <https://www.mfa.gov.tm/ru/news/4399>

hamda yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat, tenglik va oshkoralik tamoyillari asosida suv resurslarini boshqarishning tegishli mexanizmlarini yaratish orqali transchegaraviy daryolar bo'yida joylashgan barcha davlatlarning manfaatlarini so'zsiz hurmat qilish masalalari ham muhokama qilindi.

Bir so'z bilan aytganda, Turkmaniston Afg'onistonni ham gumanitar yordam yuborgan, ham xalqaro loyihalarga jalb qilgan holda mintaqaviy integratsiyaga qo'shish tarafdoriligini ko'rsatmoqda. Rasmiy Ashxobodning nazarida bu davlat xalqaro hamjamiyatdan yakkalanib qolsa, radikallashuv va terrorizm qaytadan kuchayishiga olib keladi. Shu omillar xususiyatidan kelib chiqib Ashxobod ma'muriyati abadiy betaraflik maqomidan kelib chiqqan holda iqtisodiy loyihalar orqali Afg'onistonni mintaqaviy hamkorlikka jalb qilish uchun harakat qilmoqda. Bundan anglash mumkinki, Ashxobod Afg'oniston masalasida Anqara va Toshkent bilan mushtarak qarashlarga ega.

Afg'oniston bilan umumiy chegaralarga ega bo'lmagan Qozog'iston to'g'ridan to'g'ri tahdidlar, xavfsizlik bilan bog'liq ulkan qo'rquvlarga ega emas. Bu Ostonaga Afg'oniston masalasida birmuncha vazminroq tashqi siyosat yurgizish imkonini taqdim etadi. Qolaversa, Qozog'iston va Afg'oniston aholisi o'rtasida etnik o'ziga xoslik yo'qligi Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga nisbatan xolis munosabatda bo'lishga imkon yaratdi. Qozog'istonning Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosatining aynan shunday geosiyosiy omiliga to'xtalgan tojikistonlik soha ekspertlari Sh.Rizoyon va M.G'iyosovlar o'z monografiyalarida "Qozog'iston bilan Qirg'iziston Afg'oniston yo'nalishida o'rtacha faollik ko'rsatmoqda. Bunday siyosat Ostona bilan Bishkekning Afg'oniston bilan umumiy chegarasi yo'qligiga asoslanadi, chunki ular qo'shnichilikning ikkinchi halqasida turibdi"²⁴⁰, deya izoh berishgan edi.

Chegaralari kesishmasligiga qaramasdan, Ostona Kobulni asosiy iqtisodiy sheriklari qatorida ko'radi. 2007-yilda "Qozog'iston-Afg'oniston savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya"sining tuzilishi ikkitomonlama munosabatlarning keyingi progressiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi²⁴¹. Qozog'iston Afg'onistondagi konchilik sohasidagi

²⁴⁰ Ризоён Ш.Ш., Гиёсов М.Ф. Афганистан до и после возвращения Талибан. Монография. – Душанбе: Дониш, 2023. – С.103.

²⁴¹ У.Окимбеков Торгово-экономические отношения Афганистана со странами Центральной Азии: состояние и перспективы // Kazakhstan Journal of Foreign Studies. – 2022№ 1–2 (3–4). – С.133.

tenderlarda muntazam ishtirok etish bilan birga, turli infratuzilmalarni tiklash: kasalxona, maktab, politsiya mahkamalari qurulishi, yo'llarni ta'mirlash va qurilish mollari savdosi bo'yicha peshqadam davlatlardan biri hisoblanadi. Asosiy faktlardan biri shuki, Qozog'iston Afg'onistonning turkiy davlatlar orasida Turkiyadan keyingi eng yirik donori hisoblanadi²⁴².

2021-yil hokimiyat tizgini "Tolibon" qo'liga o'tganidan keyin ham Ostona Kobul bilan hamkorlik aloqalarini davom ettirishini ma'lum qildi. Qozog'istonning manfaatlaridan kelib chiqib iqtisodiy va madaniy jihatdan Afg'onistonga chuqur kirishga urinayotganini sezish qiyin emas. Ostona Afg'onistondagi savdo-iqtisodiy sohalarda O'zbekistonni ham ortga qoldiradigan ko'rinadi. Qozog'iston Afg'onistonning eng ko'p tovarlarini sotib oluvchi mamlakatlarning kuchli o'ntaligiga kirsa, eng ko'p import mamlakatlar qatorida beshinchi o'rinda turadi. Shuningdek gumanitar diplomatiya siyosatining tarkibiy qismi o'laroq "Tolibon"ning yangi ma'muriyatiga Qozog'iston 5 ming tonna don mahsulotlarini yubordi²⁴³.

O'zbekistonning rasmiy nashrlaridan biri "Qozog'istonning Afg'onistondagi iqtisodiy diplomatiyasi tobora kuchayib bormoqda" nomli maqolasida aytilishicha, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 1 milliard dollarga yetgan, kelgusida tovar ayirboshlash hajmini 3 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilmoqda, shuningdek Afg'oniston eng ko'p un mahsulotlarini aynan Qozog'istondan sotib oladi²⁴⁴. Bu raqamlar bilan Markaziy Osiyo davlatlari ichida Afg'oniston Qozog'iston bilan eng ko'p savdo qilayotganligi oydinlashadi.

Qozog'iston Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXSHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashi huzuridagi Afg'oniston bo'yicha ishchi guruhi a'zosi va SHHTga a'zo davlatlarning Afg'onistonni qayta tiklash masalasidagi sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha aloqa guruhi tashabbuskorlaridan biri hisoblanadi²⁴⁵. Qozog'istonlik mashhur jurnalist Ayturgan Azimjonovanning fikrlariga ko'ra, ikki mamlakat munosabatlaridagi iliq tendensiyanı namoyish qiluvchi muhim voqealar

²⁴² Қазақстан Республикасы мен Ауғанстан Ислам Республикасы https://dk.kz/ref_2785

²⁴³ دیدار نماینده ویژه قزاقستان با معاون نخستوزیر طالبان <https://bit.ly/2XJzgf1>

²⁴⁴ <https://kun.uz/ru/news/2023/08/03/ekonomicheskaya-diplomatiya-kazaxstana-v-afganistane-nabirayet-oboroty>

²⁴⁵ Лаумулин М. Безопасность Центральной Азии в контексте ситуации в Афганистане после 2014 года. // Центральная Азия и Кавказ. – 2013. Том 16, выпуск 3. – С. 7-23.

2023-yilda ro'y berdi. Shu yilning aprel oyida "Tolibon" diplomatlariga Ostona'dagi Afg'oniston elchixonasini boshqarishga ruxsat berilgan edi. 2023-yil 29-dekabrda Qozog'iston Tashqi ishlar vazirligi "Tolibon" harakatini 18 yildan buyon bo'lib kelgan taqiqlangan terroristik guruhlar ro'yxatidan chiqardi²⁴⁶.

Bulardan xulosa qilib ayta olamizki, Qozog'iston ham xuddi Turkiya va O'zbekiston singari Afg'oniston xalqiga ko'maklashish va turmush tarzini yaxshilash maqsadida har yili gumanitar yordam doirasida birlamchi oziq-ovqat, kiyim-kechak va dori vositalarini yuborish bo'yicha peshqadam. Qozog'istonning kelgusidagi rejaları O'zbekiston va Afg'oniston orqali yirik iste'mol bozori bo'lmish Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqishdir. Qozog'istonning Afg'oniston hududidan o'tadigan savdo yo'llarini diversifikatsiya qilish orqali savdo aloqalarini rivojlantirish va Afg'onistonda barqarorlikka erishish mumkinligiga ishonadi. Bu borada mintaqaviy tashabbuslarni doimiy rag'batlantiradi. Iqtisodiy integratsiya mintaq xavfsizligiga ijobiy hissa qo'shishi aniq. Shu bois Ostona boshqa turk dunyosi davlatlari kabi Afg'oniston tinchligiga ham samarali hissa qo'shmoqda. Bu holat global tinchlik, farovonlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida o'zaro hamkorlik va birdamlikni taqozo etadi. Shubhasiz Ostonaning bu qadami Markaziy Osiyo va Afg'oniston bo'yicha mintaqaviy rivojlanish maqsadlarini o'zida jamlagan holda ushbu mamlakatning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuvi uchun platforma taklif qilmoqchiligi O'zbekiston va Turkiyaning Afg'oniston masalasidagi qarashlariga o'xshash pozitsiya yana bir turkiy davlat bo'lmish Qozog'istonda ham shakllanganligi kelajakda Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida afg'on muammosi yuzasidan yagona konsensus vujudga kelishini oydinlashtirmoqda.

Qirg'iziston ham Afg'oniston bilan bevosita tutash nuqtalarga ega bo'lmasa-da, Tojikiston bilan chegaralarining mo'rtligi tufayli Afg'onistondan bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimoliy tahdidlardan to'liq himoyalangan. Afg'oniston hududidan Tojikiston orqali o'tib, 1999 va 2000-yillarda Qirg'iziston janubiga bostirib kirishga uringan O'zbekiston Islomiy Harakatining (O'IH) faoliyatlari ham ushbu fikrlarimizni dalillashga xizmat qiladi²⁴⁷. Mamlakat 2001-yil dekabridan 2014-yil iyunigacha poytaxt Bishkek

²⁴⁶ Азимжанова А: Казахстан исключит «Талибан» из списка запрещенных организаций: <https://kz.kursiv.media/2023-12-29/zmzh-kazakhstan-mid/>

²⁴⁷ Шершах А. Афганистан и страны Центральной Азии в контексте обеспечения региональной безопасности // Международные отношения. – 2022. № 3. – P.50.

tashqarisidagi “Manas” xalqaro aeroportida AQSHning yirik aviabazasi va yuklarni tashish maqsadida tashkil etilgan tranzit markazi joylashgan edi²⁴⁸. Shunday ekan, Afgʻonistonning bugungi ahvolini belgilovchi bir qancha fundamental omillar mavjud boʻlib, ular Markaziy Osiyoning qolgan davlatlari kabi Qirgʻiziston kelajagiga ham taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bu omillar, Afgʻonistondagi narkotik moddalar ishlab chiqarish, terrorizm va kiberolamdagi ekstremizm tahdidi, noqonuniy qurol savdosi kabi yirik muammolarni oʻz ichiga oladi. Shunga qaramasdan, rasmiy Bishkek tashqi siyosatida afgʻon vektori qolgan turkiy davlatlarning tashqi siyosati bilan solishtirganda Afgʻonistonga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsir etuvchi mexanizmlarga ega emasligi tufayli afgʻon muammosi Qirgʻiziston tashqi siyosatida toʻliq idrok qilinmaydi. Buning sababini izohlar ekan, Qirgʻiziston sobiq tashqi ishlar vaziri Muratbek Imanaliyev Qirgʻizistonning Afgʻoniston bilan umumiy chegarasi yoʻqligi tufayli ushbu tendensiya shakllanganligini, Afgʻonistonning qirgʻiz zaminidan geografik uzoqligi, til va madaniy tafovutlar xavf haqidagi tasavvurlarni biroz xiralashtirishini aytgan²⁴⁹. Ikkinchidan, Qirgʻizistonda koʻplab qoʻshnilaridan farqli oʻlaroq, etnik manfaatlar yoʻq, Badaxshonda (Afgʻoniston) etnik qirgʻizlar bor, ammo nihoyatda kamligi tufayli bu jiddiy muammo emas. Uchinchidan, Qirgʻizistonning Afgʻonistondagi savdo-iqtisodiy manfaatlarini aniqlash qiyin. Ikki oradagi iqtisodiy munosabatlar shunchalik zaifki, ularni keng muhokama qilib boʻlmaydi.

Qirgʻiziston hukumati Pokiston yoki Afgʻoniston shimolidagi turli terrorchi va ekstremistik guruhlariga aʼzo boʻlgan qirgʻizlardan xavotirga tushishi mumkin. Aynan shu omil Bishkek maʼmuriyatining Afgʻonistondagi voqealar rivojini ehtiyotkorlik bilan kuzatishga undaydi. Afgʻonistonda radikalashuv va terrorizm kuchaysa, jarayon Fargʻona vodiysiga ham yoyilishining ehtimoliy ssenariysi Qirgʻiziston uchun mudofaa choralari kuchaytirishni taqozo etgan. Turkiyalik professor, Anqara inqiroz va siyosiy tadqiqotlar markazi eksperti Mehmet Seyfettin Erolning fikricha, yuqoridagi xavfsizlik masalasini bartaraf etish maqsadida Qirgʻiziston KXSHT doirasida Rossiya bilan yaqinlashishga harakat qiladi²⁵⁰. Biroq, Qirgʻiziston mu-

²⁴⁸ Kyrgyz Officials Meet With Taliban Acting Foreign Minister in Kabul

<https://thediplomat.com/2021/09/kyrgyz-officials-meet-with-taliban-acting-foreign-minister-in-kabul/>

²⁴⁹ Imanaliyev M. The Afghan queasion and Kyrgyzstan: // <https://valdaiclub.com/a/highlights/afghan-question-and-kyrgyzstan/>

²⁵⁰ Erol M. S., Doğacan B. “Afganistan Merkezli Gelişmelerin Türkiye ve Türk Dünyası Jeopolitiğine Etkileri” // Demokrasi Platformu Dergisi, 10 (35). – 2021. S.26

dofta choralarini kuchaytirgan holda ko'plab boshqa sohalar singari harbiy masalada ham Rossiya qaram bo'lib qolishdan ehtiyot bo'lishi kerak. Bu o'rinda Bishkek ma'muriyati tashqi siyosatida Turkiya va turk dunyosi omili (Markaziy Osiyo) ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. 2021-yilning oktyabr oyi oxirida Qirg'iziston Milliy xavfsizlik qo'mitasi Turkiya 40 ta zirhli texnika va hozirgi kunda juda mashhur bo'lib ulgurgan "Bayraktar TB2" uchuvchisiz uchadigan dronlariga buyurtma berganliklarini ma'lum qildi²⁵¹. Bu harakatni yuqoridagi fikrlarimizni aniq ko'rsatkichi sifatida qabul qilishimiz mumkin bo'ladi.

Qirg'iziston boshqa turkiy davlatlar qatori Afg'onistondagi tinchlik va barqarorlikdan foydalanadi. Qirg'iziston Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon 8 ta davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo shartnoma va memorandumlar imzolangan²⁵². Bu birinchi navbatda iqtisodiy omil bilan baholansa, ikkinchidan xavfsizlik yondashuvlari ham amaliy xarakter kasb etadi. Qirg'iziston rahbariyati iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish yo'lida dastlabki taxminiy qadamlarni qo'yishdan avval siyosiy zamin tayyorlashga kirishdi. Prezident Sadir Japarov 2023-yil BMT minbaridan turib, xalqaro hamjamiyatdan afg'on xalqiga har tomonlama gumanitar yordam ko'rsatishni so'radi²⁵³. Afg'oniston yirik xalqaro infratuzilma loyihalari tranziti uchun qulay geosiyosiy hududda joylashganligi tufayli, ularning amalga oshirilishi nuqtayi nazaridan o'z foydalarini doirasida Bishkekni qiziqtiradi. Bu borada eng muhim loyiha Qirg'iziston Respublikasidan Janubiy Osiyo mamlakatlariga energiya eksportini, shuningdek, bir qancha transport yo'laklarini o'tkazish dasturlarini o'z ichiga oluvchi CASA-1000 loyihasidir²⁵⁴. Dunyodagi eng yirik toza gidroenergetika resurslariga ega davlatlardan biri sifatida Qirg'iziston uchun bu loyiha ulkan ahamiyatga ega. 2024-yilda Qirg'iziston mavjud voqelikni yaxshi anglab yetgan holda Kobulga bir necha marta ekspertlar va rasmiylardan iborat delegatsiyalarini yubordi.

²⁵¹ Kirgizistan semalari Bayraktar TB2 SIHA'lara emanet: <https://www.savunmatr.com/kirgizistan-semalari-bayraktar-tb2-sihalar-emanet/>

²⁵² Министерство иностранных дел Кыргызской Республики: Договорно-правовая база https://mfa.gov.kg/ru/main/page?page_id=565&prefix=%2Fdm%2Fposolstvo-kyrgyzskoy-respubliki-v-islamskoy-respublike-afganistan-5ee07623470da

²⁵³ Д. Каримов. Кыргызстан готов развивать взаимовыгодные связи с Афганистаном <https://rg.ru/2024/02/07/afganskaia-ottepel.html>

²⁵⁴ CASA-1000: Расширяя доступность к чистой энергии в Центральной Азии и Южной Азии <https://www.casa-1000.org/ru/home-ru/>

Geografik nuqtayi nazaridan Afgʻonistondan birmuncha olisroqda joylashgan turkiy dunyoning muhim qismi boʻlgan Ozarbayjon ham Afgʻoniston masalasida qizgʻin qarashlar sohibi boʻlmasa-da, iqtisodiy va xavfsizlik nuqtayi nazaridan ushbu masalani kun tartibidan hech qachon butunlay olib tashlamagan. 2001-yildan boshlangan ISAFning operatsiyalarida Ozarbayjon ham ishtirok etgan²⁵⁵. Ozarbayjonning Afgʻoniston bilan transport sohasidagi hamkorligining natijasi sifatida beshta davlatni oʻz ichiga oluvchi, qiymati 2 milliard dollarga teng boʻlgan yirik “Lapis-Lazuli” transport koridorining faoliyatini esga olish mumkin. Ushbu loyiha Afgʻonistonni Yevrosiyo mintaqasi bilan bogʻlovchi yagona makroloyiha ekanligi bilan ahamiyatlidir. 2018-yilning 13-dekabrida Hirot shahrida ushbu yoʻlakning ilk faoliyatiga start berildi. Shu kuni 9 ta ogʻir yuk mashinalardan iborat karvon Serxatobodga (Turkmaniston), undan Bokuga yoʻl oldi²⁵⁶. “Lapis-Lazuli” yoʻlagining muvaffaqiyatli ishga tushirilishi mintaqa davlatlarining iqtisodiy farovonligiga kuchli turtki berishi hamda tabiiy resurslar va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini eksport qilish, qolaversa yangi ish oʻrinlari yaratish imkoniyati tufayli Afgʻonistondagi vaziyatni tezroq barqarorlashtirishga xizmat qilishi mumkinligi bilan amaliy xarakterga ega.

2024-yilning boshida Ozarbayjon tarixda birinchi marta Kobulda oʻz elchixonasini ochdi. Bu haqda “Tolibon” rasmiylaridan biri Abdul Qahhor Balxiy oʻzining ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida eʼlon qildi²⁵⁷. Bu “Tolibon” hokimiyatga kelishi sharoitida muzlab qolgan diplomatik munosabatlarning qayta boshlanganini anglatadi. Qozogʻiston va Ozarbayjonning “Tolibon”ni taqiqlangan roʻyxatdan chiqarishi va ular bilan yaqinlashishi turkiy dunyoda yangi geosiyosiy jarayonlar boshlanayotganligini koʻrsatadi. Oʻz navbatida, “Tolibon” ham Togʻli Qorabogʻ masalasida mutlaq Ozarbayjon tarafdaligini maʼlum qilgan edi.

²⁵⁵ Азербайджан готов вносить свой вклад в операции в Афганистане и после 2014 года – глава Минобороны <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/569828>

²⁵⁶ Стартовала первая перевозка по транспортному маршруту Lapis Lazuli <https://1news.az/news/20181213045646491-Startovala-pervaya-perevozka-po-transportnomu-marshrutu-Lapis-Lazuli>

²⁵⁷ قَتَمَ السَيِّدُ الْهَامَ مُحَمَّدُوفِ سَفِيرِ جَمْهُوِيَةِ اَازَرْبَيْجَانِ فِي كَابُولِ فِي لِقَاءِ تَعَارُفِي مَعَ وَزِيرِ الْخَارِجِيَةِ الْمَوْلَوِي أَمِيرْ خَانْ مَتَقِي الْأَوْرَاقِ الرَّسْمِيَّةِ لَوِزَارَةِ الْخَارِجِيَةِ الْأَزَرْبَيْجَانِيَّةِ حَوْلَ افْتِتَاحِ السَّفَارَةِ فِي كَابُولِ إِلَى وَزِيرِ الْخَارِجِيَةِ الْأَفْغَانِيَّةِ. <https://twitter.com/QaharBalkhi/status/1758040086329901567>

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Afgʻoniston beqarorlik markazi sifatida tilga olinar ekan, bu beqarorlik geografiyasi uning oʻzi bilan cheklanib qolmasdan, undagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bevosita turk dunyosiga taʼsir oʻtkazadi.

Ikkinchidan, Afgʻonistondagi nizolar turk dunyosi mamlakatlarining iqtisodiy, migratsion va xavfsizlik sohasidagi baʼzi faoliyatlari uchun tahdid sifatida baholanishiga sabab boʻladi. Ushbu bahsli masalalarda turkiy dunyo gumanitar diplomatiya va iqtisodiy integratsion chaqiriqlar orqali Afgʻonistonni hamkorlikka chorlashga urinmoqda.

Uchinchidan, Afgʻoniston mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga qoʻshilishi bilan, turk dunyosining geosiyosiy va geoiqtisodiy roli, xususan Turkiy Davlatlar Tashkilotining ahamiyati yanada ortadi.

Toʻrtinchidan, Turkiya Afgʻonistonning oldingi hukumatining muhim siyosiy liderlari bilan yaqin hamkorligi, koʻp sonli afgʻon migrantlariga ega ekanligi va xalq diplomatiyasining ulkan imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ham Afgʻonistonda asosiy oʻyinchilardan biri boʻlib qoladi.

Beshinchidan, soʻnggi yillarda Afgʻoniston masalasida eng koʻp uchrashuvlar tashkil qilgan mamlakat sifatida Oʻzbekiston “Tolibon”ning min-taqa va dunyo hamjamiyati bilan samarali muloqot oʻrnatishi uchun kelajakda ham oʻzini muhim platforma sifatida taqdim etishi uning bu mamlakatga nisbatan pragmatik tashqi siyosatini ochib beradi.

Oltinchidan, Afgʻoniston Turkmaniston tashqi siyosatida oʻzining yirik uglevodorod zaxiralarini Janubiy Osiyoning chanqoq bozorlariga olib chiquvchi tranzit mamlakat sifatida namoyon boʻlishi sharoitida, bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning rasmiy Ashxobod tomonidan kelajakda ham diqqat bilan kuzatilishiga sabab boʻladi.

Yettinchidan, Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Ozarbayjonning Afgʻoniston bilan bevosita chegaralari yoʻqligiga qaramasdan, ularning tashqi siyosati qolgan turkiy davlatlarning yondashuvi bilan mos keladi. Bu xulosani Ozarbayjonning 2024-yilda oʻz elchixonasini Afgʻonistonda tashkil qilishi va Qozogʻistonning “Tolibon”ni taqiqlangan terroristik tashkilotlar roʻyxatidan chiqarishi bilan dalillashimiz mumkin boʻladi.

3.3. “Tolibon” muvaqqat hukumati davrida O‘zbekiston tashqi siyosatida Afg‘oniston masalasi

O‘zbekiston pragmatik va o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan o‘z tashqi siyosatida qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar alohida ustuvorlikka ega. Mamlakat tashqi siyosatida 137 km umumiy chegaraga ega bo‘lgan afg‘on zaminidagi voqealar ham Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida mustaqillik yillaridanoq tashqi siyosatimiz kun tartibining asosiy masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlarini tarixiy xronologik jihatdan uch bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqich 1991–2001-yilgacha bo‘lib, ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilganiga qaramasdan Afg‘onistondagi fuqarolar urushi, O‘zbekistondagi mustaqillik yillari qiyinchiliklari natijasida munosabatlarda sezilarli samaradorlik kuzatilmagan davr hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da, O‘zbekiston doimiy tarzda “afg‘on masalasi”ni mintaqaviy tashkilotlar va BMT sammitlarida tilga olib kelgan. Ikkinchi bosqich 2001–2021-yillarni o‘z ichiga olib, O‘zbekiston ham boshqa davlatlar qatori 2001-yildan so‘ng Afg‘onistonda AQSH qo‘llab-quvvatlagan respublika tashkil etilganidan keyin u yerda o‘z elchixonasini qayta ochish orqali munosabatlarni tiklashga harakat qildi. Bir qator shartnomalar imzolaniib, iqtisodiy loyihalar amalga oshirildi. “Tolibon” 2021-yilda Afg‘onistonda nazorat o‘rnatganidan so‘ng boshlangan har ikki tomonning hukumatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga intilishini uchinchi bosqich sifatida tavsiflash mumkin.

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga bag‘ishlangan deyarli barcha siyosiy uchrashuvlarga Afg‘oniston vakillarini jalb etish, mintaqadagi vaziyatga daxldor barcha davlatlar bilan rasmiy Kobul o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali O‘zbekiston o‘zi uchun xavfsizlik belbog‘ini yaratishi bilan birga, mamlakat geosiyosiy ahamiyatini ham mustahkamlashga harakat qiladi. O‘zbekistonning Afg‘oniston masalasidagi tashqi siyosiy faolligi rasmiy Toshkentning mintaqadagi rolini oshiribgina qolmay, Afg‘onistondagi mavjud muammolarni hal qilishda ham amaliy ahamiyatga ega.

2021-yil 15-agust kuni “Tolibon” tomonidan hokimiyatning egallanishi O‘zbekiston tashqi siyosatida bir qator dilemmalarni keltirib chiqargan edi. Sababi bu voqealar so‘nggi yuz yil ichida Afg‘onistonni modernizatsiya qilish harakatlarining to‘rtinchi bor muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin-

ligi bilan birga O‘zbekistonning ham Afg‘onistondagi iqtisodiy loyihalari kelajagini xavf ostida qoldirishi mumkin edi. Geosiyosiy nuqtayi nazardan, AQSHning Afg‘onistonni tark etishi uning doimiy harbiy ishtiroki bilan so‘nggi yigirma yil davomida o‘rnatilgan siyosiy konfiguratsiyani izdan chiqardi²⁵⁸. “Tolibon”ning hokimiyatga kelishi yangi xavflarni: infratuzilma, energetika sohasidagi loyihalar kelajagi yirik makromintaqa – Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo uchun birdek xavf ostida qoldirdi. Qolaversa, bu jarayonlar O‘rta Sharq va Kaspiy mintaqasi uchun yangi geosiyosiy va geoiqtisodiy savollarni paydo qildi. Ushbu aytilgan hududlar O‘zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik nuqtayi nazaridan eng muhim mintaqalar ekanligi O‘zbekiston uchun “Tolibon” muvaqqat hukumati bilan yangicha pragmatik muloqot o‘rnatishni kun tartibiga olib keldi. Ayni shu vaziyat sharoitida Afg‘oniston masalasida O‘zbekistonning Turkiya Respublikasi bilan hamkorlik masalasi muhim hisoblanadi. Xorijning bir qancha “aql markazlari” ushbu yo‘nalishda hamkorlik masalasiga to‘xtalib o‘tishgan. Turkiyaning Afg‘oniston muammosini hal qilish, mintaqa davlatlari bilan bu muammo yuzasidan maslahat uchrashuvlarini yaratishga mo‘ljallangan “Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari” nomli platforma sammitlarida O‘zbekiston bir necha marta qatnashgan. 2021-yil 25-sentyabr kuni Turkiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri M.Chovusho‘g‘li o‘zbekistonlik hamkasbi A.Komilov bilan tushgan rasmini “Twitter” ijtimoiy tarmog‘iga joylab, Afg‘oniston bo‘yicha O‘zbekiston bilan hamkorlik qilishini aytib, istiqboldagi loyihalar haqida so‘z ochgan edi²⁵⁹. Bu “Tolibon” harakati hokimiyatga kelganidan so‘ng yangraga ikki davlat hamkorligini muvofiqligini ko‘rsatishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Markaziy va Janubiy Osiyoda barqaror rivojlanishning kelajakdagi istiqbollari qo‘shni Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Barqaror, keskin vaziyatlarni keltirib chiqarmaydigan va rivojlanish tomon ketadigan Afg‘oniston Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi muhim vositachi hamda globallashuv jarayonida tarixiy Ipak yo‘lini tiklashda nihoyatda ahamiyatli o‘rinni egallashi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining Afg‘oniston mojarosini hal qilishdagi

²⁵⁸ Ergashev B. Afghanistan as one of the key priorities of Uzbekistan’s foreign policy in the post-soviet period: retrospective and perspective // Kazakhstan Journal of Foreign Studies. №1–2 (3–4), 2022. – P.110.

²⁵⁹ چاۋوش اوغلو: با ازبکستان درباره افغانستان همکاری خواهیم کرد.

Anadolu.agency <https://www.aa.com.tr/fa/2375686>

imkoniyatlarini real baholash, ushbu mamlakatda tinchlik o'rnatish va keng qamrovli mintaqalararo hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhimdir²⁶⁰.

Ayni paytda, rasmiy Ashxobod yoki Tehron bilan solishtirganda, rasmiy Toshkent 2021-yil avgustida Kobulda hokimiyat tepasiga kelgan "Tolibon" hukumati bilan muomala qilishda biroz vazminroq siyosat yuritdi. Qatar, Turkiya va Rossiya kabi O'zbekiston ham "Tolibon" diplomatlarini hatto muvaqqat ishlar vakili darajasida ham akkreditatsiya qilishga shoshilmadi²⁶¹. Bu O'zbekiston Respublikasi hukumatiga nisbatan tashqi ishtirokchilar tomonidan tanqid qilinishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish uchun zarur edi. Bundan tashqari, Afg'oniston "Tolibon"ning hokimiyatni egallashi fonida mamlakatni tark etayotgan qochqinlarning ommaviy oqimi Markaziy Osiyo davlatlari uchun jiddiy muammo sifatida namoyon bo'ldi. Toshkent boshpana izlovchilarning ehtimoliy yo'nalishiga aylanmaslik uchun qat'iy harakat qildi. Chunki O'zbekiston chegarasini noqonuniy kesib o'tish qonun bilan taqiqlangan. Qolaversa, 1951-yilgi "Qochoqlar to'g'risida"gi konvensiya va 1967-yilgi qochoqlar haqidagi Protokolni Markaziy Osiyo davlatlari orasidan faqat O'zbekiston ratifikatsiya qilmagan²⁶². Shunday bo'sa-da, 2021-yil 15-avgust kuni 84 nafar afg'on harbiylari O'zbekiston chegarasini kesib o'tayotgan paytda qo'lga olindi²⁶³. Ularni vaqtinchalik boshpana va oziq-ovqat bilan ta'minlashdan tashqari yaradorlariga maxsus tibbiy yordam ham ko'rsatildi. Ularni vatanlariga qaytarish bo'yicha muzokaralar o'tkazilganligi ma'lum. O'zbekiston chegarasiga o'tgan afg'onlar orasida afg'on o'zbeklari yetakchisi marshal A.Do'stum va Balx viloyati sobiq hokimi A.M.Nur ham borligi haqida xorij matbuotlarida iddaolar paydo bo'ldi. Ammo bu O'zbekiston rasmiylari tomonidan ma'qullanmagan.

A.G'ani rejimi qulagandan so'ng O'zbekiston yangi hokimiyat bilan amaliy muloqotga kirishdi va qisqa tanaffusdan so'ng savdo operatsiyalari uchun chegarani ochdi. O'zbekiston tashqi ishlar vaziri va Prezidentning Af-

²⁶⁰ Xudoyorov X. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari bog'lanishida O'zbekistonning pragmatik tashqi siyosati // *ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW*. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-03-03->, 2023. – B.509.

²⁶¹ Князев А. А. Афганская политика Узбекистана: сравнительный контекст // *ПРОБЛЕМЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. Постсоветские исследования*. Т.6. № 3, 2023. – P.270.

²⁶² Protocol relating to the Status of Refugees United Nations, Treaty Series, vol. 606, p. 267. <https://treaties.un.org/doc/Publication/MTDSG/Volume%20I/Chapter%20V/V-5.en.pdf>

²⁶³ Королева Н. Афганские солдаты уходят от талибов в Узбекистан. 15.08.2021 <https://www.dw.com/ru/afganskie-soldaty-uhodjat-ot-talibov-v-uzbekistan/a-58868914>

g'oniston bo'yicha maxsus vakili Kobulga bir necha bor tashrif buyurishdi. O'zbekiston Respublikasi vakillari Kobul bilan ikkitomonlama munosabatlarning asosiy yo'nalishlari, asosan savdo masalalari bo'yicha, shuningdek, Pokiston portlariga chiqish imkoniyatini beruvchi Kobul orqali Peshovargacha bo'lgan temir yo'l qurilishi bo'yicha muloqotni qayta boshladilar. O'zbekiston "Tolibon"ning o'z ichki modelini mintaqaga eksport qilish niyati yo'qligi haqidagi va'dalariga ishongan holda G'arb davlatlarining Kobulga qo'ygan talablarini rasman qo'llab-quvvatlash bilan birga, unga nisbatan keskin bosimlarga qarshiligini bir necha bor bildirgan. Hamkorlikdan o'zaro manfaatdorlik ko'rsatgan holda, ikkala tomon ham Afg'onistonning elektr energiyasidan qarzi va afg'on harbiy texnikasi taqdiri kabi muammoli masalalarga e'tibor qaratmaydi. O'zbekiston singari xalqaro e'tiborni tortmaslikka urinayotgan Turkmaniston ham "Tolibon" hukumati bilan do'stona munosabatlar o'rnatish siyosatini olib bormoqda.

"Tolibon" hokimiyatni egallaganidan ikki kun o'tib, 2021-yil 17-avgust kuni O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi Afg'oniston bo'yicha rasmiy bayonot berdi. Unda: "Biz afg'on qo'shnilarimizning inklyuziv hukumat tuzishga tayyorligi haqidagi bayonotlarini qo'llab-quvvatlaymiz. Umid qilamizki, mamlakatdagi siyosiy masalalar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini hisobga olgan holda umumiy konsensus asosida tinch yo'l bilan amalga oshiriladi"²⁶⁴ deyilgan. O'zbekiston mavjud real vaziyatni hisobga olib, mamlakat xavfsizligi uchun amaliy choralarni ham amalga oshirishni esdan chiqarmagan holda, 2021-yilning 10-avgust kuni Rossiya va Tojikiston qurolli kuchlari Afg'oniston chegarasidagi "Xarbmaydon" harbiy poligonida o'tkazgan harbiy mashg'ulotlarida O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ham 2,5 ming nafar harbiy xizmatchisi ishtirok etdi. Ushbu qo'shma mashg'ulotlar tahdidlar to'g'ridan to'g'ri transchegaraviy xususiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda tashkil qilingan edi.

Chet el kuchlari Afg'onistondan chiqib ketishi bilan bir paytda ko'plab davlatlar Afg'onistondagi elchixonalarini yopib, diplomatlarini chaqirib olgan sharoitda O'zbekistonning Kobul va Mozori Sharifdagi diplomatik vakolatxonalari odatdagidek ishlashda davom etmoqda. Bu borada O'zbekistonning tashqi siyosati muhokama qilinar ekan, afg'on vektori pragmatizmga asoslanganligini alohida qayd etish lozim. "Tolibon" hokimiyatga kelga-

²⁶⁴ МИД Узбекистана сделал официальное заявление по Афганистану. UzDaily. – Ташкент, 17.08.2021. // <https://www.uzdaily.uz/ru/post/63000> (murojaat sanasi 03.02.2024).

nidan so'ng ikki o'rtada ko'plab muzokaralar amalga oshirildi. O'zbekiston rasmiylari Kobul bilan bir qatorda bu mamlakatning boshqa shaharlariga, jumladan, Mozori Sharifga tashriflar qilishdi. Jumladan, 2021-yil 8-oktyabr kuni O'zbekiston sobiq tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Afg'onistonga tashrif buyurib, "Tolibon" rasmiylari bilan uchrashdi. Uchrashuvda "Tolibon" vakillari Afg'oniston va O'zbekiston bir-biri bilan diniy, tarixiy va madaniy aloqalarga ega ekanligini, Afg'oniston hududidan O'zbekistonga qarshi tahdid yoki xavf sifatida foydalanishga yo'l qo'ymasliklarini va O'zbekistonning Afg'onistondagi loyihalari xavfsizligi to'liq ta'minlanishini ta'kidladi. O'zbekiston tomoni esa gumanitar inqirozga qarshi Kobulni qo'llab-quvvatlash, Mozori Sharifdagi Mavlono Jaloliddin aeroportining ishlashida yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi²⁶⁵. Darhaqiqat, Toshkentning Afg'onistondagi manfaatlari orasida iqtisodiy sohaga doir loyihalarini himoya qilish yoki xalqaro tashkilotlar ko'magi bilan ushbu ishlarni davom ettirish mamlakatimizning tashqi siyosatidagi ustuvor vazifalardanidir. Bugungi kunda Toshkent Afg'onistonga eng ko'p elektr energiya manbalarini yetkazib beruvchi muhim strategik sheriklar qatorida ko'rib chiqiladigan mamlakat. Shuningdek, u o'z tovarlarini Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo mamlakatlari, ayniqsa, Pokiston yo'nalishida (Karachi va Gvadar dengiz portlari) transport aloqalarini kengaytirishdan manfaatdor.

Amerika boshchiligidagi xorijiy qo'shinlar Afg'onistonni tark etishi mamlakatdagi siyosiy inqiroz qatorida iqtisodiy inqirozni ham keltirib chiqardi. "Tolibon" hukumatining tan olinmasligi mamlakatga chet davlatlardan keladigan gumanitar yordamlarning yanada qisqarishiga sabab bo'ldi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda Afg'onistonning yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmi 2020-yilga nisbatan 20,7 foizga kamaygan va 14,3 milliard dollarni tashkil qilgan. Bu salkam 40 million aholiga ega Afg'onistonning qariyb 85 foizi qashshoqlik chegarasida yashayotganidan dalolat beradi²⁶⁶. Bu sharoitda O'zbekiston do'st va birodar afg'on xalqiga bir necha marta issiq kiyimlar, un va yog'mahsulotlari, go'sht, guruch, tibbiyot buyumlari va texnologiyalari kabi birlamchi zarur mahsulotlarni o'z ichiga olgan katta hajmdagi gumanitar yordam karvonlarini yubordi. 2022-yil dekabr oyida O'zbekiston Prezidentining Afg'onis-

²⁶⁵ "ازبکستان برای همکاری با دولت طالبان اعلام آمادگی کرد"

<https://ufuqnews.com/archives/188235>

²⁶⁶ Kim E. WFP Afghanistan: Situation Report <https://uz.kursiv.mecdia/2023-04-19/oon-85-naseleniya-afganistana-nahoditsya-za-chertoj-bednosti/> 2023.04.19

ton bo'yicha maxsus vakili Ismatulla Ergashev shu yilning o'zida yettita insonparvarlik yordami yetkazilganini ma'lum qilgan edi²⁶⁷. 2021-yilda besh marta shunday gumanitar yordam yuborilgan edi. Xususan, bu tadbirlar Afg'onistondagi gumanitar vaziyatni yaxshilashga birmuncha hissa qo'shish bilan birga, "Tolibon" hukumati bilan ijobiy hamkorlik uchun O'zbekistonning doimo tayyorligini ko'rsatadi. O'zbekiston gumanitar yordam ko'rsatuvchi asosiy mamlakat bo'lishi bilan birga o'z hududidan xalqaro hamjamiyat va davlatlarga insonparvarlik yordamlarini tashish, BMT agentliklarining insonparvarlik yordam tashkilotlari va uning tashkilot vakillari uchun mamlakat aeroportlari, temir yo'llari, eng muhimi, Amudaryo orqali Afg'oniston va O'zbekiston o'rtasidagi 1982-yil ochilgan Termizni Hayraton shahri bilan bog'lovchi "Do'stlik ko'prigi"dan foydalanishga ruxsat berdi. Afg'onistonga olib kelingan jami gumanitar yuklar va birlamchi mahsulotlarning uchdan bir qismi aynan O'zbekiston hududi orqali import qilinmoqda. 2021-yilda Termiz shahrida afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro xabning ishga tushirilishi bu boradagi yana bir muhim qadam bo'ldi, bu esa afg'on xalqiga markazlashgan, manzilli va tizimli xalqaro gumanitar yordamni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi²⁶⁸. Bu omillar O'zbekistonni Afg'oniston yo'nalishida kelajakda ham muhim davlatlardan biri sifatida namoyon qilish bilan birga, uning bir qator ustunliklarga egaligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Afg'onistonni Markaziy Osiyoning bir qismi deb hisoblaydi va uning mintaq bilan jiddiyroq integratsiyalashuvidan manfaatdor. Mamlakat prezidenti Sh.Mirziyoyev afg'on muammosi faqat afg'on xalqining emas, butun Markaziy Osiyoning muammosi ekanligiga bir necha marta urg'u bergan²⁶⁹. Ushbu mamlakatda tinchlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi platformalarni kengaytirish, ko'plab qo'shnilar va yirik kuchlarni ushbu platformalarga jalb qilishga urinib keladi. Jumladan, O'zbekiston mintaqadagi SHHTning roli va ahamiyati sezilarli darajada oshishi istiq-

²⁶⁷ Yuldashev A. The factor of Afghanistan in the foreign policy of Uzbekistan // "Journal of social sciences and humanities research fundamentals. Vol 4, Issue 1. 2024. – P.29. 21-35

²⁶⁸ Каримов А. Узбекистан остаётся приверженным прагматичной модели взаимоотношений с Афганистаном. Посольство Республики Узбекистан в Турецкой Республике // <https://www.uzembassy.org.tr/news/4133?language=uz>

²⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi: 27.03.2018. <https://president.uz/oz/lists/view/1601>

bolini yaxshi tushungan holda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkilotning kuzatuvchi davlatlari ishtirokida “SHHT-Afg‘oniston” formatida oliy darajadagi uchrashuvlarni muntazam o‘tkazish tashabbusini ilgari surdi. Ushbu format doirasidagi uchrashuvlarni Toshkentda tashkil qilishga chaqirdi²⁷⁰. Ushbu kuzatuvchi davlatlar orasida Turkiya ham bor. 2022-yil oktyabr oyida Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan “Osiyoda hamkorlik va ishonch chora-tadbirlarini mustahkamlash” bo‘yicha kengashning VI sammitidagi nutqida Afg‘onistondagi vaziyatni hal etish, bu yerda tinch hayotni tiklash muhimligiga e‘tibor qaratdi. O‘z nutqida u Osiyo mintaqasida o‘zaro bog‘liqlikni, birinchi navbatda, ishlab chiqarish va logistika zanjirlari va transport yo‘laklarini yaratish orqali mustahkamlashni taklif qildi²⁷¹.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning Afg‘oniston bo‘yicha xalqaro tadbirlar o‘tkazayotgan yagona mamlakati bo‘lib, so‘nggi 5 yil ichida 3 ta shunday yirik tadbir o‘tkazildi. O‘sha tadbirlarning oxirgisi Toshkentda 2022-yilning 25–26-iyul kunlari “Afg‘oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” nomi ostida bo‘lib o‘tdi. Unda 20 dan ortiq mamlakatdan 100 ortiq delegatsiya ishtirok etdi²⁷². Yangi konferensiyaning ushbu davrdagi afg‘on mavzulariga bag‘ishlangan ko‘plab xalqaro tadbirlardan farqli jihati, unda Afg‘onistondagi xavfsizlik masalalariga emas, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va iqtisodiy loyihalarning Afg‘oniston barqarorligidagi ahamiyatiga asosiy e‘tibor qaratilishida edi. Konferensiyada “Tolibon” vakillaridan tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Amirxon Muttaqiy boshchiligidagi delegatsiya ham ishtirok etdi. Bu konferensiyada Toshkent o‘z infratuzilmalari, birinchi navbatda, Afg‘onistondan Pokistonga o‘tish uchun koridor – yo‘lak sifatida foydalanish loyihalari taqdimotini o‘tkazdi²⁷³. Bundan tashqari, konferensiyaning o‘tkazilishini, birinchi navbatda, Toshkentning mamlakatdagi yangi sharoitlarda Afg‘oniston bo‘yicha muzokaralar jarayonlarida asosiy mintaqaviy tashabbuskor va vositachi rolini tiklash bo‘yicha harakati sifatida qarash kerak. Ikkinchidan, joriy yig‘ilishda 2021-yil iyul oyida

²⁷⁰ Шавкат Мирзиёев призвал ШОС к диалогу с новой властью в Афганистане. Gazeta uz. (Uzb) // URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/09/17/sco-president/>

²⁷¹ Yuldashev A. The factor of Afghanistan in the foreign policy of Uzbekistan // Journal of social sciences and humanities research fundamentals. Vol 4, Issue 1. 2024. – P.29. 21-35

²⁷² Князев А. А. Афганская политика Узбекистана: сравнительный контекст // Постсоветские исследования. 2023, N.3. Т.6. – С.272.

²⁷³ Фиёсов М., Ризоён Ш. «Толибон» ҳаракатининг Афғонистондаги бир йиллик «хукмронлиги» // Uz Analytics (USA). Date of publication: 26.08.2022. URL: <https://www.uzanalytics.com/siyosat/10328/>

bo‘lib o‘tgan Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lash bo‘yicha konferensiya natijasida boshlangan jarayonni tiklash vazifasi qo‘yildi. Rossiyalik mashhur afg‘onshunos olim A.A.Knyazev O‘zbekistonning Afg‘oniston bo‘yicha pragmatik siyosatini yuqori baholab o‘tgan²⁷⁴. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 17-sentyabr kuni Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan SHHT – KXSHT formatidagi uchrashuvda razvedka xizmatlari, SHHT MATT Ijroiya qo‘mitasi va KXSHT Kotibiyati o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishni taklif qilgani rasmiy Toshkentning masalaga jiddiy yondashayotganligini amalda isbotlaydi. Ushbu uchrashuvda Sh.M.Mirziyoyev Afg‘onistonning yangi hukumatini tan olishga bosqichma-bosqich o‘tishni ham taklif qildi, buning uchun SHHT va KXSHTga umumiy strategiya ishlab chiqish taklif qilindi²⁷⁵. O‘zbekiston davlat rahbari Afg‘onistonda allaqachon boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini davom ettirish zarurligini ham ta’kidlagan. Ayni paytda, O‘zbekistonning “Tolibon”ga talablari ham yo‘q emas. O‘zbekiston rahbariyati Xalqaro hamjamiyat vakillari singari “Tolibon”ni ayollarning to‘liq ta’lim olish huquqini tiklashga, Afg‘onistondagi turli etnik va mafkuraviy guruhlarini qamrab olgan inklyuziv hukumatni shakllantirishga, barcha terrorchi guruhlar bilan aloqalarni uzishiga yana bir bor urinib ko‘rdi.

2023-yil 7-mart kuni O‘zbekiston poytaxtida Afg‘onistonga qo‘shni davlatlar maxsus vakillarining birinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston, Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston va Turkmaniston, Rossiya vakillari ishtirok etgan yig‘ilishni O‘zbekiston Prezidentining Afg‘onistondagi maxsus vakili I.Ergashev ochib berdi. Yig‘ilishda qatnashgan yettita davlat vakillari Afg‘onistondagi “Tolibon” muvaqqat hukumatidan xalqaro hamjamiyat oldida bergan inson huquqlarini hurmat qilish, ayollar va qizlarning ta’lim olishiga qo‘yilgan cheklovlarni olib tashlash, inklyuziv hukumat tuzish bo‘yicha va’dalarini bajarishni talab qildilar²⁷⁶. O‘z navbatida, uchrashuvda Amerika Markaziy bankidagi Afg‘oniston mablag‘larini afg‘on xalqiga qaytarish bugungi og‘ir iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar sharoitda katta yordam bo‘lishi haqida fikr bildirildi. “Afg‘oniston Markaziy banki-

²⁷⁴ Князев А. А. Афганская политика Узбекистана: сравнительный контекст // Постсоветские исследования. 2023, N.3. Т.6. – С.272.

²⁷⁵ O‘sha manba.

²⁷⁶ Rizahe N. Tashkent Hosts Meeting of Special Representatives of Afghanistan’s Neighboring Countries. – Khama Press // <https://www.khaama.com/tashkent-hosts-meeting-of-special-representatives-of-afghanistans-neighboring-countries/> 07.03.2023

ning pullarini, ya'ni afg'on xalqining pullarini qaytarish orqali maktablarda ishlaydigan o'qituvchilar, davlat xizmatchilarining maoshlarini to'lash, aholini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish qiyin vaziyatda nihoyatda zarur", – dedi O'zbekiston Prezidenti vakili.

2023-yil 13-aprel kuni Samarqand shahrida O'zbekiston, Eron, Pokiston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va Xitoy tashqi ishlar vazirlari rahbarlari ishtirokida Afg'onistonga qo'shni davlatlar vazirlarining to'rtinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Afg'oniston muvaqqat hukumati tashqi ishlar vaziri Amirxon Muttaqiy va "Tolibon" harakatining boshqa vakillari ishtirok etdi. Tadbirda O'zbekistonning asosiy pozitsiyasi "Biz Afg'onistonning yaqin qo'shnilari sifatida mamlakatdagi vaziyatning tez barqarorlashuvidan boshqalarga qaraganda ko'proq manfaatdormiz" deyish orqali Afg'oniston masalasida rasmiy Toshkentning qarashlari bilan bir xil yoki o'xshash fikrli davlatlar hamkorligini oshirish ekanligi namoyon bo'ldi. Uchrashuvda tomonlar Afg'onistonda afg'on jamiyatining barcha qatlamlari manfaatlarini aks ettiruvchi inklyuziv va keng boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish muhimligini yana bir bor ta'kidladilar. Shuningdek, yig'ilish ishtirokchilari Afg'onistonda terrorizm va xavfsizlik bilan bog'liq vaziyat jiddiyligicha qolayotganini alohida ta'kidlab, terrorizmga qarshi kurashish va qo'shni davlatlar o'rtasida xavfsizlikni ta'minlash sohasida hamkorlikni mustahkamlash hamda terrorizmga qarshi yagona frontni rivojlantirish tarafdori ekanliklarini tasdiqladilar²⁷⁷.

O'zbekiston Afg'onistonda barqarorlikka erishish uchun faqatgina siyosiy uchrashuvlarni tashkil qilish emas, bu mamlakatning tinch kelajagi uchun asos bo'ladigan iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini ilgari surish zarurligini yaxshi tushunadi. Bugun O'zbekiston uchun eng muhimi Afg'onistonda urush to'xtatilishi, tinch va barqaror muhit yaratilishidir. Ana shunday holatgina O'zbekistonning bepoyon Janubiy Osiyo yo'nalishida, jumladan, qo'shni Afg'onistonda ham ko'plab geostrategik iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun qulay zamin yaratadi. O'zbekiston tranzit va eksport salohiyatini keng ko'lamda rivojlantirish imkoniyati natijasida 2 milliarddan ortiq aholi istiqomat qiladigan, yalpi ichki mahsuloti 3,5 trillion dollarga teng bo'lgan Janubiy Osiyo davlatlari biz uchun yirik iqtisodiy bozor bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'z navbatida, Janu-

²⁷⁷ Ametbek D. Türk Dünyasında Jeopolitik Öznelerin Devamlılığı ve Etkileşimi // Uluslararası Kriz ve Siyaset Araştırmaları Dergisi. Vol. 2, N.2, 2018. – S.160.

biy Osiyo davlatlari Afg'oniston va O'zbekiston orqali Shimoliy Osiyoning boshqa mamlakatlari, shuningdek, Rossiya va Xitoy bozorlariga ham chiqishi mumkin. Bu ijobiy imkoniyat Afg'onistonni yirik tranzit davlatga aylantiradi, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun ko'plab yangi ish o'rinlari va aholi bandligi masalasi terrorizm va narkotik moddalar savdosi muammosi uchun ham yechim bo'la oladi. Afg'onistonga xalqaro investitsiyalar oqimini oshiradi.

Mazkur logistik yo'nalish doirasida "Mozori Sharif – Kobul – Peshovar" temir yo'li loyihasi to'liq amalga oshirilgach, Pokistondan O'zbekistonga yuk tashish uchun 35 kun o'rniga 3–5 kun sarflanishining kutilishi mintaqa uchun ushbu loyihani yana jozibador qilishi kerak²⁷⁸. Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, Toshkentdan Karachiga konteyner tashish narxi istiqboldagi loyiha amalga ohsa taxminan 1400–1600 dollarni tashkil qiladi, hozirgi "Toshkent-Bandar Abbos" yo'nalishida Eron portlarining xizmat haqi esa 2600–3000 dollar turadi. Bu jihatdan "Transafg'on" magistral loyihasi ham vaqt jihatdan, ham mablag' jihatidan mintaqa uchun muhim. Rossiya-Ukraina kelishmovchiligi tufayli G'arbning sanksiyalari ostida Rossiya ham Qora dengiz yo'nalishida muammolarga uchrangani O'zbekiston ilgari surayotgan "Transafg'on" temir yo'l tashabbusiga rasmiy Moskvaning ham qiziqish bildirayotgani loyihaning amalga oshishi reallikdan xoli emasligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga kelib chiqib ushbu tashabbuslarning muallifi sifatida O'zbekiston va uning davlat rahbari ko'plab ilmiy markazlarda tilga olinmoqda. Markaziy Osiyoda barqarorlik, tinchlik, qo'shnilar bilan suv va chegara muammolarini hal qilish bo'yicha lider sifatida prezident Sh.Mirziyoyev tilga olinayotganligi O'zbekiston Yevrosiyodagi xalqaro munosabatlarning joriy arxitekturasida katta o'ringa ega ekanligini namoyish etadi. "Bilim karvoni" ilmiy tadqiqot markazining eksperti Nargiza Umarova bu holatga quyidagicha ta'rif bergan: "... keyingi qisqa vaqt ichida Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan davlatimizda yangi geosiyosiy va geoiqtisodiy muhit yaratildi. Hozirgi kunda "Yangi O'zbekiston" atamasi mintaqada alohida geosiyosiy omil – "Shavkat Mirziyoyev fenomeni" paydo bo'lganini bildiradi. Mintaqaning tashqi qiyofasi ham ijobiy tomonga o'zgardi. Shavkat Mirziyoyev O'zbe-

²⁷⁸ Проект Трансафганской железной дороги может обойтись в \$8,2 млрд. «Газета.uz» [06.12.2022] URL <https://www.gazeta.uz/ru/2022/12/06/afghan-transit/>

kistonning afgʻon masalasiga yondashuvini quyidagi oddiy, ammo aniq soʻzlar bilan ifodaladi: “Afgʻoniston xavfsizligi – Oʻzbekiston xavfsizligi demakdir”²⁷⁹.

2023-yil 29–30-oktyabr kunlari Bosh vazir oʻrinbosari J.Xoʻjayev boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi Afgʻonistonga tashrif buyurdi. Tashrif mobaynida toliblar hukumatidagi bir qator shaxslar bilan uchrashuvlar boʻlib, Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi, ogʻir va yengil sanoat, farmatsevtika, transport-logistika kabi muhim sohalarida Afgʻonistonga har tomonlama yordam berishga tayyorligini taʼkidladi²⁸⁰. Ikki tomon tovar aylanish hajmini 3 milliard AQSH dollariga yetkazish uchun mavjud potentsiallardan toʻliq foydalanishga kelishib oldi. Abdul Gʻani Barodar ushbu muzokaralar chogʻida Oʻzbekiston orqali oʻtayotgan afgʻon yuklari uchun oʻta qimmat tranzit toʻlovlari qoʻyilayotganidan xavotir bildirdi va uni kamaytirishga chaqirdi. U maxsus imtiyozli tariflarni koʻrib chiqishni taklif qildi va Afgʻoniston bilan samimiy savdo aloqalarini oʻrnatishni ragʻbatlantirdi. U yaqin kelajakda Oʻzbekistonga Afgʻoniston eksporti sezilarli darajada oshishini nazarda tutib, Kobul Oʻzbekistondan kimyo mahsulotlari, bugʻdoy va qishloq xoʻjaligi texnikasi kabi turli mahsulotlarni import qilishga ishtiyoqi borligini taʼkidladi. Bu jihatdan kelib chiqsak kelajakda Afgʻon tadbirkorlari va yuk tashuvchi haydovchilar uchun viza tartiblarini soddalashtirish boʻyicha muhim qarorlar qabul qilinadi. Oʻzbekiston va Afgʻoniston orasidagi iliqlik hamkorlik soʻnggi yillarda ijobiy darajada oʻzgargan. Oʻtgan yilning yanvar-sentyabr oylarida 1300 nafardan ortiq Afgʻoniston fuqarolari tadbirkorlik va savdo-sotiq maqsadida Oʻzbekistonga tashrif buyurgan. Va bu tashriflar boʻyicha Turkiya va Xitoydan keyin uchinchi oʻrinni qoʻshni Afgʻoniston egallashi Oʻzbekistonning Afgʻoniston boʻyicha yondashuvining salmoqli va chuqur oʻylanganligini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston tarafining “Tolibon” bilan munosabatlarida keyinchalik sovuqchilik keltirib chiqarishi mumkin boʻlgan holatlar ham yoʻq emas. Markaziy Osiyoning barcha respublikalarida suv tanqisligi kuchayib borayotgan bir paytda toliblarning Qoʻsh tepa kanali loyihasi vaziyatni keskinlashtirishi

²⁷⁹ Умарова Н. Коридоры больших ожиданий: как Узбекистан выходит из транспортного тупика? <https://cabar.asia/ru/koridory-bolshih-ozhidanij-kak-uzbekistan-v-yhodit-iz-transportnogo-tupika>

²⁸⁰ Uzbekistan and Afghanistan aim to increase their trade volume to reach \$3 billion annually. CPR—Center for Progressive Reforms. <https://proreforms.uz/publications/uzbekistan-and-afghanistan-aim-to-increase-their-trade-volume-to-reach-3-billion-annually-142>

mumkin. Kanal qurib bitkazilgach, mintaqaning asosiy qon tomiri bo'lgan Amudaryo suvining uchdan bir qismi Afg'onistonning shimoliy rayonlari tomon yo'naladi. "Tolibon" hukumati Balx viloyatidagi ushbu megaloyihani 2022-yil mart oyidan boshladi. Qo'shtepa kanalning uzunligi 285 km, eni 100 metr, chuqurligi 8,5 metrni tashkil etadi²⁸¹. Loyihaning taxminiy qiymati 700 million dollariga teng.

Kanal Afg'onistondagi Balx viloyatining Kaldar tumanidan boshlanib, Juzjon viloyati, Faryob viloyatining Andxoy tumanigacha cho'ziladi. Juda murakkab loyihalar va uzun masofalaridan kelib chiqib, O'zbekiston tomonining ba'zi takliflari, jumladan, betonlashtirish ishlari amalga oshirilmaganini suv manbalarining noo'rin sarfini yuzaga keltiradi.

Xalqaro huquq normalariga ko'ra, ma'lum suv yo'llarida joylashgan barcha davlatlar transchegaraviy daryolardan foydalanish huquqiga ega. Biroq, Afg'oniston BMTning suv konvensiyasini ham, Markaziy Osiyoda suvdan foydalanish bo'yicha mavjud hujjatlarni ham ratifikatsiya qilmagan. Bu yerda eng nozik jihat shundaki, Afg'onistonning Amudaryodan foydalanish huquqini hech kim inkor eta olmaydi, lekin uning global va mintaqaviy kelishuvlarda ishtirok etmasligi "Tolibon" uchun suvdan foydalanish bo'yicha hech qanday huquq va majburiyatlarni yuklamaydi. Bu ikkitomonlama munosabatlarda keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday qilib, O'zbekiston tashqi siyosatidagi eng ustuvor masala sifatida Afg'onistonda Janubiy Osiyo va Yaqin Sharqqa qaratilgan infratuzilma, transport va energetika loyihalarini amalga oshirishni boshlash imkonini beradigan shart-sharoitlarni yaratish bo'lib qolmoqda. Demak, turk dunyosi davlatlari mintaqaviy farovonlikni o'rnatish mas'uliyatini o'z zimmasiga olib, mintaqaviy barqarorlikka intilishadi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston Afg'onistonning xalqaro hamjamiyatdan ajratilishiga qarshi va bu holat o'sha davlatdagi radikallashuvni tezlashtiradi va mintaqaga terrorizmining eksport qilinishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Shu sababli Afg'onistonni xalqaro integratsiya jarayonlariga jalb qilish masalasi deyarli barcha mintaqaviy va xalqaro uchrashuvlarda O'zbekiston tomonidan ilgari suriladi. Shuning uchun Afg'oniston tinchlik jarayoni bo'yicha rasmiy Toshkent faol harakat qilmoqda. Bu holat Turkiya va O'zbekistonning Afg'oniston muammosiga munosabati o'xshashligini ko'rsatadi. Anqara-Toshkent juft-

²⁸¹ Масштабный разлив усиливает опасения по поводу афганского канала Кош-Тепе: Узбекистан проводит «тихую водную дипломатию»? <https://russian.eurasianet.org/> Apr 4, 2024

ligiga ko‘ra, Afg‘oniston tinchligini kuchli turk dunyosining kaliti sifatida ko‘rish mumkin. Shu sababli ikkala davlat ham Afg‘onistonga qaratilgan voqealarga konstruktiv munosabatda va o‘xshashlik xususiyatiga ega. Masalan, O‘zbekiston va Turkiya Afg‘oniston masalasida o‘z pozitsiyalarini bir-biriga yaqinlashtirishi mumkin. 2021-yil 15–16-iyul kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro konferensiyada Pokiston bosh vaziri Turkiyani afg‘on kelishuviga jalb qilishni taklif qildi. O‘zbekiston va Turkiyaning Afg‘oniston yo‘nalishidagi o‘zaro hamkorligi ularning hamkorligiga yanada katta strategik xususiyat berishi mumkin²⁸². Istiqboldagi hamkorliklar terrorizmga qarshi birgalikda kurashishni ham taqozo qiladi. Terrorchilik tashkilotlari tomonidan yollangan ko‘plab markaziy osiyolik, jumladan, O‘zbekiston fuqarolari Turkiya hududi orqali Suriyaga jo‘nab ketgani holda, ularni yurtimizga qaytarish, ular bilan reabilitatsiya ishlarini olib borishda ushbu hamkorlik yo‘nalishi nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Xulosa qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin: O‘zbekistonning Afg‘oniston masalasiga joriy yondashuvlari samarali tashqi siyosat asoslarini yaratishi bilan xarakterlanadi. Afg‘onistonda “Tolibon”ning hokimiyati o‘rnatilgach mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, O‘zbekistonning afg‘on masalasiga doir bir qator tashqi siyosiy omillar kun tartibiga chiqdi. Masalan, Afg‘onistonda mavjud barcha siyosiy kuchlar, unga qo‘shni bo‘lgan davlatlar va Afg‘onistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldor bo‘lgan yetakchi davlatlar bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish bo‘yicha muloqot o‘rnatish masalasi har qachongidan-da dolzarblikka ega bo‘ldi. Afg‘on mojarosini hal qilish bo‘yicha ko‘plab mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan muloqotdan ko‘ra ikki va uchtomonlama formatlarga tayanish boshlandi. Shuningdek, O‘zbekiston Afg‘onistonning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda, tadbirkorlik va savdo yo‘nalishida loyihalarni qo‘llab-quvvatlash borasida ulkan amaliy tajribaga ega ekanligi jihatdan ko‘plab davlatlar O‘zbekiston tajribasini o‘rganish va u bilan hamkorlik qilishga qiziqish bildirmoqda. O‘zbekiston Afg‘oniston bilan chegaradosh davlat sifatida iqtisodiy loyihalardan ikkala tomon birdek manfaatdor bo‘lib, bu borada yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqish davr talabiga aylanmoqda.

²⁸² Толипов Ф. Узбекистан-Турция: в ожидании результатов от стратегических взаимоотношений. – CABAR.asia 21.07.2021. URL: https://cabar.asia/ru/uzbekistan-turt-siya-v-ozhidanii-rezultatov-ot-strategicheskikh-vzaimootnoshenij#_ftn2

O'zbekistonning Afg'oniston masalasi borasida ishlab chiqqan yangi tashqi siyosati 2017-yilda boshlangan va hozirda og'ir kuch sinovidan o'tmoqda. Shu bilan birga, Afg'oniston bilan o'zaro hamkorlikning yangi formatlarini izlash Afg'oniston yo'nalishida qat'iy pragmatik tashqi siyosatni amalga oshirishning o'zgarmas tamoyilidan kelib chiqish uning Janubiy va Markaziy Osiyo hududida birdek nufuzini va ahamiyatini oshirishga olib kelganligi oydinlashmoqda.

Afg'on masalasiga doir muhim masalalarni hal qilish Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida ham muntazam muhokama qilinmoqda. Bu borada O'zbekiston va Turkiya tashabbuskorlar sifatida umumiy qarashlarga ega. Bu ikki davlatning yanada bog'liqligini kuchaytirib, hamkorlikning yangi yo'nalishlariga undamoqda. Bu bilan xavfsizlik va iqtisodiy omillar tufayli TDT a'zolarining bog'liqligi yanada kuchayishini baholash mumkin.

III bob bo'yicha xulosalar

O'z global gegemonligining ta'sir doirasini yanada kengaytirish maqsadida Afg'onistonga qo'shin kiritgan Amerika 20 yillik ishg'oldan so'ng bu mamlakatni tark etib, o'ziga xos hokimiyat bo'shlig'ini yaratdi. Bu esa bir qator mintaqaviy kuch markazlarining ushbu bo'shliqni to'ldirish haqidagi rejani o'z tashqi siyosatlarining konsepsiyasi doirasida ko'rib chiqishga olib keldi. Ushbu tartibsizliklar fonida "Tolibon" 15-avgust kuni hokimiyatni qo'lga oldi va jahon hamjamiyati uchun kutilmagan ssenariyni amalga oshirdi.

"Tolibon" ham mavjud reallikni hisobga olgan holda o'z tashqi siyosatida avvalgi hokimiyatining xatolarini takrorlamaslik uchun ihotalangan muhitda emas, balki o'zaro hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat yuritishni ustuvor deb bilishini e'lon qildi. Bu borada "Tolibon"ning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida vositachi davlat bo'lishga da'vogarlardan biri sifatida Turkiya namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Turkiya rasmiylari afg'on muxolifat guruhlarini uchrashuvlar va fikr almashish uchun maydon bilan ta'minlash imkoniyatini avval ham bir necha bor ta'kidlagan.

Ushbu davrda Afg'onistondagi vaziyatlarga eng sezgir geografik nuqta sifatida nafaqat Turkiya, balki boshqa turkiy dunyo davlatlari ham yaqinlik yoki bevosita chegaralari tutashligi nuqtayi nazaridan bu masalaga daxldorligi oshdi. Xavfsizlikka oid xatarlar qo'shni hududlarga tarqalish xarakteriga ega ekan, Markaziy Osiyo davlatlari ushbu davrda yangi hukumat bilan til

topishishga harakat qilib, avvalo, o‘zlarining xavfsizlik masalalarini hamda mavjud iqtisodiy loyihalarining kelajakdagi taqdiri borasidagi dilemmalarni hal qilishni dolzarb deb hisoblaydilar.

Afg‘onistondagi noaniq siyosiy vaziyat tufayli Kobul va Anqara o‘rtasidagi munosabatlar, kelajakdagi hukumat turidan qat’i nazar, istiqbolda ham dolzarbligicha qoladi. Afg‘oniston bilan “Tolibon” davrida ham bir qancha ziddiyatli omillarning bo‘lishiga qaramasdan ijobiy dinamikani saqlab qolgan Turkiya hozir ham bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy loyihalari amalga oshirmoqda. Bu loyihalar amalga oshirishda, TIKa, Turk Qizil yarimoy jamiyati, Beshir turk gumanitar jamiyati, Hayrat gumanitar yordam uyushmasi, Turkiya Maarif jamg‘armasi kabi bir qator davlat va nodavlat tashkilotlar orqali amalga oshirilmogda.

Anqara Islomobod, Doha va “Tolibon” bilan yaqin aloqalari orqali Afg‘onistonning kelajakdagi rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Afg‘onistonning “Tolibon” boshchiligidagi yangi hukumati Turkiyaning uzoq muddatli strategiyasini hisobga olgan holda, Anqaraning rasmiy Kobul bilan munosabatlari jarayonidagi ba’zi ustuvor yo‘nalishlariga xayrixohlik bildirishi mumkin. Ularga turkiy tilli xalqlarni himoya qilish va Afg‘onistonning siyosiy hayotida ishtirok etishini ta’minlash; turk-afg‘on maktablarining faoliyatini kengaytirish; turk tuzilmalarining xayriya va iqtisodiy loyihalaridagi ishtirokiga aralashmaslik; Afg‘oniston fuqarolarining Turkiya iqtisodiyotiga sarmoya kiritishiga to‘sqinlik qilmaslik;

“Tolibon” harakatining Afg‘onistonda yetakchi siyosiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi, Markaziy Osiyoning davlatlari tashqi siyosatida ham Afg‘onistonga nisbatan umumiy yondashuvlarni eks ettirdi. Bu o‘xshash ijtimoiy idrokni quyidagicha ta’riflash mumkin:

Birinchidan, mintaqa mamlakatlari ushbu masalada o‘zlarining milliy manfaatlari doirasidan kelib chiqadi va bu davlat siyosatida belgilangan ustuvorliklarda aks etadi;

Ikkinchidan, mintaqa mamlakatlarining tashqi siyosatida afg‘on yo‘nalishidagi yondashuvlari sekin-asta transformatsiyaga uchrab, ochiq pragmatik ruhda davom etadi;

Uchinchidan, mintaqaning barcha mamlakatlari “Tolibon” hokimiyatga kelgani bois yuzaga kelgan real va ehtimoliy tahdidlar mavjudligidan xabardor. Shu sabab qarashlar umumiy lashib, bu Qirg‘izistonda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlarining To‘rtinchi maslahat uchrashuvida ham, 2022-yil 26–27-iyul kunlari Toshkentda o‘tkazilgan

Afgʻoniston masalasi boʻyicha xalqaro konferensiyada ham mintaqa mam-lakatlari rahbarlari nutqlarida tilga olindi;

Toʻrtinchidan, bu yerdagi turkiy davlatlar iqtisodiy loyihalar va gumani-tar yordam hajmini oshirish orqali Afgʻonistondagi muammolarning tashqa-riga chiqmasligi uchun faol harakat qilishmoqda.

Bundan tashqari Afgʻoniston masalasida rasmiy Anqara va Toshkent oʻxshash idrokka ega. Qolaversa, Oʻzbekiston ham, Turkiya ham oʻzlari-ning geosiyosiy jihatdan yuklangan mintaqalarida joylashgan: Yaqin Sharq-dagi Turkiya, Markaziy Osiyodagi Oʻzbekiston yirik geosiyosiy jarayonlar-da ishtirok etmoqda. Hozirgi globallashuv bu ikki mintaqani turli hamkorlik aloqalari bilan bir qatorda xavfsizlik muammolari bilan ham bogʻladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Oʻzbekiston va Turkiya oʻzlarining strategik sherikligi orqali nafaqat mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlash, ikkitomonlama hamkorlikni muvaffaqiyatli rivojlantirish, balki xalqaro xavfsizlikka ham salmoqli hissa qoʻshishlari mumkin.

XULOSA

“Osiyo yuragi” degan tarixiy nomga ega bo‘lgan Afg‘oniston o‘zining noyob geosiyosiy nuqtada joylashganligi sababli ko‘plab davlatlarning e‘tibor markazida bo‘lib kelgan. O‘rganilgan mazkur ikki xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy, diniy va madaniy poydevor ustida qurilgan bo‘lib, uzoq yillik tarixga ega. Afg‘oniston va Turkiya o‘rtasidagi diplomatik hamkorlik aloqalari bundan 100 yil muqaddam do‘stlik va sheriklikka asoslangan holda boshlangan. Ushbu mustahkam aloqalarni ilmiy o‘rganish mobaynida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ikki davlatning diplomatik aloqalarini tahlil qilishda xalqaro munosabatlar tarixiga oid ko‘plab nazariyalardan foydalanish mavzuning to‘liq tushunilishi, munosabatlarni baholash va prognoz qilish hamda rivojlanish bosqichlarini ochib berishda judayam muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, qadriyatlar, madaniyatlar va o‘ziga xos bo‘lgan ba’zi tushunchalar davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga kuchli ta’sir qilishi mumkinligi jihatidan “jamoaviy o‘ziga xoslik”, ya’ni ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi ushbu munosabatlarni yaxshi tushuntiradi. Jumladan, ushbu nazariyani Kobul-Anqara munosabatlarida yaqqol sezish mumkinligi Turkiya hukumatiga AKP partiyasining kelishi va turkiy musulmon davlatlarga e’tiborni kuchaytirishi, Afg‘onistondagi xalqaro kuchlar tarkibida ishtirok etgan Turkiya qurolli kuchlari aynan partiya tashabbusi bilan harbiy operatsiyalarda qatnashmaganligi, Amerika bosimi ham ushbu qarorni o‘zgartirmaganligi kabi misollarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

2. Afg‘oniston va Turkiya davlatlarining munosabatlari tizimli-xronologik uslubdan foydalangan holda yoritilib, so‘nggi yuz yilda aloqalardagi uzilishlar, ma’lum to‘xtalishlar yoki pasayish davrlari ochib berildi.

3. Turkiya Afg‘oniston davlatchilik tizimida tarixan mintaqaviy qo‘shnilar va dunyo jamoatchiligi bilan integratsiyalashuvida muhim vositachi sifatida o‘zini namoyon qila olganligi 1936-yilda Millatlar ligasiga Afg‘onistonning a’zo bo‘lishi, Afg‘oniston tarixidagi birinchi xalqaro pakt – Saadobod paktiga aynan Turkiya taklifi bilan qo‘shilganligi, Eron bilan Afg‘onistonning uzoq yillik chegara muammosi Turkiya vositachiligida hal qilinganligi bilan asoslash mumkin.

4. 2001-yil 11-sentyabrdan keyin xalqaro terrorizmga qarshi kurashish uchun Afg‘onistonga Amerika boshchiligida ISAF xalqaro koalitsiya qo‘shinlari kiritildi. Ushbu kontingent tarkibida NATOning yagona musulmon a’zosi bo‘lmish Turkiya harbiylarining bo‘lishi unga katta mas’uliyat yuklagan holda G‘arb davlatlarining ham qo‘mondonlikni musulmon mam-

lakatga topshirish bilan bu yerdagi ziddiyatlarni taranglashishidan qochishga uringanligini ko'rsatadi. Turkiya boshidanoq xavfsizlikni ta'minlash va vayron bo'lgan infratuzilmani tiklash bo'yicha sa'y-harakatlarni jamlab, harbiy harakatlarda qatnashishdan uzoqlashgan. Bu o'rinda Turkiya qayta tiklash guruhlarini yo'lga qo'ygan holda harbiy emas, gumanitar yo'l bilan Afg'onistonni qayta qurish mumkinligini Juzjon va Saripul viloyatlarida qayta tiklash guruhlarini (PRT – Provincial Reconstruction Teams) tashkil qilish orqali amalda isbotladi.

5. Toliblarning rejimi qulagach ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi. Davlat rahbarlarining oliy darajadagi tashriflar muvaqqat hukumat davrida boshlanib, Afg'oniston Islom Respublikasi tuzilganidan keyin ham davom etdi, delegatsiyalar almashinuvi tezlashdi, o'zaro hamkorlikning qator mexanizmlari ishga tushirildi. Bu orqali ikki mamlakat munosabatlarining mustahkam huquqiy asoslari yaratilganligini aytishimiz mumkin. Xususan, Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar 2014-yilda imzolangan "Strategik sheriklik va do'stlik to'g'risida"gi bitim bilan mustahkamlanganligi, hujjatda mudofaa va xavfsizlik, sanoat, transport, savdo, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi qator muhim sohalaridagi hamkorlik masalalarini ham o'z ichiga olgan.

6. Turkiya faol tashqi siyosat yuritishga urinar ekan, bahsli yoki cho'zilgan nizolarni hal etishda vositachi davlat rolini namoyish qilib kelmoqda. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy inqiroz ham uning yaqin va uzoq qo'shnilari xavfsizligiga tahdid solmoqda. Mintaqadagi vaziyatni barqarorlashtirishdan manfaatdor bo'lgan Turkiya Afg'onistonda nizolashayotgan tomonlarni yarashtirish uchun vositachilik sa'y-harakatlarini amalga oshirish bo'yicha katta tajribaga ega. Afg'oniston-Pokiston munosabatlarini hal qilish maqsadida 2007-yilda uchtomonlama Anqara jarayoni boshlandi. Mazkur format doirasida sakkizta sammit o'tkazildi. Bundan tashqari, Anqara va Kobul tashabbusi bilan 2011-yilda Afg'oniston bo'yicha "Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni" nomli mintaqaviy tuzilma ishga tushirilib, Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash hamda uning mintaqa va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi masalalari samarali muhokama qilindi. Istanbul jarayoni unga a'zo mamlakatlarga Afg'oniston va chegaradosh mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli kelajagi bevosita kollektiv xavfsizlik tizimiga bog'liq ekanligi uning faoliyatini qayta tiklash masalasini yuzaga keltirmoqda.

7. Xorijiy qo'shinlar 2021-yil avgustida Afg'onistonni tark etishi Turkiya va turkiy dunyo uchun asosiy oqibatlari afg'on qochqinlarining nazoratsiz oqimi, giyohvand moddalar savdosi va terrorchilik faoliyatining kuchayishi, shuningdek, Turkiya uchun ichki xavf tug'diruvchi afg'on jangarilarining kurd harakati saflariga qo'shilish ehtimolini oshirishi mumkinligi bilan xarakterlanadi. Bu borada yangi tuzilgan "Tolibon" hukumati bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish, jiddiy gumanitar inqiroz oqibatlarini yumashatish, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqaro tranzit savdoga qo'shilishdan "Tolibon" va Turkiya birdek manfaatdorligini ko'rishimiz mumkin. Afg'onistonning uzoq tarixdagi ishonchli hamkori bo'lgan Turkiya yangi davrda ham Kobul tomonidan o'z maqsadlariga erishishning kafolati sifatida qaralishini taxmin qilish mumkin. Bu o'rinda nafaqat Turkiya, balki qolgan turkiy davlatlar (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Ozarbayjon) imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqot mavzusini o'rganish jarayonida ikkitomonlama munosabatlarni mustahkamlash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Birinchidan, Turkiyaning 2021-yilgacha G'arb davlatlari bilan yaqin munosabatlari Afg'onistonning hozirgi yuqori doiralarida norozilik uyg'otishi mumkin. Ikkinchidan, Turkiya yagona turkiy makonni yaratish g'oyasi doirasida Afg'onistonning shimoliy hududlarida o'z ta'sirini kengaytirishga harakat qildi. Bu borada etnik o'zbeklarning siyosiy yetakchisi Abdul Rashid Do'stum bilan yaqin munosabatlar o'rnatildi. Hozirda bir qator sobiq afg'on siyosiy liderlari Turkiyada yashashini hisobga olsak bu kelajakdagi munosabatlarga oz bo'lsa-da ta'sir qilish ehtimolini oshiradi. Ikki o'rtadagi yana bir yechilmagan muammo Turkiyaning afg'on qochqinlarni vataniga qaytarishga harakat qilishi yoki migrantlarni mamlakatga kiritmaslik uchun Eron bilan chegarada devor qurayotganligi munosabatlarning istiqboliga ta'sir qiladi.

Muayyan qiyinchiliklarga qaramay, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar barqaror yo'nalishda rivojlanmoqda. Chuqur tarixiy aloqalarning mavjudligi Turkiya Respublikasini Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishda muhim ishtirokchi sifatida ko'rish imkonini beradi, Afg'oniston esa Anqaraning mintaqaviy nufuzini hisobga olgan holda uning keng imkoniyatlariga tayanadi. Kobul bilan ikkitomonlama hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, xalqaro hamjamiyatning afg'on yo'lidagi vaziyatni barqarorlashtirishdagi sa'y-harakatlarini rag'batlantirish Turkiyaga tinchlik kafolati va G'arb davlatlari uchun ishonchli hamkor sifatida jahon sahnasida yanada mustahkam o'rin egallash imkonini beradi. Yuqoridagi barcha omillarni hisobga olgan

holda Turkiya Respublikasi ayni paytda afg'on inqirozini muvaffaqiyatli hal etishning haqiqiy dastklarini o'z qo'lida ushlab turgan davlatlardan biri bo'lib ko'rinadi. Turkiya rahbariyatining siyosiy, iqtisodiy, gumanitar va vositachilik sa'y-harakatlari uyg'unligi tufayli uzoq davom etgan afg'on mojarosi yaqin kelajakda hal etilishi mumkin. Tadqiqot mavzusini yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari qatorida turkiy omilning Turkiya Respublikasi tashqi siyosiy strategiyasining Afg'oniston yo'nalishiga o'zgarishini chuqur o'rganish, shuningdek, Turkiya Respublikasining rolini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Afg'oniston va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi (2001–2023-yy.) mavzusini o'rganish orqali quyidagi taklif va tavsiyalar shakllandi:

1. Turkiyaning Afg'onistondagi jarayonlarda ishtiroki kengayib borayotganligi, islom olamidagi nufuzi, turkiy dunyodagi mavqeyi hamda tarixiy tajribalaridan kelib chiqib Turkiya tashabbusi bilan 2011–2021-yillar davomida Afg'oniston masalasida yirik tashabbuslarni olg'a sura olgan "Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari" mintaqaviy formatning faoliyatini qayta tiklash dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu format kelajakda nafaqat Afg'oniston-Turkiya munosabatlarini, balki "Tolibon" hukumati va dunyo hamjamiyati o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

